

02  
K 96

B.I.Ganiyeva , M.X.Maxmudov,  
S.R.Arakelov , G.E.Ziyodullayeva

# KUTUBXONASHUNOSLIK



O'ZBEKISTON RESUPUBLIKASI AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

B.I.Ganiyeva, M.X.Maxmudov,  
S.R.Arakelov, G.E.Ziyodullayeva

## KUTUBXONASHUNOSLIK

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan.

5350600 - "Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik"  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan

TOSHKENT – 2020

**UDK: 02 (575.1)**

**BBK: 78.3**

**B.I.Ganiyeva, M.X.Maxmudov, S.R.Arakelov, G.E.Ziyodullayeva.  
Kutubxonashunoslik. (Darslik). – T.: «Aloqachi», 2020. 208 b.**

**ISBN 978-9943-6397-6-8**

Darslik kutubxonashunoslik fanining rivojlanish tendensiyalari, umumiy qonuniyatlari, O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalarini tarmog'i va ularni rivojlantirish, axborot-kutubxona muassasalarining tuzilishi, ularni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, kutubxonachilik kasbining asosiy talablari haqida bilim berishga qaratilgan. Asosiy maqsad talabalarga kutubxonashunoslik fanining ilmiy-nazariy masalalari, metodologik asoslari, sohaning istiqbollarini jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'langan holda o'rgatishdan iboratdir.

Mazkur darslik 5350600 – “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” bakalavr yo'nalishi talabalari uchun mo'ljalangan bo'lib, shuningdek darslikdan axborot-kutubxona sohasi mutaxassislarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin.

**UDK: 02 (575.1)**

**BBK: 78.3**


**Taqrizchilar:**

**D. A.Ganiyeva**

- Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi direktori, pedagogika fanlari nonizodi;
- “Axborot-kutubxona tizimlari” kafedrasi professori, texnika fanlari doktori.

**M.A.Raxmatullayev**

**ISBN 978-9943-6397-6-8**



© «Aloqachi» nashriyoti, 2020.

## KIRISH

Globallashuv davrida axborot-kommunikasiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Eng muhimi, necha ming yillardan buyon sayqallanib, ne-ne avlodlarga yo'lchi yulduzdek to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan ana shu xalqona hikmatlar negizidagi asl haqiqat shuki, insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, hamisha kitob o'qish va kitob mutolaasini umr bo'yи kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va unumuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvarda imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ana shu ezu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

Axborot-kutubxona faoliyati - kitob boyliklari va boshqa axborot manbalaridan jamiyat a'zolarini foydalanishini tashkil etish maqsadida davlat, turli jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar tizimi bo'lib, ular jamiyatda axborot, madaniy-ma'rifiy va ta'lim berish vazifalarini bajaruvchi soha hisoblanadi. Axborot-kutubxona faoliyati sohasi, boshqa amaliy sohalar kabi o'zini ilmiy-nazariy asoslariiga ega bo'lishligi talab etiladi. Bu vazifani "Kutubxonashunoslik" fani o'rganadi.

"Kutubxonashunoslik" fanining asosiy maqsadi, talabalarga kutubxonashunoslik, shu bilan birga axborot-kutubxona faoliyati sohasi uchun asosiy ilmiy - nazariy masalalarni, umumiyl tamoyillar, qonuniyatlar, metodologik asoslarni, sohaning istiqbollarini, jamiyatni axborotlashtirish bilan bog'langan holda o'rgatishdir. Talabalarning kasbiy tayyorgarligini tubdan yaxshilash va bo'lg'usi mutaxassislariga ixtisoslik bo'yicha malakalarini yanada mustahkamlash uchun axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini ijtimoiy, iqtisodiy, tarkibiy –

funksional tahlil qilish, axborot-kutubxona muassasalari tizimlarini tashkil etish va boshqarish, haqida zaruriy bilimlar berish va ma'lum bir ko'nikmalarni shakllantirish fanning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Kutubxonashunoslik fani ilmiy va o'quv predmeti sifatida doimiy rivojlanishda va yangi ilmiy-nazariy bilimlar, qarashlar bilan to'ldirilib borilmoqda. Alovida e'tiborni dastlabki "Umumi kutubxonashunoslik" (rus tilida) darsligini yaratgan O.S.Chubaryanga (1908-1976) qaratish zarur. Uning ushbu darsligidan uzoq yillar davomida unumli foydalilanilgan.

2011 yil 13 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Axborot-kutubxona faoliyati" to'g'risidagi Qonuni Respublikamiz axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish strukturalarida tub o'zgarishlar, yangi tipdag'i kutubxona muassasalari (AKM va ARM) yaratilishi va ular uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash vazifalarini kun tartibiga qo'ydi. Bu vazifalar respublikamizni axborot-kutubxona faoliyati sohasidagi o'zgarishlarni, muammolar va ularni yechimini o'zida aks ettirgan yangi tipdag'i o'quv adabiyotlari yaratish zaruriyatini keitirib chiqardi. Ushbu darslik fan bo'yicha qilingan ishlardan ijodiy foydalangan holda yaratildi.

Darslikning maqsadi talabalarda kutubxonashunoslik fanining rivojlanish tendentsiyalari, umumiy tamoyillari, respublikamiz axborot-kutubxona muassasalari tuzilishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatları, uslubiyati haqida tasavvur hosil qilishdir. Ushbu muassasalarning kutubxona fondlarida saqlanayotgan bosma nashrlar va boshqa axborot manbalaridan O'zbekiston Respublikasi aholisini axborotga bo'lgan talablarini har tomonlama qondirishning samarali yo'llarini ilmiy asosda o'rgatishdir.

# **1- BOB. KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING MOHIYATI, ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

## **1.1. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lisi va rivojlanish davri (XIX asr)**

Kutubxonashunosik g'oyalari deganda, kutubxona va kutubxonachilik ishlari haqidagi dastlabki, eng oddiy g'oyalalar tushuniladi. Bu oddiy tushunchalar bo'lib, hali ilmiy bilimlar, tushunchalar darajasiga chiqmagan fikrlardir. Kutubxonashunoslik g'oyalari va kutubxonashunoslik fani o'rtasidagi aloqalar, kutubxonashunoslik fanini ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lisi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos sifatida xizmat qildi. Xronologik jihatdan kutubxonashunoslik g'oyalalar tarixi ikki ming yildan ortiqroq davrni o'z ichiga oladi.

Kutubxonashunoslik tarixi ikkita davrga bo'linadi.

- I. Kutubxonashunoslik g'oyalari davri.
- II. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lisi va rivojlanish davri.

Ular o'z navbatida bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi.

1. Kutubxonashunoslik g'oyalari davri
  - 1.1. Qadimgi davr kutubxonashunoslik g'oyalari davri
  - 1.2. O'rta asrlar davri kutubxonashunoslik g'oyalari davri
2. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lisi va rivojlanish davri.
  - 2.1. Kutubxonashunoslik fanining paydo bo'lisi va shakllanishi (XIX)
  - 2.2. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi
  - 2.3. Kutubxonashunoslik fanining rivojlanish istiqboli davri (XXI asr) - umuminsoniy qadriyatlarni metodologik asoslari sifatidagi fan.

Kutubxonashunoslik g'oyalari kompleks ravishdagi obyektiv sabab va sharoitlar natijasida paydo bo'ldi. Ular bevosita eramizdan avvalgi II minginchi yillarda paydo bo'lgan birinchi kutubxonalar bilan bevosita bog'liqdir.

Qadimgi dunyoda kutubxonalarni sonini ko'payishi natijasida sekin - asta ularni faoliyati haqidagi ma'lumotlar to'plana boshlandi. Keyinchalik ular haqidagi ma'lumotlarni to'plab tahlil qilish, kutubxonalar ishini tashkil qilish haqidagi eng yaxshi usullarni aniqlash va boshqalar haqida obyektiv talablar paydo bo'la boshladи. Bu vazifalar kutubxonashunoslik g'oyalari sifatida qarala boshlandi.

Qadimgi dunyo kutubxonashunoslik g'oyalarida - hozirgi vaqtda kutubxona deb ataluvchi muassasalar haqidagi eng oddiy, elementar tushunchalar: tashkil etish, saqlash, tavsiflash, kataloglashtirish va boshqalar haqida fikrlar berilgan.

O'rta asrlar davrida kutubxonashunoslik g'oyalari o'ziga xos qarashlar bilan boyidi. Ushbu davrda G'arb mamlakatlari kutubxonachilik ishida cherkovning to'liq hukmronligi ostida bo'lsa, Sharq mamlakatlarida ayrim hukmdorlar saroyida va diniy muassasalar qoshida kutubxonalarinh shakllanishi, ularni diniy yo'analiishda faoliyat yuritishga olib keldi.

Kutubxonalar "Diniy - klerikal madaniyat"ni tarqatish o'chog'i sifatida qaraldi va bunday yondoshish ularni ish mazmunini va shaklini belgilab berdi. Asosiy e'tibor kitob boyliklarini saqlash va ularni asrash, hisobini olib borish, joylashtirish, kataloglashtirishga qaratildi. Undan foydalanishga e'tibor kam qaratildi.<sup>1</sup>

Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki kutubxonalar IV-VI asrlarda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo mintaqasida kutubxonalarning rivojlanishiga VIII asrdan boshlab Samarqandda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrlarda Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al Farg'oniy, Muhammad al-Xorazmiy va boshqalar faoliyat yuritdilar.

Abu Ali ibn Sinoning Buxoro amirining saroy kutubxonasi haqidagi estaliklari judda ham qiziq manba sanaladi: "Men, - deydi olim, kitoblar saqlanadigan joyga kirdim. Ular bir qancha xonalardan iborat bo'lib, har bir xonada sandiqlarda kitoblar saqlanar edi. Bir xonada arab tilidagi kitoblar va she'riy kitoblar, boshqasida huquqshunoslikka oid kitoblar va shu tariqasida har bir xonada fanning qaysidir sohasiga oid kitoblar saqlanar edi. Men u yerda mendan oldin o'tgan ilm ahli tomonidan yozilgan va bu erda saqlanayotgan kitoblarni ro'yxatini o'qib chiqdim".

X asrlarda saroy kutubxonalarida adabiyotlarni klassifikatsiyalashning ba'zi bir usullari qo'llanila boshlandi va kutubxonalarda mavjud bo'lgan kitoblarning ro'yxatlari tuzilgan, kutubxona ichida esa mehnat taqsimoti yo'lga qo'yilgan.

---

<sup>1</sup> Коваленко А.П., Умаров А.А., Расулов М.М. Основы библиотековедения: Учеб.пособ.для студентов библиотечных факультетов.-Т.: Изд-во НБ. Узбекистана им.А. Навоий, 2008.- 130 с..

G'arb mamlakatlarida ushbu davrlarda “bid’atga oid” adabiyotlarni o’qishni ta’qiqlash ishlari keng avj oldi. O’qish man etilgan “voz kechilgan”, “yolg’on yozuvli” adabiyotlarni ro’yxatlari tuzildi.

Bu davrlarda kutubxonachilik g’oyalari, kitobsaqlovchilar uchun yaratilgan turli xil yo’riqnomalar, eslatmalar va nasihatlarda aks eta boshladi. O’rta asr kutubxonachilik g’oyalarini o’ziga xos xarakterli tomoni shundan iborat ediki, kutubxonalarga faqat tor doiradagi odamlar uchungina kitoblar to’planadigan joy sifatida qarash xos edi.

Kitob bosishni kashf etilishidan keyin kutubxonachilik ishini boshqarish bo'yicha dastlabki bosma asarlar paydo bo'la boshladi. Ulardan dastlabkisi Frantsiya kardinali Djuli Mazarini tomonidan kutubxona tashkil etish uchun taklif qilingan teolog va publisist Gabrielya Node (1627 y.) ning “Kutubxona tashkil etish bo'yicha maslahat” asari edi.

Kutubxonachilik g’oyalarini rivojlanishidagi sezilarli burilishlar Buyuk frantsuz revolyutsiyasi (1789-1794 yillar) davrida paydo bo'la boshladi. Kutubxonalarga “fuqoralar uchun maktab” sifatida qaraldi va ular maktab, maktabdan tashqari ta’lim tizimini tashkil etishda muhim rol o’ynashi zarurligi qayd etila boshlandi.

XVIII asrning oxiri - XIX asrning boshlarida jahonda kutubxonashunoslikni fan sifatida shakllanishiga asosiy shart-sharoitlar paydo bo’ldi: yetarli darajada boy emperik bazalar yig’ildi, bir qancha muhim g’oyalar tasdiqlandi. Bularning barchasi yangi fanni asosini tashkil etishi mumkin edi.

## **1.2. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi va istiqboli**

Kapitalistik ishlab chiqarish formatsiyasi oldingi formatsiyalarga ko’ra kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik fanini rivojlanishiiga juda katta sabab bo’ldi. Sanoat ishlab chiqarishini paydo bo’lishi, bosma mashinalarni yaratilishi, qog’oz ishlab chiqarish texnologiyasini sanoat darajasida ommalashuvi va boshqa ko’plab omillar kutubxonalarni ta’lim bazalari bo’lishiga olib keldi.

Kutubxonalar haqidagi emperik bilimlar va tushunchalar hamda amaliyotdagi bo’lgan talablar, ma'lum bir ilmiy tizimni shakllanishini tezlashtirdi va u “kutubxonashunoslik” deb nomlandi. Shu davrdan boshlab ikkinchi, ya’ni kutubxonashunoslikning ilmiy rivojlanish davri boshlandi. Bu davrni uchta qismga bo’lish mumkin.

Birinchi davr XIX-XX asr boshlarini o'z ichiga oladi. Dunyo bo'yicha kutubxonashunoslik "yagona oqim" sifatida qaralgan. Uni asosida jamiyat a'zolariga xizmat ko'rsatishning meyo'rлari va qadriyatlari yotar edi. Birinchi bo'lib "kutubxonashunoslik" atamasini aniq joriy etish lozim ekanligini myunxenlik kutubxonachi M. Shrettinger anglab etdi. U tarixda birinchi bo'lib "kutubxonashunoslik" iborasini o'zini ikki tomlik asarida qayd etdi. Asarning nomi "Kutubxonashunoslikka oid to'liq tajribalar darsligi yoki kutubxonachining ishini yuritish bo'yicha rahbarlik qilish" deb nomlangan. Ushbu asar 1808 dan boshlab, to 1829 yilgacha chop etilgan. 1834 yilga kelib "Kutubxonashunoslikka rahbarlik qilish" nomi bilan qayta nashr etilgan.

Shrettingerning kutubxonashunoslik tushunchasi hali kutubxonachilik ishidan farq qilmas edi. U kutubxonashunoslikni amaliy bilimlar sifatida bilar edi. Ushbu qarashlar barcha chet el kutubxonashunoslida XIX-XX asrlar boshigacha saqlanib qoldi. Buni natijasida ijtimoiy mazmundan xoli bo'lган tor texnologik, amaliy fan sifatida namoyon bo'ldi.

XIX asrning oxirlariga kelib kutubxonashunoslik fanining amaliy fandan ilmiy fanga aylana boshlanishining dastlabki belgilari paydo bo'la boshladi. Bu jarayonga nemets kutubxonashunos olimi A. Grezelning hissasi katta bo'ldi. "Kutubxonaga tegishli bo'lган nazariy masalalar - deb yozadi u, kutubxonachilik ishi tarixi va aloxida kitob fondlari, mustaqil kutubxonashunoslik fanining predmetini shakllantiradi".

Taxminan o'sha davrlarda kutubxonashunoslik fanini ilmiy fan sifatidagi tarkibi haqidagi dastlabki qarashlar shakllana boshlandi. Unda ikkita bir-biriga teng bo'lган bo'limlarga: kutubxonalar haqidagi va kutubxona fondi haqidagi bilimlarga ajratildi. Kutubxonashunoslikni kitobshunoslik, adabiyotshunoslik, bibliografiya, qo'lyozmalarni o'rganish va boshqa fanlar tarkibiga kiritishga urinishlar bo'ldi. Bularni barchasi kutubxonashunoslik fanining predmeti va tarkibini isbotlanmagan holda kengaytirishga olib keldi.

Kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga kutubxonachilik ishi, kutubxonashunoslik bo'yicha ko'plab asarlarni yaratilishi, dastlabki kutubxonachilikka oid jurnallarni ("Serapeum", Germaniyada 1840 yil; "Library Science" AQSHda, 1876 yil;) kasbiy kutubxonachilik assotsiatsiyalarini (Amerika kutubxonachilik assotsiatsiyasi, AQSH, 1876 yil; Kutubxonachilik assotsiatsiyasi, Buyuk Britaniya 1877 yil),

kutubxonashunoslik sohasidagi ilmiy markazlarni, ayniqsa Germaniyada, paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir.

Rossiyada kutubxonashunoslik fanini rivojlantirishga V.I. Sobolshikov (1813-1872), N.A. Rubakin (1862-1946), A.A. Pokrovskiy (1875-1954), K.I. Rubinskiy (1860-1930), L.B. Xavkina (1871-1949) va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda "Kutubxonashunoslik" atamasi E.K. Betger (1877-1956), A.V. Korshun (1878-1961), V.N. Smolin (1887-1945), N.A. Burov (1885-1969), O.V. Maslova (1893-1980) va boshqalarni asarlarida qo'llanildi.

Jahon kutubxonashunosligi oqimi bo'yicha rivojlanishda davom etarkan, vatan kutubxonashunoslik fani kutubxonachilik ishini xalq ta'limining muhim qismi sifatida qaraldi va kutubxonaning ulkan madaniy va aholini mustaqil o'qishidagi muhim o'rni qayd etib o'tildi. Kutubxonashunoslik ijtimoiy - siyosiy jihatdan liberal - burjua va burjua-demokratik yo'nalishdagi ilmiy bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ldi.

XIX asrda dastlabki kutubxonachilik maktablari va kurslari paydo bo'ldi va u erda kutubxonashunoslik o'quv predmeti sifatida o'qitila boshlandi. O'quv predmeti sifatida kutubxonashunoslik fani amaliy yo'nalish sifatida xarakterlandi. Shunday qilib XIX-XX asr boshlarida kutubxonashunoslik ilmiy va o'quv predmeti sifatida shakllandı va asosan amaliy yo'nalish kasb etdi. Ushbu davrdagi kutubxonashunoslik fanining o'ziga xoslik shunda ko'rindiki, u dunyo miqyosid yagona fan sifatida rivojlandi.

Yigirmanchi asrda kutubxonashunoslikning rivojlanishi-eng murakkab va shu bilan birga eng sermahsul bo'ldi. Ushbu asrda "nazariyotchilar" va "amaliyotchilar" o'rtasidagi kurash davom etdi.

Kutubxonashunoslik sekin-asta, lekin fan sifatida o'zini mazmuniga to'liq va keng miqyosda tushinib olishga erisha boshladı.

Birinchi marotaba kutubxonashunoslik fanining ijtimoiy, psixologik, tarixiy aspektlarini ochib berishga urinishlar bo'ldi (Batler P. 1933 y.). Kutubxonachilik ishi qonuniyatlarini shakllantirishga harakat qilindi (Sh.R. Ranganatan 1931y.). Kutubxonashunoslik tadiqotlarini mazmuni va nazariy asoslarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar davom etdi (Y. Forstius, G.Leydinger, A.Predeek, O.S.Chubaryan).

XX asrning ikkinchi yarmida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Taxminan 60-70 yillardan boshlab kutubxonashunoslik ijtimoiy fan sifatida o'zini qirralariga ega bo'la boshladı. Kutubxonachilik ishi va

kutubxonalarga ijtimoiy nuqtai nazardan qarashda D.X. Shiraning 1967 yilda chop etilgan (rus tilida 1973 y.) “Социологические основы библиотечного дела” asari katta rol o’ynadi. Undan keyin bir qancha boshqa asarlari ham ketma - ket chop etildi. Amerika kutubxonachilik assotsiatsiyasi (1948 y) tomonidan ishlab chiqilgan “Kutubxonachilik huquqlari haqida bill” (“Библиотечный биль о правах”) (1948 y), “Ommaviy kutubxonalar haqida YUNESKO Manifesti” (1949 y), IFLAning “Kitoblar xartiyasi” (“Хартия книги”) (1972 y) kabi hujjatlar katta rol o’ynadi. Ushbu hujjatlarning asosiy mazmuni kutubxonachilik nazariyasi va amaliyotida demokratiya va intellektual ozodlik prinsiplarini joriy etishga yo’naltirilgan edi.

Bir vaqt ni o’zida kutubxonashunoslikda umumnazariy masalalar, kutubxonashunoslik metodologiyasi muammolari, uning ilmiy metodlari, statusi, tarkibi va boshqa masalalari ishlab chiqildi.

Kutubxonashunoslik bo'yicha ilmiy - tadqiqotlarni amalga oshirish sezilarli ravishda kengaydi: jumladan, kutubxonachilik ishlarini rejali tashkil etish va markazlashtirish, o'zaro hamkorlik muammolari (B.N.Bachaldin, L.M.Inkova, N.S.Kartashov, V.V.Serov, G.P.Fonotov); kutubxonalarni va kutubxona tizimlarini boshqarish (R.Bouden, D.E.Ueyngard, A.N.Vaneev, N.N.Gudkov, E.A.Fenelonov); kutubxonachilik xizmati nazariyasi va metodikasi (A.Ya.Ayzenberg, M.Ya.Dvorkina, N.E.Dobrinina, S.G.Matlina, B.G.Umnov); fondni saqlash muammolari “Dunyo xotirasi (“Памят мира”); kutubxonachilik ishida bozor munosabatlari (G.Armstrong, F.Kotler, I.V.Eydelmiller, V.K.Klyuev, I.M.Suslova, G.P.Fonotov, J.S.Shadrina).

O’zbekistonda ilk ilmiy tadqiqot ishlari o’tgan asrning 20-yillaridayoq boshlangan va u kutubxonachilik ishi tarixini madaniy qurilishning muhim qismi sifatida o’rganilgan. Bu muammoni o’rganishga respublikaning mashhur kutubxonashunos-olimi E.K. Betger o’zining bir qancha ishlarini bag’ishlagan: “Turkiston davlat kutubxonasi (1918-1922 yillar), “Qisqacha tarixiy ocherk”, “Bir asrning to’rtadan uch qismidagi madaniy ishlar” (1870-1945 yillar).

Respublikada kutubxonachilik ishi tarixini o’rganish ishlari 60-yillarda ancha faollashdi. O’zbek manbashunoslari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi va uning ayrim muammolari o’rganildi. Bu ishlar E.A. Oxunjonov, A.I. Kormilitsin, A.G.Kosimova, M.A.Raximova, B.K.Karimovlarning asarlari va ilmiy dissertatsiyalarida o’z aksini topd.

Aholini turli qatlamlariga kutubxona xizmati ko'rsatish ishlari M.M. Rasulov va M.X. Maxmudovning dissertatsiya tadqiqotlarida o'rganildi. Alovida e'tibor bolalar va o'smirlarga kutubxona-bibliografik xizmati ko'rsatish ishlariga bag'ishlandi. Bu muammolar bilan E.Y. Yo'ldoshov, O.G. Shabalina, B.I. G'aniyeva, M.Yu. Sarkazovalar shug'ullandilar.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan kutubxona fondlari va kataloglari nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Bu ishlar bilan Yu.B. Abramov, V.V.Sokolova, M.I.Vitenson, I.I.Kattaxodjaeva, Z.Berdiyeva va boshqalar shug'ullandilar. Kutubxonachilik ishini boshqarish masalalari T.B. YEsimov, E.G. Islomov,A.P.Kovalenko tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Kutubxona tizimlari va alovida kutubxonalarni axborotlashtirish, avtomatlashtirish va mexninizatsiyalashtirish mavzusi bo'yicha M.Z. Yakubova, M.A. Raxmatullayev, U.F. Karimov, A.Sh. Muxammadiyev va B.A.Mannonovlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

Axborotni juda tez ko'payishi natijasida vujudga kelgan jiddiy krizis holatini chet el kutubxonashunosligi nisbatan tezlikda yengib o'tib, sifat jihatidan yangi darajaga chiqib oldi. Buni obrazli ravishda "kutubxonashunoslik yangi kalitda" (D.X. Shira) ("Библиотековедение в новом ключе") deb nom oldi. "Yangi kalit" kutubxona va kutubxonachilik ishini axborotlashtirish interpretatsiyasida, ya'ni axborotlashtirishda amalga oshirishdir.

Hozirda chet el kutubxonashunosligi nisbatan rivojlangan ilmiy institut hisoblanadi. Ilmiy markazlar tizimi tashkil etilgan, yuzlab milliy, regional va xalqaro kasbiy kutubxonachilik tashkilotlari umumnazariy muammolar bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda, 1,5 mingdan ortiq vaqtli matbuot nashrlari, alovida kitoblar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalari va boshqalar chop etilmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmi kutubxonashunoslik tadqiqotlarining umumnazariy masalalarini o'rganilishi va ularni kengligi bilan xarakterlanadi. Tarxiy-kutubxonashunoslik muammolariga, kutubxonalarni ijtimoiy roliga, kutubxonashunoslikning xususiy qismlarini o'rganishga alovida e'tibor berila boshlandi. Kutubxonashunoslik fani ijtimoiy institut sifatida sifat jihatidan uni infrastrukturasi o'zgara boshladi, yirik ilmiy universal va maxsus kutubxonalarda ilmiy-tadqiqot bo'limlari tashkil etila boshlandi. "Советское библиотековедение" ilmiy-nazariy to'plami chop etila boshlandi. O'zbekistonda "O'zbekiston kutubxonashunosligi" va

“Betgerxonlik o’qishlari” to’plamlari tashkil etildi. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni aspirantura va doktorantura tizimlari joriy etildi.

Zamonaviy kutubxonashunoslikning asosiy o’ziga xosligi-uning yangi va yagona umuminsoniy qadriyatlar metodologiyasi asosida rivojlanishidir. Ushbu vazifalarni muvaffiqiyatli hal etilishi kutubxonachilik fanini hozirgi axborot-kutubxona faoliyatini ulkan axborot industriyasining bir qismi sifatida qarash orqali, o’zini asosiy nazariy masalalarini yangi sifat ko’rsatkichlarida hal etishga bog’liqdir.

Kutubxonashunoslik fanining mohiyati, uning funksiyalari va tuzilmasi bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi. Biroq, hozirgi paytda “jamiyatni axborotlashtirish” nomini olgan global jarayonning haqiqatda mavjudligini hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar ilgari insoniyatning hayoti va taraqqiyoti asosan moddiy ishlab chiqarishga bog’liq bo’lsa, hozirgi vaqtida ularning barcha shakllarida axborotdan yuqori darajada foydalanmasdan uni taraqqiy ettirishning imkonи yo’q. Kutubxonashunoslik fani tobora axborot industriyasining eng qudratli va muhim sohalaridan biriga aylanmoqda.

Jamiyatdagi ushbu o’zgarishlar bilan kutubxonashunoslik fani ham tubdan o’zgarmoqda. U asta-sekin noan’anaviy rivojlanish yo’liga o’tib, kutubxonachilik ishini axborot industriyasining bir sohasi sifatida samarali rivojlanishi va faoliyat ko’rsatishini nazariy jihatdan ta’minlovchi fanga aylanib bormoqda.

Kutubxonashunoslik fanining ichki asoslari, mazmuni va mohiyati, ya’ni uning mazmuni, olimlar nuqtai nazarlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadigan fundamental va munozarali masala hisoblanadi. Kutubxonashunoslik fanining mohiyatini aniqlash eng umumiy vazifasini belgilash, kutubxonashunoslik fanining sirtdan ko’rinishi (hodisasini) orqali uning mohiyatini - hayotidagi barcha zarur tomonlar va aloqalar (qonunlar), odat bo’lgan narsalarni, tabiiy bir - biriga bog’liq bo’lgan holda aniqlashni taqozo etadi.

Fanning eng to’g’ri mohiyati uni predmetida ifodalanadi. Ya’ni, obyektni qaysi jihatini (qismi, bo’limi) ushbu fan tomonidan o’rganilayotganligidir. Ammo ko’pchilik kutubxonashunos olimlar hozirga qadar kutubxonashunoslik fanining “obyekti” va “predmeti” tushunchalarining ma’nosini oxirigacha hal qila olmayapti.

Kutubxonashunoslik fanining obyekti - nima ekanligi haqida jahon kutubxonashunosligida yagona bir qarash yo’q. Ko’p hollarda kutubxonashunoslik fani obyekti kutubxonachilik ishi deb ataladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kutubxonachilik ishining mohiyatini

kutubxonashunoslik fanining obyekti sifatida tushuntirish kerak. Bu borada dunyodagi mavjud fikrlarni tahlil qilishda kamida oltita kutubxonachilik kontseptsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchisi, mamlakatda va chet elda epistemologik (bilim, ilm, ma'rifikat) kontseptsiya bo'lib, u kutubxonachilik ishining mohiyatini unda to'plangan bilimlardan foydalanish deb tushuniladi.

Ikkinchisi esa funksional - texnologik bo'lib, unda kutubxonachilik ishi kutubxona fondini komplektlash, uni tashkil etish va kitobxonlarga xizmat ko'rsatish deb hisoblanadi.

Uchinchisi ijtimoiy - funksional bo'lib, unda kutubxonachilik ishi axborot, madaniy - ma'rifiy va ta'lim faoliyati sohasi sifatida qaraladi.

To'rtinchisi – institutsional, kutubxonachilik ishini ma'lum bir hududdagi ijtimoiy institutlar bilan birqalikda faoliyat yurituvchi kutubxonalar majmuasi sifatida qaraydi.

Beshinchi – axborot, kutubxonachilik ishini axborot faoliyatini bir sohasi sifatida qaraydi.

Oltinchisi - kutubxonachilik ishini, hujjat kommunikatsiyasi sohasini bir bo'lagi deb hisoblaydi.

Ushbu kontseptsiyalar ma'lum bir jihatdan to'g'ri. Chunki ular kutubxonachilik ishini u yoki bu tomonlarini o'zida aks ettirgan. Lekin, ularni hech biri (beshinchidan tashqari) kutubxonachilik ishining mohiyatini aniq ta'rifini bera olmaydi.

Kutubxonashunoslik fanining obyektini to'g'ri tushunish uchun unga tizimli yondoshish kompleks pozisiyasi bilan qarash zarur. Chunki kutubxonachilik ishi ham inson faoliyatini odatdagi shakllaridan biridir. Shuning uchun, unda kamida uchta asosiy elementni ajratish mumkin:

1. Mehnat predmeti;
2. Mehnat subekti;
3. Mehnat vositachisi;

*1. Mehnat predmeti.* Kutubxonalar hujjatlashtirilgan bilimlar, bosma nashrlar, hujjatlar, ma'lumotlar, axborot, xabarlar shaklidagi axborotlar bilan ishlaydi. Demak, kutubxonashunoslik fanining ob'ektini eng muhim elementi, umuman olganda axborot emas, yoki hujjat shakli emas, balki nashr etilgan an'anaviy (kitob, maqola) va an'anaviy bo'limgan (disk, lenta) obyektiv ma'lumotlardir. Nashr etish shakli tarixiy jihatdan o'zgargan: loy taxtachalardan, papirusdan "elektron" nashrga tomon o'zgarib borgan. Ammo nashrning mazmuni va mohiyati hech qachon o'zgarmagan. Barcha tarixiy jarayonlar mobaynida ularda axborot bo'lgan, hozir ham mavjud.

*2. Mehnat subyekti.* Kutubxonashunoslik fanining obyektini tashkil etuvchi uch bosqichli tizimning ikkinchi elementi - bu mehnat subyekti, kitobxondir (axborot iste'molchisi, abonent, foydalanuvchi). Axborot ishlatilmasa, uning qiymati yoki ahamiyati qolmaydi. Axborotlar ijtimoiy tizimlardagi kabi kutubxonachilik ishida ham birdan bir maqsad, qadriyat emas, balki mehnat predmeti, iste'mol va foydalanish predmeti hisoblanadi.

Foydalanuvchilar va e'lon qilingan axborotlar kutubxonashunoslik fanining obyektini muhim kichik tizimini tashkil qiladi. Ushbu kichik tizimning mohiyati inson va axborotning turli xil o'zaro faoliyatidir. Ushbu qayd etilgan o'zaro faoliyatning o'ziga xosligi – uning individual tashkiliy xarakteridir. Kutubxona umuman olganda unga tashrif buyuruvchilarni hammasiga xizmat ko'rsatmaydi, balki aniq foydalanuvchiga, uni axborotga bo'lган individual talablariga mos keluvchi axborot bilan xizmat ko'rsatadi. Bu esa ushbu kichik tizim, global axborot tizimining o'ziga xos kichik tizimi ekanligiga asos bo'ladi. Insonning (kitobxonni) ustuvorligi kutubxonachilik ishini nafaqat axborot fani, balki ijtimoiy fan ekanligini ham anglatadi.

*3. Mehnat vositachisi.* Kutubxonashunoslik fanining obyektining uchinchchi elementi kutubxonachi (mehnat vositachisi) hisoblanadi. Haqiqatan ham, majoziy ma'noda, axborot va kitobxon ijtimoiy hayotning bir xil axborot daryosining ikki qarama - qarshi qirg'og'ini ifodalaydi. Ushbu qirg'oqlarnilarni bir - biriga bog'lovchi ko'rik kerak. Va aynan bu kutubxonachining asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Kutubxonachi – har qanday kutubxonani, jumladan "Видеотека" yoki "Internet" kabi kutubxonalarni ham muhim va abadiy elementidir. Buning sababi, ba'zi bir hollarda u tomonidan amalga oshiriladigan intellektual operatsiyalarini mashina bajara olmaydi. Shunday qilib, kutubxonashunoslik fanining markaziy obyekti quyidagi elementlardan tashkil topgan organik yaxlit, dinamik va tizimli uchlikdir:

- 1) *nashrlar ko'rinishidagi axborotlar;*
- 2) *kitobxon;*
- 3) *kutubxonachi.*

Ushbu uchlik kutubxonashunoslik fanining obyektini to'g'ri tushunish uchun asosiy, fundamental ahamiyatga ega. Va bu har qanday kutubxonaning mohiyatini tavsiflovchi eng keng tarqalgan mantiqiy tuzilmadir. Bunday tuzilmalarning tizimli majmui kutubxona ishini tashkil qiladi. Albatta, kutubxonachilik ishi kutubxonashunoslik fanining

obyekti sifatida bu uchlik bilan cheklanmagan. Aslida, bu juda murakkab, ko'p qirrali tizimli bir hodisa hisoblanadi. Masalan, kutubxonashunoslik kitoblarni ham o'rganadi, lekin uni nashr turlarining xili sifatida o'rganadi (masalan, nashriyot jarayoni kitobshunoslik fanining mavzusi). Shuningdek u kutubxona binolari, asbob - uskunalari, kompyuterlashtirish uskunalari va fondni saqlash (biologik, kimyoviy, jismoniy) kabi yana bir qancha o'nlab predmetlar ham bu sohaning obyekti hisoblanadi. Ammo kutubxonashunoslik fani ularni maxsus o'rganmaydi, balki boshqa fanlarning ma'lumotlaridan kutubxonachilik ishini rivojlantirishda foydalanadi.

Kutubxonashunoslik fanining mohiyatini belgilash uchun uning predmetini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Predmet - bu obyektdan ajratilgan, faqat kutubxonashunoslik fani o'rganadigan muayyan yaxlitlikdir. Shu sababli u kutubxonashunoslik fanining mustaqil fan ekanligining eng muhim belgisi, uni ma'lum chegaralarini, ilmiy mazmunini va boshqalarni belgilaydi. Shuningdek u boshqa fanlarga qo'shilish va ular bilan ichki va tashqi aloqalarni o'rnatish uchun vosita sifatida xizmat qiladi.

Kutubxonashunoslik fanining predmeti maxsus adabiyotda yetarli darajada yoritilmagan, turli nuqtai nazar va fikr - mulohazalar, masalan "kutubxona tizimini shakllantirish va rivojlantirish tamoyillari va qonunlarini o'rganish sifatida ifodalangan. Lekin bu predmet emas, balki kutubxonashunoslik fanining vazifalaridir.

Kutubxonashunoslik fanining predmeti - qonunlar va printsiplar emas, balki kutubxonachilar tomonidan, ko'lami jihatidan ommaviy hodisa, shakli jihatidan individual bo'lgan kitobxonlarni e'lon qilingan axborotlar bilan o'zaro faoliyatini ta'minlashdir. Kutubxonashunoslik fanining predmetining markazida kitobxonlarni e'lon qilingan axborotlar bilan o'zaro hamkorligi yotadi, ammo bu o'zaro hamkorlik kutubxonachilar tomonidan ta'minlanadi. Bunday rakursda predmet hech bir ma'lum fanlar tomonidan o'rganilmaydi. (Kitobshunoslik fanlari uchun predmet kitob, arxiv ishi uchun predmet hujjat, bibliografiya uchun predmet - bibliografik ma'lumotlar va boshqalar).

Kutubxonashunoslik fanining predmetini ba'zan kutubxonashunoslik fanining o'zi deb hisoblashadi, lekin bunga asos yo'q. Kutubxonashunoslik, ilmiy hodisa bo'lib, aslida predmetni nazariy jihatdan ilmiy bilim shaklida o'zlashtirishdir, ya'ni qonunlar, printsiplar, nazariyalar, tushunchalar va boshqalar kabi nazariy jihatdan takrorlashdir.

Shu sababli, kutubxonashunoslik fani ijtimoiy tsikldagi fan bo'lib, uni predmetini, qonunlarini, printsiplarini va nazariyalarini o'rganadi. Aynan shu narsa kutubxonashunoslikni ilmiy fan sifatidagi mohiyatidir.

### **1.3. Zamonaviy kutubxonashunoslik fanining vazifalari va tuzilmasi**

Eng avvalo, kutubxonashunoslik va kutubxonachilik ishi vazifalarini ajratib olish kerak, chunki bu tushunchalarni ba'zida bir xil deb hisoblashadi. Kutubxonashunoslik - bu fan, bilimlar tizimi, idrok etish jarayoni, nisbatan olganda kichik ijtimoiy institut.

Kutubxonachilik ishi - amaliyotdir, u qandaydir moddiy, mehnatni ijtimoiy bo'linish sohasi va nihoyat, jamiyatni axborot bilan ta'minlovchi ulkan tizimining bir shahobchasi hisoblanadi.

Ammo kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik ishi bir - biri bilan chambarchas bog'liq. Kutubxonashunoslik fani kutubxonachilik ishini o'rganadi, kutubxonachilik ishi esa ilmiy bilimlarni qo'llash sohasi hisoblanadi.

Kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik ishi vazifalari har xil. Kutubxonashunoslik fani ham boshqa fanlarga xos bo'lgan ikki turdag'i vazifalarga egadir. Birinchisi, o'z ilmiy vazifasi, ya'ni, jamiyatga bevosita ta'sir qilmaydigan vazifalar; ikkinchisiga - ijtimoiy, ya'ni bu fanning jamiyatga bevosita ta'sir ko'rsatadigan vazifalar.

Kutubxonashunoslik fanining o'z ilmiy vazifalari ichida asosiyalaridan biri bilish funksiyasi ham juda muhimdir. Bu ikki tomonlama e'tiborga ega. Birinchi va asosiy yo'nalish - bu kutubxonachilik muammolarini o'rganish, bilish, tadqiq qilish, muammolarni hal etishdan iborat. Ikkinchidan esa, kutubxonashunoslik fanini ilmiy fan sifatida tushunib yetish, uni ichki va tashqaridan o'rganish lozim.

Ikkinci darajali asosiy vazifalar asosan elementlar orqali tushuntiriladi: tushuntirish (tushuntiradi, bu hodisaning mohiyati nimani anglatadi), oldindan aytish prognozlash (kutilayotgan voqealarni, kutubxonachilik ishining kelajagini ko'rishga yordam beradi), tizimlashtirish (kutubxonashunoslik qadimiylaridan biri bo'lib, axborotni klassifikatsiyalash, sistemalashtirish, tashkil etish, tartibga solishga ahamiyat bergen) orqali.

Kutubxonashunoslik, inson va jamiyatni turli sohalari bilan o'zaro aloqada bo'ladi, shu bilan bir vaqtida ayrim ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Bular quyidagilardir:

-Madaniy-ma'rifiy, fanlarga xos bo'lgan umumiylar xususiyat, ya'ni insoniyatning umumiylar madaniyatiga, ilmiy dunyoqarashiga, ijtimoiy ongini rivojlantirishga samarali ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida alohida o'z ifodasini topishidir. Bu vazifa "Kutubxonachilik xizmatlari" bo'limida aniq ko'rinish turadi:

-Amaliy-natijaviy vazifa-kutubxonachilik ishini modernizatsiyalash, zamonaviylashtirish, kutubxona-axborot xizmatlari tizimini yangilash;

-Ijtimoiy kuch vazifasi-uning markazida insonparvarlik yotadi va u kutubxonachilik ishi orqali amalga oshiriladi. U jamiyatni "insonparvarlashtirish", ijtimoiy tuzumning gumanistik asoslarini yaratish, insoniyatga qarshi qarashlarni, tushunchalarni, munosabatlarni bartaraf etishga yordam beradi.

Shunday qilib, kutubxonashunoslik fani - ko'p vazifali fan bo'lib, birinchi navbatda kutubxonachilik ishiga u orqali jamiyatga ta'sir ko'rsatadi. U jamiyatning ishlab chiqarish kuchlaridan biri bo'lishga qodir ilmiy bilimlar tizimidir.

Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasi, uning tuzilishi va ichki tashkiliy shakli-bu kutubxonashunoslik fanining elementlari, tomonlari, qismlarini nisbatan barqaror aloqalari va o'zaro faoliyatlarining yaxlitligidir. Kutubxonashunoslik fanining tuzilmasini tuzishda butunlay boshqacha yondashuvlar ham bo'lishi mumkin. Ularning eng umumiysi - fanshunoslik bo'yicha bo'lib, unga ko'ra bo'linadi:

- 1) ilmiy qonunlar;
- 2) ilmiy tamoyillar;
- 3) ilmiy nazariyalar;
- 4) tadqiqot usullari;
- 5) tushunchalar apparati;
- 6) faraz;
- 7) faktlar, kuzatishlar va tajribalar.

Ushbu tizimda umuman fanning asosiy xususiyatlari, xususan, kutubxonashunoslik fanining o'ziga xos aniq xususiyatlari aks ettirilgan.

Bunga qo'shimcha ravishda, ikki xil yondashuv ham mavjud: birinchisi kutubxonashunoslik fani ilmiy fan sifatida tuzilgan, ikkinchisi esa ushbu fan o'quv predmeti sifatida.

Ilmiy fan sifatida kutubxonashunoslik fanini quyidagi tuzilmasini yaratish mumkin:

1. Kutubxonashunoslik fanining umumiylar nazariy asoslari.
2. Kutubxona axborot massivlarini shakllantirish nazariyasi.

3. Kutubxona axborot - qidiruv tizimlari nazariyasi.  
4. Foydalanuvchilarga kutubxonachilik xizmatlari ko'rsatish nazariyasi.

5. Kutubxonachilik ishini boshqarish nazariyasi.

6. Kutubxonachilik ishi va kutubxonashunoslik g'oyalari tarixi.

O'quv predmeti sifatida mamlakatimiz kutubxonashunosligi quyidagi bo'limlardan tashkil topgan:

1. Kutubxonachilik ishi nazariyasi va tarixi;

2. Hujjat resurslari;

3. Hujjatlarni analistik va sintetik jihatdan qayta ishslash;

4. Foydalanuvchilarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish;

5. Kutubxona marketingi;

6. Kutubxona menejmenti;

7. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish;

8. O'zbekiston va chet el kutubxonalar tarixi;

Ushbu tuzilma ixtisoslashuvlarning turli yo'nalishlari bilan to'ldiriladi: kitobxon psixologiyasi, o'qish psixologiyasi, ish joylarini avtomatlashtirish, kutubxona reklamasi va boshqalar.

Kutubxonashunoslik fanining nazariy asoslari jamiyatda to'plangan kitob boyliklari va boshqa axborot manbalarini tashkil qilinishini turli jarayonlarining umumiy tamoyillari, qonunlari va qonuniyatlarini yoritishga va tushunishga yordam beradi. Bular kutubxonashunoslik va kutubxonachilik ishining nazariy va metodologik asoslarini tashkil etadi.

Shunday qilib, zamonaviy kutubxonashunoslik fanining eng muhim xususiyatlari uning mohiyati, vazifalari va tuzilishidir.

Kutubxonashunoslik fani o'z mohiyatiga ko'ra yetilgan ijtimoiy fan. U e'lon qilingan axborotni, kutubxonachilik ishi orqali ijtimoiy faoliyat ko'rsatishini nazariy asoslarini o'rganadi. Bu ko'p vazifali fan bo'lib, nafaqatgina kutubxonachilik sohasiga, balki to'g'ridan - to'g'ri ma'naviy va moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadigan fan hisoblanadi.

Kutubxonashunoslik fani - bu ilmiy bilimlarning murakkab tuzilmasi bo'lib, uning barcha elementlari kutubxonachilik ishining yuksak ijtimoiy, insoniy maqsadlariga erishish uchun xizmat qiladi. Bu muntazam ravishda rivojlanib, boyib boruvchi, axborotning mohiyatiga qarab o'zgartirib turadigan bilimlar tizimidir. Ushbu fanda barqarorlik davri nisbiy, rivojlanish davri mutlaqdir.

### **Nazorat savollari:**

1. “Kutubxonashunoslik g’oyalari” tushunchasi o’zida qanday ma’noni bildiradi?
2. Kutubxonashunoslikning mazmuni nima?
3. Kutubxonashunoslikning obyekti bu...
4. Kutubxonashunoslikning predmeti bu...
5. Kutubxonaning oltita kontseptsiyasini bilasizmi?
6. Kutubxonashunoslikning obyektining uchta tarkibiy elementini qayd eting.
7. “Kutubxonashknoslik” atamasiga ta’rif bering.
8. Kutubxonashunoslikning ijtimoiy vazifalarini aniqlang va ularni ta’riflang.
9. Kutubxonashunoslikni ko’p funksiyali fan ekanligiga ta’rif bering.
10. Kutubxonashunoslikni tuzilmasini yaratishda qanday yondoshishlardan foydalaniladi?
11. Kutubxonashunoslik ilmiy fan sifatida qanday tuzilmaga ega?
12. Kutubxonashunoslik o’quv fani sifatida qanday tuzilmaga ega ?

## **2- BOB. O'ZBEKISTONDA KUTUBXONASHUNOSLIK FANI NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI**

### **2.1.O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi (1919-1945 yillar)**

Bugungi kunda kutubxonashunoslik fani jamiyat taraqqiyoti ilgari surayotgan muammolarni, istiqbolli yo'naliishlarni aniqlash imkoniyatiga ega emas, sababi, respublika hayotining barcha jabhalarida ketayotgan tub o'zgarishlar kutubxonachilik ishining ko'plab sohalarini qayta ko'rib chiqishni va yangilashni talab qilmoqda.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi, taraqqiyoti, asosiy xususiyatlari, yutuq va kamchiliklarni o'rganish fanning bundan keyingi rivojiga asos bo'ladi, uning istiqbolini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Respublikada kutubxonashunoslik fanining taraqqiyotini asosan to'rtta bosqichga bo'lish mumkin:

1. 1918 – 1945 yillar;
2. 1946 – 1974 yillar;
3. 1975 – 1990 yillar;
4. 1991 yildan keyingi davr.

Bunday davrlarga bo'lish respublikada fanning rivojlanish xususiyatlariga, asosan soha bo'yicha e'lon kilingan materiallarning mikdoriga boglikdir. Masalan, birinchi bosqichda atigi 14 nomda kutubxonashunoslik masalalariga bag'ishlangan maqolalar, kitoblar nashr qilingan bo'lsa, 1976 – 1987 yillarda birgina A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi tomonidan chiqariladigan "O'zbekistonda kutubxonashunoslik" nomli davomli nashr sahifalarida kutubxonashunoslikning turli jihatlariga bag'ishlangan 131 maqola e'lon qilingan.

Kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining birinchi bosqichi 1910 - 1945 yillar - asosan fanning shakllanish davridir. Bu davrda Turkiston Respublikasida va Sovet O'zbekistonida kutubxonalar tarmog'ini barpo qilish, kutubxonachilik ishining tashkiliy jihatlarini asoslash, uning nazariy va amaliy poydevorini yaratish, xilma-xil kutubxonachilik anjumanlarini, kengashlarini, qurultoylarini chaqirish, kutubxonachilik ishiga rahbarlik qilish organlarini shakllantirish kabi ishlar amalga oshirildi. Ushbu tadbirlar shu bosqichning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Bu vazifalarning amalga oshirilishi Respublikada kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga o'z hissalarini qo'shgan yirik mutaxassislar E.K. Betger (1877 - 1956), A.V. Korshun (1878 - 1961), V.N. Smolin (1887 - 1945), N.A.Burov (1885 - 1969), A.A.Garritskiy (1881 - 1946), O.V. Maslova (1893 - 1980) va boshqalarning nomi bilan bog'liqdir.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotida taniqli kutubxonashunos - bibliograf Evgeniy Karlovich Betger shaxsi bilan bevosita bog'liqdir. E.K. Betger kutubxonachilik ishi masalalarining ayrim jihatlariga, chunonchi hisobotlarni yagona tartibda va shaklda tuzish, kutubxona fondi va kataloglarni xalqaro o'nlik klassifikatsiya jadvallari asosida tashkil qilish, kutubxona xodimlarini o'qitish va qayta tayyorlash muammolariga katta ahamiyat bergen edi.

E.K. Betger tuzgan O'rta Osiyo Davlat kutubxonasining (hozirgi A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi) yillik hisobotlarida qiyosiy tahlil usuli qo'llanilgan bo'lib, uning natijasida kutubxonaning ijtimoiy rolining ortib borishini hamda mavjud kamchiliklarni bilib olish mumkin.

Turkiston Davlat kutubxonasida (Turkiston ommaviy kutubxonasining 50 yilligi munosabati bilan kutubxona 1920 yil may oyidan boshlab Davlat kutubxonasi deb atala boshlandi) ishlagan to'rt yillik tajribasi asosida E.K. Betger o'zining «Jadvallardan foydalanish qoidalari va uslubiy ko'rsatmalar» degan ishini yozadi. Bu kutubxonachilik sohasi bo'yicha yozilgan o'sha davrning muhim ishlaridan biri bo'lib, qator yillar mobaynida respublika kutubxona xodimlari uchun qoidalar yig'indisidan iborat qo'llanma bo'lib qoldi.

E.K. Betgerning "Eslatmalar, qo'shimcha tushuntirishlar va ulardan foydalanishning xilma – xil shakllarini alohida qismda jamlash" to'g'risidagi g'oyasi Brusseldagi Xalqaro kutubxonachilik oliy bilimgohi xodimlarida katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, shu bilimgoh asoschilaridan biri, uning bosh kotibi Pol Otle (1869 – 1944) 1923 yil 19 yanvarda E.K. Betger nomiga yozgan xatida 1922 yilda Turkiston ASSRda nashr qilingan O'nli klassifikatsiya jadvallaridan chuqr qoniqish hosil qilganligini bildiradi.

1923 yilda yozilgan "Kutubxonachilik ishining navbatdagi vazifalari va yangi iqtisodiy siyosat" degan maqolasida E.K. Betger kutubxonachilik bilimlarini ommalashtirish, tajriba va amaliyotda orttirilgan bilimlarini o'zaro baham ko'rish zarurligini, kutubxonashunoslikka oid asarlarini nashr qilish, kutubxonachilar

malakasini oshirish va ularni tayyorlash maqsadida kutubxonachilik kurslarini tashkil qilish va kutubxona xodimlarining anjuman va qurultoylarini vaqtiga vaqtiga bilan chaqirib turish-kutubxona qurilishining dolzARB vazifasi ekanligini takidlaydi.

1926 yilda A.L. Garritskiyning “Kutubxona xodimiga qisqacha qo’llanmasi” o’zbek tilida chop etiladi. Asarda kitob tavsiflashning umumiyligini qoidalari, alifboli, sistemali va predmet kataloglarini tashkil qilish, matbuot asarlarini klassifikatsiyalash bo'yicha tavsiyalar va ko’rsatmalar ishlab chiqilgan edi. Sharqshunos olim kutubxonachi va bibliograf Aleksandr Aleksandrovich Garritskiyning kutubxonashunoslik faniga qo’shgan muxim xissasi shundan iboratki, bиринчи мarta o’zbek tilida umumlashtirilgan tarzda kutubxonashunoslik lug’atshunosligi va uning umummiliy asoslarini ishlab chiqqan edi.

Bu xarakat uzbek kutubxonashunoslarining boshka ishlarida xam uz aksini topdi. Chunonchi, O.V. Maslova va M.N. Latipovalarning: Alifbo katalogi 1931 yil” degan amaliy qo’llanmasida, asarlarni tavsiflashda qo’llaniladigan ruscha va o’zbekcha qisqartirilgan izoxli lug’at va boshqalar o’zbek tilida nashr qilingan kitoblar asosida ishlab chiqariladi.

Shunday qilib, E.K.Betger tomonidan 1918 – 1922 yillarda nashr qilingan “O’nli bibliografik klassifikatsiyaning” ikki jadvali va 1920 hamda 1922 yillarda e’lon qilingan kutubxonachilik texnikasiga oid ayrim tavsiyalar O’zbekistonda oyoqqa tura boshlagan kutubxonashunoslik fanining poydevori bo’lsa, 1926 yili o’zbek tilida chiqqan A.A.Garritskiyning “Kutubxona xodimiga qisqacha qo’llanmasi”, shuningdek, 1931 yilda bosmadan chiqqan O.V.Maslova va M.N.Latipovalarning “Alifbo katalogi” nomli amaliy qo’llanmasida ishlab chiqilgan asarlarini tavsiflashda ishlatiladigan Ruscha – Uzbekcha qisqartirilgan izohli lug’at va boshqalar uning devorini ko’tarishda sinch vazifasini o’tar edi.

Umuman, O’zbekiston kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining bиринчи bosqichiga ta’rif berar ekanmiz, bu davrda o’zbek kutubxonashunosligrining amaliy va nazariy asoslari paydo bo’lib, shakllana borganligini qayd qilish zarur.

Uning amaliy asosi kutubxonachilik nazariyasining tashkiliy masalalari bilan bog’liq bo’lib, ular Markaziy idoralararo kutubxonachilik komissiyasining barpo qilinishi (1921 yil noyabr), kutubxona birlashmalarining tashkil qilinishi (dastlabki birlashma 1923 yil noyabrida Toshkent shahrida tashkil qilingan) xilma-xil kutubxonachilik kengashlari, anjumanlar, seminarlar va qurultoylarning

chaqirilishi, respublikada ayrim kutubxonalar faoliyatini tekshirish, kutubxona shaxobchalarini rivojlantirish rejalarini tuzish, yetakchi kutubxonalar ilg'or ish tajribasini o'rganish, targ'ib qilish va hokazolardir.

## **2.2. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining tabaqalanishi va ixtisoslashuvi (1946-1974 yillar)**

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining ikkinchi bosqichi (1946-1974 yillar), kutubxonashunoslik, muammolarining tobora kengayib borishi va ular bilan shug'ullanuvchi mualliflar orasida mahalliy aholi vakillarining ko'payishi bilan xarakterlanadi.

Kutubxonashunoslar tanlagan mavzular doirasida kutubxonachilik ishining umumiyligi masalalaridan tortib, alohida kutubxonalar faoliyati, kutubxona tarmoqlari, ular ishining ayrim yo'nalishlari, jumladan kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, kutubxona fondlari muammolari, kutubxonalar ishini tashkil qilish, kutubxonalarning ilg'or tajribalarini o'rganish, umumlashtirish va targ'ib qilish, boshqa kutubxonalar amaliyotiga joriy etish, shu maqsadda to'plamlar nashr qilish, lug'atlar, ma'lumotnomalar tuzish va nihoyat ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlash va himoya qilish bu bosqichga xos xususiyatlardir.

Bu ma'lum darajada kutubxonachilik – bibliografik fanlarining rivoj topa boshlaganligidan, ayni vaqtda uni asosiy rivojlantiruvchi kuchi ilmiy, malakali kadrlarini yetkazib berayotganligidan dalolat beradi.

Bunga 1958 yilda Qo'qon Pedagogika instituti tarkibida ochilgan kutubxonachilik fakulteti (1960 yildan Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutiga o'tkazilgan) va uning asosi bo'lgan "Kutubxonashunoslik va bibliografiya" kafedrasи tashkil topishi hamda ular tomonidan tayyorlangan oliy malakali kutubxonachi kadrlar katta hissa qo'shdi.

60-yillarda kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslilik fanlarining rivoj topishi va tabaqalanishi natijasida ularning har biri bo'yicha maxsus fanlar turkumi paydo bo'ldi. "Kutubxonashunoslik" va "Bibliografiya" kafedralari oliy malakali kutubxonachilarini tayyorlash jarayonida, o'quv, ilmiy va uslubiy ishlarning mazmuni va birligini belgilab berish bilan bir qatorda ilmiy – pedagogik kadrlarni yetishtirishda asosiy baza sifatida respublika kutubxonashunoslik fikrining shakllanishi va uning taraqqiyotida katta rol o'ynadi.

“Kutubxonashunoslik” fanining tabaqalanishi uning tarixiy jihatlarini chuqur o’rganish zaruratini vujudga keltiradi. 60 – 70 yillarda Nizomiy nomidagi TDPI kutubxonashunoslik kafedrasи o’qituvchilarining kutubxonachilik ishi tarixi, kutubxonalar va ularni kataloglashtirish tarixi muammolariga qiziqishning ortib borganligini qayd qilish lozim.

1966 yilda TDPI kutubxonashunoslik va bibliografiya kafedralari o’qituvchilarning ilmiy asarlari to’plami chiqdi. Unda kafedra o’qituvchilaridan N.V. Yaxontovaning “Revolyutsiyadan oldingi Turkistonda ilmiy kutubxonalar tarixidan”, O.G. Qosimovaning “Toshkent kutubxonalarida chet el vaqtli matbuotining yig’ma katalogi”, Yu.B. Abramovning “O’z.SSRda markazlashtirilgan kataloglashtirish tarixidan” kabi ilmiy maqolalari o’rin olgan edi.

O.G.Qosimova uz maqolasida Rossiyaning O’rta Osiyon bosib olganidan keyin Turkistonda ochilgan yangi tipdagи kutubxonalarning ommaviy, axborot, harbiy, o’quv yurtlari va maktab kutubxonalari, pullik, shaxsiy va jamoatchilik kutubxonalar, kutubxona va qiroatxonalar, keng xalq ommasi uchun ochilgan dastlabki musulmon kutubxonalari va shahar kutubxonalarining paydo bo’lishi, ularning faoliyati, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan bo’lsa, N.V. Yaxontova o’z maqolasida kutubxonalarning yana bir turi – ilmiy kutubxonalarga e’tiborini qaratgan. Natijada 1870 – 1917 yillarda Turkistonda tashkil qilingan va faoliyat ko’rsatgan kutubxonalarning umumiy silsilasi, ularning ahamiyati to’grisida bir butun tarixiy bilimga ega bo’lamiz.

Yu.V. Abramovning tadqiqotida esa respublikada markazlashtirilgan kataloglashtirish tarixi, uning axvoli va uning bundan keyingi taraqqiyotini belgilab beruvchi chora – tadbirlar namoyon qilingan. Mualliflar o’z ishlarida o’sha davrda kutubxonachilik ishining u yoki bu masalalarini rivojlantirishga xissa qo’shgan O.V. Maslova, V.N. Smolin, G.A. Arakelyants, A.I. Ageev kabi kutubxonashunos – bibliograflarning faoliyatiga o’zlarining ijobiylarini munosabatlarini bildirishgan.

1965 yilda Toshkent Davlat Dorilfununida respublikada birinchi marta kutubxonachilik ishi tarixi bo’yicha O.G. Qosimovaning “O’zbekistonda ommaviy kutubxonalar tarmog’ining rivojlanishi” mavzusida fan nomzodligi uchun nomzodlik ishi himoya qilindi.

1966 yilda nashrdan chiqqan O.G. Qosimovaning “O’zbekistonda kutubxonachilik ishi” monografiyasida 1917 yil oktyabr inqilobidan oldingi Turkiston, Turon o’lkasi kutubxonalarining paydo bo’lishi,

ularning ahvoldidan tortib (asarning deyarli yarmiga yaqin) to 1968 yilgacha bo'lgan davrda respublikada kutubxonachilik ishining tarixiga bag'ishlangan.

Shu davrda yana bir ilmiy tadqiqot ishi nihoyasiga etkazildi. Bu A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi xodimi Yu.B. Abramovning ishi bo'lib, u Leningrad Davlat Madaniyat institutida 1967 yilda "O'zSSRda kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotning rivojlanishi" mavzuida dissertatsiyasini himoya qilgan edi.

1969 yilda amaliyotchi – kutubxonashunoslardan biri, ko'p yillar mobaynida ToshDDning ilmiy kutubxonasida faoliyat ko'rsatgan, 1971 yildan TDPK "Kutubxonashunoslik" kafedrasining, 1974 yildan TDMI ning dotsenti A.I. Kormilitsinning "Inqilobdan oldingi Turkistonda kutubxonachilik ishi tarixi" (1868 – 1917 yillar) mavzusidagi fan nomzodligi uchun ilmiy ishi himoya qilindi. Bu tadqiqotga uning shu davrlarda e'lon qilingan "Inqilobdan oldingi Turkistonda ilmiy – tibbiy jamiyatlar kutubxonalari", "Inqilobdan oldingi Turkistonda ayrim ilmiy – jamiyatlar kutubxonalari va ularning ilmiy – texnik bilimlarini tarqatishdagi ahamiyati", "Turkiston ommaviy kutubxonasi va uning inqilobdan oldingi Turkistonning madaniy hayotidagi roli", "Nolegal kutubxonalar va ularning Toshkentda inqilobiy adabiyotlarini tarqatishdagi roli", "Temiryo'lchilarning ishchi kutubxonalari va ularning mehnatkashlarning inqilobiy ongini uyg'otishdagi roli", "Samarqand jamoatchilik kutubxonasida nolegal adabiyotlarning targ'iboti" kabi asarlari asos qilib olingan.

70-yillarda kutubxonashunoslik – bibliografik fanlarining taraqqiy etishi, ularning ixtisoslashuvi, shuningdek, respublikada malakali kutubxonachi xodimlarni tayyorlash, ularni o'qitish, soha bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarini uyushtirish va tashkil qilish hamda kundalik amaliyotda, kutubxonachilik – biliografik terminlarini tartibga keltirish zarurati davr talabi bo'lib qolgan edi. Shunday sharoitda, O.R. Qosimova, Yo. Qodirovalarning o'zbek tilida "Kutubxonashunoslik va bibliografik bo'yicha qisqacha izohli terminologik lug'at" nashr qilindi.

70-yillarning birinchi yarmida ilmiy kutubxonalar tarixi xam maxsus o'rjanila boshlaganligini ko'ramiz. 1973 yilda M.A. Raximova ToshDDda "O'zbekiston SSR ilmiy kutubxonalari taraqqiyoti tarixi" (1917 – 1941 yillar) mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi.

Shu tipdag'i kutubxonalarning bundan keyingi davrdagi rivojlanish tarixini B.K. Karimov o'zining «O'zbekiston SSRda ilmiy kutubxonalar

taraqqiyoti» (1941-1970) mavzusidagi nomzodlik ishida davom ettirgan. Tadqiqot Moskva Davlat Madaniyat institutida ximoya qilingan.

Shunday qilib, Respublikada kutubxonashunoslik fani rivojlanishining ikkinchi bosqichiga (1946-1974 yillar) ta’rif berar ekanmiz, quyidagicha umumiy xulosa qilish mumkin:

- respublika kutubxonalar faoliyati to’g’risida obzor-axborot tarzidagi maqolalar ko’payib bordi;

- kutubxonalardagi ilg’or tajribalarni o’rganish, umumlashtirish va joriy qilish bo’yicha materiallar, to’plamlar nashr qilina boshlanadi;

- amaliyotchi va nazariyotchi kutubxonashunoslarning respublikada kutubxonachilik ishi, uning ahvoli va istiqbollari to’grisidagi tadqiqotlari chiqa boshladi;

- ma’lumotnomma tipidagi, lug’atlar tarzidagi nashrlar paydo bo’ldi;

Bundan kelib chiqadigan birinchi xulosa shundan iboratki, bu bosqichda kutubxonachilik ishining umumiy masalalari bilan bir qatorda, uning ayrim yo’nalishlari bo’yicha, jumladan, kutubxonalarning tiplari va ular faoliyatining ba’zi muammolariga (kataloglashtirish; kutubxonalararo abonnement, ochiq kitob jamg’armasi va h.k) bag’ishlangan tadqiqotlar amalga oshirildi.

Ikkinchidan, respublikada kutubxonalar ahvolini kuzatib boruvchi va ularni rivojlantirishdan manfaatdor shaxslar hisoblangan amaliyotchi ham nazariyotchi ilmiy kadrlar yetishib chiqdi va shakllandi (oliy malakali kutubxonachi – bibliograflar tayyorlaydigan oliy kutubxonachilik ta’limining barpo qilinishi), 1974 yildan esa TDMI va uning “Kutubxonashunoslik” (1968 yil), “Bibliografiya” (1968 yil), “Bolalar adabiyoti va bolalar bilan kutubxonachilik ishi” (1974 yil), “Kutubxona fondlari va kataloglari” (1980 yil), “Informatika va kutubxonalarda texnik vositala”» (1977 yil) kabi maxsus kafedralarning tashkil qilinishi unga ijobjiy ta’sir ko’rsatdi.

Uchinchidan, A. Navoiy nomidagi O’zbekiston Davlat kutubxonasi Respublikada kutubxonachilik ishining funksional va ilmiy tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirgan holda uning tashkiliy markazi bo’lib qoldi.

## **2.3. Respublikada kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi (1975-1990yillar)**

Respublikada kutubxonashunoslik fani rivojining uchinchi boqichida (1975-1990yillar) soha bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlar darajasi yangi pog'onaga ko'tarildi. Kutubxona tarmoqlari va kutubxonashunoslik, kitob tarixi va uning umumiyligi muammolari rivoji bo'yicha 1976-1980, 1981-1990 va 2000 yilgacha bo'lgan davrlarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlarning istiqbolli rejalari ishlab chiqildi.

Bu davrda kutubxonashunoslik fani tarkibiy qismlaridan bo'lgan kutubxonachilik ishi tarixi, umumiyligi kutubxonashunslik, kitobxonlar xizmat ko'rsatish, kutubxona ishini tashkil qilish va boshqarish kabi maxsus o'quv predmetlarini nazariy va ilmiy jihatidan asoslashga, ularni o'qitish uslubiyatlarini ishlab chiqishga muvofiq bo'lishdi. 80 - yillarning 2 yarmidan boshlab, respublika xususiyatlarini hisobga olgan mustaqil darsliklar, qo'llanmalar ishlab chiqildi va o'qitila boshlandi.

1975-1990 yillar moboynida respublikada jami 9 ta doktorlik va 8 ta nomzodlik ilmiy-tadqiqot ishlarini nihoyasiga yetkazgan bo'lsalar, shundan 1 ta doktorlik va 7 ta nomzodlik ishi Toshkent davlat madaniyat instituti o'qituvchilariga taaluqlidir.

Bu davrda professor O. G'. Qosimovaning "O'zbekistonda kutubxona ishi tarixi" darsligi yaratildi va shu institut talabalariga darslik sifatida o'qitila boshladi. Darslikda kutubxonalarning jamiyatdagi urni, ulardagi targibot va tadkikot usullarining madaniy – ma'rifiy faoliyat bilan boglanishi, kutubxonalar bilan ishslash usuli va shakllarni takomillashtirish masallalari keng yoritilgan. Respublikada kutubxonachilik ishini taraqqiy ettirishning asosiy yo'naliishlari belgilab berilgan.

1982 yilda O'zbekiston FA Tarix instituti koshida, respublikada birinchi marta kutubxonashunoslik soxasida O. Qosimovaning "O'zbekiston SSRda kutubxonachilik ishi rivojlanishi tarixi va uning mexnatkashlarni komunistik ruhda tarbiyalashdagi roli" (1917-1975 yillar) nomli doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati va fanga qo'shgan hissasi shundaki, unda kutubxonachilik ishi birinchi marta maxsus va har tomonlama yoritilganligi hamda O'zbekistonda Sovet hokimiyyati ishlarida kutubxonachilik qurilishiga bag'ishlangan kompleks tadqiqot ekanligidadir.

Bu davrda Kutubxonashunoslik kafedrasasi o'qituvchilari ijodida kutubxonashunoslikning umumiy masalalariga bag'ishlangan muammolar birmuncha mufassal ishlangan deyish lozim. Respublikada kutubxonashunoslik fanining umumiy masalalari hamda uning ayrim yo'naliishlarini yanada kengroq yoritadigan, kafedra o'qituvchilari jamoasi tomonidan tayyorlangan muhim tadqiqot 1989 yilda nihoyasiga yetkazildi. Umumiy hajmi 12 bosma taboqdan iborat bu "O'zbekistonda kutubxonachilik ishi" o'quv qo'llanmasini yaratishda kafedraning eng tajribali o'qituvchilaridan prof. O. Kosimova, dotsent T.X. Kim, katta o'qituvchilaridan T. Esimov, A.P. Kovalenko, T. Shokirov, D. Mamajonovalar qatnashgan.

Tadqiq qilinayotgan davrda (1975 – 1990 yillar) kutubxonachilk ishining eng muhim masalalaridan biri – kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish va u bilan bog'liq muammolar hisoblanadi. 1979 yilda A. Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti maxsus kafedralari o'qituvchilarning ilmiy asarlari to'plamini nashrdan chiqardi. To'plamda klub va kutubxonachilik ishining dolzarb masalalari yoritilgan.

To'plamda e'lon qilingan maqolalarda respublikada amalga oshirilayotgan davlat ommaviy kutubxona tarmoq'larini markazlashtirish asosida qayta qurish, ularning samaradorligini oshirish, ilmiy – texnika kutubxonalari faoliyatini fan – texnika taraqqiyoti darajasida tashkil qilish, kutubxonachilik axborot xizmatini takomillashtirish sharoitida kutubxonalar ishini yaxshilashning ayrim tomonlarigina o'z aksini topgan edi.

1984 yilda kafedra o'qituvchilarini "O'zbekistonda MKSning faoliyatini optimallashtirish" nomli maqolalar to'plami bosmadan chiqadi. To'plamda birinchi marta respublikada davlat ommaviy kutubxona tarmoqlari to'la markazlashtirishdan so'ng erishilgan yutuq va kamchiliklarni, ilg'or ish usullari umumlashtirilgan, tahlil qilingan. To'plamda O. Kosimova, A.P. Kovalenko, D. Mamajonova, T.K. Kim, A.M. Gertsenova, D.N. Mavlonova, T. Esimov, R.N. Domaratskayaning ilmiy maqolalari chop etildi.

1982 yilda "Bolalar adabiyoti va kutubxonachilik ishlari" kafedrasining katta o'qituvchisi E. Yo'ldoshev o'zining "O'zbekistonda bolalarga kutubxonachilik xizmatining ko'rsatilishi: shakllanishi, rivojlanishi, istiqbollari" mavzusida nomzodlik ishini himoya qiladi. Professor E. Yo'ldoshev respublikada birinchi marta bolalarga kutubxonachilik xizmati ko'rsatilishini maxsus, atroflicha tahlil qilgan

va ma'lum darajada uni nihoyasiga yetkazgan shaxsdir. Muallif institutning maxsus kafedrasida ishlagan qator yillar davomida bolalar adabiyoti, kitobxonlar bilan ishlash, kitobxonlar qiziqishi va ular ruhiyatini o'rganish masalalari bilan bevosita shug'ullangan. Bu uning qator kitoblari va ilmiy maqolalarida o'z aksini topgan.

Maktab kutubxonasining bolalar va yoshlarni tarbiyalashdagi roli va vazifalari, ahamiyati, ularning ishini tashkil qilish, jamg'armalarini shakllantirish, kitobxonlar bilan ishlash va ularni o'qishiga rahbarlik qilish muammolari E. Yo'ldoshevning E.T. Islomov bilan hamkorlikda yaratgan "Maktab kutubxonasining ishi" nomli qo'llanmasida o'z aksini topgan.

80 – yillarda respublika kutubxonashunoslik fanining rivojlanish belgilaridan biri sifatida uning lug'aviy asoslarini yangi nashr bilan yoritish edi. Bu davrga kelib, O. Kosimova va Yo.R. Kodirovalar tomonidan tuzilgan o'zbek tilidagi birinchi "Kutubxonashunoslik va biliografiyaga oid terminlarning qisqacha izohli lug'ati" nashri hajman juda kichik bo'lib, (400 terminni o'z ichiga olgan edi), kutubxonashunoslik nazariyasi va kutubxonachilik amaliyotidagi ko'plab o'zgarishlarni aks ettira olmas edi.

Mana shu "bo'shliqni" birmuncha to'ldirishda institutning tilshunoslik kafedrasi olimlari X. Abduraxmonov, N. Maxmudov, R. Shukurovlar tomonidan tayyorlangan "Madaniy – oqartuv xodimlari uchun qisqacha izohli lug'at" ijobiy o'rinni egallaydi. Lug'atda kutubxonashunoslik va bibliografiya, kitobshunoslik, madaniy – oqartuv ishlari, musiqa, xoreografiya, teatr va kino san'atiga oid terminlar, madaniyat tushuncha ostida birlashtirib, umumiyligi alifbo tartibida joylashtirilgan va izohlangan.

Lug'atda jami 1500 dan ortiq madaniyat tushunchasi bo'lsa, shundan 700 ga yaqin kutubxonashunoslik, biliografiyashunoslik va kitobxonlik masalalariga bag'ishlangan. Bu terminlar juda qisqa va ixcham tarzda izohlangan. Garchi mualliflar o'zlaridan oldingi lug'atlardan foydalanganliklarini qayd qilishgan bo'lsada (shu jumladan 1976 yilgi ruscha lug'atdan ham) kutubxonashunoslikning o'sha davrdagi eng muhim asosiy terminlari nazardan chetda qoldirilib, ikkinchi, uchunchi darajadagi tushunchalar kirib qolgan.

Bu kamchiliklardan qat'iy nazar, tilshunoslari lug'atni tuzishda katta jonbozlik ko'rsatishgan, bu bilan kutubxonachilarga, talabalarga kutubxonashunoslik terminlarininig mohiyatini tushunib yetishga va ularni amalda ishlatishga yordam bergen, fan rivojiga hissa ko'shgan.

Bu davrda kutubxonashunoslik kafedrasini o'qituvchilari tomonidan O'zbekiston kutubxonalar ishini tashkil qilish va boshqarish masalalari ham ma'lum darajada o'rganilgan va ishlab chiqilgan. Jumladan, kafedraning katta o'kituvchisi A.P. Kovalenkoning 1984 yilda "O'zSSRda kutubxonachilik ishini boshqarish va tashkil qilish masalalari" degan o'quv qo'llanmasi nashrdan chiqdi. Unda kutubxonalarga davlat va uslubiy rahbarlikni tashkil qilish, ilmiy – tadqiqot ishlarining taraqqiyoti hamda kutubxonalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalalari bayon qilinadi. Mazkur muammolar O'zbekiston xususiyatlarini hisobga olgan holda hamda kutubxonalar tajribalari asosida yoritilganligi bilan ahamiyatlidir.

Sobiq ittifoqda va respublikamizda kutubxonashunoslik fani va kutubxonachilik ishida erishgan yutuqlar natijasida 80 – yillarning ikkinchi yarmida kutubxonachilik kasbiga, kitob va kitobxon o'rtasidagi vositachi sifatidagi kutubxonachining shaxsiga e'tiborni qaratish, jamiyatda kutubxonachining nufuzini ko'tarish, ularni talab darajasida tayyorlash asosida kutubxonashunoslik tafakkurini rivojlantirish masalasi yetakchi oqimlardan biriga aylandi.

Ana shu muammo kutubxonashunoslik kafedrasining katta o'qituvchisi, fan nomzodi I.M. Troitskayaning "Kutubxonachilik kasbi: iste'dod bosqichlari" degan maqolasida o'z aksini topdi. Muallif kutubxonachilik kasbiga xos bo'lgan eng umumi xususiyatlarni, uning qadimiyligini, insonparvarligini, ayni paytda ko'p qirraligini, shuning uchun unga havas qilishning o'zi kamlik qilishini, ishslash uchun kasbga haqiqiy mehr – muhabbat bo'lish zarurligini jahondagi mashhur kutubxonachilar faoliyati, misolida bayon qilib beradi.

1987 yilda I.M. Troitskaya tomonidan tuzilgan "O'z SSRda kutubxonalar tipologiyasi" nomli o'quv–uslubiy qo'llanma e'lon qilindi. Qo'llanmada kutubxonashunoslikning eng dolzarb va murakkab hisoblangan muammosi – kutubxonalar turkumi va turlari muammosini talabalarga ommabop shaklda tushuntirib berishga harakat qilingan. 1989 yilda I.M. Troitskaya taniqli kutubxonashunos va bibliograf, kitobshunos va tarixchi olim E.K. Betgerning 100 yilligiga bag'shlangan A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining yubiley to'plamida "Evgeniy Karlovich Betger" va "Turkiston to'plami" degan ilmiy maqola bilan chiqdi. Unda XIX asrning ikkinchi yarmidan to oktyabr inqilobigacha bo'lgan davrda Turkiston va O'rta Osiyo tarixini o'rganish bo'yicha bitmas – tuganmas manba hisoblangan "Turkiston to'plami"ni ommalashtirishda, uning mohiyatini tadqiqotchilar va

kelajak avlodga yetkazishda E.K. Betgerning roli har tomonlama tahlil qilingan.

80 - yillar tadqiqotchilar faoliyatida kutubxona tarmoqlarini markazlashtirish masalasi asosiy yo'nalishlardan biri bo'lgani ma'lumdir. Markazlashtirishgan kutubxonalar tizimi sharoitida kitobxonlarga xizmat ko'rsatishga oid bir turkum ishlar kutubxonashunoslik kafedrasining dotsent, fan nomzodi M.M. Rasulovga taalluqlidir. M.M. Rasulov 1987 yilda "MKSda ommaviy qishloq xo'jalik kasbi mehnatkashlariga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish" (O'zbekiston materiallari asosida) mavzusida nomzodlik ishini himoya qildi. Muallif O'zbekistondagi eng ommaviy kasb egalari-brigadirlar, zveno boshliqlari, mexanizatorlar, shofyorlar, dehqonlar, chorvadorlar va boshqalarga kutubxona xizmatini tashkil qilishning ahvoli, xususiyatlari, uni yaxshilash yo'llari, muammolarini o'ziga xos tarzda tadqiq qilgan.

O'rganiliyotgan davrda yana bir muhim muammo-maktab o'qituvchilariga kutubxona xizmatini ko'rsatish masalalari kafedraning katta o'qituvchisi M.X. Maximov 1990 yilda Moskva Davlat madaniyat institutida "Umumta'lim maktablari o'qituvchilariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatish: hozirgi ahvoli va rivojlanish istiqboli" (O'zbekiston materiallari asosida) mavzusida nomzodlik ilmiy ishini himoya qiladi.

Muallif o'z tadqiqotiga umumta'lim maktablari o'qituvchilariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatishni takomillashtirish yo'llarini asoslab berish maqsadida uning asosiy bosqichlarini aniqlab, o'qituvchilarning kitobxon sifatida ijtimoiy-demografik, ruhiy-pedagogik qiziqishlarining shakllanish omillarini, umumta'lim maktablari pedagoglariga kutubxonachilik xizmatini ko'rsatishning bir butun tizimini yaratish va takomillashtirishning tashkiliy – uslubiy shart-sharoitlarini ochib beradi.

1988 yilda institutning "Kutubxona fondlari va kataloglari" kafedrasining katta o'qituvchisi M.A. Zuparova (hozir Moskva davlat madaniyat va san'at universitetida ishlamoqda) o'zining "Milliy – rus ikki tilidagi sharoitida sistematik katalog: tashkil qilish muammolari va takomillashtirish yo'llari" mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qildi. U sobiq ittifoqda birinchi marta sistemali katalogni tashkil qilishda turli tillardagi mazmuni bir xil nashrlarni bir joyda aks ettirish masalasini ham nazariy ham amaliy jihatdan asoslab berdi.

Sistemali katalog tuzish nazariyasi va amaliyoti masalalariga bag'shlangan yana bir ish shu kafedraning katta o'qituvchisi N. Kattaxo'jayev tomonidan amalga oshirilgan. 1990 yilda muallifning "Sovet kutubxonachilik klassifikatsiyasi bo'yicha hujjatlarni sistemalashtirish" nomli o'quv qo'llanmasi nashr qilinadi. Qo'llanma kataloglashtirish nazariyasi va amaliyotidagi so'ngi yutuqlar hisobga olingan holda yaratilgan.

Kutubxonashunoslik kafedrasи dotsenti E.O. Oxunjonovning tadqiqot obyekti kitob va kitobshunoslik masalalaridir. U 1979 yilda Moskva matbaachilik institutida "O'zSSRda kitob nashr qilish ishining shakllanishi va rivojlanishi (asosiy bosqichlar va yetakchi oqimlar) mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan bo'lib, undan oldin "O'zbekistonda kitob va kitob ishi: O'zbekistonning kitob ishi bo'yicha adabiyotlar obzori va manbaalar ko'rsatkichi (1875 – 1977 yillar) nomli risolasini yozgan. Unga muallif respublikada birinchi marta o'zbek kitobat ishi bo'yicha 1875-1977 yillarda rus va uzbek tilida nashr qilingan X-XX asrlar mobaynida paydo bo'lgan eng muhim bosma asarlarning tanqidiy obzorini hamda uning tahlilini bergen.

1982 yilda Z.I .Esenbayev va E.Oxunjonovlar hamkorligida yozilgan "Assalom kitob" nomli monografiya nashrdan chiqadi. Unda mualliflar Turkistonda matbaachilikishining vujudga kelishi, uning Sovet O'zbekistonida taraqqiy etish muammolarini katta ijodiy jo'shqinlik, ilmiy g'urur bilan hikoya qiladi. Matbaachilikning yutuq va kamchiliklari, bugungi ahvoli va uning istiqboli faktik materiallar asosida yoritiladi.

E. Oxunjonovning "Xat va kitob" nomli risolasi O'rta Osiyoda yozuv tarixi va qo'lyozma kitoblarning paydo bo'lishi masalasiga bag'ishlangan. Muallifning 1989 yilda chop etilgan "Qadimgi yozuvlar" risolaside qadimgi Finikiya yozuvlari, oromiy, yunon, arab, turk va boshqa shu singari yozuvlar tizimi, tarixi, ularning xususiyatlari, bizning davrimizgacha yetib kelish masalalari bayon qilingan. Risolaning o'zbek tilida nashr qilinishi ayniqsa ahamiyatlidir.

E. Oxunjonovning 1993 yili chop qilingan "O'rta Osiyoda kitob tarixi va kitob ishi bo'yicha ocherklar" nomli ilmiy asari muallifning qariyb 15 yillik mehnatini umumlashtiradi. Qadimgi va ilk o'rta asrlarda yozuv va kitob ishi tarixi, O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarishnnig vujudga kelishi va rivojlanishi, qo'lyozma va toshbosma usulidagi kitoblar, ularni ko'paytirish, kutubxonalar va kitobsevarlar, bibliografiyaning paydo bo'lishi eng muhim bibliografik ishlarning

tahlili, kitob savdosi va kitobfurushlar kabi mavzular muallif tadqiqotning obyekti hisoblanadi.

Muallif tomonidan yaratilgan bu asarlar O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy tarixining tarkibiy qismi bo'lgan "kitobshunoslik" faniga qo'shilgan katta hissadir.

70 – 80 yillarda institut maxsus kafedralari o'qituvchilari faoliyatining faollashganligini, ularning turli mazmundagi ilmiy – ommabop maqolalarining kutubxonachilik to'plamlarida, shuningdek markaziy matbuotda chiqa boshlaganligidan ham anglab olish mumkin. 1976 yildan A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi tomonidan chiqarila boshlangan "O'zbekiston kutubxonalari" nomli davomli nashrning roli kattadir. Dastavval ilmiy asarlar to'plami sifatida chiqarilishi mo'ljallangan nashrning birinchi chiqarilishidanoq respublika kutubxonalari amaliyotidagi ilg'or tajribalar haqidagi xilma – xil mavzularni targ'ib qiluvchi minbarga aylanadi. To'plamga materiallarni tanlab olish printsipini belgilab olish jarayonida uning nomi "Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti" to'plami, 7 – chiqarilishidan boshlab esa, "Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maqolalar to'plami" sarlavhasi ostida va nihoyat hozir esa "O'zbekiston kutubxonachiligi: Kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha maqolalar to'plami" nomi bilan chiqarilmoqda.

Bu bosqichning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, institut o'qituvchilari respublikada va undan tashqari uyuştirilgan xalqaro anjumanlarda ham ishtirok etib, o'z ma'ruzalar bilan chiqdilar. Shunday anjumanlardan biri 1990 yil Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan "Sharq xalqlari madaniyat taraqqiyotida kitob: tarixi va hozirgi ahvoli" nomli xalqaro ilmiy-nazariya anjumanidir. Anjumanda E. Oxunjonov, I.A.Zuparov, L.N.Muminxojayeva, M.M.Nematova N.Usanov Yo.Roziqova va boshqalar o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etdilar.

1975-1990 yillardagi ahvolini nazardan kechirar ekanmiz, tadqiqotchilar bu davrda kutubxonashunoslikning asosiy masalasi bo'lgan kutubxonalarning ijtimoiy rolini aniqlashga harakat qilganliklarini ta'kidlash mumkin.

Bu bosqichda kutubxonachilik ishininig turli yo'nalishlari bo'yicha 1 ta doktorlik, 8 ta nomzodlik ishlarining tayyorlanishi va himoya qilinishining o'zi respublikada kutubxonashunoslik fanining yangi pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, bu tadqiqotlardan “Kutubxonalar fondlari va kataloglari” kafedrasining o’qituvchilarini V.V.Sadurskayaning “Yuqori sinf o’qituvchilarining bilishga oid faolligini shakllantirishda yoshlar kutubxonasi, maktab, ishlab chiqarish jamoasining o’zaro hamkorligi” (1984 yil) hamda M.L.Zuparovning “Milliy – rus ikki tilligi sharoitida sistematik katalog: tashkil qilish muammolari va takomillashtirish yo’llari» (1990 yil) kabi nomzodlik ishlari nafaqat respublikada balki sobiq ittifoq ahamiyatidagi muammolarni o’z ichiga olganligi va tadqiq qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

Shunday qilib, respublikada kutubxonashunoslik fani rivojlanishining uchinchi bosqichi (1975 – 1990 y.) bo'yicha xulosa qilar ekanmiz, bu davrda institut o’qituvchilarini fan taraqqiyoti uchun ancha ishlarni amalga oshirganliklarini ta'kidlash zarur. Ular kutubxonashunoslik fanning ma'lum bir tarkibiy qismlari muammolari ustida ham ilmiy uslubiy ham tadqiqiy ishlarni olib bordilar. Endilikda respublikada kutubxonachilik ishi tarixi va uning nazariy asoslari “Kutubxonashunoslik” kafedrasini o’qituvchilarini va boshqa kutubxonashunoslardan deyarli to’la ishlab chiqildi va ishlarni olib borilmoqda. Tadqiqotchilar respublikada kutubxonalarning ijtimoiy rolini ortib borishi masalasi yuzasidan o’zlarining qat’iy fikrlarini bildirishmagan bo’lsalarda, kutubxonachilik amaliyotining nazariy asoslarini ishlab chiqishda ma'lum yutuqlarga erishdilar.

#### **2.4. Mustaqillik yillarda kutubxonashunoslik fanining rivojlantirishi (1991 yildan keyingi davr)**

O’zbekistonda kutubxonashunoslik fani rivojlanishining 4-bosqichi 1991 yil va undan keyingi yillarni o’z ichiga oladi. Bu bosqichning xususiyati shundan iboratki, bu davrga kelib, respublikada kutubxonashunoslik fani nazariyasi va kutubxonachilik ishi amaliyotini tashkil qilish borasida eskicha ma’muriy buyruqbozlik tizimi davrida tarkib topgan qarashlardan xalos bo’lishi, istiqlol tafakkurini shakllantirish birinchi o’ringa chiqadi.

Shu sababli fanning ayrim muammolarin ishlab chiqish va o’rganishda milliy xususiyatlarni hisobga olish va aks ettirish, kutubxonachilik ishining iqtisodiy va huquqiy asoslarini ishlab chiqish va mustahkamlash, bozor iqtisodiyotiga o’tish sharoitida kutubxonalar ishini tashkil qilish muammolarini aniqlash va ishlab chiqish,

kutubxonachilik ishini boshqarish va rahbarlik qilishda davlat-jamoatchilik tizimini vujudga keltirish, demokratik jamiyatda kutubxonalarning ijtimoiy roli va uni takomillashtirish masalalari kun tartibida turadi.

Jamiyatda iqtisodiy munosbatlar asosida o'zgartirishga qaratilgan yo'lni amalga oshirishni ijtimoiy va ishlab – chiqarish munosabatlarini takomillashtirish borasidagi nazariy tadqiqotlarni faollashtirmay turib, tasavvur qilish mumkin emas. Kutubxonachilik ishi ham ana shu nazariy tadqiqotlar sohasining ajralmas qismi hisoblanadi. Demak, kutubxonashunoslik fani ijtimoiy jihatdan ahamiyatli, kompleks muammolarni tahlil qilib berishi, ularning ishlab chiqilishi esa kutubxonachilik ishining yanada yuksalishini ta'minlashi darkor.

O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining tadqiqot obyekti turli tarmoqlar va idoralarga qarashli 11 mingdan ortiq axborot-kutubxona muassasalaridir. Ular 6,3 mln. foydalanuvchiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatmoqda. Ushbu muassasalarda 83, 6 mln. nusxadagi adabiyotlar saqlanmoqda. Shulardan 3,5 mln. nusxasi elektron shaklda.

Umuman bu muammolarni asosiy ikki muhim guruhga bo'lish mumkin:

birinchi – respublika kutubxonalari ilmiy – tadqiqot faoliyatining istiqbolli yo'nalishlaridan bo'lgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish davrida kitob va kitob o'kishning rolini o'rganish bulsa;

ikkinchisi – kutubxonalarning yangi sharoitda ishlab turishini, kutubxonalarning o'zaro aloqalari, ularning boshqa madaniy – ma'rifiy muassasalar, axborot organlari bilan aloqasini yaxshilash, hamkorlik qilish, muvofiqlashtirish masalalari bilan bog'liqdir. Bu muammolar respublika ilmiy markazlarning kutubxona turlarini samarali joylashtirish va ulardan unumli foydalanish yo'llarini qidirib topishga bag'ishlangan tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Ilmiy- tadqiqot ishlari natijalari keng kutubxonachilik jamoatchiliga turli xil nashrlar yordamida: monografiyalar, maqolalar to'plami, vaqtli matbuotdagi maqolalar, ilmiy hisobotlar, ilmiy-amaliy konferentsiyalar tavsiyalari, metodik, o'quv qo'llanmalari, dissertatsiyalar avtoreferatlari va boshqalar orqali etkaziladi.

XX asrning ikkinchi yarmi kutubxonashunoslik tadqiqotlarining umumnazariy masalalarining o'rganilishi va ularni kengligi bilan xarakterlanadi. Tarixiy-kutubxonashunoslik muammolariga, kutubxonalarni ijtimoiy roliga, kutubxonashunoslikning xususiy qismlarini o'rganishga alohida e'tibor berila boshlandi.

Kutubxonashunoslik fani ijtimoiy institut sifatida sifat jihatidan uni infrastrukturasi o'zgara boshladi; yirik ilmiy universal va maxsus kutubxonalarda ilmiy-tadqiqot bo'limlari tashkil etila boshlandi. "Советское библиотековедение" ilmiy-nazariy to'plami chop etila boshlandi. O'zbekistonda "O'zbekiston kutubxonashunosligi" va "Betgerxonlik o'qishlari" to'plamlari tashkil etildi. Ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni aspirantura va doktorantura tizimlari joriy etildi.

Zamonaviy kutubxonashunoslikning asosiy o'ziga xosligi - uning yangi va yagona umuminsoniy qadriyatlar metodologiyasi asosida rivojlanishidir. Ushbu vazifalarni muvaffiqiyatli hal etilishi kutubxonachilik fanini hozirgi axborot-kutubxona faoliyatini ulkan axborot industriyasining bir qismi sifatida qarash orqali, o'zini asosiy nazariy masalalarini yangi sifat ko'rsatkichlarida hal etishga bog'liqdir.

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining taraqqiyotini asosiy bosqichlarini bilasizmi?
2. Respublikada kutubxonashunoslik fanining shakllanishiga o'z hissalarini qo'shgan yirik mutaxassislarni qayd eting.
3. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan taniqli, sharqshunos olim, kutubxonashunos - bibliograf?
4. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining ikkinchi bosqichi (1946-1974 yillar) asosan nimasi bilan xarakterlanadi?
5. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fani taraqqiyotining ikkinchi bosqichi (1946-1974 yillar) da kutubxonachilik ishini umumiylasalari bilan bir qatorda yana qanday masalalari o'rGANildi?
6. Bu yillarda qanday maxsus kafedralar tashkil etildi
7. 1975-1990 yillardagi ilmiy-tadqiqot ishlarida kutubxonashunoslikning qanday asosiy masalasini aniqlashga harakat qilingan?
8. Ushbu davrda O'zbekistonda qanday kutubxonachilik tuplamlarida chop etilgan va u qanday nomlangan?
9. XX asrning ikkinchi yarmi kutubxonashunoslik tadqiqotlarining qanday masalarini o'rGANilishi bilan xarakterlanadi?

10. Zamonaviy kutubxonashunoslik qanday asosiy metodologiya asosida rivojlanmoqda?

### **3- BOB. KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING METODOLOGIYASI VA METODLARI, UNI BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LIQLIGI**

#### **3.1. Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi**

Fan dunyo haqidagi nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi. Fanning asosiy vazifasi o'zi o'rganayotgan narsa va hodisalarning taraqqiyot qonunlarini ohib berishdan iborat. Insoniyat taraqqiyoti jarayonida vujudga keladigan har qanday fan o'z predmeti va tadqiqot usullariga ega. Har bir fan nazariy jihatdan tizimlashgan bilimlar yig'indisi sifatida tadqiqot jarayonida xilma-xil ilmiy usullardan foydalanadi.

Ko'pchilik fanlarda qo'llanadigan usullar umumiylashtirilishi deyiladi. Umumiylashtirilishi doirasiga ko'ra umumiylashtirilishi, lekin o'z maxsus vazifasiga ega. Shuning uchun bilish metodologiyasi bizga bilishning umumiylashtirilishi va tafakkur usulini rivojlanish qonunlarini asoslab beradi. Har bir aniq fanning o'zi qo'llaydigan xususiy usullari asosida bilim sistemasini chuqurlashib borsa, umumiylashtirilishi usulni tatbiq qilish orqali esa bilish doirasi yanada kengayib boradi.

Kutubxonashunoslik metodologiyasi deganda, eng umumiylashtirilishi, boshlang'ich, bilishning asosiy tamoyillari va vositalari, nazariy faoliyatni tashkil etish va yaratish, shuningdek ushbu tizim haqidagi bilimlar tushuniladi.

Sobiq sovet kutubxonashunosligida o'n yillar mobaynida fanning metodologiyasi sifatida "Bilishning marksizm - leninizm nazariyasi" ilmiy bilimlarning rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishning asosi hisoblanar edi. Kutubxonashunoslikning yangi manbalari, metodologik asos sifatida quyidagilarni tavsiya etmoqda:

Bilish jarayonini o'rganishga yondoshgan dunyo falsafasi;

Mantiq ilmi;

Kutubxonashunoslikning xususiy qonunlarini va tamoyillari.

Har bir nazariyotchi va amaliyotchi o'z faoliyatida nafaqat o'zini kasbiy kutubxonachilik bilimlariga suyanishi, shu bilan birga kutubxonashunoslik metodologiyasining umumiylashtirilishi va xususiy tomonlaridan xabardor bo'lishi kerak.

Kutubxonashunoslikning umumiylashtirilishi muhim o'rinni falsafa egallaydi. U tabiat, jamiyat va fikrlashning eng umumiylashtirilishi, asosiy qonuniyatlarini o'rganadi. Juda ulkan falsafiy bilimlar ichida

kutubxonashunoslik uchun metodologik jihatdan eng muhim va ahamiyatlisi bu bilish nazariyasidir (gneseologiya). Kutubxonashunoslik metodologik nuqtai nazardan, obyektiv dunyoni “Axborot – kutubxona faoliyati” deb nomlanuvchi universal bilish faoliyatining nisbatan uncha katta bo’lmagan bir bo’lagidir.

Dialektikaning asosiy qonunlari va tamoyillari, falsafiy kategoriyalari kutubxonashunoslik uchun metodologik jihatdan asosiy negiz sifatida ahamiyatlidir. Dialektika (“tanlayman” - degan yunon so’zidan olingan).

a) **“Qarama- qarshiliklar birligi va kurashi qonuni”** - dialektika qonunlari ichida markaziy o’rinni egallaydi. Bu qonunga muvofiq har bir narsa bir-biri bilan uzviy aloqada bo’lgan va biri ikkinchisini istisno etuvchi qarama-qarshi tomonlarga, kuchlarga ega. Bu qarama-qarshi tomon va kuchlar o’rtasidagi kurash taraqqiyotning manbaini ifodalab, eskining yo’qolishi va yangining paydo bo’lishiga olib keladi.

Ma’lumki, narsalar turli - tumandir. Hamma tomonlari bilan aynan o’xshash bo’lgan ikki narsaning o’zi yo’q. Narsalarning tafovut darajasi ham bir xil emas: muhim va nomuhim tafovutlar mavjud.

Narsa va hodisalardagi tafovutlar qarama - qarshiliklar asosini tashkil etadi.

Ushbu qonun axborot - kutubxona faoliyati nazariyasi va amaliyotiga to’liq tadbiq etiladi. Agar axborot - kutubxona faoliyati bo’lmasa, kutubxonashunoslik fani ham bo’lmaydi, yoki kutubxonashunoslik fanisiz axborot - kutubxona faoliyati hozirgi zamonaviy holatga kela olmas edi. Lekin, ular qandaydir holatda bir - biriga qarama – qarshidir, ya’ni, kutubxonashunoslik - bu mavhum, axborot -kutubxona faoliyati - bu moddiy, bor bo’lgan faoliyatdir. Shu bilan birga ular o’rtasida o’zaro faoliyat yuritadi, bir - birini to’ldiradi: axborot - kutubxona faoliyati kutubxonashunoslik g’oyalari bilan boyitiladi, kutubxonashunoslik fani esa axborot-kutubxona faoliyatining ilg’or amaliyoti bilan to’lib boradi.

b) **“Miqdor o’zgarishlarning sifat o’zgarishlariga o’tish qonuni”** - dialektikaning asosiy qonunlaridan biridir. Bu qonunning mohiyati shundan iboratki, narsa va hodisalardagi sezilarli bo’lmagan miqdoriy o’zgarishlar asta - sekin to’plana borib, taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida me’yorni buzadi va sakrash yo’li bilan tub sifat o’zgarishlariga olib keladi.

Moddiy olamdagи xilma - xil narsa va hodisalar bir-biridan o’z sifati bilan ajralib turadi.

Sifat - narsalarning ichki muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligidir. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha aniqlab beradi. Narsalarning sifati esa ularning xossalari orqali namoyon bo'ladi.

Xossa narsa sifatining boshqa narsalar bilan o'zaro aloqadorligidagi tashqi namoyon bo'lishidir. Biz narsalarning ichki sifatini ma'lum bir xossalarda namoyon bo'lishi orqali bilamiz. Masalan, metall zichlik, siquvchanlik, issiqlik, o'tkazuvchanlik, cho'ziluvchanlik kabi xossalarga ega. Sifat - jismning barcha xossalarini birgalikda bog'lovchidir. Demak, sifat narsaning umumiyligini, yaxlitligini uning nisbiy barqarorligini, bir-biriga o'xshashligini ifodalaydi. U keng ma'noda narsalarning turli-tuman xossalari yig'indisidir.

Lekin sifat va xossa aynan bir xil ma'nodagi tushunchalar emas. Sifatning o'zgarishi muqarrar sur'atda xossaniig o'zgarishiga olib keladi, biroq xossaning o'zgarishi har doim sifatning o'zgarishiga, ta'sir etavermaydi, ayrim xossalalar narsalarning sifatiga, ta'sir etmasdan yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Miqdor o'zgarishlarning sifat o'zgarishlariga o'tish qonuni asosida kutubxonashunoslik va axborot - kutubxona faoliyatini harakati va rivojlanishini tushuntirish mumkin. Kutubxonashunoslikda, barcha fanlar kabi, sifat o'zgarishlari nisbatan sekinlik bilan, har doim ham sezilarli bo'limgan tarzda amalga oshadi.

Bular miqdor o'zgarishi natijasida bo'ladi. Masalan, qadimda kutubxonalar sonini oshishi natijasida, kutubxonashunoslik g'oyalalarini paydo bo'lishiga olib keldi. Kutubxonashunoslik g'oyalari esa asta-sekin yangi sifat o'zgarishlariga, kutubxonashunoslikka o'tdi. Kutubxonashunoslikning keyingi taraqqiyoti esa shu qonun asosida bormoqda.

v) “**Dialektikaning inkorni inkor qonuni**”ga muvofiq obyektiv voqelikdagi narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonida eskining yangi tomonidan inkor qilinishi ro'y beradi. Biroq eskilik butunligicha inkor qilinmaydi, undagi ijobiy tomonlar saqlanib qoladi. Rivojlanish burama shaklda, ma'lum nisbiy takrorlanishlar asosida, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga qarab boradi.

Dunyoda hech bir sohada o'zining ilgarigi yashash shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish sodir bo'lishi mumkin emas. Har bir jarayon inkor qilish jihatiga ega. Ichki ziddiyatlar tufayli taraqqiyot jarayoni ertami - kechmi eski narsaning yemirilishiga va yangi narsaning vujudga kelishiga olib keladi. Bu yangi narsa eskining o'rnini egallab, undagi

ijobiy narsalarni saqlab qolgan holda yanada yuksakroq, ilg'or holatni ifodalaydi. Shunday qilib, taraqqiyot bir-birini almashtirib turadigan bosqichlardan iborat bo'lib, bir bosqich ikkinchi bosqich tomonidan, ikkinchisi esa uchinchisi tomonidan inkor etiladi.

Kutubxonashunoslikning tarixi, hozirgi holati va istiqbolini, mashhur faylasuf V.F.Gegel tomonidan yaratilgan rivojlanish uchligi: - tezis - antitezis (qarshitezis) - sintez qonun asosida ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy kutubxonashunoslik fanimiz - bu taxminan 1917 yildan 1990 yillargacha bo'lgan kutubxonashunoslikning antitezisidir. Ertami, kechmi u sintez bosqichi bilan almashadi va axborot - kutubxona faoliyatida chuqur o'zgarishlarga olib keladi. Kelgusidagi rivojlanish bosqichlari hozirgi g'oyalarni inkor qilish asosida yangi g'oyalarni yaratadi. Lekin bu g'oyalalar, yangi sifat o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, dialektika qonunlari kutubxonashunoslikning nafaqat tarixi, hozirgi holati va istiqbolini tushuntirib beribgina qolmasdan, uni yanada ratsional rivojlantirishga undaydi.

Metodologik nuqtai nazardan kutubxonashunoslik uchun falsafiy kategoriylar, ham muhim ahamiyatga ega. Falsafiy kategoriylar - obyektiv dunyo eng umumiylar qonunlar taraqqiyotining in'ikosidir. Barcha falsafiy kategoriylar obyektiv dunyo qonunlari in'ikosi bo'lgani uchun obyektiv mazmunga egadir;

Falsafiy kategoriylar eng umumiylar tushunchalar sifatida inson fikri shakllari bo'lib, shu taxlitda ular mantiqiy mazmunga ham egadirlar. Kategoriyalarning mazmuni deganda, inson tafakkurining narsa va hodisalar mohiyatiga kirib borishi, uning chuqurlashuv darajasi ko'zda tutiladi.

Falsafiy kategoriylar ilmiy bilishda muhim metodologik vazifani bajaradi. Obyektiv dunyo hodisalarining eng umumiylar qonunlari harakatini o'rganib, bir tomonidan, narsalarning mohiyatini chuqurroq va to'laroq bilishga yordam beradi, ikkinchi tomonidan, obyektiv dunyodagi narsa va hodisalar haqida yangi bilimlar olishga va to'plashga sabab bo'ladi.

Shuningdek, ular tashqi olamdagilari narsa va hodisalarini to'g'ri aks ettirganliklari hamda ularni o'zaro bog'liq va rivojlanishda deb bilganliklari uchun bilish harakatining eng umumiylar usuli vazifasini bajaradi.

Falsafiy kategoriylar faqat mavjud narsalar haqidagina emas, balki kelajakda mavjud bo'lishi kerak bo'lgan narsalar haqida ham axborot beradi. Shu asosda ular yangi bilimlarni egallash manbai bo'lib xizmat

qiladi. Bularning hammasi dialektik materializm kategoriyalari o'zlarining gneseologik tabiatiga ko'ra bevosita amaliyotga aylanishi mumkinligini isbot qiladi;

Falsafiy kategoriyalarining shakllanishi va rivojlanishi asosida inson moddiy, hissiy faoliyatining yig'indisi bo'lgan amaliyot yotadi. Bu erda inson nazariy va amaliy faoliyatining birligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ba'zi bir *falsafiy kategoriyalarga* to'xtalib o'tamiz:

*Yakkalik* - alohida sifat va miqdor aniqligiga ega bo'lgan narsa, hodisa va jarayondir.

*Umumiylit* - deganda obyektiv reallikning barcha narsa yoki hodisalardagi obyektiv mavjud bo'lgan xossalari va belgilarning majmui, ular o'rtasidagi aloqa munosabatlarning o'xshashligi tushuniladi;

*Xususiylik* - shunday narsa yoki hodisalar guruhidirki, ular ma'noda umumiyl bo'lsa-da, lekin undan ham umumiyoq ma'noda boshqa bir guruhga kiradi va bu guruhda u alohidalik u yakkalikdir, butunning qismidir.

*Mohiyat* - hodisaning ichida yashiringan moddiy olamning turlituman hodisalarida yuz beradigan chuqur nisbiy barqaror aloqalarni ifodalaydigan voqelikning ichki tomonidir.

*Hodisa* - mohiyatning u yoki bu holda uchratilishini ifodalovchi obyektiv voqelikning o'zgaruvchan, harakat xususiyatlariga, belgilariga boy bo'lgan tomonidir. Narsalarning mohiyatiga singib borish narsa va hodisalar rivojlanishining qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

*Qonuniyat* - yakka qonunlar majmuasidan iborat bo'lib, voqelikdagi narsa va hodisalar jarayonlarining umumiyl rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, qonunlarni bilish kishilarning maqsadga muvofiq faoliyatining asosidir, u hozirda ro'y berayotgan voqealarni chuqurroq tushunishga va ularning kelajakdag'i rivojlanishi yo'nalishlarini oldindan ko'ra bilishga yordam beradi.

*Mazmun* - muayyan narsa va hodisalarni tavsiflovchi ichki elementlar va o'zgarishlarning majmuidan iborat.

*Shakl* esa mazmunni ifodalash usuli, tashkil etuvchisidir. Masalan, atomning mazmuni shuni tashkil etgan - elementar zarrachalar va ularning harakatidan, atomning shakli esa bu elementar zarrachalarning joylashish tartibi va tuzilmasidan iborat.

*Element (tarkibiy qism)* - bu o'zaro aloqada bo'ladigan bir butun tizimni tashkil etuvchi narsa va hodisalarning tarkibiy qismi. Narsaning

tuzilish, butunni tashkil qilgan elementlarning bog'lanish usuli, qonuni, doirasidagi munosabatlar tizimidir. Tuzilish tushunchasi tizimning turg'unligini, turli tashqi va ichki jarayonlarga nisbatan buzilmasligidir.

Kutubxonashunoslikning xususiy metodologiyasi kutubxonashunoslikning o'z tamoyillari va axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini qayd etib o'tadi.

Kutubxonashunoslik tamoyillariga:

Bilimni, axborotni hamma uchun erkinligi;

Foydalanuvchilar qiziqishini ustunligi;

Axborot-kutubxona faoliyatini tizimliligi;

Axborot-kutubxona faoliyatida markazlashtirish va nomarkazlashtirishni birgalikda olib borilishi;

Axborot-kutubxona faoliyatini muvofiqlashtirish va kooperatsiyalash;

Axborot-kutubxona faoliyatini davlat-jamoatchilik xarakteri;

Axborot-kutubxona tizimlarini shakllantirish qonuniyatları;

Axborot-kutubxona faoliyatini tizimli rivojlantirishning obyektiv xarakteri;

Axborot-kutubxona muassasalarini birgalikdagi faoliyati - ularni shakllantirish va rivojlantirishning asosi sifatida;

Axborot-kutubxona tizimlarining dinamikligi va boshqalar.

Kutubxonashunoslikda muhim o'rinni tushunchalar-terminlar egallaydi. Lekin kutubxonashunoslikning "Tushunchalar apparati" hozirga qadar to'liq ishlab chiqilmagan, ba'zi qo'llanilayotgan tushunchalarda aniqlik, mazmun, har doim ham tadqiqotchilar tomonidan bir xilda qo'llanilmaydi. Masalan, "o'qishga rahbarlik qilish" tushunchasi "muloqot" tushunchasi bilan, "g'oyalashtirish"- "milliy g'oya" bilan, "kitob-kitobxon-kutubxonachi", "chop etilgan axborot-foydalanuvchi - kutubxonachi" deb talqin etilmoqda.

### **3.2. Kutubxonashunoslik fanining metodlari (ilmiy usullari)**

Kutubxonashunoslikning ilmiy metodikasi - ushbu fan oldida turgan muammolarni o'rganish uchun foydalaniladigan usullar majmuasidir.

*Usul* - ilmiy bilishning tarkibii qismi bo'lib, uning obyekti, tahlil mavzui, tadqiqot vazifalari, ularni hal etish uchun zarur bo'lgan vositalarni ifodalaydi.

Ilmiy usul ilmiy bilish jarayonida qo'llaniladigan mavhum bilish yo'llari hamda vositalarini ifodalaydi. Ilmiy bilish usuli inson amaliy faoliyati negizida yuzaga keladi.

Kutubxonashunoslik usullari foydalanimishiga ko'ra umumiy ilmiy va xususiy ilmiy usullarga bo'linadi. O'rganiladigan aspektlarga ko'ra barcha usullar sifat va miqdoriy usullarga bo'linadi. Shuningdek sifat-miqdor metodlariga ham bo'linadi. Bilishning umumilmiy usullari deyarli barcha fanlarni tadqiq qilishda qo'llaniladi, lekin ular kutubxonashunoslik tadqiqotlarida ba'zi bir o'zgarishlar orqali qo'llaniladi. Hozirgi zamon ilmiy bilish jarayonida, shu bilan birga kutubxonashunoslikda quyidagi umumilmiy usullar keng qo'llaniladi:

*Kuzatish* - voqelikdagি narsa va hodisalarni muayyan maqsadga muvofiq qaratilgan hissiy bilish usulidir. Kuzatishning qay darajada bo'lishi qo'yilgan maqsadning aniqligiga, kuzatilayotgan narsa va hodisalar haqida oldindan bilishga ega bo'lishga bog'liqdir. Kuzatish usulida narsa va hodisalar ularni tabiiy sharoitda qanday bo'lsa shunday holda kuzatiladi. Bevosita yoki bilvosita kuzatish, doimiy yoki vaqtivaqtida kuzatish, zaruriyat yuzasidan to'liq yoki ba'zi qismlar kuzatilishi mumkin. Kuzatish uchta asosiy vazifani bajaradi: 1) empirik axborot bilan ta'minlaydi 2) faraz va nazariyani tekshiradi 3) olingan natijalarning haqqoniyligi va mosligini tekshiradi.

*O'lchash* - bilish jarayonida narsaning miqdor tavsifnomasini aniqlash usulidir. O'lchov odatda o'rganilayotgan predmetni qayd etilgan xossa va belgilarga ega bo'lgan boshqa - bir predmet bilan nisbatlash yo'li orqali amalga oshiladi. O'lchash usuli orqali predmetlarning xossalarini, masalan, mustahkamligini, murakkabligini va boshqa tomonlarini aniqlash mumkin.

*Taqqoslash* - bir narsa yoki hodisaning ikkinchi bir narsa yoki hodisadan farqli va o'xhash tomonlarini hamda ularning munosabatlarini o'rganish usuli hisoblanadi. Taqqoslash bilish faoliyatida tatbiq qilinadigan usul bo'lib, bilimlarning shakllanishi, rivojlanishida alohida bir bosqichdir. Obyektiv reallikdagи narsa va hodisalarni "qayta o'rganish" jarayonida ma'lum bo'lgan bilimlar, amaliy bajarilayotgan vaqtida olingan bilimlar bilan taqqoslanadi. Izlanuvchi avvalgi ma'lum bilimlarga tayangan holda izlanayotgan obyektga xos bo'lgan o'xhash va farqli tomonlarni taqqoslash orqali aniqlaydi (masalan, elektron katalogda axborotni qidirishda EHM belgilarini taqqoslash).

*Eksperiment* - tajribada sinab ko'rish orqali fanda hodisalarni bilish faoliyatida tadqiq qilish, o'rganish usuli hisoblanadi. Eksperiment kuzatishga qaraganda yuqoriroq darajadagi bilish usulidir. Eksperiment obyektini tegishli tajriba moslamalarini tatbiq qilish orqali obyektga ta'sir ko'rsatish, izlanuvchi eksperiment usulni qo'llash orqali o'zini qiziqtirgan obyektning tomonlarini o'rganishi uchun unga faol ta'sir ko'rsatadi, buning uchun sun'iy sharoitlar yaratadi, shu sharoitda tekshirish olib boradi, ma'lumotlar to'playdi.

Eksperiment usuli hodisalarning muhim belgilari va xususiyatlarini, ularning boshqa narsa va hodisalar bilan munosabati, aloqa va bog'lanishlarini chuqurroq o'rganishga imkoniyat yaratadi. Bu usul izlanuvchiga tabiiy sharoitda kuzatish orqali hosil qilish mumkin bo'limgan bilimlarni olish imkoniyatini beradi. Kuzatish eksperiment bilan uzviy bog'langan. Ilmiy tadqiqotning sohalariga qarab, tadqiq qilinuvchi predmetlarning tabiatiga qarab eksperimentlar turlicha bo'lishi mumkin: fikriy eksperiment (nazariy), qidiruv, sifatli, miqdoriy, yirik mashtabli, lokal va h.k. ham bo'lishi mumkin. So'nggi yillarda ijtimoiy hodisalarni o'rganishda eksperiment usulining zarurligi o'rganib chiqqanligi va qo'llanilayotganligi ta'kidlanmoqda .

Biz ko'rib chiqqan bilish usullari deyarli bilimning empirik dalillarga xos bo'lган usullardir. Obyektni faqat tajribada emas, balki bevosita mavhum tafakkur yo'li bilan ham hosil qilish mumkin:

*Abstraktsiya (mavhum tasavvur)* - hodisa, narsaning xossalarni, munosabatlarini taraqqiyot bosqichlarini fikran bilish usulidir. Abstraktsiya usuli analiz (tahlil qilish) va sintez (umumlashtirish)lashni o'z ichiga oladi. Analiz va sintez dunyoni bilish vositasi jarayonida ishlatalidigan o'zaro bir-biri bilan bog'langan usullardir.

*Analizda* - o'rganilayotgan narsa va hodisa, fikr - mayda bo'laklarga, ya'ni elementlarga bo'linadi va ular o'rtasidagi bog'lanishlar, o'zaro munosabat va ta'sir o'rganiladi. Tarkibiy qismlarni sintez qilish uchun analiz qilinadi.

Elemenlarni yana qaytadan birlashtiranimizda analiz natijalari o'rganiladi. Insonning atrofini o'rabi turgan obyektiv borliq murakkab va ko'p qirrali bo'lib, aniq narsa va hodisalardan iborat. Ular xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Shu ko'p qirrali, murakkab narsa va hodisalarni o'rganish va bilish, ular to'g'risidagi tushunchalarimizni chuqurlashtirish uchun shu narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish analiz qilish kerak. Kutubxonashunoslikda xayolan analiz qilish, sinflarni, yanada mayda sinflarga bo'lish, avtomatik analiz, matematik

analiz va boshqlar qo'llaniladi. Lekin bu usul bilan shu narsalarni to'la bilish mumkin emas, shuning uchun u sintez yo'li bilan to'ldiriladi.

*Sintez* - analizning natijalariga suyanib, narsa va hodisalarning bir butun sifatini o'rganadi. Sintez analiz natijasida fikran bo'lingan elementlarni qaytadan tiklash, ularni birlashtirish, ilgarigi yaxlitlikni fikran vujudga keltirish usulidir. (Masalan axborot-kutubxona faoliyati). Analiz tadqiqot jarayonida bilishning tayyorgarlik ko'rish bosqichi hisoblansa, sintez uni yakunlaydi. Analiz va sintez natijasida umumiyl tushuncha, muhokamalar tarkib topadi, ular yordamida o'rganilayotgan sifat va muayyan qonuniyatlar aniqlanadi, shakllanadi.

Induksiya va deduksiya aqliy xulosaning asosiy shakli bo'lib, bilish jarayonida ma'lumdan noma'lumga tomon bo'lgan fikr harakatini ifodalaydi.

*Induksiya* - ayrim fikriy bilishdan umumiyl, xulosalar chiqarishda qo'llaniladigan muhokama usuli. Xususiylikni o'rganilib, umumiyl bilib olinadi. Umumiyl narsa va hodisalar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Bilishda induktiv usul asosida qonuniyatlar ochiladi, tushunchalar maydonga keladi. Bu usul narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlarini tekshirish usuli hisoblanadi. Induktsiya deduktsiya bilan mustahkamlangan.

*Deduksiya* - umumiylidan xususiylikka olib boruvchi mantiqiy usul. Fandagi nazariyalar deduktiv usul natijasida yuzaga keladi. Bu usul asosan daliliy materiallar to'plash natijasida ularni chuqur o'rganish, tizimga solishda qo'llaniladi. Deduktiv usul turli shakllar: aksiomatik, gipoteza, deduktiv usul shaklida uchraydi. Deduktiv usul aqliy xulosa chiqarishning barcha shakllari bilan, bиринчи navbatda, induksiya bilan bog'langandir. Induktiv va deduktiv usullar bir biri bilan dialektik bog'langandir, ular bir-birlarini to'ldiradi.

Shuning uchun ularni bir - biriga qarama - qarshi qo'yish ajratib qarash aslo mumkin emas.

*Modellashtirish* - borliqni bilvosita o'rganishga asoslangan ilmiy usuldir. Modellashtirish asosida tadqiq qilinayotgan obyekt bilan uning modeli o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik yotadi. Modellashtirish usuli ilmiy tadqiqot jarayonini yengillashtiradi, ba'zi hollarda murakkab obyektlarni o'rganishning yagona vositasi hisoblanadi. Bu usul o'rganish qiyin bo'lgan obyektlarni tadqiq etishda qo'llaniladi.

Modellar ikki xil: moddiy va g'oyaviy bo'lishi mumkin. Moddiy narsalardan yasalgan modellar moddiy modellar deyiladi. Bu modellar

obyektlarning taraqqiyot jo'shqinligini, ularning mohiyatini ifodalovchi zaruriy, qonuniy aloqalarni, munosabatlarni qayta hosil qiladi.

G'oyaviy modellar esa g'oya shaklida mavjud bo'lishi mumkin. Masalan, matematik modellash fizik jarayonlarning matematik ifodalaridir. Matematik modellash obyektni yaxlit tekshirish va tadqiq ko'lamenti o'rganish imkonini beradi. Kibernetik moslamalar, EHMLar modeldashtirish usul asosida vujudga kelgan.

Tizimlash usuli - muayyan tarzda o'zaro bog'langan va bir qadar yaxlitlikni tashkil etgan unsurlar majmuini o'rganishni o'z ichiga oladi. Hozirgi ilmiy bilish jarayonida, murakkab obyektlarni ilmiy bilishda bu usul keng qo'llanilmoqda. Bu usul asosida o'rganilayotgan yoki izlanayotgan obyektning boshqa obyekt bilan umumiy bog'lanishlari, munosabatlari ochiladi.

Har bir tadqiqot obyekti va uni tashkil etuvchi unsurlar bir butun qism deb olinsa, shu tizimni tashkil etuvchi har bir unsur bir-biri bilan o'zining tutgan o'rni, vaqtি va imkoniyatlariga ko'ra funksional bog'langan. Bu unsurlardan birining o'zgarishi ikkinchisining ham o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham bu unsurlarni o'rganish tizimlash usuliga asoslanadi. Har bir tizimni o'rganishda uni boshqa tizimlar bilan birgalikda olib qarash kerak.

Bilimning nazariy darajasida ilmiy tadqiqotning keng ma'noda qo'llaniladigan mavhumlik va aniqlik usullari mavjuddir.

*Aniqlik usuli* - tadqiqot obyektining xossalari, aloqalari, munosabatlarining ko'p qirrali birligi sifatida nazariy umumlashtirish vositasi hisoblanadi. Bu usul aniq hodisalar haqidagi barcha aloqa va munosabatlarni o'z ichiga olgan voqelik haqidagi bilimni yuzaga chiqaradi.

*Mavhumlik usuli* - aniq vokelikning mohiyati haqidagi bilish vositasi hisoblanadi. Tafakkurning o'zini tasavvur vositasi bilan voqelikni bilish usuli deb qarash mumkin.

*Tasavvur usuli* - predmetni bilib olishning eng muhim usulidir. Tasavvur vositasi bilan muayyan munosabatdagi muhim xossa va munosabatlar mohiyati ochiladi. Tasavvur usuli voqelik hodisalarini chuqurroq, to'g'riroq aks ettiradi. Bu usul asosida tadqiq qilinayotgan obyekt fikran tahlil qilinadi, mavhum ta'riflarga bo'linadi. Bu ta'riflarning tuzilishi yangi aniq bilimga erishish vositasidir. Fikrning bu harakati mavhumlikdan aniqlikka tomon yuqorilab borish usuli hisoblanadi.

*Aksiomatik usul* - taqiqotning aksiomalarga asoslanib nazariy xulosalar chiqarish usulidir. Asos qilib olingan aksiomalar esa muayyan nazariy tizimda isbotlanmay haqiqiy deb qabul qilinadi. Nazariy bilimlar to'la ravishda aksiomalardan deduktiv yo'l bilan chiqariladi. Aksiomatik usulga muvofiq natijalar sifatida ulardan xulosa chiqariladi.

*Gipotetik-deduktiv usul* - bu usulning asosi aksioma emas, balki tajriba ma'lumotlari majmuidir. Gipoteza usuli tajriba orqali ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlanishi yoki noto'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. Gipoteza ilmiy tadqiqot jarayonini ma'lum yo'nalishda yo'naltiradi, yangi-yangi dalillarni va ma'lumotlarni toplashga yordam beradi.

*Tarixiylik va mantiqiylik usuli* - obyektiv dunyo taraqqiyot jarayonini muhim xususiyatlarini bilish usulidir. Tarixiylik - narsa va hodisaning ro'y berish vaqt, davri, aniq vujudga kelishi, rivojlanishini bilish usulidir. Har bir hodisa tarixiy nuqtai nazardan, aniq tajriba asosiga bog'lab o'rghanmoq zarur. Tarixiylik usulining o'ziga xos xususiyati tarixiy harakatni uning butun boyligi bilan payqab olishga intilishidir. Har bir narsaning tarixini ochib berishning taraqqiyotidagi asosiy tarixiy bosqichlar, ularning yutuqlarini ajratib ko'rsatishni talab qiladi. Buning uchun esa uning mohiyati haqida nazariy bilim bo'lishi kerak.

*Mantiqiy usul*- predmetning mazmunini nazariy shaklda tadqiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usul tadqiqot obyektining eng muhim aloqalarini bilib olishga imkon beradi. Mantiqiy bilish usuli obyektiv reallikni, uning aloqalarining butun rang-barangligini aks ettirish vazifasini bajaradi. Mantiqiy tafakkur uslubi orqali vujudga kelgan nazariy bilimlar nisbatan tugallangan bilimlar tizimi bo'lib, bu tizim o'z taraqqiyoti jarayonida o'zgarib boradi. Mantiqiy tafakkur uslubida ko'rko'rona harakat bo'lmaydi, balki u bilimlarni umumlashtiradi, ayniqsa tarixiylikni tasodifiy chetlashishlardan saqlaydi.

Tadqiqotning tarixiylik va mantiqiylik usullari o'zaro dialektik bog'lanishda. Tarixiylik va mantiqiylik dialektik birlikda aniq tarixiy bilimlar asosida har bir voqelik tarixining asosiy yo'nalishlari va rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi.

Bilish jarayonida hosil bo'lgan bilimlarimiz aniq mazmunining ifodalanishida bir-biriga bog'liq bo'lgan va bir-biriga nisbatan sifat jihatidan farq qiluvchi hamda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bilim darajalariga e'tibor berishimiz kerak. Ular empirik va nazariy bilim darajalaridir.

Bilimning empirik darajasi asosan tajriba bilan bog’langan bilim bo’lib, u asosan asbob orqali kuzatish, eksperiment asosida olingan ma’lumotlar natijasida vujudga keladi.

Bilishning nazariy darajasi esa empirik darajadan farq qilib asosan nazariy tafakkur orqali rivojlanadi. Nazariy daraja empirik daraja bilan bevosita yoki bilvosita bog’langan.

Nazariya muayyan shaklda rivojlangan obyektiv borliqning asosiy tomonlari munosabatlarini bilish jarayonida kelib chiqqan, boy, chuqur ma’nodagi bilimlar yig’indisidir.

Nazariya fanlarning taraqqiyoti natijasida qo’lga kiritilgan bilimlarni umumlashtirish orqali yangi ilmiy tadqiqotlarga yo’l ochib beradi. Bu tadqiqotlar o’z navbatida yangi qonunlar va nazariyalarning shakllanishiga olib keladi.

*Istiqbollashtirish* (oldindan ko’ra bilish, aytib berish) - qandaydir voqeа yoki hodisalarni turli xil maxsus metodlardan foydalangan holda miqdoriy baholash yoki ma’lum bir muddatlardagi o’zgarishlarni ko’rsatib berish (masalan, 2020 yilga bo’lgan axborot-kutubxona faoliyatini rivojlanishi kontseptsiyasi)

*Tarkibiy - funktsional usul* – hodisa va jarayonlarni tizimli tahlil qilish orqali butun qismni tarkibiy qismlarga bo’lib o’rganishdir. Bunda tarkibning har bir qismi ma’lum bir vazifaga ega bo’ladi.

*Klassifikatsiya* – ma’lum bir belgilarga ko’ra predmetlarni o’zaro bir - biriga bog’liq bo’lgan sinflarga ajaratish. Bunda har bir sinf o’zini ma’lum bir doimiy joyiga ega bo’ladi va o’z navbatida u ham mayda sinflarga bo’linadi.

Klassifikatsiyalash usuliga kutubxonalarini tiplarga bo’lish, sistematizatsiyalash, predmetlashtirish va h.k. misol bo’ladi.

Kutubxonashunoslikda umumilmiy metodlar bilan birga xususiy metodlar ham keng qo’llaniladi. Ularni bir qanchasi umumilmiy metodlar sifatida potentsial imkoniyatlarga ega, lekin hozircha keng qo’llanilmayapti. Boshqalari esa faqat ushbu sohadagina qo’llaniladi. Ularga qisqacha to’xtolib o’tamiz:

*Sotsiologik tadqiqot usullari.* Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida hozirda keng qo’llanilmoxda. Unga so’rovnama, intervyu kiradi. Sotsiologik tadqiqot metodlari yordamida hodisa va jarayonlar bo’yicha ijtimoiy fikr to’planadi. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqot o’tkazish hajmini tasodifiy belgilash metodlari katta ahamiyatga egadir.

Ushbu metodlar tadqiqotni reprezentativligini, ya’ni qamrab olinishni ta’minlaydi. Respondentlar sonini (tadqiqotda ishtirok etuvchilar soni) optimal hal etilishi matematik formula orqali, nomogrammalar va katta sonlar jadvallari yordamida hal etiladi.

*So’rovnama.* Bu so’rov o’tkazuvchilar o’rtasida obyektiv va subyektiv faktlar bo’yicha birlamchi axborotlarni to’plashdir. So’rovnama tadqiqotchi uchun zarur bo’lgan aniq faktlar, jarayonlar, hodisalar, shuningdek sabablar, rejalar, va hokazolar olish imkonini beradi. So’rovnama – “qayta aloqa” ning muhim kanalidir. So’rovnama natijalarini analiz qilish va ularni bayon etishda tadqiqotchi obyektiv bo’lishi muhim shartdir.

*Kontent - analiz usuli.* Zamonaviy kontent-analiz usuli (mazmunni analiz qilish) xabarlarni (og’zaki, yozma, elektron), muallif xabari, auditoriya xabarlarining mazmuni va shakllarini, mazmunni auditoriyaga ta’sir ko’rsatish natijalarini o’rganadi. (U quyidagi savollarga jabob topishi kerak: Kim gapiryapti? Nima gapirayapti? Kimga gapirayapti? Qanday natijalar bilan?) Xabarlarda tadqiqotchi nuqtai nazaridan mazmunli birliklar (kuzatish birliklari) aniqlanadi va keyin ularni ishlatalishi darajasi belgilanadi. Bunday tahlil asosida tadqiqot boshlanishida olib chiqilgan faraz tasdiqlanadi yoki rad etiladi.

*Miqdoriy usullar.* Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida miqdoriy usullar elementlari qo’llanilmoqda. Bu esa kutubxonashunoslik faniga matematikalashtirish tendentsiyalarini kirib kelayotganligidan darak beradi. Shunga ko’ra kutubxonashunoslik sifat jihatidan sifatli-miqdorli fanlarga aylanmoqda, uni bilish potentsialini orttiradi.

*Statistik jadvallar.* Kutubxonashunoslikda statistik jadvallarni qo’llash an’anaga aylangan. Jadvallardagi statistik ma’lumotlar birlamchi tadqiqotlar natijalarini aniq va yaqqol ko’rish imkonini beradi.

*Indeklash usullari.* Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida indeklash metodlari (ko’rsatkichlar, ro’yxatlar) ham qo’llanilmoqda. Ular yordamida dinamik qatorlar absolyut raqamlarda, nisbiy va o’rtacha miqdorlar shaklida berilib, turli xil hodisalar va obyektlarni (kitob o’qilish, fondni aylanishi, o’sish darajasi va h.k.) taqqoslanadi.

*Korrelyatsion tahlil usuli.* Kutubxonashunoslardan tez-tez korrelyatsion tahlil metodiga murojaat qilmoqdalar. Agar jadvallar, grafiklar yordamida o’rganilayotgan omillar o’rtasidagi aloqalar borligi yoki yo’qligi aniqlansa, korrelyatsion tahlilda korrelyatsion bog’liqlik, ya’ni aloqalarni (aholini bo’sh vaqt) miqdori va ularni kutubxona kitoblaridan

foydalnishga sarflaydigan vaqt miqdori) shakllari va puxtaligi (zichligi) o'rganiladi.

*Miqdoriy (matematik) usullar.* Kutubxonashunoslik predmetlari va hodisalarini bilishning qudratli vositasi hisoblanadi. Lekin uni absolyutlashtirish va maqsadga aylantirish kerak emas.

Ilmiy izlanish-bu avvalombor qat'iy belgilangan chegaralanishlar yoki ma'muriyatning nazoratidan xoli bo'lgan erkin fikrashdir. Ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish deganda tadqiqotchi ko'zda tutgan natijalarga erishish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarni o'tkazishning asosiy bosqichlarni ketma-ketligiga rioya qilgan holda amalga oshirishi nazarda tutiladi.

Ilmiy ishlarni tashkil etish bosqichlari oddiy: "muammo va uni hal etish", shuningdek uch bosqichli: "tadqiq etish, ishlab chiqish, joriy etish" bo'lishi mumkin. Ko'pincha maydalashtirilgan yondoshuvlar ham uchrab turadi: "muammo-faraz-isbotlash-nazariyani yaratish, xulosalar va amaliy tavsiyalar". Amaliyotda kutubxonashunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun quyidagi tashkiliy tuzilma eng qulay hisoblanadi.

1. Ilmiy muammoni aniqlash va uni shakllantirish
2. Texnik vazifani ishlab chiqish va tasdiqlash
3. Ilmiy tadqiqot dasturini ishlab chiqish
4. Ilmiy tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish
5. Ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tadbiq etish

### **3.3. Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik fanining o'rni (statusi)**

Kutubxonashunoslik statusi deganda, uni ilmiy bilimlar tizimidagi, jamiyatdagi ahamiyati, shuningdek fanlar tizimidagi o'rni tushuniladi. Fanlarni ijtimoiy, tabiiy - ilmiy va texnika fanlariga bo'linishida kutubxonashunoslik ijtimoiy fanlar sinfiga mansubdir. Hozir bu qarash butun dunyoga tarqalmoqda. Lekin ba'zi bir kutubxonashunoslар axborot-kutubxona faoliyati va kutubxonashunoslik nazariyasini shakllanishini dunyo bo'yicha "yagona oqim" sifatida qaramoqdalar. Misol tariqasida ingliz kutubxonashunosi L.Evans shunday deydi: "Kutubxonachilik ishini ta'kid etilgan fan deb atash mumkin emas, qachonki u butun dunyoda foydalinish mumkin bo'lgan universal klassifikatsiyani yaratmaguncha" degan fikrni ilgari surmoqda.

Kutubxonashunoslik fani haqidagi shunga o'xshagan qarashlar - jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar unga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki u

formal-texnika fani deb hisoblovchilar, shuningdek kutubxonani tashkil etish masalalarini jamiyatni rivojlanishi bilan bog'lanmaydi deb hisoblovchilar ham bor.

Kutubxonashunoslikni ijtimoiy fanlar tizimiga kiritilishi o'zini mustahkam asoslariga egadir. Kutubxonashunoslikni rivojlantirishda eng asosiy, hal qiluvchi yo'nalihi, bu umuminsoniylik, ma'naviy xarakterga mo'ljal (orientatsiya) qilish hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda butun dunyoda kutubxonashunoslik gumanistik xarakterdagi fan sifatida qaralmoqda.

Kutubxonashunoslikning gumanitar yo'nalihi, hozirgi kunda bu sohada matematika, avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, yangi axborot texnologiyalari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni rolini inkor etmaydi. Lekin, bu uni aniq yoki texnika fanlariga aylantirmaydi. Mustaqil ijtimoiy fan sifatida kutubxonashunoslik, o'zini ma'lum bir nazariy bilimlar tizimiga ega bo'lib, ularni ma'lum bir hayotiy sohada, aniqrog'i, axborot - kutubxona faoliyatida qo'llaydi.

Shuningdek, jamiyatda, bu bilimlar shu sohadagi muammolarni hal qila oladi, ushbu muammolar bilan kutubxonashunos - olimlar shug'ullanishi kerak, boshqa soha vakillari emas degan fikrlar mavjud. Kutubxonashunoslari yetarli darajada maxsus usullar, amaliy ishlar, nazariyalar, texnologiyalarga egadirlar. Bularni barchasi axborot - kutubxona amaliyoti asosida mavjuddir.

Kutubxonashunoslik fanining umumiyligi xarakteristikasi statusida muhim o'rinni, kutubxonashunoslik fanining obyektining ko'p elementli ekanligidan kelib chiquvchi, fanlararo tarkibga ega ekanligidir. Kutubxonashunoslik boshqa fanlardan alohida, ajralgan holda faoliyat ko'rsatmagan va ko'rsata olmaydi ham.

O'zini mustaqil fan sifatida ahamiyatini yo'qotmagan holda u fanlararo boy aloqalarga ega. Zarur holatlarda, o'zini masalalarini hal etishda boshqa fanlarning tushunchalari, nazariyalar, printsiplari, metodlari, faktik materiallari va boshqalardan foydalanadi. Fanlararo sintezni amalga oshishi natijasida kutubxonashunoslik va boshqa fanlar o'rtasida bilimlar almashinadi. Ba'zida boshqa fanlar tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar, uni ijodiy rivojlantirish natijasida oddiy, tushunarli ravishda o'zlashtiriladi.

Kutubxonashunoslik fani bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik, informatika fanlari bilan juda yaqin aloqaga egadir. Shuningdek kutubxonashunoslik va arxivshunoslik fanlari uchun ichki aloqadorlik

xarakterlidir. Ushbu fanlarni kelib chiqishi va yaqinligini yuqori darajasi ularni birlashtiradi.

### **Kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik**

Bular – mustaqil, bir - biriga yaqin, bir - biri bilan yaqin aloqada bo’ladigan va bir - birini boyitadigan fanlardir. Bibliografiyashunoslik kutubxonashunoslik fanini ilmiy - nazariy potentsialini sezilarli darajada kengaytiradi. U bibliografik informatsiya ilmiy tushunchasidan foydalanadi, Bibliografiyasiz kutubxona ishining ko’pgina ishlarini amalga oshirib bo’lmaydi, masalan: fondlarni komplektlash, axborot - qidiruv tizimlarini ishlab chiqish, kutubxona fondini o’rganish, foydalanuvchilarga xizmat ko’rsatishda tavsiya bibliografiyasidan foydalanish, yangi adabiyotlar haqida axborot berish va boshqalar.

Bibliografiya ma’lum darajada kutubxonalar orqali tarqaladi. Shuningdek bibliografiya nazariyasi - bibliografiyashunoslik rivojlanadi. U o’z navbatida kutubxonashunoslik fani tamoyillari, nazariyasi, usullari, tushunchalaridan foydalangan holda uning ilmiy-nazariy potentsialiga suyanadi. Ushbu fanlarni bir-biriga yaqinlashtirish, olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

### **Kutubxonashunoslik va kitobshunoslik**

Kitobshunoslik - kutubxonashunoslik bilan yaqin, bir - biriga bog’langan ilmiy fan. Lekin ko’pgina kitobshunos olimlar kutubxonashunoslikni, kitobshunoslik fanini tarkibiy qismi sifatida qarashadi.

Kitobshunoslik, kitobshunos olimlarning bergan ta’rifiga ko’ra kitob haqidagi barcha fanlarning quramasidir. Kutubxonashunoslik fanini kitobni o’zini emas, balki axborotni saqlovchi elementlardan biri - nashr shakl sifatidagi holati, mazmuni qiziqtiradi. Kutubxonashunoslar o’z faoliyatlarida ushbu fanning asosiy tushunchalari: kitob, kitobat ishi, nashriyot, kitob tarqatish va boshqadan foydalanadilar.

Kitobshunoslik va kutubxonashunoslik fanlari kitobxonlik deb ataluvchi tadqiqot sohasida bir - biriga juda yaqin aloqada bo’ladi. “Kitobxon”, “o’qish” tushunchalari kutubxonashunoslikdagi muhim tushunchalar bo’lsada, ular tor ma’noda ishlataladi. Kitobni bilish, uni ma’nosini, maqsadi va qanday kitobxonlar guruhiga mo’ljallanganligi - bu kutubxonachining kasbiy faoliyatidir. Ba’zi bir kutubxonachilik tadqiqotlari kontsepsiyalarini ishlab chiqishda kitoblarni ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanishining umumiyligini qonuniyatlarini katta rol o’ynaydi.

Kitobshunoslar o’z navbatida kitobxonlar, ularni qiziqishlari, axborotga bo’lgan talablari, alohida nashr turlaridan foydalanish, aniq

nashrlar va boshqalar haqidagi nazariy xulosalar va empirik ma'lumotlardan foydalanadilar. Kitobshunoslik va kutubxonashunoslik fanlarini juda ham yaqinligi, ushbu fanlarni yagona fan deb qarash yoki biri ikkinchisini tarkibiga kiradi deb hisoblashga hech qanday asos yo'q.

### **Kutubxonashunoslik va informatika**

Kelib chiqishi bo'yicha kutubxonashunoslik "informatsiyani asoschisi" hisoblanadi. Lekin shunday davr bo'ldiki, informatika kutubxonashunoslikni egallash, uni yutib yuborishga harakat qildi. Kutubxonashunoslik va bibliografiyani informatikani bir usullari deb hisoblab, uni mustaqil bilim sohasi deb hisoblamadi.

Informatika keng ma'noda – fundamental ilmiy fan bo'lib, bir obyektni boshqa bir obyektda namoyon bo'lishi natijalarini, jamiyatda, tabiatda va texnik qurilmalardagi barcha turdag'i axborotlarni ishlab chiqish, qayta ishslash, saqlash va tarqalishini o'rganuvchi bilimlar tizimidir.

Tor ma'noda esa - bu turli xil ilmiy - texnika axboroti xizmati faoliyati bilan bog'liq bo'lgan amaliy informatika. Kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarini o'zaro hamkorligi kelib chiqishi bir bo'lgan, bir - biriga yaqin, teng, ikkala tomon ham bir - biriga foyda keltiruvchi fanlar sifatida qadrlanadi.

Informatika tufayli kutubxonashunoslар jamiyatni axborotlashtirish va o'z fanlarining nazariy va amaliy tomonlarida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini anglab yetmoqdalar. Hozirgi kunda kutubxonashunoslik fanining ilmiy tushunchalariga "axborot", "axborotlashtirish", "kompyuterlashtirish" va boshqa tushunchalar kirib bormoqda. Fanning o'zi esa yangi yo'naliishlarga o'tish bosqichini tugallamoqda. Kutubxonachilik ishi endi axborotlashtirish industiriyasining bir sohasi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Hozirda kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarining o'zaro aloqalarida integratsiya tendentsiyasining kuchayishi holati ko'rilmoxda. Rivojlangan mamlakatlarda "kutubxona - axborot fanlari" tushunchasi qo'llanilishi bu tasodif emas. Kutubxonashunoslik va amaliy informatika fanlarining o'zaro aloqa jarayonlarining rivojlanishi, bu inkorni inkori qonuniyatiga ko'ra, yaqin kelajakda ularni o'zaro aloqalari integratsiyalash jarayonida yangi bir asosda faoliyat yuritishga olib keladi.

Kutubxonashunoslik fanini fundamental informatika faniga bo'lgan munosabatiga kelsak, fundamental informatika kutubxonashunoslik fani uchun umumlashtiruvchi fan sifatida qaralishi, uning qonuniyatları,

tamoyillari, kategoriyalardan kutubxonashunoslik fani axborot - kutubxona faoliyati uchun xarakterli bo'lgan axborot jarayonlarini o'rghanishda toboro ko'proq foydalanishi kerak.

Shunday qilib kutubxonashunoslik kelib chiqishi bir bo'lgan fanlar bilan o'zaro aloqalarini nisbatan yuqori darajada doimiy va muvofiqlashgan deb xarakterlash mumkin.

Yaqin kelajakda kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik, kitobshunoslik, amaliy informatika fanlari sohasida jiddiy o'zgarishlar bo'lishi uchun bir qator asoslar mavjud. Yuqoridagi fanlar yangi, yana ham umumiylaz nazariy asoslarga ega bo'lgan fan - fundamental informatika asosida o'z ilmiy bilimlarini qayta quradilar.

### **Kutubxonashunoslik va ijtimoiy fanlar**

Kutubxonashunoslik boshqa ilmiy fanlarga: madaniyatshunoslik, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, iqtisod, matematika va boshqalar bilan ham juda yaqin faoliyat olib boradi.

### **Kutubxonashunoslik va madaniyatshunoslik**

Kutubxonashunoslik umuminsoniyat madaniyatini tarkibiy qismini o'rGANAR ekan, ushbu madaniyatni bir qismi sifatida, u madaniyatshunoslik fani bilan uzviy bog'langandir. Madaniyatshunoslik fani ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini murakkab bir hodisa sifatida, uni turli sohalari o'rtasidagi aloqalarni o'rganuvchi fandir.

Madaniyatshunoslikning umumiylaz qonuniyatlariga ko'ra kutubxonachilik nazariyasi va amaliyoti jamiyatning madaniy hayotining bir sohasi sifatida qaraladi va shu asosda o'rGANADI. Madaniyatshunoslik uchun jamiyatning umumiylaz va uni boshqa qatlamlarini madaniy rivojlanishi, aholini madaniy ehtiyojlarga bo'lgan talablarini rag'batlantirish va ularni samarali ravishda qondirish vositalari, har tomonlama yetuk, komil insonni shakllantirishning optimal yo'llarini izlash birinchi darjadagi ahamiyatga egadir. Bularni barchasi madaniyatshunoslik fani orqali kutubxonashunoslik uchun ham ahamiyatlidir.

Madaniyatshunoslik fani uchun kutubxonashunoslik madaniyatning yirik sohasi bo'lgan axborot - kutubxona faoliyati haqida faktografik va nazariy axborot beruvchi muhim manba sifatida ahamiyatlidir. Aytish mumkinki, axborot-kutubxona faoliyatiga qarab u yoki bu mamlakatning madaniy rivojlanish darajasiga baho berish mumkin.

### **Kutubxonashunoslik va sotsiologiya**

Kutubxonashunoslik fanida sotsiologiya va ijtimoiy psixologiya fanlari erishgan yutuqlardan va bu fanlarning ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanish an'anasiga deyarli bir asr bo'lib qoldi.

Kutubxonashunoslik fanida ijtimoiy psixologiyaning nazariyalari va usullaridan, ayniqsa so'rovnoma, intervyu va shuningdek guruhli eksperiment usullaridan faol foydalanilmoqda. Ular asosida yirik va lokal sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi. Bu tadqiqotlar aholini barcha qatlamlari: bolalar va yoshlar, mahalliy millat ayollari, olimlar va mutaxassislarni axborotga bo'lган talablarini qondirishda, umuman ularni madaniy darajasini oshirishda, kutubxonalar, kitob va o'qishning o'rnini belgilashga qaratilgan edi.

Kutubxonashunoslikda nisbatan yangi bo'linma - "Kutubxonachilik sotsiologiyasi" tashkil topdi. Kutubxonalar va kutubxonachilik ishini faoliyatini sotsiologik tahlil qilish, kitobxonlik qiziqishlari va talablarini tabiatini, o'qishni jamiyat tizimidagi o'rnini belgilash va uni insonni ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi rolini belgilash imkonini beradi.

### **Kutubxonashunoslik va iqtisodiyot**

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kutubxonashunoslik va iqtisodiyot fanlari o'rtasida aloqalar paydo bo'la boshladi va ular an'anaga aylana boshlandi. Kutubxonachilik ishi iqtisodiyoti muammolari shakllana boshlandi va ular asta –sekin dolzarb ahamiyatga ega bo'la boshladi.

Kutubxonachilik ishi iqtisodiyotni noishlabchigarish sohasi va madaniyat iqtisodiyoti sifatida qarala boshlandi. Iqtisodiy fikrlashning ta'siri natijasida kutubxonashunoslikda, kutubxonachilik mehnatini iqtisodiy tabiat, uni iqtisodiy baholash, kutubxonachilik xizmatlaridan foydalanishni iqtisodiy aspektlari, kutubxonachilik ishida moliyalashtirish va mehnatga haq to'lash, kutubxonalarni moddiy - texnika ta'minoti kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazila boshlandi.

"Kutubxona marketingi" tushunchasini bildiruvchi tadqiqot yo'nalishi paydo bo'ldi, kutubxonachilik xizmati ko'rsatishda pulli va bepul xizmat ko'rsatish masalalari hal bo'ldi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi natijasida kutubxona marketingi sohasidagi tadqiqotlar faollashdi. Axborot, axborot xizmatini oddiy tovar, mahsulot sifatida qarashga e'tibor ko'proq qaratila boshlandi. Bu esa

umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan huquqqa, ya’ni axborotni hech qanday to’siqsiz olishga zid holatdir.

### **Kutubxonashunoslik va boshqarish fani**

Kutubxonashunoslikni boshqarish fani bilan o’zaro aloqalari tarixi deyarli bir asrga yaqinlashib qolmoqda. Ushbu davr mobaynida kutubxonashunoslik fanida boshqarish fanining asosiy kontseptsiyalarini o’ziga singdirib oldi va u 1969 yildan boshlab mustaqil bo’lim “Kutubxonachilik ishini tashkil etish va boshqarish”, 2000 yildan boshlab esa “Kutubxonachilik ishida menejment va marketing” nomi bilan faoliyat yuritib kelmoqda. Respublikamizda esa “O’zbekistonda kutubxonachilik ishini boshqarish” fani predmeti ishlab chiqilgan.

Quyidagi muhim muammolar: kutubxonachilik ishi va kutubxonani boshqarish mazmuni, kutubxonachilik ishini boshqarish usullari, boshqarish texnologiyalari, boshqaruv mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, boshqaruv stili, boshqaruv samaradorligi va boshqalar.

### **Kutubxonashunoslik va pedagogika**

Kutubxonashunoslik fanida (bizda) barcha davrlarda pedagogik yo’nalish kuchli bo’lgan. Bu esa uni pedagogika tarkibiga kirishi uchun sabab bo’lgan. Xolbuki bunga hech qanday asos yo’q. Kutubxonashunoslik fanini kutubxonachilik xizmati, xususan bolalar va o’smirlarga xizmat ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan bo’linmalari pedagogik g’oyalar bilan chuqur sug’orilgan.

Kitobxонни axborotga bo’lgan talabini qondirishda individual yondoshish tamoyillari, kitobxonlarni tabaqlashtirish tamoyillari, uzliksiz ta’lim va mustaqil ta’lim va boshqalar pedagogik yo’nalishga egadir.

Kutubxonashunoslikning pedagogik bilimlar bilan ijodiy assimiliyasi (birlashib ketishi) ning muhim natijasi sifatida kutubxonashunoslikda, kitobxonlar bilan kutubxona - bibliografik va axborot ishlari asoslarini o’rganuvchi mustaqil bo’linma “Kutubxonachilik pedagogikasi” paydo bo’ldi.

### **Kutubxonashunoslik va psixologiya**

Psixologiya fani kutubxonashunoslikni, kutubxonachilik ishidagi eng muhim elementlar bo’lgan kitobxon va kutubxonachi haqidagi nazariy qarashlar bilan boyitadi. Shuningdek u kutubxonachilik xizmatining barcha jarayonlarini psixologik asoslaydi.

Kutubxonashunoslik uchun umumiyligi psixologiya, yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, injenerlik psixologiyasi (kutubxonachining axborot texnologiyalar bilan o’zaro

aloqasi) katta ahamiyat kasb etadi. Kutubxonashunoslikda “Kutubxonachilik psixologiyasi” bo’linmasi tashkil etilgan bo’lib, uning vazifasi kutubxonachilik ishining psixololgik asoslarini o’rganishdir.

### **Kutubxonashunoslik va matematika**

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, avval chet el kutubxonashunoslik fanida, so’ngra esa bizda matematika bilan aloqalar kuchaya boshlandi. Bu jarayon ijtimoiy fanlarni matematikalashtirish va kutubxonachilik ishini kompyuterlashtirish an’anasi bilan bevosita bog’liqdir.

Zamonaviy kutubxonashunos - tadqiqotchi va kutubxonachi - amaliyotchi zarur matematik fikrlash ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak. Xolbuki u aslida kasbi bo’yicha gumanitardir.

Shu bilan birga kutubxonashunoslikni matematika bilan o’zaro aloqadorligi ma’lum bir chegaralanishga egadir: birinchidan, faqat amaliy matematik qo’llaniladi, butun matematika emas; ikkinchidan, kutubxonachilik ishining barcha hodisalari, jarayonlari, va obyektlarini matematika vositalari yordami bilan yoritib bo’lmaydi; uchinchidan kutubxonashunoslik - ijtimoiy, gumanitar fan bo’lib, matematik usullar muhim rol o’ynaydi, lekin asosiy emas.

Shunday qilib, kutubxonashunoslik yuqori statusga ega bo’lgan fan sifatida xarakterlanadi va u ijtimoiy fanlar bilan keng o’zaro aloqada bo’ladi. Shu bilan birga tabiiy - ilmiy va texnika fanlari bilan ham. Ushbu status nafaqat o’zini ilmiy xarakteri bilangina emas, balki rasmiy, formal xarakter kasb etadi. Dunyoning har bir rivojlangan mamlakatlarida, shuningdek O’zbekistonda ham kutubxonashunoslik ilmiy va o’quv fani sifatida va davlat tomonidan tashkil etilgan oliy va o’rta maxsus ta’lim statusiga egadir. Ilmiy - pedagogik kadrlar tayyorlanmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Kutubxonashunoslik metodologiyasi deganda nima tushuniladi?
2. “Qarama- qarshiliklar birligi va kurashi qonuni”ni ta’riflang.
3. “Miqdor o’zgarishlarning sifat o’zgarishlariga o’tish qonuni”ni ta’riflang.
4. “Dialektikaning inkorni inkor qonunining” ni ta’riflang.
5. Kutubxonashunoslikning xususiy metodologiyasi
6. Kutubxonachilik tizimlarini shakllanishini qonuniyatlar

7. Analiz, Sintez, Eksperiment atamalariga ta’rif bering?
8. Tuzilmaviy-vazifaviy metodi nima?
9. Klassifikatsiya, Kontent-analiz atamasiga ta’rif bering?
10. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarni o’tkazishning qanday bosqichlariga amal qilish kerak?
11. Kutubxonashunoslik tadqiqotlarida qanday tashkiliy sxema eng qulay xisoblanadi?
12. Kutubxonashunoslik fanini statusi deganda nimani tushunasiz? Fanlarni ijtimoiy, tabiiy-ilmiy va texnika fanlariga bo’linishida kutubxonashunoslik qaysi fanlar sinfiga mansub?
13. Kutubxonashunoslikni mustaqil fan sifatida keyingi rivojlanishiga informatika fani nima yangilik kiritdi?
14. Kutubxonashunoslik fani sotsialogiya va ijtimoiy psixologiya fanlaridagi qanday yutuqlar va metodlarni o’zida qo’llaydi?
15. Iqtisodiy fikrlashning ta’siri natijasida kutubxonashunoslikda qanday masalalar o’rganiladi?

## **4- BOB. O'ZBEKISTONDA AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARI TARMOG'I VA ULARNI RIVOJLANTIRISH**

### **4.1. “Kutubxonalar tipologiyasi” tushunchasi va nazariyasining rivojlanishi**

Kutubxonashunoslikda ko'pgina vazifalarni hal etishda ikkita bir-biriga yaqin bo'lgan metodlardan-klassifikatsiyalash va tipologiyalashdan foydalaniladi. Klassifikatsiyalash va tipologiyalash o'rtasidagi chegaralar shartlidir. Shunga qaramasdan klassifikatsiyalash deganda o'rganilayotgan obyektni miqdoriy jihatdan guruhlarga ajratish tushunilsa, tipologiyalashda esa-sifatiga qarab ajratish tushuniladi.

Tipologiyalashning zarurati bir xil bo'limgan kutubxonalarini bir tartibga solish zarurati bilan paydo bo'ladi, yoki ularni qandaydir qonuniyatlar asosida bunday bir xil bo'limganlikni o'rganish zaruratidan kelib chiqadi. Tipologiyalash jarayonida mazmunli tahlil qilish asosida o'rganilayotgan kutubxonalarini o'xshash va har xillik jihatlari aniqlanadi va ularni identifikatsiyalash –ya'ni bir xillikka olib keluvchi usullari aniqlanadi.

Kutubxonalarini tipologiyalashni asosiy sifat o'lchovi sifatida “tip” va “tur” degan tushunchalar qabul qilingan bo'lib, ular namuna, model, turli xil degan ma'nolarni bildiradi va kutubxonalarini tegishli guruhlariga mansub bo'lgan ma'lum bir belgilarga ega bo'ladi. Shuning uchun ma'lum bir yetakchi belgilariga ko'ra guruhlarga ajratishni tiplarga ajratish deb ataladi, keyingi maydalashtirish jarayonidagi ajratish esa tur va kichik tur deb ataladi.

Tipologiyalash jarayonida bir vaqtning o'zida ikkita - nazariy va amaliy masalalar hal etiladi. Birinchi masala kutubxonalarini faoliyat ko'rsatishi va tipologik jihatdan rivojlanishini obyektiv qonuniyatlarini ochish maqsadida ularni faoliyatini xarakterlovchi faktorlarni to'plash va tahlil qilish ishlari ya'ni, nazariy masalalardir.

Kutubxonalarini tipologiyalashning amaliy masalalari esa, ularni faoliyatlarni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqishdir. U kutubxonalarini tipologik xarakteristikasidan kelib chiqqan holda ularni vazifalarini, funksiyalarini, aloqalarini, munosabatlarini, tashkiliy darajalarini aniqlash imkonini beradi va ular kutubxonalarini samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarurdir. Kutubxonalarini tiplari va turlarini hisobga olgan holda maqsadga muvofiq ravishda ularni fondining tarkibi va tuzilishini, kitobxonlar so'rovlarining qondirilishini,

kutubxonalani sohalarga ajratish va o'zaro aloqalariga asoslanuvchi tizimlarni qurish va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, kutubxonachilik ishini samarali boshqarish va boshqalar amalga oshiriladi.

Kutubxonalarni ilmiy jihatdan tipologiyalash masalalari nazariy jihatdan kutubxonashunoslikda hozircha ishlab chiqilmagan. Lekin ko'pchilik olimlar quyidagi kutubxona turlarini qayd etganlar: milliy, ommaviy, o'quv, akademik, maxsus.

XX asrning 20 - yillarida dastlab kutubxonalar uchta tipga: ommaviy, ilmiy, maktab kutubxonalariga bo'lingan.

30 - yellarga kelib M.A. Potapov kutubxonalarni ommaviy va ilmiy kutubxonalarga bo'linishiga qarshi chiqqan. Va u kutubxonalarni kitob fondiga ko'ra universal va maxsus bo'lishni taklif etgan.

40 - yellarda I.M. Frumin kutubxonalarni ommaviy va ilmiy kutubxonalarga bo'lishga qaytadi. Guruhlash asosi sifatida kitobxonlarni so'rovlarini: umumta'lim, ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, o'quv so'rovlarini olgan.

50-60 yillarda O.S. Chubaryan kutubxonalarni tabaqalashtirishni kitobxonlarga mo'ljallanganlikka qarab ajratgan: ommaviy, ilmiy va maxsus. Bunga qo'shimcha sifatida ikkinchi belgilari bo'yicha, mintaqaviy va idoraga mansublikka qarab ajratishni taklif qilgan.

70-90 yillarda kutubxonalarni tipologiyasi muammosiga bag'ishlangan maxsus munozaralar bo'lib o'tdi. Natijada kutubxonalar ommaviy va ilmiy, umumiyligi va maxsus, universal va maxsus, ommaviy va idoralar, ilmiy va bolalarga bo'lindi. Tadqiqotchilar kutubxonalarni tiplarga ajratishda qanday belgilar asosiy va qanday belgilar ikkinchi darajali belgilar bo'lishi kerak degan yagona bir to'xtamga kela olmadilar.

YuNESKO kutubxonalarni quyidagi klassifikatsiyasini taklif etadi:

1. Milliy kutubxonalar
2. Oliy o'quv yurtlari kutubxonalari
3. Yirik universal hamma foydalanishi mumkin bo'lgan kutubxonalar
4. O'quv kutubxonalari
5. Maxsus kutubxonalar (Ilmiy-tadqiqot institutlari, jamoat tashkilotlari, idoralar, kasaba uyushmasi, muzeylar va boshqalar)
6. Ommaviy hamma foydalanuvchi (yoki xalq) kutubxonalar.

Ko'rinish turibdiki, bu erda ham kutubxonalar yagona ilmiy asoslangan belgilar bo'yicha tiplarga ajaratilmagan.

Shunday qilib kutubxonalarini tiplarga ajratishda turli xil qarashlar mavjud. Bir xillari asosiy, eytakchi belgi sifatida kitob fondini tarkibi deb hisoblasa, ikkinchisi esa kitobxonlar so'rovlari yetakchi deb hisoblaydi, uchinchisi esa axborotga bo'lgan talabni, to'rtinchisi esa kitobxonlarni kutubxona murojaat qilishdan maqsadini, motivasiyasini asosiy belgi deb hisoblaydi.

Shunig uchun biz tiplarga bo'lувчи belgilarga to'xtalib o'tamiz  
Ular turlicha bo'lishi mumkin:

- maqsadiga ko'ra,
- foydalanuvchilar kontingenti bo'yicha,
- mavzusi bo'yicha,
- fondni tarkibi va hajmi bo'yicha,
- mansubligi bo'yicha,
- faoliyat ko'rsatishi bo'yicha,
- yuridik mustaqilligi bo'yicha,
- kutubxonalar tizimidagi o'rni va faoliyati statusi bo'yicha,  
foydalanish darajasi bo'yicha va h.k.

Yuqoridagi belgilar bo'yicha turli tiplar, turlar va kichik turlarga ajratish mumkin. Shunga ko'ra har bir kutubxona bir vaqtning o'zida turli klassifikatsiyalashga bo'linishi mumkin.

### **O'zbekiston axborot-kutubxona muassasalarining asosiy tiplari va turlari**

2011 yilda qabul qilingan "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasalarini ilmiy tipologiyalash quyidagichadir:

1. Milliy kutubxonalar.
2. Axborot-kutubxona markazlari, Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ilmiy-universal kutubxonalari bazasida tashkil etilgan.
3. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va umumta'lim maktablari qoshidagi axborot-resurs markazlari.
4. Maxsus: ilmiy, sohaviy, o'quv (universitetlar, oliy o'quv yurtlari, kollejlar, litseylar), ishlab chiqarish (texnika, qishloq xo'jaligi, meditsina, harbiy va boshqalar.), boshqaruvi (Prezident ma'muriyati, Oliy Majlis va boshq.).
  1. Milliy kutubxonalar.

Milliy kutubxona - davlatning bosh kutubxonasi. “Milliy kutubxona” termini kutubxonani qandaydir bir millatga tegishli ekanligi emas, balki umumdavlat ahamiyatiga ega ekanligini bildiradi. Milliy kutubxonalarни paydo bo’lishi va rivojlanishi milliy davlatlarni tashkil topishi, millatni o’z madaniyatini yutuqlariga bo’lgan talablarini qondirilishi sababli paydo bo’ladi.

Milliy kutubxonalarни ijtimoiy o’ziga xos vazifasi bu - o’ziga bir qancha belgilar tizimini oluvchi davlatchilikni tashkil etadi. Ular: 1) barcha faoliyatini davlatning ijtimoiy, madaniy va siyosiy qiziqishlariga bo’ysunish asosida olib borilishi; 2) moliyaviy va ma’muriy jihatdan davlatga qaramligi; 3) umumdavatliligi ya’ni hech qanday mintaqaviy, idoraviy yoki boshqa mashtabdagi faoliyat bo’yicha cheklanmaganlik. Ushbu belgilar alohida ravishda boshqa kutubxonalarga ham tegishli bo’lishi mumkin. Lekin umumiyl ravishda ular faqat milliy kutubxonalarga tegishlidir.

Hozirgi vaqtida milliy kutubxona tiplari rivojlanish bosqichini o’tamoqdalar. Ba’zi bir mamlakatlarda aniq sharoitlardan kelib chiqqan holda milliy kutubxonalar faoliyat ko’rsatib turgan kutubxonalar - qirollik, parlament, universitet va boshqa qo’shib yuborilishi natijasida paydo bo’lgan. Masalan, Buyuk Britaniyada - Britaniya kutubxonasi, Britaniya muzeyi fondi (bosma nashrlar, qo’lyozmalar, Sharq mamlakatlari tilidagi kitob va qo’lyozmalar bo’limi), Tabiiy fanlar va ixtiolar bo’yicha Milliy ma’lmotnomalar kutubxonasi va Milliy ilmiy-texnika kutubxonasi (abonnement)ni qo’shib yuborilishi natijasida paydo bo’lgan.

Boshqa mamlakatlarda esa bitta emas, balki bir nechta milliy kutubxonalar mavjud. AQShda Kongres kutubxonasi, Milliy qishloq xo’jaligi kutubxonasi va Mlliy meditsina kutubxonasi; Rossiyada, Rossiya davlat kutubxonasi Moskva shahrida va Rossiya milliy kutubxonasi Sankt-Peterburg shahrida faoliyat ko’rsatadi. Shuningdek avtonom respublikalarni o’z milliy kutubxonalar ham mavjud.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 fevraldag № VII-3029 “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishni tashkil etish” haqidagi farmoniga ko’ra A.Navoiy nomidagi O’zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va O’zbekiston Respublikasi Davlat fan-texnika Komitetining Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi bazasida O’zbekiston milliy kutubxonasi tashkil etish taklifi bildirildi. Va shu yili O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alisher Navoiy

nomli O'zbekiston Milliy kutubxonasi haqida“ qarori chiqdi va Milliy kutubxona nizomi tasdiqlandi.

2011 yil 14 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi faoliyatini tashkil etish va “Ma'rifat markazi” binosini samarali ekspluatatsiya qilishni ta'minlash haqida”gi qarori va 2012 yil 20 martdagi “Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi-axborot resurs markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari haqida” qarorlari chiqdi.

A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi o'zini 144 yillik tarixi mobaynida nafaqat kutubxona muassasasi, balki kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik bo'yicha ilmiy-tadqiqot markazi vazifasini ham bajarib kelgan. Bugungi kunda uning fondi 10 mln. nusxaga yaqin bo'lib, har yili u 30 mingdan ortiq kitobxonga xizmat ko'rsatadi.

Milliy kutubxonalarga xos bo'lган bir qancha vazifalar mavjud bo'lib, ularni asosiy vazifalar yoki tipga xos bo'lган, va qo'shimcha vazifalarga bo'lish mumkin.

Milliy kutubxonalarni birinchi tipologik vazifasi o'z mamlakatiga oid hujjatlar fondini, uni to'liq komplektlash va umrbod saqlash tamoyili asosida yaratishni amalga oshirishdir. Milliy kutubxonalarda chet el nashrlari fondini shakllantirish ishlari ham boshqa kutubxonalarga nisbatan to'liqliligi bilan ajralib turadi. Lekin bu ishlar har bir davlatning imkoniyatlari va qiziqishlarini maksimal holatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ko'pgina milliy kutubxonalar chop etilmagan hujjatlar: qo'lyozmalar, o'z mamlakatining dissertatsiyalari, madaniyat va san'atga oid materiallarini (deponirovat (saqlash uchun topshirilgan) qilingan qo'lyozmalar, ilmiy-tadqiqot hisobatlari va boshq.)ni saqlaydi. Lekin bu vazifalar milliy kutubxonalar tipiga xos emas, chunki ushbu hujjatlar bilan faoliyat ko'rsatishni davlat arxiv muassasalariga vazifa qilib bergen. Milliy kutubxonalar uchun esa bu qo'shimcha vazifa.

Mamlakatimiz hujjatlari (“O'zbekiston Xotirasi”) to'liq fondini shakllantirish vazifasini yirik kutubxonalar, axborot muassasalari, SHarqshunoslik instituti va boshqa bilan hamkorlikda amalga oshirish mumkin. Lekin A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona ularni to'plash va saqlashda katta ulushni o'ziga oladi, davlat bibliografik hisobini yuritish bazasi, yuqoridaq muassasalarni hamkorligini ta'minlaydi.

Milliy kutubxonaning muhim vazifalaridan biri, mamlakatimiz mualliflarini (asl nusxadagi va tarjima qilingan asarlarini) va chet ellarga

chiqib ketganlarni va o'sha yerda chop etilgan asarlarini, shuningdek chet el mualliflarini O'zbekiston haqidagi asarlarini komplektlashdan iboratdir.

Milliy kutubxona qaytadan tuzilgan Kitob palatasi vazifasini bajara borib, hujjatlarni joriy va retrospektiv hisobga olishni umum davlat miqyosida va mavzu bo'yicha, turlari va tili bo'yicha universal maksimal to'liq darajada amalga oshirmoqda. Bu manbalarni asosiy turi milliy bibliografiya, mamlakatimiz va chet el hujjatlarini milliy yig'ma (elektron) katalogidir.

Kutubxonachilik va axborot resurslaridan o'zaro foydalanish, milliy kutubxona oldiga maxsus vazifani, mamlakatda mavjud bo'lgan ikkilamchi axborot manbalari: mamlakatni va jahonni ma'lumot va bibliografik resurslarini ochib beruvchi, ma'lumot va axborot nashrlari, chop etilmagan hujjatlar, katalog va kartotekalar, ma'lumotlar bazasi va banki haqidagi ma'lumotlarni toplash, saqlash va ularni tarqatish vazifasini keltirib chiqardi.

A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasing ilmiy-yordamchi bibliografiya sohasidagi faoliyati ham asosiy vazifa, ham qo'shimcha vazifa sifatida belgilanadi. Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, madaniyat va san'at, kutubxonashunoslik va bibliografiya masalalari bo'yicha adabiyotlar ko'rsatkichlari yaratish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Qo'shimcha vazifasi, madaniyat va san'at bo'yicha ilmiy axborot markaziy sohaviy organ vazifasini o'tashidir.

Ushbu vazifalar ikkita asosiy (tipologik) vazifalarni-bibliografik axborot manbalarini yaratish va bibliografik xizmat ko'rsatish vazifalarining davomidir. Ular milliy kutubxona fondi va ma'lumot-qidiruv apparati asosida amalga oshiriladi. Milliy kutubxona shular orqali madaniyat sohasidagi olimlar, mutaxassis-amaliyotchilar, boshqaruv organlari xodimlarini axborot bilan ta'minlashni tashkil etadi.

Milliy kutubxonani keyingi vazifasi ikkita tamoyilni, ommaboplilik va birinchi o'rindalik tamoyillarining qo'shilishi asosida foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bilan bog'langan. Milliy kutubxona - mamlakatni bosh ommaviy kutubxonasi. U faqat o'z fondlarini foydalanish uchun taqdim etibgina qolmasdan, uni mazmunini bibliografik axborot orqali ochib beradi. Milliylik maqomi va ommaviy kutubxona xarakterini yumshatish uchun umumi kutubxonachilik xizmati ko'rsatish tizimida o'zini ijtimoiy o'rnini saqlash uchun instantsiya saqlashi ya'ni boshqa kutubxonalar foydalanuvchilar talabini qondira olmagan taqdirdagina unga murojaat qilishlariga erishishi kerak

. Vazifalarni bunday taqsimlanishiga ma'muriy usullar orqali cheklashlar bilan emas, balki boshqa kutubxonalar resurslarini mustahkamlash hamda milliylik maqomini soha bo'yicha (idoralar) bo'yicha respublika kutubxonalariga berish orqali erishish mumkin.

Kutubxonalarni o'zaro faoliyat yuritishi obyektiv zarurat bo'lib, metodik tamoyillar, kutubxonachilik ishlarini bir xillika olib kelish, harakatalarni kelishgan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Milliy kutubxona bu vazifalarni bajarishga rahbarlik qilishi uchun hamma shart-sharoitlarga ega. Mamlakatni bosh kutubxonasi sifatida kutubxonachilik sohasiga oid masalalarini, jumladan kutubxonachilik xizmatini tashkil etishni milliy miqyosda (davlat miqyosida) hal etishda katta rol o'ynaydi.

Milliy kutubxona mamlakatda kutubxonachilik ishini rivojlantirishda to'rtta vazifani bajaradi: kutubxonachilik jarayonlarini markazlashtirish (kataloglashtirish, sistemalashtirish, kitob almashish, depozitar saqlash, kutubxonalararo abonnement (MBA); kutubxonalar faoliyatini koordinatsiyalash; metodik ta'minot (shu jumladan, kutubxonachilik ishi va bibliografiya bo'yicha); kutubxona xodimlarini malakasini oshirish .

Iilmiy-tadqiqot faoliyati - Milliy kutubxonalarni eng yosh vazifalaridan biridir. Unga nafaqat bajaruvchilik vazifasi, balki ko'pincha boshqa kutubxonalarga nisbatan tashkiliy va rahbarlik, ya'ni davlat miqyosida kutubxonachilik ishini ilmiy asoslarini, umumkutubxonachilik va axborotlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishni umumdavlat miqyosida amalga oshirishni tashkil etish kiradi. Milliy kutubxona kutubxonalarni xalqaro hamkorligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. U O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi yoki mamlakat kutubxonalarini xalqaro kutubxonachilik dasturlari va boshqa shakldagi hamkorliklarda ishtiroy etishini ta'minlaydi

Milliy kutubxona - davlatning bosh universal yoki maxsus kutubxonasi hisoblanib, davlatni milliy va xalqaro hujjatlarga bo'lgan talablarini aosiy va qo'shimcha vazifalar orqali bajararilishini ta'minlaydi.

## 2. Axborot-kutubxona markazlari (AKM)

Axborot-kutubxona markazlari, Qoraqalpog'iston avtonom respublikasi, viloyatlar ilmiy-universal kutubxonalarini va Toshkent shahar markazi kutubxonasi bazasida tashkil etilgan.

Axborot-kutubxona markazlari faoliyat kitobxonlarni ilmiy-tadqiqot ishlari, ijtimoiy va ishlab chiqarishning barcha sohalaridagi oliy ma'lumotli mutaxasislarni kasbiy bilimi va malakasini oshirish bo'yicha axborotga bo'lgan talablarini qondirishga yo'naltirilgan. Axborot-kutubxona markazlarining bu muhim yo'nalishi axborot berish vazifasi bilan bog'langan bo'lib, kitobxonlarni fanlar bilan yaqindan, ular erishgan yutuqlar bilan, tadqiqotchilik darajasida tanishtirishdir.

Axborot-kutubxona markazlarini o'ziga xos xususiyatlari:

- faoliyat ko'rsatish ko'lami bo'yicha maksimal darajadani miqdorda va mavzu bo'yicha universal bo'lgan fondga ega bo'lishlik;

- universal xarakterdagi mamlakatimizda chop etilgan nashrlarni saqlovchi va depozitarisiya vazifasini bajarishi, kitob almashish fondini yaratishi;

- hududdagi yirik ommaviy kutubxona, kutubxonalararo abonnement universal markazi, ma'lumot, axborot-bibliografik va ilmiy-metodik ishlar markazi, shuningdek hududdagi barcha kutubxonachilik resurslarini birlashtiruvchi va o'zaro hamkorlikni ta'minlovchi markaz vazifasini bajaradi;

- axborot-kutubxona markazlarini tipiga xos bo'lgan vazifalar-o'lkashunoslik ishlaridir. O'z faoliyati bilan u hududning iqtisodiyotini, sanoatini, qishloq ho'jaligini, fan va madaniyatni rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Buni u o'lkashunoslik va mahalliy nashrlarni yig'ish, saqlash va uni jamoatchilik foydalanishiga tavsiya qilish, shuningdek o'lka bo'yicha to'liq axborotlarni yetkazish orqali amalga oshiradi;

Axborot-kutubxona markazlariga yuklatilgan vazifalar:

- aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning yangi sifat jihatidan yuqori darajasini yaratish, ularni ilmiy, ta'limiy, axborot va madaniy qiziqishlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida zudlik bilan qondirish;

- kitobxonlarga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga o'tishni ta'minlash. Buni o'zini axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'limiy axborot resurslaridan foydalanishga yo'1 ochish orqali amalga oshirishni ta'minlash;

- universal axborot resurslari, milliy va chet el nashrlari (bosma, audiovizual, elektron va boshq.) fondini shakllantirish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish;

-elektron kutubxona va ma'lumotlar bazalarini yaratish, axborot resurslarini yig'ma elektron katalog yordamida birlashtirish;

-joylarda axborot-resurs markazlarining faoliyatini koordinatsiyalash va tashkiliy-metodik ta'minlash ishlarini amalga oshirish va boshq.

### 3.Axborot-resurs markazlari (ARM)

Axborot-resurs markazlari oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari va umumta'lim maktablari qoshida tashkil etiladi. Axborot-resurs markazlarini asosiy vazifalari:

-o'quv yurtlari o'quvchilari va aholini uzlusiz ravishda ta'lim va mustaqil ta'lim olishini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirishga ko'maklashish;

-milliy ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarni keng targ'ib qilish, xalqning madaniy-tarixiy merosiga kirishni ta'minlash, shaxsning ma'naviy boy va barkamol ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratish;

-aholiga axborot xizmati ko'rsatishni yangi axborot texnologiyalari (elektron ma'lumotlar bazalari, Internet resurslar) asosida amalga oshirish;

-ta'lim muassasalari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, milliy madaniy markazlar bilan hamkorlikda madaniy, ta'limiy, axborot va boshqa dasturlar va loyihalarni o'tkazishni rivojlantirish.

## 4.2. O'zbekistondagi maxsus axborot-kutubxona muassasalari

“Maxsus kutubxona” atamasi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib, qandaydir predmet yoki hodisaga, mutaxassislikka nisbatan “alohida” degan ma'noni bildiradi. Maxsus kutubxonalar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlandi. Bu vaqtda fanlarni bo'linish davri (differentsiatsiyalanish) tugayotgan va birlashish ya'ni integratsiya davri boshlanayotgan davr edi.

Maxsus kutubxonalarining ijtimoiy ijtimoiy vazifasi - kasbiy o'qishni, ya'ni, mutoalaani tashkil etishdir. Kasbiy o'qish fondni komplektlash sohasini, kitobxonlar kontingentini, ishlarni tashkil etishning shakl va usullarini aniqlaydi.

Maxsus kutubxonalar o'z fondalarini o'zlari xizmat ko'rsatuvchi tashkilot, muassasa, ishlab chiqarish korxonasi sohasi bo'yicha komplektlaydi. Komplektlash obyekti sifatida kitoblar, vaqtli va davomli nashrlar, standartlar, kashfiyotlarni tavsiflari, ma'muriy-idoraviy nashrlar, hisobotlar, chizma-konstrukturlik va loyihaviy hujjatlar,

shuningdek nashrlarning maxsus turlari-kartografik, musiqa-notalari, audiovizul nashrlar bo'lishi mumkin.

Maxsus kutubxonalar - nafaqat hujjatli fondlarni saqllovchi joy, balki hujjatli-axborot kommunikatsiya markazi, keyingi vaqtarda esa elektron kommunikatsiya markazi hamdir. Shuning uchun ushbu kutubxonalar faoliyati faqat bibliografik ma'lumotlarni qidirish va birlamchi hujjatlarni yetkazib berish bilan chegaralanib qolmasdan, balki ular faoliyatida faktografik axborotlarni yetkazib berish ushbu faoliyatda muhim o'rinni egallaydi. Masalan, mahalliy ishlab chiqarish va savdo haqidagi ma'lumotlarni bilish kutubxona xodimidan maxsus bilimlarni talab etadi.

Olimlar va mutaxassislarni axborotga bo'lgan so'rovlarining mazmuniga ularni kasbiy faoliyati ta'sir ko'rsatadi, ularni kutubxona resurslariga bo'lgan talablarning aniqlanishi esa mavzuli yo'nalish orqali belgilanadi. Shuning uchun maxsus kutubxonalar bir - biri bilan avvalo bilim sohalari bo'yicha farq qiladi.

Maxsus kutubxonalarini uchta asosiy guruhgaga ajratish mumkin: ijtimoiy-ilmiy (gumanitar), tabiiy-ilmiy va amaliy soha. Keyingi bo'linish maxsus kutubxonalarini fan tarmoqlari va ishlab chiqarishga mo'ljallangan fondlarni tashkil etishga qarab amalga oshiriladi (astronomik va geologik, geografik va kartografik, tarixiy va san'atshunoslik, yuridik, meditsina, qishloq xo'jaligi, texnika va h.k.).

Maxsus kutubxonalarini tabaqlashtirishning muhim belgilaridan biri kutubxona mansub bo'lgan tashkilotning ish faoliyati hisoblanadi. Shunga asosan ilmiy, o'quv, ishlab chiqarish va boshqaruva kutubxonalari ajratiladi. Shuningdek boshqa belgilar bo'yicha ham guruhlarga ajratish mumkin. Masalan, kutubxonalarini statusi bo'yicha - respublika, soha bo'yicha markaziy, regional, bosh kutubxona, shoxobcha. Adabiyotlar turi bo'yicha - (patent kutubxonasi), abonentlarga xizmat ko'rsatish kategoriysi bo'yicha (ko'zi ojizlar kutubxonasi).

O'zbekiston hududida maxsus kutubxonalar XIX asrning ikkinchi yarmidan paydo bo'la boshladi va ular ma'lum guruh kishilariga xizmat ko'rsatar edi. Ular dastavval Samarqand va Toshkent shahrida faoliyat yuritdilar. Bu tipdagisi kutubxonalar avvalo ilmiy-texnik jamiyatlar qoshida tashkil etildi va rus aholisiga xizmat ko'rsata boshladi. Ulardan faqat ilmiy va injener-texnik xodimlar, ma'muriyat va ilmiy muassasalar vakillarigina foydalanishgan.

O'zbekistondagi eng yoshi ulug' maxsus kutubxonalar - O'zbekiston FA Astronomiya instituti kutubxonasi (1873 y.), Samarqand viloyatidagi Lalmi tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti kutubxonasi (1913 y.), O'zbekiston Davlat madaniyat va san'at muzeyi ilmiy-ma'lumot kutubxonasi (1911 y. Samarqand) hisoblanadi.

**Respublikadagi yirik maxsus kutubxonalar quyidagilardir:**

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi;

Respublika ilmiy pedagogika kutubxonasi;

Respublika ilmiy meditsina kutubxonasi;

Markaziy ilmiy qishloq xo'jaligi kutubxonasi.

Ushbu kutubxonalarning fondi million nusxadan oshib ketgan.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Asosiy kutubxonasi 1933 yilda tashkil etilgan. Uning tarixi respublikadagi ilm-fanni rivojlanishi bilan uzviy bog'langan. Ushbu kutubxona akademik kutubxonalar tarmog'ini boshqaradi. Uning tarkibiga 30 ga yaqin ilmiy-tekshirish institutlarining kutubxonalari kiradi.

Maxsus kutubxonalar ichida asosiy o'rindan biri texnika kutubxonalaridir. Texnika kutubxonalari ichida eng ko'p tarqalganlari ishlab chiqarish korxonalari va birlashmalari qoshidagi kutubxonalar hisoblanadi. Ularni fondida salmoqli o'rinni jurnallar, texnik hisobotlar, ma'muriy-idoraviy nashrlarning ba'zi bir xillari, standartlar, chizma-konstruktorli hujjatlar va boshqalar tashkil etadi. Ular kitobxonlarga zudlik bilan ilmiy-texnika hujjatlari haqida axborot berish imkonini beradi. Texnika kutubxonalarida asosan keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlar bo'ladi. Chunki texnikaga oid adabiyotlar juda tez eskiradi.

Respublika texnika kutubxonalari ichida yetakchi o'rinni 1957 yilda tashkil etilgan, 2 milliondan ortiq kitob fondiga ega bo'lgan Respublika ilmiy-texnika kutubxonasini tashkil etgan. Hozirda ushbu kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarkibiga kirgan.

O'zbekiston sog'liqni saqlash aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida 286 ta maxsus kutubxonalar mavjud bo'lib, ular tarkibiga 12 ta viloyat meditsina kutubxonalari, meditsina ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy va o'rta maxsus o'quv muassasalari, davolash-profilaktika muassasalari, kasalxonalar qoshidagi kutubxonalar kiradi.

Respublikada Qishloq xo'jaligi sohasiga oid maxsus kutubxonalari kamchilikni tashkil etadi. Ular jami - 27 ta. Ushbu kutubxonalar asosan ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba uchastkalari, oliy o'quv yurtlari va

kollejlar, umuman Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga qarashli bo'lgan kutubxonalardir.

“O'quv kutubxonasi” atamasi kutubxonashunoslikda uzoq vaqtidan beri qo'llanilib kelinayotgan atamadir. O'quv kutubxonasi deganda, o'quv jarayoni davomida paydo bo'ladigan foydalanuvchilarni axborotga bo'lgan talablarini qondiruvchi kutubxonalar tushuniladi. Ushbu kutubxonalarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: oliv o'quv yurtlari kutubxonalari (universitetlar, akademiyalar, institutlar), kollej, akademik litsey kutubxonalari, maktab kutubxonalari. O'quv muassasalari kutubxonalari o'quvchilarni tarbiya va ta'lim olishlariga yordam berishga mo'ljallangan. O'quv jarayonini ta'minlash ularni eng muhim ijtimoiy vazifasi va o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Ular universal mazmundagi fondga (maktab, universitet kutubxonasi), shuningdek o'quv yurtining sohasiga mos ravishdagi fondga, shuningdek ko'p nusxadagi o'quv adabiyotlariga ham egadir.

O'quv kutubxonalari nafaqat o'quv jarayoninigina qondiribgina qolmasdan, balki ular tarbiyaviy funksiyani, shuningdek ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarishga oid talablarni ham bajaradi.

“Boshqarma kutubxonasi” atamasi maxsus kutubxonalarni yana bir turi sifatida qo'llanib kelinmoqda. Ushbu kutubxonalar boshqaruva faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan axborotga bo'lgan talablarni qondiradi. Boshqaruva kutubxonalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: davlatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari kutubxonalari (Oliy Majlis (Parlament), Prezident kutubxonasi), mahalliy va o'z o'zini boshqarish organlari (hokimiyatlar, mahalla qo'mitalari), sud organlari va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti apparati kutubxonasida 2600 dan ortiq kitoblar mavjud bo'lib, kutubxona har yili 40 ta nomdan ortiq respublika, 26 viloyat va 36 nomdagagi chet el gazetalarini, respublika va chet ellarda chop etiladigan 98 nomdagagi jurnallarni oladi. Kutubxona cheklangan kitobxonlar kontingentiga Prezident ma'muriyati va O'zbekiston Respublikasi hukumati apparati xodimlariga xizmat ko'rsatadi (600 ga yaqin odamga).

Maxsus kutubxonalarni alohida guruhi sifatida ko'zi ojizlar kutubxonalari hisoblanadi. Respublika markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasi va yettita viloyat ko'zi ojizlar kutubxonalari - ko'zi ojiz kitobxonlarga xizmat ko'rsatuvchi Respublikadagi eng yirik kutubxonalar hisoblanadi. Ushbu kutubxonalar O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligiga qarashlidir. Ular

bo'rtma-nuqtali (рельефно-точечным) yozuvda chop etilgan nashrlar va plastinka va magnit lentalariga yozilgan kitoblar saqlanadigan davlat saqlovxonasi, shuningdek ko'zi ojizlar uchun nashrlarning depozitar kutubxonasi hamda Tiflogiya (ko'zi ojizlar hayoti va faoliyati haqidagi fan) adabiyotlari kutubxonasi hisoblanadi. Hozirda 23 ta shahar va 29 ta tuman kutubxonalari ko'zi ojiz kitobxonlarga xizmat ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar turi bo'yicha maxsus kutubxonalar guruhiba Respublika patent idorasining Respublika patent kutubxonasi kiradi. RPK - O'zbekistondagi ixtiolar bo'yicha 50 ta davlatning, Butun jahon intellektual mulk tashkiloti, Evropa va Evroaziya patent idoralarining hujjalari to'liq saqlanadigan yagona patent bosh fondi hisoblanadi. Kutubxonada 21 milliondan ortiq patent hujjalari mavjud bo'lib, ularning 6 millioni kompakt optik disklardadir.

Respublikada kasaba uyushmalari kutubxonalari tarmog'i keng tarqalgan bo'lib, ular korxona va tashkilotlarning tarkibida bo'lib, aniq bir mehnat jamoasiga adabiyotlar bilan xizmat ko'rsatadi. Ushbu kutubxonalarning fondi universal hisoblanadi. Lekin ular o'z fondlarini komplektlashda xizmat ko'rsatayotgan korxonaning sohasi, unda mehnat qiluvchilarning tarkibi, hamda kasaba uyushmasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga oladilar.

Shuningdek kasaba uyushmalari tarmog'ida statsionar (doimiy, bir joydagi) kutubxonalar ham mavjud bo'lib, ular kasaba uyushmasi klublari, madaniyat uylari va saroylari hamda ishlab chiqarish korxonlari hududida joylashgan bo'lishi mumkin. Baxta qarshi bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'pgina korxonalarning yopilishi munosabati bilan bu turdag'i kutubxonalarning soni kamayib bormoqda.

Ushbu turdag'i kutubxonalarga kasalxonalar qoshidagi bemorlar uchun kutubxonalar, dam olish uylari, sanatoriyalar, qamoqxonalar, harbiy qismlar va ofitserlar uylari qoshidagi kutubxonalar kiradi. Shuningdek turli xil diniy tashkilotlarning kutubxonalar tarmog'i rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda 15 ta diniy konfessiyalar mavjud bo'lib, ularni bir qanchasi O'zbekiston uchun noananaviy hisoblanadi.

Keyingi yillarda milliy-madaniy markazlar, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari bo'limlari, "Mahalla", "Umid", "Ustoz", "Sog'lom avlod uchun", "Kamolat" va boshqa jamoat tashkilotlari va fondlari qoshida kutubxonalar tashkil etilmoqda. Aholini ijtimoiy faolligini o'sishi natijasida turli xil yangi jamoat kutubxonalari turlari paydo bo'lishi mumkin.

### **4.3. O’zbekistonda axborot-kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifalari haqidagi kontseptsiya**

Axborot-kutubxona muassasalarining axborot berish vazifasi - bu kutubxonalar ijtimoiy muassasa sifatida kamida uchta vazifani bajaradilar: axborot berish, madaniy-ma’rifiy va ta’lim berish. Amaliyotda esa axborot-kutubxona muassasalari o’z faoliyatlarini O’zbekiston Respublikasining “Axborot-kutubxona faoliyati to’g’risida”gi Qonunga muvofiq ravishda amalga oshirishlari kerak.

Axborot-kutubxona muassasalarining axborot berish vazifasi - moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishni axborot bilan ta’minlash faoliyatining turli shakllarining majmuasidir. Ushbu vazifa kitobxonalarining (jismoniy va yuridik shaxslarni) axborotga bo’lgan talablarini kutubxonadagi yoki undan tashqaridagi boshqa axborot manbalari yordamida amalga oshirilishida namoyon bo’ladi.

Axborot berish vazifasi turli shakllarda (nashr ko’rinishidagi axborot, bibliografik axborot, axborot haqidagi axborot, faktografik so’rovlar va boshqalar) amalga oshiriladi. Biroq kutubxonaning axborot berish vazifasini bajarish bo’yicha turli faoliyatlarini yagona bir narsaga, kitobxon uchun axborot mahsuloti yaratish va uni etkazib berish, ya’ni axborot mahsulotiga olib keladi. Bu esa har qanday kutubxonaning asosiy faoliyati natijasi - axborot mahsuloti bo’lib, o’zining mazmuni, shakli, sifati va boshqa jihatlari bilan foydalanuvchilarni talablariga javob berishi lozim.

An’anaga ko’ra ba’zi bir kutubxonashunos olimlar “Axborot-kutubxona muassasalarining axborot berish vazifasi”ning mohiyat va tushuncha ko’lamini ilmiy va texnik axborot tushunchasi bilan bog’laydilar va bu berilgan vazifa faqatgina ilmiy, texnika va boshqa maxsus kutubxonalar va ilmiy-texnika axborot organlari uchun xarakterli deb hisoblaydilar. Axir barcha kutubxonalarda istisnosiz kitobxonlarga axborotdan boshqa hech narsa berilmaydi. Bu borada bu qanday kutubxona ekanligi muhim emas - u xoh texnik xoh bolalar kutubxonasi bo’lsin. Berilayotgan axborot formasi - kitob, jurnal, disketa, og’zaki ma’lumot ham ahamiyatli emas. Adabiyot tipi (janr, ko’rinishi) - badiiy, bolalar uchun, ma’lumotnomalar ahamiyatli emas. Shuning uchun ham axborot-kutubxona muassasalarining axborot berish vazifasi ularning umumiy vazifasi hisoblanadi.

Axborot berish vazifasining asosiy talabi shundan iboratki - kutubxonalar inson huquqlarini, jamoat birlashmalarini, xalqlarning va

etnik guruhlarning axborot olishga erkin hech qanday cheklovlarsiz kirishini ta'minlashi lozim.

Axborot berish vazifasining o'ziga xosligi shundan iboratki, kutubxona bu vazifani boshqa kutubxonalar va ilmiy-texnika axborot organlari bilan yaqin hamkorlikda va boshqa axborot tarqatuvchi kanallarni: televidenie, radio, kitob savdosi va hokazolarni ham jalgilgan holda amalga oshiradi.

Axborot-kutubxona muassasalarining madaniy-ma'rifiy vazifasi - bu kitobxonlarning mustaqil ma'naviy rivojlanishiga, o'zbek va jahon madaniy boyliklarini egallashga, madaniy faoliyati uchun (reproduktiv va unumli) shart-sharoit yaratish uchun bajariladigan barcha ish shakllarining majmuasidir. Madaniyatning ajralmas va tarkibiy qismi bo'lган axborot-kutubxona muassasalari, umuminsoniy madaniyatning buyuk qadriyati sifatida, shu bilan bir vaqtida xalqlar va mamlakatlar erishgan madaniy qadriyatlarini rivojlantiruvchi, ularni targ'ib qiluvchi, yangilovchi va takomillovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyatning ma'naviy hayotida zamonaviy kutubxonani o'rnini namoish qilmoqchi bo'lsak, qadimda buyuk kashfiyotlar kutubxonachilik ishi bilan hech qanday aloqada bo'lмаган holda yaratilgan bo'lsa, hozirda kutubxonalarda yig'ilgan insoniyat "xotirasi" bilan chambarchas bog'lanmasdan ijodiy fikrlash amaliy jihatdan mumkin emas. Ayniqsa, insonning madaniy - ma'rifiy faoliyatida kutubxonaning o'rni beqiyosdir. Kutubxona keng tarqalgan madaniyat o'chog'i bo'lган va bo'lib qoladi. U aholining keng qatlamiga madaniyat haqida axborotga olib kiruvchi, hamma uchun ochiq bo'lган tarmoqdir. Taxminan, dunyoda fondi 6 milliarddan yuqori bo'lган 1 milliondan ko'p kutubxonalar faoliyat yuritadi. Boshqa birorta madaniyat muassasasi bu borada kutubxonalar bilan teng kelmaydi. Agar televideniyani hisobga olmaganda xizmat ko'rsatish auditoriyasi bo'yicha ham u bilan tenglashadigan madaniyat muassasasi mavjud emas.

Insonlar hayot faoliyatida madaniy-ma'rifiy ishlar kuchli va shu bilan birga juda ham nozik qurol hisoblanadi. Kutubxonalar kitobxonlarning umummadaniy rivojiga yordam beradi, ularni milliy va jahon madaniyatida erishilgan muhim yutuqlar bilan tanishtiradi, ularni ongida, hayotida va turmush tarzida umuminsoniy madaniyatning me'yo'rлари, an'analarini joriy qiladi. Kutubxonalar - madaniyatni rivojlantirishning universal vositasi, uning yutuqlarining targ'ibotchisidir. Kutubxonalar o'z faoliyatlari bilan har bir insonga

madaniy-ma'rifiy ishlarni etkaza oladi, chunki ularni ish faoliyati asosida har bir aniq insonga yakka tartibda yondoshish qoidasi mavjud.

Kutubxonalar - butun insoniyatni, alohida xalqlar, mamlakatlarni madaniy merosini saqlovchisi jo bo'lib, ularning fondida o'tmish va hozirgi zamon madaniyati haqidagi axborotlar to'plangan. Kutubxonalar faoliyatining yana bir muhim yo'naliшlaridan biri - kutubxona-bibliografik va axborot madaniyatini targ'ib qilish va kitobxonlarni bu sohadagi bilimlarini oshirish ishlaridir. Chunki kompyuter savodxonligi bilan bir qatorda kutubxona - bibliografik va axborot madaniyati hozirgi zamon ma'rifatli insonlarning barcha faoliyatlaridagi muhim talablarga aylanmoqda.

Kutubxonalar madaniy-ma'rifiy vazifalarini boshqa madaniyat muassasalarini: klublar, teatrlar, muzeylar, sur'at galereyalari, "Ma'naviyat va ma'rifat" jamiyatlarini, havaskorlik birlashmalari, qiziqish klublar va hokazolar bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradilar. Lekin bu vazifalarning asosiy mazmuni shundan iboratki, kitobxonlarni ko'pchilik qismini madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni, jahon taraqqiyat parvar madaniyatining yuqori ideallarini egallashiga, ma'naviy erkinsizlikdan qutulish va har tomonlama taraqqiy etgan: ham fikrlashda, ham histtuyg'uda, ham faoliyatda mukammal bo'lgan inson idealiga intilishiga yordam berishdir.

Axborot-kutubxona muassasalarining ta'lim berish vazifasi - bu jamiyatni axborot bilan ta'minlash, ma'naviyatini takror ishlab chiqishga yo'naltirilgan kutubxona faoliyatining turli ko'rinishlari majmuidir. U jamiyat a'zolarini ijtimoiylashuvini, ularning ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olishi, tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalashni o'zida mujassamlashtiradi. Kutubxona - uzoq muddatli ijtimoiylashtiruvchi institut bo'lib, odamlar uning kitobxonlari tarkibiga kirgan davrdan boshlab doimiy ta'sir ko'rsatib boradi.

Kutubxonaning asosiy vazifasi bu - ijodkor, jamiyat hayotida faol ishtirok etuvchi, ham umuminsoniy qadriyatlarga ham milliy qadriyatlarga egalik qiluvchi insonni shakllanishiga sharoit yaratishdir.

Shu bilan birga kutubxonalar ta'lim va mustaqil ta'lim oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda potentsial imkoniyatlarga egadir. Kutubxonalar insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan axborot manbalarini to'plovchi, saqlovchi va ulardan jamiyat a'zolarini foydalanishini tashkil etuvchi muassasa sifatida ta'lim va uzlusiz ta'lim tizimida asosiy, muhim bo'g'inlardan biridir. Chunki u uzlusiz ta'lim tizimidagi boshqa bo'g'inlardan o'zini ta'lim olish uchun vaqtini

chegaralanmaganligi va axborot manbalariga erkin murojaat qila olishi va mustaqil ravishda o'z bilimini oshira olishi bilan farqlanadi.

Kutubxonalar ichida ta'lim berish vazifasini o'quv kutubxonalarida ko'proq amalga oshiriladi. O'quv muassasasi kutubxonasi - muassasaning asosiy o'quv bo'linmasi hisoblanib, butun o'quv ishlari jarayoni, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash milliy dasturini bajarilishi u orqali amalga oshiriladi.

Kutubxona faqatgina rasmiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vositasi emas, balki uzlusiz ta'lim va mustaqil ta'limning samarali vositalaridan ham biridir. Buni XIX asrda yashagan va ijod qilgan mutaffakirlar bir ovozdan tasdiqlashgan. Kutubxonalar odamlarni bilimlaridagi uzilishlarini o'rnini to'ldirishni ta'minlab beradi, doimo ularni fan, texnika, madaniyatning yangi yutuqlari haqida axborot bilan to'ldirib turadi. Shuning uchun ham, kutubxonalarni uzlusiz ta'lim va mustaqil ta'limning asosiy bazasi deb qabul qilingan.

Kutubxonalarning tarbiyaviy o'rni jahon kutubxonashunos olimlarining fikrlari bir xil emas. Demokratik jamiyatda kutubxona, milliy g'oyalar asosida haqqoniy va qonuniy jamiyat qurish, O'zbekistonning barcha xalqlari milliy mentaliteti, umuminsoniy qadriyatlari ruhida tarbiyalash, inson huquqlari tasdiqlanishi, uning intellektual erkinligi, demokratik g'oyalarni faol targ'ibot qilishga ko'maklashadi. Shu bilan birga u urush g'oyalaringa, totalitar rejimga, irqlarga ajratishga, milliy, diniy, ijtimoiy kamsitishlarga qarshi turadi.

Shunday qilib, kutubxonalar uchta asosiy ijtimoiy vazifani bajaradi. Bu vazifalarning intensivligi ya'ni jadallik bilan bajarilishi kutubxonalarning tipidan, fond tarkibi, kitobxonlar tarkibi va boshqa qator omillarga bevosita bog'liqdir. Shu bilan birga, kutubxona faoliyatiga xos bo'lgan boshqa vazifalarni ham bajarishi kerak degan fikrlar ham mavjud. Bu vazifalar qo'shimcha vazifalar sifatida qaralishi lozim degan fikrlar ham bildirilgan.

Kutubxonalar faoliyatiga xos bo'lgan vazifalar jumlasiga rekratsion (tiklovchi) va gedonik (rohat) vazifalar, hamda ommaviy o'qishni tashkil etish vazifalarini kiritish mumkin. Lekin bu vazifalarni tipologik jihatdan, ya'ni aniq kutubxona tiplariga xos bo'lgan vazifalar sifatida ko'rib chiqilsa to'g'riroq bo'lar edi. Chunki bu vazifalar barcha kutubxonalar uchun xos emas. Kutubxonalarni mavjudligi ularga yuklatilgan ijtimoiy vazifalarni qay darajada samarali bajarilayotganligiga qarab belgilanadi.

Demokratik jamiyatda kutubxonalar ijtimoiy vazifalarini bajarishlari uchun shunday tuzilgan bo'lishi kerakki, har bir fuqaro jinsi, yoshi, millati, bilim darajasi, siyosiy qarashi, dinga munosabati va boshqa ijtimoiy-demografik alomatlarga qaramasdan axborot olish uchun hech qanday cheklovlarsiz erkin, teng huquqqa ega bo'lishi kerak. Axborot olishni cheklovchi hech qanday davlat yoki boshqa senzuralarga yo'l qo'yilmasligi kerak. Kutubxona faoliyati mazmunida jamiyatda mavjud g'oyaviy va siyosiy ko'p xillik aks etishi lozim.

Faqat shu shartlarga rioya qilingandagina kutubxona - jamiyatning demokratik quroli, insonning intellektual erkinligiga, axborotga erkin kirish, erkin ma'naviy rivojlanishi, jahon va milliy madaniyat boyliklari bilan tanishishga huquqiy kafil bo'la oladi.

### **Nazorat savollari:**

1. "Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasiga ta'rif bering.
2. Kutubxonalar tipologiyasi nazariyasini rivojlanishi davrlarini qayd eting.
3. Axborot-kutubxona muassasalari qanday belgilari ularni tiplarga va xillarga bo'lishga asos bo'ladi?
4. O'zbekistonda axborot-kutubxona muassasasalarini qanday klassifikatsiya qilish mumkin?
5. "Milliy kutubxona" ga xarakteristika bering.
6. "Axborot-kutubxona markazi" ga xarakteristika bering.
7. "Axborot-resurs markaziga" ga xarakteristika bering.
8. Maxsus kutubxonalarni tabaqlashtirishning muxim belgilarini bilasizmi?
9. O'quv kutubxonasi deganda qanday kutubxonalarni tushunasiz va ular qanday guruxlarga bo'lish mumkin?
10. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot vazifasi nima?
11. Axborot-kutubxona muassasalarining madaniy-ma'rifiy vazifasi nima?
12. Axborot-kutubxona muassasalarining ta'lim vazifasi nima?

## **5- BOB. AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINING TARKIBIY TUZILMASI VA FAOLIYATLARI TAHLILI**

### **5.1. Axborot-kutubxona muassasalar haqidagi nazariy bilimlarga kirish. Kutubxonalarining ijtimoiy vazifalari**

Umumiy kutubxonashunoslik faning asosiy bo'limlaridan biri - bu axborot-kutubxona muassasalari, qisqacha aytganda, kutubxonalar haqidagi ta'limotidir. Bunda kutubxona nima, qachon va nima uchun paydo bo'lgan, qanday rivojlanish yo'llaridan o'tgan, uning zamonaviy ijtimoiy vazifalari nimalardan tarkib topganligi, asosiy turlari haqida va boshqa bir qancha masalalar yoritilishi kerak.

Ushbu bobda asosan, O'zbekistonda kutubxonalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi va zamonaviy holatini hamda ijtimoiy vazifalarini qisqacha yoritish maqsad qilib qo'yilgan.

O'zbekiston hududida yozuvning eng birinchi yodgorliklari eramizdan avvalgi II asrga mansub bo'lgan sopol idish parchalarida topilgan. Keyinroq esa Markaziy Osiyo xalqlarida qoya toshlarga yozib qoldirilgan o'rxun yozuvi, so'g'd, xorazm, uyg'ur yozuvlari mavjud bo'lgan. Yozuvning keng tarzda tarqalganligi "Avesto", "Shohnoma" qo'lyozmalarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Kitoblarning to'planishi kutubxonalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston hududida dastlabki kutubxonalar iqtisodiy va madaniyati rivojlangan qadimgi So'g'd, Baqtriya, Xorazm davlatlarida paydo bo'lgan. Dastlabki kutubxonalar IV-VI asrlarda diniy ibodatxonalarda va alohida hukmdorlar saroylarida paydo bo'lgan.

VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari tomonidan Markaziy Osiyo davlatlariga katta talofat yetkazildi. Kutubxonalar talon - taroj qilindi, kitoblar yo'q qilindi, lekin madaniyat butunlay o'lmadi.

IX-X asr oxirida arab xalifaligi parchalanib ketdi, XI asr oxirgi choragida Markaziy Osiyo yerlari ajralib, mustaqil Somoniylar davlati yuzaga keldi. Bu yerga butun arab dunyosidan olimlar, shoir va san'atkorlar keldilar. Bu vaqtda madaniyat, ilm va badiiy adabiyot yuqori darajada rivojlandi. Dunyoga mashhur olimlar Muhammad - al Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Ahmad al - Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy va ularning zamondoshlari nafaqat o'z asrlarini, balki ulardan oldin o'tgan yunon, hind, arab va boshqa tillarda yaratilgan asarlarni to'plovchi, saqlovchi va uni targ'ib qiluvchilar bo'lganlar.

XI-XII asrlarda saroy va masjid va madrasalar qoshidagi kutubxonalar rivojiana boshladi. Yirik kutubxonalar Buxoro amirligi saroyida, Xorazmshohlar imperiyasida, Marv va Samarqandda bo'lgan. Markaziy Osiyonи mo'g'ullar tomonidan bosib olinishi esa bu kutubxonalarни yo'q bo'lishiga olib keldi, ilm-fan va madaniyatni rivojlanishini bir necha asrlarga orqaga surdi.

XIV-XV ikkinchi yarmida Movarounnahrda Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrda kutubxonalar yana gullab yashnadi. Turli xil tillardagi beba ho asarlar Amir Temur, Ulug'bek, Shoxruh, Xusayn Boyqaro saroy kutubxonalarida mavjud bo'lgan. Shu bilan birga mashhur olimlar va yozuvchi shoirlarning asarlarining noyob qo'lyozmalari qayta ko'chirildi, tarjima qilindi va chop etildi.

Amir Temurning beba ho kutubxonasi haqida turli ma'lumotlar mavjud. Lekin bu kutubxona temuriy shaxzodalarning o'zaro taxt uchun kurashlari davrida talon-taroj qilingan yoki yo'qolgan. Uni qidirish ishlari bilan rus sharqshunoslari N.V. Dmitrovskiy, A.L.Kun, D.N.Lagofetlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Bizning kungacha ushbu kutubxonadan yagona namuna pergamentga (maxsus ishlov berilgan teriga) kufiy yozuvida yozilgan Usmon Qur'oni yetib kelgan va u Toshkentda O'zbekiston musulmonlari idorasi muzeyida saqlanmoqda.

Mashhur olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek Samarqanda o'z zamonasidagi boy ilmiy kutubxona tashkil etgan. Kutubxona u qurdirgan observatoriya binosida bo'lgan va undan uning shogirdlari va zamondosh olimlar foydalanganlar. Mirzo Ulug'bekning fojiali o'limidan so'ng ushbu mashhur kutubxonaning taqdiri ham hozirga qadar noma'lum bo'lib kelmoqda.

XVIII asrdan o'zbek xonliklarida siyosiy, iqtisodiy va madaniyma'rifiy pasayish davri bo'lib, qo'lyozma kitoblar chop etish kamaydi. Lekin shu sharoitda ham kutubxonalar saqlanib qoldi, shaxsiy kutubxonalar, masjid va madrasa kutubxonalar alohida rivojlandi. Markaziy Osiyonи Rossiya imperiyasi bosib olganda so'ng, Turkiston o'lkasida Turkiston ommaviy kutubxonasi, ilmiy jamiyatlar qoshida kutubxonalar, ommaviy kutubxonalar, o'quv yurtlarida kutubxonalar tashkil qilindi.

Sovet davrida O'zbekistonda kutubxonachilik ishi davlat miqyosidagi kutubxona siyosati asosida rivojlandi, viloyat, respublika ilmiy kutubxonalari, shahar va qishloqda istiqomat qiluvchi aholi uchun kutubxonalar tashkil etildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1990 yilda

O'zbekiston hududida 16000 ga yaqin turli xildagi kutubxonalar faoliyat olib borgan. Mustaqillikka erishgach O'zbekistonda yangi tipdagi kutubxonalar: axborot - resurs markazlari va axborot - kutubxona markazlari tashkil etildi. Ushbu kutubxonalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot - kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etildi va ular o'sib kelayotgan yosh avlodni intellektual talablariga javob berishi, madaniy, g'oyaviy - axloqiy qadriyatlarni saqlash, shuningdek aholiga tizimli ravishda axborot - kutubxona xizmati ko'rsatishni ta'minlashdan iborat edi.

Har bir tarixiy davrda kutubxonalar ular oldiga qo'yilgan ijtimoiy vazifalarni bajarganlar. Kutubxonaning ijtimoiy vazifasi - kutubxonachilik nazariyasi va amaliyotidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Soha bo'yicha maxsus adabiyotlarda bu muammo "kutubxonaning jamiyatdagи o'rni", "kutubxonaning ijtimoiy roli", "kutubxonaning ijtimoiy missiyasi" kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Bular kutubxonalarini ijtimoiy muassasa degan tushunchani hosil bo'lishiga yordam beradi.

Umuman olib qaraganda, muammo juda oddiy va sodda ko'rindi. Bu kutubxonaning jamiyatga ta'siri va jamiyatning kutubxonaga ta'siri bilan solishtirilishi mumkin. Lekin bu soddalik va oddiylikda chuqur ma'no yotadi. Shuning uchun ham turli xil tarixiy davrlarda kutubxonaning ijtimoiy roli muammosiga turli xil yondashilgan. Bugungi kunda ham kutubxonachilik fanida ushbu muammoga turlich rareshlar yuzaga kelmoqda va ularni yakunlangan deb hisoblash mumkin emas.

### **Kutubxonalarning ijtimoiy vazifalari haqida xilma-xillik va umumiylit tushunchalari**

Ijtimoiy ma'noda vazifa - bu muayyan ijtimoiy institutning o'zidan yuqori turuvchi tashkillashtirilgan tizimning talablarini nisbatan bajaradigan ishlardir. Kutubxonashunoslikka oid ilmiy maqola va adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan muammoning mohiyati quyidagilarni aniqlashni talab etadi:

- kutubxona jamiyat uchun nima qilmoqda?
- jamiyat unga qanday vazifalar qo'ymoqda?
- kutubxona jamiyat uchun qanday masalalarni echishda yordam bermoqda?

Boshqacha aytganda, kutubxonaning ijtimoiy vazifalari - bu jamiyat oldidagi kutubxonaning vazifalarini kengaytirilgan ro'yxatidir, ya'ni

jamiyat uchun zarur bo'lgan talablarning qo'yilishi, kutubxonaga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi, kutubxonalarni ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatiga to'g'ri keladi.

Jahon kutubxonashunosligida kutubxonaning ijtimoiy vazifalari haqida turli xil qarashlar mavjud. Ular muammoni aniq qo'yilish va hal etishdan boshlab, uni ijtimoiy va texnologik vazifalarni bo'rtirib ko'rsatishgacha mavjud.

Dastlab, kitob va boshqa hujjatlarni saqlash kutubxonaning asosiy vazifasi degan qarashlar o'rinni egallardi. Bu qarashlar kutubxonaning qadimgi grekcha nomidan bibliothike (grekcha biblion - kitob, there - saqlash joyi), ya'ni kitob saqlash joyi tushunchasidan kelib chiqqan. Yillar davomida kutubxonalarning bu vazifasi juda ham chuqur o'zgarishlarga uchraganligi sababli, hozirda dunyoning hech qayerida "kutubxona" tushunchasi kitob saqlash joyi sifatida tushunilmaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, insoniyat hayotida axborot omillarining rolini o'sib borishi natijasida kutubxonaning ijtimoiy vazifalari haqidagi qarashlar ham ko'paydi. Taniqli kutubxonashunos olimlar bu masalada o'z fikrlarni bildirganlar. Chunonchi, O.S. Chubaryan ta'lim-tarbiya, axborot va ilm olish vazifalariga urg'u bergen bo'lsa, I.M. Frumin kutubxonaning ijtimoiy vazifasi sifatida, tashviqot - targ'ibot ishlari, tarbiyaviy ishlari, ishlab chiqarishga yordam ishlarini ajratib ko'rsatgan.

XX asrning 60-70 yillarda kutubxonashunos olimlarni sohaga oid ilmiy jurnallardagi munozaralari natijasida kutubxonalarning asosiy ijtimoiy vazifalari g'oyaviy (ideologik), ilm olish va professional o'qishga yordam berish deb belgilandi. 80 - yillarda kutubxonalar g'oyaviy, ma'daniy-ma'rifiy va ilmiy-axborot muassasalari sifatida rasmiylashtirildi. 90 - yillarning boshida kutubxonashunos olim E. Seliverstova o'z tadqiqotlarida kutubxonalarning bosh, asosiy va ishlab chiqarish vazifalarini ajratishga urinib ko'rdi.

Uzoq yillar mobaynida mamlakatimiz kutubxonashunosligida kutubxonalarni jamiyatdagи ijtimoiy vazifalari sifatida to'rtta vazifa: g'oyaviy-tarbiyaviy, madaniy-ma'rifiy, axborot, gedonik ((hedone-naslajdenie), hedone-zavq), konsepsiya hukm surgan.

Xorijiy mamlakatlar kutubxonashunosligida, kutubxonalarning ijtimoiy vazifalari sifatida axborot, madaniy, rekreatsion (lot. Recreatio-tiklash), (ya'ni insonning mehnat faoliyatida sarf qilgan intellektual kuchini tiklashga yordam berish) degan fikrlar keng darajada tarqalgan. Ko'plab dunyo mamlakatlarida kutubxonaning ijtimoiy vazifalari ta'rifi

normative (me'yoriy) xarakterda bo'lib, qonun chiqaruvchi formada (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Rossiya, Belorussiya va hokazo) ifodalanadi. Hozirda g'oyaviy vazifa o'zining ma'nosini yo'qotgan. Kutubxonalarni ijtimoiy vazifasida axborot berish vazifasi hozirda ko'proq e'tibor berilmoqda, lekin boshqa vazifalar madaniy - ma'rifiy va ta'lim-tarbiya vazifalari ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

## **5.2. Axborot - kutubxona muassasalarining tarkibiy tuzilmasi va asosiy elementlari xarakteristikasi**

Istalgan kutubxonani maqsadga muvofiq ravishda ko'p qirrali, yetarli darajada mustahkam aloqalarga va uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni xarakterlovchi ko'proq yoki kamroq murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Tizim (grekchadan - butun, qismlardan iborat, birikma) - bir-biri bilan aloqada va munosabatlarda bo'ladigan ma'lum bir yaxlitlikni, umumiyligini tashkil etuvchi, ko'pgina elementlardan iboratdir. "Tizim" tushunchasidan kelib chiqqan "tuzilma" tushunchasi, kutubxona barqaror, mustahkam xususiyatga ega tizim sifatida aks ettirish uchun xizmat qiladi.

Tuzilma istalgan kutubxona qismlarini bir - biriga moyillikni, bir-biriga aloqadorligini xarakterlaydi. Shuning uchun kutubxonani har tomonlama bilish uchun, avvalo, uning ichki tuzilishini (strukturasi), ya'ni kutubxona qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligini aniqlashtirsak, ularning o'ziga xos sifatlari qandayligini, ularni bir-biri bilan aloqadorligi va munosabatlarini, shu butunlikdagi har bir element bajaruvchi vazifalarni aniqlash, kutubxonani bir yaxlit tizim sifatida rivojlanish mexanizmini o'rganish zarur.

Har qanday kutubxona quyidagi doimiy va majburiy bo'lgan elementlarsiz faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Bular:

- hujjat (kitob, nashr);
- kitobxon (foydalanuvchi);
- kutubxonachi;
- moddiy-texnik baza.

Ularning har biri o'ziga xos sifatga, ammo teng huquqli vazifani bajaradi. Bularsiz kutubxona yaxlit tizim sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Har bir element boshqasining mavjudligi uchun sharoit sifatida bo'lsa, boshqa tomondan esa o'zi ularga bog'liqdir.

### **Hujjat**

Kutubxona - bu ma'lum tarzda tizimlashtirilgan bosma asarlar va boshqa qog'oz bo'lмаган hujjatlar yig'indisi. Yangi axborot vositalari paydo bo'lishi bilan "kitob" tushunchasini almashtirish uchun umumlashgan termin topish zaruriyati paydo bo'ldi. Hozirgi paytda kitob - o'nlab turli xildagi hujjatlardan biri hisoblanadi.

Hujjat - inson ongi bilan yaratilgan, fazo va vaqtida qayd etilgan har qanday axborot hujjat hisoblanadi. "Hujjat" atamasi, unga biriktirilgan axborot va uning yetkazilishi, ishlatalishi uchun mo'ljallangan moddiy obyekt sifatida izohlanadi. "Hujjat" elementi "kitob", "bosma asarlar" tushunchasi bilan bir qatorda, yangi axborotlarni tashuvchilarni o'zida mujassam etadi: mikrofishlar, magnit disklar (disketalar), nurlioptik disklar, videomagnit lentalar (kassetalar), elektron kitoblar, gogrammalar, CD, DVD, HD disklar va boshq. Kitob jamiyatga tegishli bo'lgan hodisa sifatida mavjud ekan, u kutubxonaning ajralmas qismi bo'lib qolaveradi.

Tartiblashtirilgan barcha hujjatlar va ularning yig'indisi bo'lgan "kutubxona fondi" - kutubxonaning tarkibiy, bo'linmas tizimosti qismini tashkil etadi. Usiz kutubxona hujjatlar fondini tashkil qiluvchi, uni shakllantiruvchi va undan foydalanishni tashkil qiluvchi maxsus muassasa sifatidagi xususiyatini yo'qotadi va kutubxona sifatida mavjud bo'lmaydi.

Kutubxona fondi - bir xil turdag'i narsalardan tashkil etilgan emas. U mavzuli va turli tuzilma bo'yicha, miqdoriy va sifatli axborot uzatuvchi tarkibiga ega bo'lgan, shuningdek turg'un va harakati bo'yicha xarakterlanadi. Asosiy vazifasiga ko'ra fondlar asosiy, yordamchi, bibliografik-ma'lumot, almashtiruvchi, zahiraviy va boshqalarga bo'linadi. Kitobxonlar murojati tez-tez takrorlanishi bo'yicha kutubxona fondi ikkita asosiy qismdan iborat bo'lishi mumkin - ishlatalayotgan (dinamik) va ishlatilmayotgan (static) fond.

Hujjatlarni majburiy nuxalari asosida komplektlanuvchi kutubxona fondlari, shuningdek umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan mazmundagi kolleksiyalar O'zbekiston Respublikasi xalqlarining milliy boyligi hisoblanadi va ularni qo'riqlash, saqlash va foydalanish alohida nazorat rejimi ostida bo'ladi.

"Hujjat" elementi kutubxonaning boshqa elementlari bilan chambarchas bog'liq. Kutubxona fondining tarkibi, tuzilmasi, hajmi, fondni nima maqsadda tashkil etilganligiga qarab, kutubxona kitobxonlari tarkibining asosiy xarakteristikalarini aniqlab olinadi. Boshqa

tomondan kitobxonlar tarkibi, ularning axborot so'rovlari, fondning mavzuli - tipologik va miqdoriy xarakteristikasini aniqlab beradi.

Kutubxonachi bilan hujjatning aloqasi ham muhimdir: kutubxonachi fondni shakllantiradi, hujjatlardan foydalanishni tashkil etadi, hujjatlar esa o'z navbatida uning ixtisosligiga, xizmatchilar soniga va hokazolarga ta'sir qiladi. Kutubxona fondining hajmi va tarkibi u saqlanadigan binoga, uning joylashuviga, avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish qurilmalariga ta'sir ko'rsatadi.

### **Kitobxon (foydalanuvchi)**

Kutubxona - kitobxonning turli xil axborotlarga bo'lган ehtiyojini qondirish uchun hujjatlashtirilgan axborotlardan foydalanishni tashkil qiluvchi muassasadir. Kimni kutubxona kitobxoni deb hisoblash mumkun? Avvalo, adabiyot mutolaa qilish maqsadida kutubxonaga doimiy tashrif buyuruvchi shaxsni aytish mumkin. Kitobxonlarni bir qancha turga ajratish mumkin: haqiqiy kitobxon (kitobni o'qish uchun tanlaydigan); kitobxon – tadqiqotchi; mustaqil bilim oluvchi kitobxon; va nihoyat - kutubxonada o'tqaziladigan tadbirlarda ishtirok etuvchi kitobxon- qatnashuvchi (tashrif buyuruvchi).

XX asrning 60 - yillari o'rtasidan "axborot iste'molchisi" atamasi paydo bo'ldi, lekin, kutubxonashunoslik uchun uning tarkibi juda keng, chunki kutubxona barcha ko'rinishdagi axborot bilan emas, axborotning hujjatlashtirilgan qismi bilangina ish olib boradi. 80 - yillarda esa "kutubxona abonenti" termini paydo bo'ldi. Bu termin ostida kutubxonalararo, ichki tizim bo'yicha, sirdan - xalqaro abonnement bo'yicha adabiyot oluvchi shaxslar (yoki shaxslar guruhi) tushuniladi.

Kutubxona amaliyatida "kitobxon", "abonent" va "foydalanuvchi" terminlari keng yoyilgan (birinchisi ustunlik qiladi).

Kitobxon kutubxona elementi sifatida muhim rol o'ynaydi: boshqa barcha elementlar unga mo'ljallangan, unga xizmat ko'rsatish - ularning mavjudligining maqsad va mazmunidir. Kutubxona kitobxon ehtiyojlarini (talablar, qiziqishlar) qoniqtirishni boshlagan vaqtдан boshlab kutubxona bo'ladi.

Yuqorida kitobxonning fond bilan bog'liqligini aytib o'tgan edik. Kutubxonachi va kitobxon o'rtasida ham yaqin munosabat yuzaga keladi, ular subyekt - obyekt xarakteriga ega bo'ladi, ya'ni ham kitobxon ham kutubxonachi navbati bilan, kutubxonaning ijtimoiy - kommunikatsion faoliyatida gohida obyekt, gohida subyekt bo'lib, bir - biriga ta'sir ko'rsatadi yoki o'zaro hamkorlik qiladi.

Kitobxonning moddiy-texnika bazasi bilan aloqasi turli xildagi hujjatlardan foydalanishdagi qulayliklarda yuzaga keladi.

## **Kutubxonachi**

Kutubxonaning eng faol elementi kutubxonachi hisoblanadi. Kutubxonachining faoliyati (kutubxona jamoasining) kutubxonaning barcha elementlarini o'zaro hamkorlik qilishda, ularni ijtimoiy mazmunini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kutubxonachi o'zaro hamkorlikni tashkilotchisi sifatida, harakatsiz, passiv bo'lib qolgan kitoblar uyumini, jonli organizmga aylantirishi mumkin. Bunga u kitobxonlarni o'rganish, kitobxonlar so'rovlарини tahlil qilish, kitobxonlar talablarini samarali amalga oshirish orqali erishadi.

Kitobxonlarni o'rganish natijalari kutubxonachilik xizmatlarining istiqbolini belgilash, kutubxona xizmatlaridan foydalanish sabablarini aniqlash, aniq bir maqsadda fondning tarkibini va tuzilmasini hamda kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning ta'sirchan vositalarini aniqlash uchun zarurdir.

“Kutubxonachi” (kutubxona jamoasi) elementining asosiy xarakteristikalari xodimlar soni, ularning yosh tarkibi, malaka darajalari, jismoniy va aqliy qobiliyatları, ixtisosliklari, amaliy tajribalari va mahoratlari, ijodiy imkoniyatlari va boshqalardir.

## **Moddiy-texnika baza**

Kutubxona fondning, kitobxonlarning, kutubxonachining o'zaro hamkorliklari, (birligi), ya'ni kutubxonaning faoliyat ko'rsatishi, har doim qandaydir moddiy-texnika muhitida ro'y beradi. MTB - “kutubxona” tizimining boshqa elementlari bilan bir qatordagi element bo'lib, uni tadqiqot qilish, o'rganish, va zarur ishlanmalar yaratish kutubxonashunoslik fanini boshqa fanlar bilan (arxitektura, texnik fanlar) o'zaro aloqalariga bog'liqdir.

Moddiy - texnik baza (MTB) tarkibiga kutubxona binolari, xonalari va ularning muhandislik jihozlari, kutubxona jihozlari va mebellari, kutubxona ichidagi transport, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash vositalari, elektron ilmiy - ta'limiy resurslar, nusxa oluvchi va ko'paytiruvchi texnikalar, aloqa va boshqalar kiradi. Kutubxona MTBsi kutubxona fondini unumli joylashtirish, saqlash va foydalanish, kitobxonlarga to'liq, tezkor va qulay xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaratsagina o'zining ijtimoiy vazifalarini unumli bajara oladi. MTBning asosiy tizmlashtiruvchi mezoni: fondni saqlash va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishdir.

Kutubxonalarni murakkab injener-texnologik kompleksga aylantirish moddiy-texnika bazalariga kutubxonashunoslik talablarini qo'yishni va kutubxona binolari va jihozlarini loyihalash va

foydalanimishda hisobga olishni talab etadi. Kutubxona binolarining va jihozlarining sifati pastligiga ko'proq kutubxona mutaxassislarini o'zini chetga olishlari sabab bo'lmoqda, chunki ular kutubxona binolarining loyihalashtirishda, ularni kompyuter va texnik vositalar bilan jihozlash ishlarida qatnashmaydilar.

### **Kutubxonalarning boshqa elementlari**

Kutubxonalarning elementlari harakatsiz emas, ular tarixan yasama, kutubxonaning rivojlanishi, murakkablashuvi jarayonida natijasida paydo bo'ladi. So'rov - qidiruv apparati (kartochkali, kitobli va elektron shaklda) ham zaruriyat tufayli yaratilgan. So'rov - qidiruv apparati kitobxonga kerakli hujjatni joylashuvi haqida ma'lumot olishga, boshqa kutubxonalar fondini tarkibi haqida bilishni, boshqa kutubxonalarda, axborot tizimlarida, mamlakatlardagi mavjud axborot resurslari bilan tanishishga yordam beradi.

Ko'pgina zamonaviy kutubxona dasturlari avtomatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi va bankini hamkorlikda tashkil etishga bag'ishlangan.

Kutubxonachilik ishi evolyutsiyasining muhim natijalaridan biri kutubxonashunoslik bilimlarini kutubxonaning tarkibiy elementlaridan biriga aylantirish hisoblanadi. Alovida mustaqil faoliyat ko'rinishida ajralib chiqqan, kutubxonashunoslik bilimlari o'zining rivojini mavjud kutubxonachilik amaliyoti tushunchasida boshlaydi.

Kutubxonalarni rivojlanishi odamning jismoniy layoqati hisobiga emas, bilimlar rivojlanishi natijasida sodir bo'ladi. Fan kutubxonaning hamma elementlarini muayyan shaklga keltiradi. Fanning rivojlanishi endilikda boshlang'ich nuqtada kutubxona amaliyotini takomillashtirish va o'zgartirishda shakllanib bormoqda. Zamonaviy kutubxonaning rivojlanishi fansiz mumkin emas.

### **5.3. Axborot-kutubxona muassasalarining faoliyatlari xarakteristikasi**

Kutubxonalarni aniq vazifalari o'ziga xos, "vazifa" tushunchasi esa "faoliyat" tushunchasi bilan ajralmas bog'liq. Kutubxona faoliyati - bu o'zining vazifalarini bajarish maqsadidagi uning ishlari: ijtimoiy (axborot, madaniy, ta'lim) va texnologik ("kutubxonachilik ishlab chiqarish").

Kutubxonaning alohida elementlari faoliyatlashtirish jarayonida tizimlashtirish aloqasi kelib chiqadi. Jiddiy intizomni buzilishi u yoki bu kutubxona elementlarini faoliyatini to'xtatish uning o'zgarishiga olib

keladi, ba'zi hollarda esa butunlay buzilishiga ham olib keladi. Faoliyatlashtirish yaxlitlik va kutubxonani tizim sifatida tashkillashtirish bilan chambarchas bog'liq.

### **Kutubxona faoliyatining asosiy elementlari**

Tizim sifatida, kutubxonalarni faoliyatlashtirish jarayoni quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: tashqi muhitni, axborot ehtiyojini, faoliyat jarayonini, faoliyat natijasini, teskari aloqani.

#### **Tashqi muhit va teskari aloqa**

Har qanday kutubxona - yuqori darajali murakkabliklarga ega bo'lган tizimning tarkibiy qismidir. Bular ishlab chiqarish, fan, madaniyat, ta'lim, ilmiy-texnika axboroti. Kutubxonaga nisbatan tashqarida paydo bo'lган muhit bilan, kutubxona kommunikatsiya tarmoqlari bilan bog'lanadi, unga sharoit yaratadi va vazifalashtirishning asosiy va boshlang'ich punkti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Tashqi muhit kutubxonaga doimiy ta'sir ko'rsatib, uni moslashishga majburlab turadi. O'z navbatida kutubxona axborotga bo'lган ehtiyojlarini qondirish va kutubxona resurslaridan foydalangan holda tashqi muhitga, kutubxona xizmati ko'rsatish mintaqasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Kutubxonalarni tashqi muhitining asosiy obyektlari quyidagilardir:

- uning xizmatlari va mahsulotlarini iste'molchilar;
- kutubxona faoliyati uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratuvchi muassasa, korxona va tashkilotlar (boshqarma, ta'minot, moliya, kadrlar tayyorlash va hokazo);

- kutubxona bilan birgalikda jamiyat mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi muassasa va tashkilotlar (fondni butlash, nashrlarni qayta ishslash, axborotni yaratish, fondlardan hamkorlikda foydalanish va boshqa axborot massivlaridan va boshqalarda ishtirok etuvchi);

- texnologik jihatdan kutubxona bilan bog'liq bo'lмаган, aloqada bo'lмаган, lekin o'zini ijtimoiy rolini kutubxonalarni vazifasi va ish uslublariga ko'ra o'zgartiruvchi kutubxona va nokutubxona muassasalar (ilmiy-texnika axboroti tizimidagi kutubxonalar, innovatsiyalarni o'zlashtirish va hokazo).

Kutubxona faoliyatining samaradorligini ishononarli qilib namoyish etish, uning tarkibiy qismi bo'lган tashqi muhitdagi rolini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Agar kutubxona o'z faoliyati bilan xizmat ko'rsatayotgan hududida, qaysidir ijtimoiy jarayonga (ilmiy, ishlab chiqarish, pedagogik, boshqaruv va hokazo.) ta'sir ko'rsata olishini namoyish eta olmasa, kutubxonaning o'rni samarali emasligi ma'lum bo'ladi.

Kutubxona muhimligi o'zi uning bir qismi bo'lgan tizimga ko'rsatayotgan ta'siri bilan belgilanadi. Shuning uchun teskari aloqa juda muhim rol o'ynaydi. U ijobi yoki salbiy bo'lishi mumkin. Teskari aloqa - o'z-o'zini tartibga solish, kutubxonani rivojlanadirish, bozor iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib faoliyatini o'zgartirish, moslashtirish asosidir. Kutubxona o'zini xizmat ko'rsatish hududida (o'quv muassasasi, korxona, shahar, tuman va h.k.) axborot tarqalishiga javobgar deb bilishi lozim, shunchaki kitob beruvchi sifatida emas. Bundan kelib chiqadiki, muhitni o'rganish, haqiqiy sharoitni bilish, ya'ni unda yashovchi, ishlovchi, kitobxonlarni (haqiqiy va potentsial), bilish majburiy shart hisoblanadi, busiz kutubxonani faoliyat ko'rsatish jarayonini tasavvur qilib bo'lmaydi.

### **Kutubxonalar faoliyati jarayoni**

Kutubxonalar faoliyati, ya'ni kutubxona xizmatlari va mahsulotlarini yaratish bo'yicha faoliyati o'zida asosiy, yordamchi va boshqaruv faoliyatni o'z ichiga oluvchi yagona jarayonni aks ettiradi.

Kutubxonaning asosiy faoliyati bu axborotli o'zaro faoliyat ko'rsatish jarayonidir. Kutubxonada (har bir kutubxona tipida o'ziga xos) kutubxonachi, kitobxon va hujjatga ma'lum bir o'zaro faoliyat ko'rsatish tizimi vujudga keladi. Katta bo'limgan kutubxonalarda bu birlik yaqqol kuzatiladi, yirik kutubxonada u murakkablashadi, kutubxonachilik ishlarini tabaqalashuvi turi yuzaga keladi: masalan, komplektlash, ishlov berish, fondni saqlash va butlash, abonent va kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, bibliografik faoliyat va boshqa.

Asosiy faoliyatdan farq qilgan holda yordamchi va boshqaruv faoliyati oraliq kategoriya tegishli bo'ladi. Ular faqatgina kutubxonaning asosiy vazifalarini amalga oshirishiga yordam beradi.

Yordamchi faoliyatga hamma xo'jalik, ishlab chiqarish, texnik ta'minot va boshqa jarayonlar tegishlidir. Boshqaruv kutubxonaning barcha komponentlari va kichik tizimlarini yagona butun tizim sifatida bog'lanishini, o'zaro faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Kutubxonaning ichki faoliyatida tashkiliy-boshqaruv axboroti zarur element hisoblanadi, shuningdek u tashqi muhit va kutubxona o'rtasida axborotlarning almashinuvida hayotiy muhim rolni o'ynaydi. Boshqaruv axboroti tashkil qilingan bo'lishi lozim. Buning uchun kutubxonada boshqaruv-tashkiliy hujjatlarining asosiy turlari ishlab chiqilmoqda, ularning harakat tartibi va qayta ishlash algoritmlari o'rnatilmoqda. Kutubxona

faoliyatini axborot bilan ta'minlashga ma'lum bir talablar qo'yilmoqda: axborot kerakli hajmda va o'z vaqtida yig'ilishi shart, ishonchli, foydali va qo'llash va keyinchalik foydalanish uchun qulay bo'lishi lozim.

### **Kutubxona faoliyati natijasi**

“Faoliyat natijasi” elementi kutubxonani faoliyat ko'rsatishidagi asosiy elementi hisoblanadi. Faoliyat natijalari va ularning parametrlari (nomenklatura, hajm, sifat) kutubxonalarining elementlariga qagina (texnologiya, ishlab chiqarish strukturasi, ish metodi va vositasigina) emas, balki kutubxonani boshqaruv xarakteristikasiga (boshqaruv tuzilmasi, boshqaruv kadrlari soniga) va uning elementlariga ham ta'sir qiladi. Faoliyat natijalari hajmi va sifatli xarakteristikalari juda muhimdir. Kutubxonaning asosiy faoliyati natijasi bo'lib, kutubxona - axborot xizmatlari va mahsulotlari hisoblanadi. Ularning ishlab chiqarilishi jamiyatning maqsadlariga va kutubxonada mavjud resurslarga ko'ra amalga oshiriladi.

“Xizmat” tushunchasi shu xizmatning “iste'molchi”si tushunchasi bilan bog'langan. Taqdim qilingan xizmatlar bevosita iste'molchi (kitobxon, abonent) ga ta'sir ko'rsatishi sifatida ko'rib chiqiladi. Barcha ko'rinishdagi kutubxona xizmatlarini uchta asosiy guruhga birlashtirish mumkin: hujjatli, kommunikativ va kutubxonachilik servisi.

“Kutubxonachilik mahsuloti” tushunchasi bevosita iste'molchilar bilan bog'lanmaydi. Kutubxona mahsulotining iste'molchilari kategoriyasi juda keng: masalan, mamlakat, hudud, soha kutubxona xodimlari; aholi; kutubxonachilik fakulteti talabalari va o'qituvchilari.

Kutubxona faoliyati natijalarini xarakterlovchi, kutubxona xizmatlari va mahsulot assortimentini aks ettiruvchi asosiy parametrlariga: xizmatlar va mahsulot tarkibi(nomenklatura); xizmat va mahsulotlar hajmi; taqdim qilinayotgan xizmat va mahsulotni sifati; va boshqalar kiradi.

### **5.4. Axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy tuzilmasi**

Kutubxonalarini tashkiliy tuzilmasini yaxlit tuzilma, shuningdek nisbatan mustaqil, o'zlarga biriktirilgan vazifa maqsadlarga, ma'lum bir vakolatga, o'zaro bir-biri bilan ma'lum bir munosabatda bo'ladigan bo'linmalar tuzilmasi sifatida ko'rish mumkin. Tuzilmalar ishlab chiqarish va boshqarish tuzilmalariga ajratiladi. Ular bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'ladi va kutubxonaning yagona kompleks tuzilmasini tashkil

etadi. Bu tuzilma aniq natijalarga olib keluvchi, aniq faoliyatni amalga oshiradi.

Tashkiliy tuzilmani shakllantirish umuman olganda, bir-biriga bog'langan vazifasiga ko'ra o'zaro bog'liq bo'lgan ish turlarini tegishli bo'limlarga ajratish uchun aniqlash va guruhlarga bo'lish jarayonidir. Ish turlari bloklarga ajratiladi, keyin mantiqiy ketma-ketlikda birlashtiriladi.

Kutubxonaning ishlab chiqarish tuzilmasining yaratish ish o'rnini yaratishdan boshlanadi. Ish o'rinarini integratsiyasi murakkabroq tuzilmalarni: joylar, guruh, sho'balar, bo'limlarni yaratilishiga olib keladi.

Kutubxona amaliyotida vazifaviy-texnologik tuzilma keng tarqalgan. Uni asosini kutubxonachilik mehnatini uchta asosiy tsikli: komplektlash, adabiyotlarni qayta ishlash va fondni saqlash; kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish va bibliografik faoliyat tashkil etadi. Kutubxona xizmatchilari shu uchta asosiy bo'limlarga birlashadilar. Kutubxonalar oldida turgan vazifalar va faoliyatning hajmi ortib borgan sari bo'limlarda sektorlar, joylar, xizmatlarga ajratish zaruriyati paydo bo'ladi.

Yirik kutubxonalarda faqatgina vazifaviy tuzilma yetarli emas. Amaliyotda sohaviy, lingivistik, turlar (nashr turlari, xillari) bo'yicha tuzilmalar qo'llaniladi. Respublika, viloyat kutubxona - axborot markazlari tuzilmalarida muhim o'rinni o'lkashunoslik adabiyotlari bilan ishlovchi bo'linma muhim o'rin egallaydi. Markaziy kutubxona vazifasini bajaruvchi kutubxonalarda ilmiy-metodik yoki boshqa muvofiqlovchi bo'linmalar tashkil etiladi.

Zamonaviy talablarga kombinatsiyalangan tuzilmalar hammasidan ko'proq mos kelmoqda. Chunki bo'linmalar tarkibi unda aniq bir kutubxonadagi ish sharoitini o'ziga xosligidan, kutubxonaning an'analaridan kelib chiqqan holda tuziladi.

Kutubxonalarni boshqaruv tuzilmasi, kutubxonaning barcha jarayonlarini boshqarish vazifasini bajarishga qaratilgan bo'lib, bo'linmalar va xodimlar o'rtasida majburiyatlarni to'g'ri va aniq taqsimlash, ularni kelishgan holda samarali ishlashlarini tashkil etishga qaratilgan bo'ladi. Bu tuzilma bir-ikki-uch-to'rt bosqichli: chiziqli, vazifali, chiziqli-vazifali bo'ladi.

Boshqaruv tuzilmasiga kutubxona rahbarlari va uning bo'linmalari, shuningdek maxsus bo'limlar (hisobxona, reja-iqtisodiyot, tashkiliy-texnologik bo'lim, marketing bo'limi, kadrlar bo'limi, devonxona va

boshq.) yoki boshqaruv vazifasini bajaruvchi alohida mutaxassislar kiradi.

Tashkiliy tuzilmani to'g'ri tashkil etish kutubxona faoliyatini samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'lgan murakkab muammodir. Tuzilmalarga qo'yiladigan asosiy obyektiv mezon - kutubxona jarayonlarini va kutubxona bajaradigan vazifalarni mantiqiyligidir. Lekin katta jamoalar bilan bo'ladigan jarayonlar hayotda quyidagi faoliyat turlarini keltirib chiqarmoqda: dispecherlik, kutubxona jarayonlarini koordinatsiyalash, metodik rahbarlik, normalashtirish, hisobga olish, hisobot, moliyalashtirish, moddiy-texnik ta'minot va boshq. Ular kutubxonachilik jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lmasada, lekin ularni bajarishda juda zarurdir. Ya'ni kutubxonalarni tashkiliy tuzilmasi, ba'zi bir hollarda kutubxonaning mantiqiylariga ko'ra birmuncha murakkabdir.

Kutubxonaning tashkiliy tuzilmasi qotib qolgan, bir marta tuzilishi bilan butun umr belgilanadigan tuzilma emas. Uni takomillashtirish, to'g'rlab borish ko'pincha yakka tartibda, kutubxonalarni turlariga, ularni faoliyatlarini kattaligiga, murakkabligiga, xizmat va maxsullotlarini hajmiga, xilma-xilligiga bog'liq. Shu bilan birga u chidamli bo'lishi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. "Kutubxonalarni ijtimoiy funksiyasi" tushunchasining mazmuni nima?
2. Kutubxonalarni ijtimoiy funksiyalari bo'yicha chet el kutubxonashunosligida qanday qarashlar mavjud
3. Axborot - kutubxona muassasasining asosiy elemenlaridan biriga xarakteristika bering: hujjat (resurs).
4. Axborot - kutubxona muassasasining asosiy elemenlaridan biriga xarakteristika bering: kitobxon (foydanuvchi)
5. Axborot-kutubxona muassasasining asosiy elemenlaridan biriga xarakteristika bering: kutubxonachi (axborot-kutubxonachilik faoliyati mutaxassis).
6. Axborot-kutubxona muassasasining asosiy elemenlaridan biriga xarakteristika bering: moddiy-texnika bazasi (ta'minlanish).
7. Kutubxonalarni faoliyat ko'rsatishining asosiy elementlari: tashqi muhit va qayta aloqa. Ta'rif bering.
8. Kutubxonalarni faoliyat ko'rsatishining asosiy elementlari: kutubxona jarayonlarini faoliyati. Ta'rif bering.

9. Kutubxonalarni faoliyat ko'rsatishining asosiy elementlari: kutubxona faoliyatining natijalari. Ta'rif bering.
10. Axborot-kutubxona muassasasining tashkiliy strukturasini qanday aniqlash mumkin?
11. Ishlab chiqarish tuzilmasi deganda nimani tushunasiz?
12. Vazifaviy-texnologik tuzilmaning asosi nima?

## **6- BOB. KUTUBXONACHILIK KASBINING IJTIMOIY, KASBIY VA SHAXSIY JIHATLARI**

### **6.1. Kutubxonachi shaxsiga bo'lgan umumkasbiy talablar**

Kutubxonachilik kasbiga qo'yiladigan muhim talablardan biri - uning namoyondalarining ijtimoiy va kasbiy pozitsiyalarining aniq bo'lishidir. Kutubxonachining ijtimoiy pozitsiyasi - bu uni faol bo'lishini manbasi bo'lgan, dunyoga intellektual va his-tuyg'uli baholashli qarashlar, kutubxonachilikni hozirgi ahvoli va kutubxonachilik faoliyatini tizimidir.

Kutubxonachi shaxsining ijtimoiy faolligining integral ko'rsatkichlari, kasbiy qadriyatlariga quyidagilar kiradi:

- kutubxonachining ijtimoiy roli va vazifasini qanday tushunishi;
- kasbiy burchi va izzat-nafsi;
- o'z kasbini hurmat qilishi;
- kitobxonlar bilan pedagogik muloqoti;
- kasbi bo'yicha mustaqil bilim olish va o'z - o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab.

Kutubxonachining ijtimoiy pozitsiyasini ko'p hollarda uning kasbiy pozitsiyasi, kasbiy yo'naltirilganligi orqali aniqlanadi.

Kutubxonachilik faoliyatida har bir kutubxonachining oxirgi natijaga qo'shgan hissasini ajratib olish juda qiyin jarayondir. Shuning uchun kutubxonachilik jamoalarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. Haqiqiy jamoaning asosiy qirralari quyidagilardir:

- yaxshi psixologik muhit;
- umumiylig'i, qarashlar, birdamlik;
- ijodiy sharoit.

Ushbu qirralar, jamoada umumiylig'i, qiziqishlar, kutubxona faoliyatini maqsadi va mazmunini aniq bilgan holda ish jarayonida o'z o'rnnini bilgan kutubxonachilar jamoalariga xosdir.

Kutubxonachilar jamoasini shakllantirish, ijtimoiy-psixologik muammo bo'lib, u shaxsning psixologik o'ziga xosliklarini o'rganishni, menejment asoslarini, bir qator ijtimoiy-psixologik muammolarni hal etishni talab qiladi. Kutubxonachilik faoliyati, boshqa faoliyatlar singari nafaqat miqdoriy, balki sifat o'zgarishlari xarakteristikasiga ham egadir.

Kutubxonachining mehnatini mazmuni va tashkil etilganligini, uni o'z faoliyatiga ijodiy yondoshganligini e'tiborga olgan holdagini baholash mumkin.

Kutubxonachi shaxsining ijodiy potentsiali, u tomonidan to'plangan ijtimoiy tajriba, maxsus kutubxonachilik, psixologik-pedagogik va boshqa bilimlar va yangi g'oyalalar, malaka va ko'nikmalarga bog'liq. Ular o'ziga xos bo'lgan yechimlarni topish va ularn qo'llash, yangi shakl va metodlar topish va shu orqali o'zlarini kasbiy faoliyatlarini takomillashtirishga erishadilar.

Kutubxonachilik kasbini tashkil etish, o'zida mustaqil ijodiy mehnatni, doimiy ravishdagi vazifalar bilan birga boshqa vazifalarni ham bajaruvchi mehnati, shuningdek qat'iy belgilangan muddatlarda va belgilangan tartibda amalga oshirishni taqozo etadi.

Kutubxonachilik mehnatini mazmunini funksional tahlil qilish uni uchta asosiy kutubxonachilik xodimlari guruhiga ajratish imkonini beradi:

1. Maxsus kutubxonachilik va boshqa sohalar bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassislar. Ular yuqori intellektual va kasbiy potentsialga ega bo'lganligi sababli, kutubxonachilik faoliyatini nazariy va ilmiy aspektidagi kasbiy bilimlar va mahorat talab qiluvchi vazifalarni bajaradilar.

2. O'rta kvalifikasiyalı kutubxonachilar, o'rta maxsus ma'lumotga ega (kutubxonachilik yoki boshqa mutaxassisliklar) bo'lganlar. Ular tashkiliy-texnologik kutubxonachilik jarayonlaridagi kompleks vazifalarni bajaradilar.

3. Kutubxonachining yordamchilari (kichik kutubxonachi, yordamchi personallar) umumiyl o'rta ma'lumotga ega bo'lganlar. Ular maxsus kvalifikatsiya talab etmaydigan ish turlari, operatsiyalarni bajarish malakasiga ega bo'ladilar.

Kutubxonachi shaxs sifatida ko'pgina hollarda texnik, ijtimoiy, tashkiliy va iqtisodiy o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatadi. Ularda ijodiy faollikni, ishga qiziqqan holda ijodiy yondoshishni tarbiyalash uchun quyidagilar zarur:

1. Kutubxonachilarga sohasi bo'yicha yangi, yetakchi g'oyalarni o'rganishga, eskirgan ish uslublari bilan yangilarini solishtirishga imkoniyat yaratish;

2. Kutubxonachiga ishni tahlil qilish va oqilona bajarish bo'yicha, tahlil qilish qobiliyatini tarbiyalovchi mustaqil bajaradigan vazifalar berish orqali yordam berish.

3. Zarur metodik yordam, maslahatlar berish, tadqiqot, eksperimentlar o'tkazilayotgan ishlarga jalb qilish.

Kutubxonachi mutaxassislarni tayyorlash asosida ikkita fundamental tamoyillar yotadi:

1.Birinchi tamoyil kutubxonachilik kasbini to'liqligi, ya'ni yagona kasbiy bilimlar va qobiliyatlarni poydevorini shakllantirish;

2.Ikkinchi tamoyil, kutubxonachilik kasbini tabaqlashtirish, ya'ni mutaxassisliklarga ajratish.

Zamonaviy kutubxonachilarni tayyorlash nazariyasi va amaliyoti to'rtta ilmiy bilimlar tizimiga asoslanadi:

- ijtimoiy-gumanitar;
- umumilmiy;
- umumkutubxonachilik;
- maxsus.

Barcha ilmiy bilimlar tizimlari rivojlanayotgan kutubxonachi shaxsi talablarini qondirishga, uni kutubxonachilik amaliyotiga, kasbiy tayyorgarligini asosini yaratishga xizmat qiladi. Kutubxonachilik kasbi, kutubxonachilik ishini falsafiy - ijtimoiy, madaniyatshunoslik va fanshunoslik nuqtai nazardan jamiyatning kichik tizimi, madaniyatning bir bo'lagi sifatida o'rganishga asoslanadi.

Umumlashtirilgan holda kutubxonachilik kasbini "inson-hujjat-inson" tipiga yoki kutubxonachilik atamalariga ko'ra "kutubxonachi-hujjat-kitobxon" tipiga ajratish mumkin.

Zamonaviy kutubxonachi - bu uni qo'l ostida bo'lgan axborot resurslari yoki hujjatlashtirilgan bilimlar tizimi va ularga ehtiyoji bo'lgan insonlar o'rtaсидagi vositachi-mutaxassisdir. Kutubxonachi kitobxonlar bilan ishslash jarayonida, hujjatlashtirilgan yoki hujjatlashtirilmagan shakldagi ijtimoiy axborotni almashish natijasida ijtimoiy-kommunikatsion faoliyatni amalgalash oshiradi.

Kutubxonachilik kasbinining asosiy mazmunini kutubxonachining kitoblar va foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabat tashkil etadi. Kutubxonachining vazifasi-foydalanuvchilarni axborotga bo'lgan talablarini to'g'ri tushunishi va uni qondirishidir. Buning uchun u hujjatlarni va kitobxonlarni juda yaxshi bilishi kerak. Ya'ni, kutubxonachi nafaqat ilmiy-gumanitar va umumkutubxonachilik bilimlarni, shu bilan birga kitobshunoslik (hujjatshunoslik) va kitobxonshunoslik bilimlarini ham egallagan bo'lishi kerak.

Kutubxonachining kitoblarni bilishi bo'yicha kasbiy xislati tuzilishi bo'yicha murakkab tuzilmaga va mazmuni bo'yicha ko'p aspektli bo'lib – u o'ziga adabiyotlar va hujjatlar oqimida, aniq bir tashkilot va kitobxonlar guruhini axborotga bo'lgan talablarini hisobga olgan holda

harakat qilishni, shuningdek hujjatlarni o'ziga xosligini, ularni g'oyaviy yo'nalishini, ilmiy, amaliy va badiiy qiymatini baholay olishni, vatan va chet el ma'lumotnomalari, bibliografik va elektron nashrlardan foydalangan holda zudlik bilan axborot qidiruvini amalga oshirishni hamda kitob bilan kitobxonni, kitobxon bilan kitobni birlashtira olishni nazarda tutadi.

Kutubxonachida muloqot qila olish, kirishimlilik (kommunikabelnost) zarur kasbiy xislat hisoblanadi. Kutubxonachilik kommunikativ kompetentlik mezonlari quyidagilardir:

- kitobxonga qiziqish, unga ijobiy munosabatda bo'lish;
- kitobxonning holatini tushunishi va uni kutubxonachi bilan o'zaro harakatdagi qarashlarini bila olishi;
- kirishimlilik va aloqada bo'la olishi;
- kitobxon bilan muloqotda sabrli bo'la olishi;
- kitobxonga ta'sir o'tkazish strategiyasini egallagan bo'lishi;
- kommunikativ bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi (auditoriya oldida so'zlay olishi, kutubxonada kitobxonlarni muloqotini tashkil qila olishi, ishbilarmonlik suhbatlarini olib bora olishi, ziddiyatli holatlarni ijobiy hal eta olishi va boshqalar).

## **6.2. O'zbekistonda kutubxonachi kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish**

Insonning jamiyatda tutgan o'rni ko'pincha uning mutaxassisligi va professional faoliyati bilan aniqlanadi. Mutaxassislik deganda, maxsus tayyorgarlik, bilim, qobiliyat va yashash manbai hisoblangan mehnat faoliyati tushuniladi.

Kutubxonachilik kasbi alohida kasb, mutaxassislik sifatida XVII-XVIII asrlarda shakllana boshlandi. Kutubxonachilik kasbining mutaxassislik sifatida tan olinishini 1876 yil bilan, ya'ni dunyoda birinchi bo'lib kutubxonachilarning professional birlashmasi - Amerika kutubxonachilar assotsiatsiyasi barpo bo'lishi bilan chambarchas bog'lash mumkin.

Professional kutubxonachilik bilimlarini o'qitish 1887 yildan boshlab, ya'ni Germaniyada universitet miqyosida kutubxonachilik bo'yicha kafedraning, AQShda esa birinchi kutubxonachilik maktablarining ochilishi bilan boshlangan.

1908 yili Rossiyada kutubxonashunoslik Jamiyati ochildi va uning tashabbusi bilan 1910 yili “Kutubxonachi” jurnali nashr qilina boshlandi.

20-yillarda oliy va o’rta pedagogik va mакtabdan tashqari oliy o’quv yurtlari va texnikumlarida kutubxonachilik fakultetlari (bo’limlari) ochildi. Ammo, kutubxonachilik kasbining muammolarni kompleks ravishda ilmiy asosda ishlab chiqish XX asrning 60-yillaridan boshlandi.

O’zbekistonda kutubxonachilik ta’limi XX asrning 20-yillari oxirlaridan kiritila boshlandi, chunki shu davrga kelib ko’plab tashkil etilgan ommaviy kutubxonalar uchun kadrlarni tayyorlash maqsadida kutubxonachilik kurslari ochila boshlandi. Ushbu tizim 70-yillarga qadar faoliyat ko’rsatdi.

1937 yili kutubxonachilik mutaxassisligini tayyorlash bo’yicha birinchi o’quv yurti - Toshkent kutubxonachilik texnikumi ochildi. 50-60-yillarning oxirlarida Namangan, Qarshi, Buxoro, Nukusda kutubxonachilik bo’limi bo’lgan madaniy-oqartuv texnikumlari ochildi.

Oliy kutubxonachilik bilimini berish 1958 yilga to’g’ri keladi, chunki shu yili Qo’qon pedagogika instituti qoshida kutubxonachilik fakulteti ochildi, 1960 yili u Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutiga, 1974 yili esa yangi tashkil etilgan Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutiga o’tkazildi. Fakultet “Kutubxona-axborot faoliyati boshqaruvi” fakulteti nomi bilan qayta nomlandi va respublika kutubxonalari uchun bakalavr yo’nalishi va mutaxassisliklar bo’yicha magistrlar tayyorladi.

XX asrning 70-yillarining o’rtalaridan boshlab kutubxonachilik mutaxassisligi kutubxonashunoslik fanining maxsus tadqiqot predmeti bo’la boshladi. Rossiya Federatsiyasining Moskva va Leningrad madaniyat institutlari, Rossiya davlat kutubxonasi, Rossiya xalq kutubxonasi, Ukraina Fanlar Akademiyasining kutubxonasi va boshqa sobiq ittifoqning bir qancha yirik kutubxonalarida, kutubxonachilik mutaxassisligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, mehnatdan qoniqish, kadrlar davomiyligi, yosh mutaxassislarning professional va ijtimoiy moslashuvi, kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish masalalarini o’z ichiga olgan ko’p qirrali izlanishlar amalga oshirildi.

1986 yili “Kutubxonachilik mutaxassisligi: hozirgi holati va kelajagi” nomli ilmiy-tadqiqot ishi boshlandi va unda Toshkent davlat madaniyat instituti professor-o’qituvchilari, talabalari va kutubxona xodimlari ham ishtirok etdi. Besh yil davomida oliy o’quv yurtlari va

kutubxonalar, ularning o'qituvchilari, xizmatchilari va talabalari kutubxona ishidagi kadrlarning holati, qo'nimi va harakati, mutaxassislik statusi va nufuzi, va boshqa masalalar keng o'r ganildi.

Ushbu izlanishlar natijalari kutubxonachilik professiologiyasi shakllanishini tezlashtirdi, bu ishga rus kutubxonashunos - olim A.S. Chachko ulkan hissa qo'shdi. U kutubxonaning nazariy-amaliy predmeti sifatidagi - professiologiya atamasiga ta'rif berdi. Uning muammolari keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- jamiyatda kutubxonachi mutaxassisligini roli va o'rni;
- kutubxona mutaxassisligining tarixiy rivojlanish qonuniyatları;
- kutubxona ishi turlarining ilmiy tasniflanishi;
- kutubxonachi sotsial-psixologik qiyofasining o'zgarishini proznozlashtirish;

- kadrlarni uzlusiz ta'lim olish va malakasini oshirish tizimi;
- kutubxonachilik birlashmalari va assotsiatsiyalar;
- kutubxonachilarining professional o'z-o'zini anglashi va hokazo.

Kutubxonachilik mutaxassisligiga qo'yiladigan asosiy talablardan biri - soha vakillarining ijtimoiy va professional pozitsiyada qat'iyatligi. Kutubxonachi pozitsiyasi - bu dunyoga, kutubxonachilik haqiqatga va kutubxona faoliyatiga intellektual va emotsiyal-baholovchi munosobatda bo'lish tizimi bo'lib u uning faollik manbasi hisoblanadi. Kutubxonachi pozitsiyasi orqali uning shaxsi, ijtimoiy orientatsiyasi, fuqarolik xulqi va faoliyati turi shakllanadi. Kutubxonachining ijtimoiy faolligi, shaxs sifatidagi ko'rsatkichi kutubxonachi funksiyalarining ijtimoiy rolini, professional majburiyat va g'ururini, o'zining mutaxassisligini hurmat qiluvchi, kitobxonlar bilan pedagogik munosabat madaniyati, professional o'z ustida ishslash va o'zini-o'zi tarbiyalash kabi uning professional mahorati hisoblanadi.

Kutubxonachining ijtimoiy pozitsiyasi uning ko'proq professional pozitsiyasi va professional yo'naltirilganligini anglatadi. Axborotlar manbalari ichida bo'lган holda kutubxonachi hayotiy tajribani aniq, haqiqiy aks ettiruvchi ma'lumotlarni tasvirlash va xotirada saqlashga harakat qiladi.

Alovida ijtimoiy-professional guruh sifatida, kutubxonachilarini har tomonlama o'rganish uchun, ularni faqatgina mehnat faoliyati sharoitlarida, ya'ni kutubxona ishi doirasida ko'rish yetarli emasdir. Kutubxonachi mutaxassisligining o'rni va ahamiyati, uning xarakteri va sifatiy xususiyatlarini jamiyatni tomonidan kutubxonachilarga va

kutubxonachilik mutaxassislariga qo'yilgan talablardan ham ko'rish mumkin.

Jamiyat uning rivojlanish bosqichiga qarab kutubxonachilarga u yoki bu vazifalarni qo'yadi va ularni aniq bir mazmun bilan to'ldiradi, rag'batlantiradi va uning ijrosini nazorat qiladi. Kutubxona mutaxassisligi bir necha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi - kitoblarni "saqlovchi"dan to "davlat va xalq g'oyalarini targ'ibotchisi" gacha.

Davlatimizning mustaqilligi sharoitlarida kutubxonachi onginging professional tiklanish jarayoni sodir bo'lmoqda. Uning ko'p qirraligi, ko'p o'lchovligi hozirgi vaziyatda nisbatan eskirgan va keraksiz tasavvurlardan voz kechish imkonini yaratadi. Ko'plab kutubxonachilar kutubxonachilikning qayta tiklanishida faol qatnashmoqdalar, ish sifatiga, professional ishga yaroqlilik talabi kuchaymoqda. Kutubxonachilar ko'proq bevosita madaniyatni rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi, ta'lim, axborot tizimlari va milliy ideologiyani tarbiyalovchi ijtimoiy-professional guruhga aylanmoqda.

Yuqoridagi fikrlar, kutubxonashunoslik nuqtai nazaridan yondoshgan holda bir qator mezon va parametrlarini ajratib ko'rsatish imkon beradi:

- kutubxonachilik xossalari va faktlarini yaxlitlikda, o'zaro aloqada va o'zaro bog'lanishda tahlil qilish;
- kutubxonachilikni o'zaro harakat va ta'sirlari genezisini kuzatib borish;
- kutubxonachilik harakatlarni kitobxon xulqidagi maqsad va natijalari bilan mutanosiblashtirish;
- shakllangan shablon va stereotiplardan voz kechish, yangi baholashlar, umumlashtirishlar, yondashuvlar, harakatlarni izlash va topish;
- amaliy va ijodiy izlanishlarda nazariya va yangi fikrlarni qo'llash;
- kitobxonlar bilan muloqotda mantiqiy faktlar va ishonarli argumentlarni samarali qo'llash.

Bugungi kunda O'zbekistonda kutubxonachilik ishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan mashhur kutubxonachilar, kutubxonashunos olimlar va pedagoglar yetishib chiqdi, bular: E.K. Betger, N.A. Burov, M.S. Viridarskiy, A.A. Garritskiylar bo'lib, ular O'zbekistonda kutubxonachilik ishini boshlanishida fidokorona mehnat qildilar. Ularni ishining davomchilari va o'zlarining fidokorona mehnatlari bilan hurmatga ega bo'lganlar va O'zbekistonning kutubxona ishi tarixiga umrbod kirganlar: M.P. Avsharova, A.I. Aliyev, F.N. Baybakova, L.K.

Bartashevskiy, P.A. Baranov, T.N. Krilova, M.N. Latipova, O.V. Maslova, F.D. Manasipov, E.D. Svidina, J.M. Tadjiyeva, G.N. Umarov, I.X. Xusanxo'jayev va boshqalar. Ularning nomlari hozirda esdan chiqarilgan, lekin chuqur o'rganishga va fikrlashga loyiqdirlar.

Yosh mutaxassislarga o'zlarining professional bilim va tajribalarini berishga harakat qilganlar ichidan quyidagilarni ko'rsatib o'tish lozim: Yu.B. Abramov, A.I. Ageyev, N.Yu. Avanesova, N.X. Asfandiyorov, F.A. Blyaxarskaya, E.D. Belenkaya, E.K. Vasileva-Chebotaryeva, A.G. Qosimova, A.I. Kormilitsin, S.N. Matorina, X. Mamatraimova, M.Ya. Nosirova, Z.A. Nikolayeva, M.A. Raximova, M. Rashidova, M.Yu. Sarkazova, N.V. Safonova, M.M. Turopov, L.P. Fomina, Sh.M. Shamsiyev, K.K. Shabanova, E. Yo'ldoshyev, T.Sh. Shokirov va boshqalar.

Respublikamizning mustaqilligi yillarida 5 ta kutubxonachilarimiz "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" yuksak unvoniga sazovor bo'ldilar, bular: Sobirova V.T. ("Turon" nomli Toshkent viloyat universal ilmiy kutubxonasi direktori), Maminova I.Z. (A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktor o'rinnbosari), Fayzullayev R. (A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bo'lim mudiri), Yuldashev M.A. (A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bo'lim mudiri), Pulatova S.P. (A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tarkibiga kiruvchi O'zbekiston Kitob Palatasi bosh bibliografi).

### **6.3. Axborot-kutubxona faoliyati va kutubxonachilik mutaxassisligi turlari**

Kutubxonachilik kasbini yagonalik tamoyili, uni tabaqalanishi tamoyili bilan to'ldiriladi. Kutubxonachilik kasbi ko'plab kutubxonachilik mutaxassisliklar bilan o'zini namoyish etadi. Kasbni ichida vazifa va majburiyatlarni belgilanishi bir qancha parametrlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa kutubxonachilik mutaxassisliklarini, kutubxonachilik faoliyatining turlarini, shuningdek kutubxonachilik ishidagi lavozimlarni klassifikatsiyalash imkonini beradi.

Ushbu parametrlardan biri kutubxonachining jamoadagi rasmiy o'rni hisoblanadi (direktor, bo'lim sho'ba mudiri, bosh kutubxonachi, kutubxonachi va hokazo. Kutubxonachilik mutaxassisliklari doirasida tabaqalash turli faoliyat turlarining zaruriyati natijasida xulosa

chiqariladi. Kutubxonachilik kasbi doirasida kutubxonachilik mutaxassisliklari tuzilmasi quyidagicha aniqlanadi:

Kutubxonalarni turlari va tiplari, ularni vazifalari bo'yicha;

Kutubxonachining vazifasi (faoliyat turi bo'yicha);

Hujjatning xarakteri va mazmuni bo'yicha;

Kitobxonlar kontingentini o'ziga xosligi bo'yicha.

Dastlab, kutubxonachilarni tabaqalashtirish kutubxonalarni turi va xili bo'yicha o'ziga xosliklari hisobga olinadi. Kutubxonachilarni mutaxassisliklar bo'yicha tabaqalash asosida talablarni qondirilishi yotadi:

-yoki kasbiy axborotga bo'lgan talablar (ilmiy,ishlab chiqarish, boshqaruv, o'quv, ijodiy),

-yoki inson faoliyatining nokasbiy sohasi bo'yicha axborotga bo'lgan talablar (umumta'lim, umummadaniyat, estetik, bo'sh vaqtdagi qiziqishlar)

Kutubxonachilik kasbi doirasida mutaxassisliklar vujudga keldi. Ular asosan yirik kutubxonalarda, mehnatni vazifalarga ko'ra bo'linishi natijasida paydo bo'ldi (fondni komplektlash, kataloglashtirish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, ma'lumot-bibliografiya xizmati va boshqalar).

Turli xil mutaxassisliklar xodimlardan tegishli kasbiy-shaxsiy sifatlarni rivojlantirishni talab etadi:

-jonkuyarlik;

-vaqt tig'izligida tez harakat qilish qobiliyati;

-yaxshi xotira;

-har qanday zarur ishga o'zini majbur eta olish;

-belgilangan vaqtida ishni bajarish;

-vazminlik;

-chidamlilik;

-his-tuyg'u bo'yicha bardoshli;

-chiqishimli va hokazo.

Hozirgi kunda kutubxonalar kompleks ravishda, axborot markazlari sifatida, maslahatlar yoki servis markazlari sifatida, turli xil an'anaviy va kompyuter vositalaridan foydalangan holda rivojlanmoqda. Zamonaviy kutubxonachi - bu axborot va qayd etilgan bilimlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassis-maslahatchidir. Avtomatlashgan kutubxonachilik jarayonlari, kompyuterlardan foydalanish yangi, qo'shimcha bilimlar, qobiliyat va ko'nikmalarni talab qiladi:

-Kutubxonachini kompyuter bilan muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

-Zarur rejimda axborot-bibliografik qidiruvni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

-Kitobxonlarda axborot madaniyatini shakllantirish, ularni adabiyotlarni avtomatlashtirilgan qidiruv ko'nikmalariga o'rgata olishi;

-Avtomatlashtirilgan tizimlarni imkoniyatlarini targ'ib qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Kutubxonalarda yangi texnika vositalarini joriy etilishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bu esa quyidagi mutaxassisliklarni kutubxonachi - texnolog va bir qancha mutaxassisliklarni paydo bo'lishiga olib keladi. Tarmoq kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi koordinatsiyalash quyidagi mutaxassisliklarni talab qiladi:

-ma'lumotlar bazasi administratori;

-axborot tizimlari menejeri;

-WEB-sahifalarni yaratish va yangilovchi mutaxassis.

Shuningdek, kutubxonachilar elektron nashriyot faoliyati sohasidagi mutaxassisliklarga moslashmoqdalar, kutubxona xodimlari va foydalanuvchilar uchun Internetni o'rgatish bo'yicha (trening), telekonferentsiyalar tashkil etish bo'yicha mutaxassislar kerak.

Boshqa tarafdan esa kutubxonachilik kasbidagi o'zgarishlarga ko'plab ommaviy kutubxonalarni ijtimoiy moslashuvi natijasida quyidagi mutaxassisliklar paydo bo'lmoqda:

-kutubxonachi-psixolog;

-kutubxonachi-pedagog (bolalar kutubxonalari uchun);

-ijtimoiy himoyalanmagan aholiga xizmat ko'rsatuvchi kutubxonachi.

Kutubxona dizayni bo'yicha mutuxassislar tayyorlash ham maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki hozirda kutubxonalarda bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda kutubxonachilar tomonidan ijtimoiy, marketing tadqiqotlarini o'tkazilishi, amaliyotda quyidagi mutaxassisliklarni keltirib chiqarmoqda:

-kutubxonachi-marketolog;

-kutubxonachi-sotsiolog;

-kutubxonachi-tadqiqotchi.

Kutubxonachi bugungi kunda grant olish uchun asoslab berishi, u yoki bu ijtimoiy dasturni amalga oshirishni maqsadga muvofiqligini

yozma ravishda isbotlashi uchun ilmiy tadqiqot, kasbi bo'yicha va umumiy dunyoqarishi bo'yicha keng fikrlay olishi zarur. Bularni barchasi kutubxonachilik faoliyatini va kutubxona xodimini intellektuallashuvini talab qiladi.

Hozirgi kunda kutubxonalar va kutubxonachilar jamiyat uchun ochiq bo'lib borayotganliklarini sezmaslik mumkin emas. Ularni oshkoraliги keng ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilish, kutubxonachilardan yuqori madaniyatni, jumladan nutq madaniyatini, axloq-odob qoidalarini bilishni va unga amal qilishni, o'zlarini imidjlariga qarab yurishlarini taqozo etadi.

Kutubxonalarini tashkiliy tuzilmalarini murakkablashuvchi natijasida, boshqaruv bilimlariga va menejerlik qobiliyatlariga bo'lgan talablar ortib bormoqda. Hozirgi kunda kutubxonachilik ishini yirik masshtablarda amalga oshirilayotganligi, texnologiyalarni murakkablashuvi, kutubxona ichidagi va tashqarisidagi aloqalar, kutubxonachilik resurslariga bo'lgan xarajatlarni oshishi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish va boshqa muassasalar bilan raqobatlar boshqaruv faoliyatini sohasini o'sishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun kutubxonachi bilishi kerak:

-marketingni;

reklamani;

-"PR texnologiya"(jamoatchilik bilan aloqalarni);

-fandreyzinni (mablag' topish yo'llari) boshqacha etganda keng diapozondagi boshqaruv yo'llarini bilishi kerak.

Kutubxonachilik faoliyatini maxsus turi-kutubxonachilik amaliyotiga yangiliklarni joriy etishni o'rganish, ishlab chiqish va joriy etishdir. Bu soha mutaxassislarini metodistlar deb nomlanadi. Metodistlar kutubxonachi-amaliyotchilar va innovatsiyalar o'rtasidagi vositachilar bo'lib ular mamlakatimiz va chet el kutubxonalarida mavjuddir. Ular eng ko'p axborotga ega bo'lgan xizmatchilar bo'lib, uning axborot maydonida kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyoti, qonunlar va yuridik aktlar, marketing va menejment, tashqi muhitning holati va kutubxona xodimining kasbiy sifati, hududdagi kutubxonachilik holati haqidagi ma'lumotlar joy olgan.

Kutubxonachilik mutaxassisliklarini ta'riflash va natijalarni tahlil qilish ularni kvalifikatsion xarakteristikasi yoki professiogrammassi sifatida rasmiylashtiriladi. Kutubxonachi-professionalning faoliyatini baholashda uni ma'lumot (bilim) darajasi, kasbiy tayyorgarligi (malakasi, qobiliyati, ishlab chiqarishdagi tajribasi, shaxs sifatida

psixofizologik xarakteristikasi, kasbiy axborotlarga ega ekanligi, harakatchangligi) asosiy element hisoblanadi. Zamonaviy kutubxonachining muhim sifati uni kasbi bo'yicha uzliksiz o'z bilimini takomillashtirib borishga qaratganligidir.

*Axborot-kutubxona muassasalarida yangi kutubxonachilik mutaxassisliklari va ularning faoliyati. Kutubxonachi-katalogizator faoliyati*

Kutubxonachi-katalogizator o'z ish faoliyatida axborot-kutubxona muassasalar fondiga kelib tushgan adabiyotlarga ishlov berish, ularni klassifikatsiyalashni, rasmiylatirish yo'llarini bilishi zarur. Shu bilan birga u kutubxonaning elektron katalogi va resurslari bilan ishlash usullarini, nashrlarga ishlov berish, katalogini taqdim etish yo'llarini ham bilishi shart.

Kutubxonachi-katalogizator kutubxona fondini tashkil etish hamda shakllantirish, fonddagi kitoblarga ilmiy-texnik ishlov berish hamda kutubxona fondi bilan ishlashni ta'minlovchi hujjatlar turlari bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Yuqoridagi ishlarni amalga oshirishda kutubxonachi-katalogizator universal o'nlik klassifikatsiya, kutubxonachilik-bibliografik klassifikatsiya va boshqa jadvallar haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lishi kerak. Ular axborot- kutubxona fondini yuqoridagi jadvallar asosida joylashtirish usullari bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish lozim. Shuningdek, KBK jadvalidagi na'munaviy bo'linishlarini hamda adabiyotlarni joylashtirish tartibini puxta egallagan bo'lishi kerak. Fonddagi adabiyotlarni alfavit, sistemali va sohalar bo'yicha joylashtirishni bilishlari lozim.

Zamonaviy kutubxonachi-katalogizator axborot-kutubxona muassasalarini avtomatlashtirish bosqichlarini, avtomatlashtirilgan ish o'rinalarini tashkil etishni hamda ish jarayonlarida qo'llashni, adminstratorning avtomatlashtirilgan ish o'rninida ma'lumotlar bazasini yaratishni bilishi kerak. Katalogglashtiruvchining avtomatlashtirilgan ish o'rnida adabiyotlarni katalogglashtirish jarayonlarini bilish hamda amaliyotda qo'llay olishi zarur.

Kutubxonachi-katalogizator elektron kutubxona faoliyatiga oid barcha normativ qonun hujjatlari va nizomlarni bilishlari va ularning tuzilishi hamda ularda berilgan ko'rsatmalarni bajarilishiga oid ko'nikmalarga, elektron kutubxonalarini yaratish bosqichlarini bilish va yarata olish ko'nikmasiga ega bo'lishi hamda elektron resurslarni yaratish metodikasini bilishi va ularni foydalanuvchilarga taqdim etish yo'llarini bilishi kerak.

Kutubxonachi-katalogizatorning asosiy vazifalaridan biri kutubxona elektron kataloglarini shakllantirish va foydalanuvchilarning ulardan foydalanishlarini ta'minlay olishdir. Shuningdek u fondni targ'ib qilishda reklama, internet tarmog'ining ahamiyatini, dastur va materiallar asosida didaktik ko'rgazmalar bilan ta'minlash va forum va videokonferentsiyalar ishini targ'ibotini bilishi zarur.

Kutubxonachi-katalogizator elektron kutubxona faoliyatida targ'ibot ishlarini tashkil etishni, elektron kutubxona dasturlari orqali yaratilgan adabiyotlarning elektron shakllarini targ'ib qilishni hamda targ'ibotning ahamiyati va qo'llanish usullarini har tomonlama egallagan bo'lishi kerak.

#### *Sohalarga oid baza ma'lumotlarini yaratuvchi kutubxonachi faoliyati*

Ma'lumotlar bazasi-bu ma'lum bir predmet sohasiga oid tizimlashtirilgan ma'lumotlarining nomlangan to'plamidir. Ma'lumotlar bazasi-axborot tizimlarining eng asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun foydalanuvchi ishini yengillashtirish maqsadida ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi yaratilgan. Bu tizimlar ma'lumotlar bazasini amaliy dasturlardan ajratadi. Ma'lumotlar bazasini boshqarish - bu dasturiy va apparat vositalarining murakkab majmuasi bo'lib, ular yordamida foydalanuvchi shu bazadagi ma'lumotlar ustida ish yuritishi mumkin.

Ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi o'z ish faoliyatida elektron katalog ma'lumotlar bazasini yaratish texnologiyasi, elektron resurslar yaratish va foydalanishning huquqiy jihatlari va Dubling yadrosining metama'lumotlar tizimini bilishi kerak. Shuningdek u EBSCO ma'lumotlar bazasi, yig'ma elektron katalog va undan foydalanish, IRBIS, ARMAT va boshqa tizimini o'rnatish va ishlatish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi ARMAT yoki boshqa tizimda yangi ma'lumotlar bazasini yaratish, to'liq matnli ma'lumotlar bazasini eksport/import qilish, Administratorning avtomatlashtirilgan ish o'rnidagi (AIO') ma'lumotnomalar yaratish, bibliografik tavsif elementlarini kiritishda lug'atlardan (dinamik bazadan) foydalanishni bilishi kerak. Shuningdek, bir va ikki muallifli adabiyotni bibliografik tavsif elementlarini tizimning elektron katalogiga kiritish, uch muallifli elektron resurs bibliografik tavsif elementlarini tizimning elektron katalogiga kiritish va tavsifga to'liq matnni bog'lash, mualliflar soni to'rt va undan ko'p

bo'lganda adabiyotning bibliografik tavsif elementlarini tizimning elektron katalogiga kiritish hamda ko'ptomli nashrlarni kataloglashtirishni bilishi zarur.

Buning uchun u avvalo elektron resursning bibliografik tavsif elementlarini kiritish, elektron katalog ma'lumotlar bazasidagi bibliografik yozuvlarni tahrirlash,

-kitobxonning avtomatlashtirilgan ish o'rni bilan ishlash, axborot-kutubxona va axborot-resurslar markazlari uchun zamonaviy texnika, texnologiya va dasturiy ta'minot,

-korporativ kutubxona tizimlari va tarmog'larini yaratish printsiplari, hamda korporativ kataloglashtirish usulidan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Zamonaviy ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi elektron resurslarni yaratishda to'liq matnli ma'lumotlar bazasini yaratishni, elektron kutubxona dasturlari orqali adabiyotlarni targ'ib qilish va o'zaro aloqalarni o'rnatishni to'liq egallagan bo'lishi kerak. Shuningdek. u elektron katalogdan adabiyot va hujjatlarni qidirish usullarini, elektron katalogda bo'limgan adabiyotlarga buyurtma berish, buyurtmalar bilan ishslash (adabiyotlarni berish va qaytarib olish) ni bilishi lozim.

Axborot-kutubxona muassasasida qo'llanilayotgan elektron tizimga adabiyotlarni bibliografik tavsif elementlarini kiritish, davriy nashrlar elektron katalogini yaratish, tizimining ma'lumotlar bazasidan kerakli yozuvlarni boshqa tizimlar ma'lumotlar bazasiga ko'chirib o'tkazish usulini egallagan bo'lishi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonda axborot-kutubxona yo'naliishi bo'yicha ta'lim tizimi.
2. Kutubxonachilik kasbini mashhur mutaxassislari: tarixi va hozirgi holati.
3. Kutubxonachilik kasbining asosiy mazmuni nima?
4. "Inson-Hujjat-Inson" tipi nimani bildiradi?
5. Kutubxonachilik kommunikativ kompetentlik mezonlarini qayd eting.
6. Axborot-kutubxona sohasi mutaxassisiga qo'yilayotgan talablarni ta'riflang.
7. Kutubxonachilik mutaxassisliklarini tabaqlashtirish asoslari nima?

8. Zamonaviy kutubxona xodimi qanday bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?
9. Kutubxonachi-katalogizator o'z ish faoliyatida qanday ish jarayonlarini bilishi kerak?
10. Kutubxonachi-katalogizator kutubxona fondini tashkil etish hamda shakllantirishda qanday ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak?
11. Ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi o'z ish faoliyatida nimalarni bilishi kerak?
12. Zamonaviy ma'lumotlar bazasi yaratish bilan shug'ullanuvchi kutubxonachi nimalarni to'liq egallagan bo'lishi kerak?

## **7- BOB. AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATI IJTIMOIY TIZIM SIFATIDA**

### **7.1. Axborot-kutubxona faoliyatining tuzilmasi. Axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari**

Axborot-kutubxona faoliyati sohasi - bu fuqarolarni axborot, madaniy-ma'rifiy va ta'lim faoliyatlari va ularni birlashmasi bo'lib, u kutubxonalar tarmog'ini yaratish va rivojlantirishni, ularni fondini shakllantirish va ularga ishlov berish, foydalanuvchilarga kutubxonachilik, axborot va ma'lumot-bibliografik xizmat ko'rsatish, kutubxonachi kadrlar tayyorlash, kutubxonalarni rivojlanishini ta'minlashni ilmiy va metodik ishlarini o'z ichiga oladi.

Axborot-kutubxona faoliyati, hujjatlashtirilgan axborotga bo'lgan jamiyat va individual talablarni qondirish bilan bog'liq bo'lgan kutubxona resurslarini rivojlanishini xarakterlaydi, ularni zamonaviy va kelgusi muammolarining harakatini, rivojlanishini ta'minlaydi. Kutubxonachilik resurslarini quyidagi asosiy xarakteristikalarini ajratish mumkin:

-turli xil va tipdagи kutubxonalar, ularni yagona kutubxonachilik tizimi sifatida faoliyat ko'rsatishini ta'minlanganligi;

-kutubxona fondlari bilan ta'minlanganligi (hajmi, sohasi, mavzusi, turi, tili va boshq. adabiyotlarni tarkibi, ularni jamiyatni axborotga bo'lgan talablariga mos kelishi);

-kadrlar bilan ta'minlanganligi (ularni umumiyligi soni, ma'lumot va kvalifikatsion tarkibi, ish staji va boshq.).

-moddiy-texnika bilan ta'minlanganligi (bino, jihozlanishi, mexanizatsiya, kutubxonachilik jarayonlarini avtomatlashtirish).

Kutubxonachilik resurslari kutubxonalarni bir - biri bilan xizmat ko'rsatish va mahsulot yaratishda munosabatlarni belgilaydi. Faqat ma'lum bir ramkadagi ichki va kutubxonalararo munosabatlar va aloqalar orqaligina axborot-kutubxona faoliyati ishlashi mumkin. Shunday qilib, axborot-kutubxona faoliyati, bu kutubxonachilik resurslari va kutubxonachilik munosabatlarini o'zaro faoliyat ko'rsatishidir.

Kutubxonachilik munosabatlari turli xil (kutubxona ichidagi, idoraviy-sohaviy, idoralalararo, xalqaro) tashkiliy, axborot, texnologik va boshqa shakldagi kutubxonachilik faoliyatlarini namoyish etadi. Bunda

kutubxonachilik resurslari qo'yilgan maqsadga ko'ra shakllanadi va qayta shakllanishi jarayoni bo'ladi. Kutubxonachilik resurslari doimiy ravishda o'zgaradi, rivojlanadi. Kutubxonachilik munosabatlari axborot-kutubxona faoliyatini nisbatan barqaror qismi hisoblanadi.

Axborot-kutubxona faoliyatini o'rganishning qiyin jihatlari birinchidan, uni ichki rivojlanish qonunlari, uni tabaqalanishini va mutaxassisliklarga ajralishini tobora chuqurlashuviga sabab bo'lsa, ikkinchidan uni integratsiyalashuvi va birlashuvi jarayonlari sabablidir. Natijada, birinchi jarayon natijasida turli xil kutubxonalar va kutubxona tarmoqlari vujudga kelsa, ikkinchi jarayon natijasida, tizimlar vujudga kelmoqda. "G'arb" kutubxonashunoslari "kutubxona tarmoqlari" va "kutubxona tizimlari" tushunchalarini bir xil deb tushunadilar. Mamlakatimiz kutubxonashunoslida esa kutubxona tarmoqlarini identifikatsiya qilishga uch xil asosiy yondoshish qabul qilingan. Ularga to'xtalib o'tamiz:

1. Kutubxona tarmoqlari, kutubxonalarning majmui sifatida. Kutubxona tarmoqlarini asosiy sinflarga ajratishning bunday yondoshish keng tarqalgan bo'lib, bunda kutubxona ma'lum bir ma'muriy xarakterga ega bo'lgan birlamchi tashkilotdir. Alovida kutubxonalarni ixtisoslashtirish va kutubxona tarmoqlarini shakllantirish, bir-biriga aloqador va bir-biriga o'zaro bog'langan jarayondir. Xalq xo'jaligidagi turli sohalarni rivojlanishi va tabaqalanishi natijasida yangi kutubxonalar paydo bo'ladi. Ularni fondlari, xizmat ko'rsatuvchi kitobxonlari va ma'lum bir axborotga bo'lgan talablarini qondirish uchun mustaqil kutubxona tarmoqlariga (muzey kutubxonalari, qamoqxonalar kutubxonasi, diniy kutubxonalar va hokazo) birlashtiriladi. Bu jarayon cheksizdir.

2. Kutubxona tarmoqlari, boshqaruvning tashkiliy qismi sifatida. Bunday yondoshuvni idoraviy deb atash mumkin. Chunki uning asosida yagona boshqaruv organi mavjud bo'lib, u idoraviy kutubxona resurslarini rivojlanishini joriy va istiqbolli rejalashtirishga operativ rahbarlikni amalga oshiradi (Masalan: Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat ishlari vazirligi va hokazo qoshidagi kutubxonalar tarmog'i).

3. Mintaqaviy belgi bo'yicha yondoshish. Xalq xo'jaligini har qanday kutubxonasi qaysidir hududda joylashgan bo'ladi. Shuning uchun aytish mumkinki, har bir kutubxona bir vaqtning o'zida ikkita tizim elementi - soha (idora) va mintaqaviy, u bilan ham, bu bilan ham

yaqin aloqada bo'ladi. Busiz hech bir kutubxona samarali faoliyat yurgiza olmaydi.

Mintaqaviy yondoshish sohaviy va idoraviy kutubxona tarmoqlarini mintaqa ichida birgalikda, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda hamkorlik qilish imkonini yaratadi. Mintaqalari bo'yicha tarmoqlarni ma'lum bir darajada shartli ravishda qabul qilish mumkin, chunki kutubxonalar o'zaro ichki aloqalari barqaror, mustahkam emas.

Axborot-kutubxona faoliyatini faqat tarmoq, idoraviy yoki mintaqa belgisi bo'yicha tashkil etish mumkin emas. Faqat uchta belgini birlashtirgan holdagini kutubxonalar o'z resurslarini kompleks ravishda va reja asosida shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Axborot-kutubxona faoliyati tuzilmasini alohida kutubxonalar tarmog'iga ajratish bilan chegaralab bo'lmaydi. Mamlakatning axborot-kutubxona faoliyati, kutubxonalar tarmog'idan tashkil topgan juda murakkab tizim bo'lib, ularni har biri mustaqil tuzilma sifatida faoliyat ko'rsatishi mumkin va ko'rsata oladi deb qarash kerak.

Idoraviy kutubxonalar tarmog'ini tuzilma sifatida emas, balki misol tariqasida texnika kutubxonalar majmuasi sifatida ko'rish mumkin. Bunday holda idoraviy texnika kutubxonalar (temir yo'1 transporti, ximiya sanoati va hokazo) texnika kutubxonalarining kichik tizimi bo'ladilar.

Texnika, akademik, oliy ta'lim kutubxonalarini tizimi va boshqa kutubxonalar bir - biri bilan ma'lum bir jihatlar bilan bog'langan. Ulardan hech biri ajralmagan holda, boshqalariga bog'liq bo'lмаган holda muvaffaqiyatli faoliyat yurita olmaydi. Chunki ular o'z kitobxonlarini axborotga bo'lgan talablarini qondirishga yetarli resurslarga ega emas.

Va nihoyat, axborot-kutubxona faoliyati avtonom emas, balki o'zidan yuqori turuvchi murakkab darajadagi jamiyatni to'liq tizimini va uni alohida soha faoliyatlarini (fan, ishlab chiqarish, madaniyat, ta'lim, ilmiy-texnika axboroti va boshqa) tizimining tarkibiy qismi (kichik tizimi) dir. Axborot-kutubxona faoliyati tizimining elementlari nafaqat bir-biri bilan, balki jamiyatning boshqa tizimlari bilan ham o'zaro aloqada bo'ladi. Axborot-kutubxona faoliyatining ular bilan aloqalari tashqi muhit hisoblanadi. Tashqi muhit ta'sirida axborot-kutubxona faoliyatida shunday jarayonlar bo'ladiki, ular kutubxonalarini o'z vazifalarini bajarish uchun imkoniyatlar yaratadi. O'z navbatida

axborot-kutubxona faoliyati ham kutubxona resurslaridan foydalangan holda tashqi muhitga ta'sir o'tkazadi.

Asosiy tamoyillar bu – axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishini rejalashtirishda amal qilinadigan boshlang'ich, asosiy g'oyalardir (qoidalar). Ular axborot-kutubxona faoliyatiga qo'yiladigan talablar: maqsadlar, mazmun, metodlar, kadrlar, tuzilmalar, kutubxona axborot-kutubxona faoliyati tizimining tashkil etish va faoliyat jarayoni bo'yicha belgilanadi.

Tamoyillar ob'ektiv ravishda faoliyat ko'rsatayotgan qonun va qonuniylatlarni natijalarini umumlashmasi bo'lib, ular boshlang'ich rahbarlik sifatida va aniq kutubxonachilik jarayonlari va hodisalarida aks etadi. Tamoyillar axborot-kutubxona faoliyati rivojlanish jarayonida o'zgaradi, lekin asosiy tamoyillar yo'qolib ketmaydi, axborot-kutubxona faoliyatining rivojlanishi sababli ba'zi jihatlari o'z ahamiyatini yo'qotishi, yangilari paydo bo'lishi mumkin.

Zamonaviy kutubxonashunoslik quyidagi asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi: axborot-kutubxona faoliyatini barcha uchun ochiqligi; kitobxonlar qiziqishi ustuvor ekanligi; axborot-kutubxona faoliyatining tizimliligi; markazlashtirish va nomarkazlashtirishning optimal qo'shib olib borilishi; axborot-kutubxona faoliyatini koordinatsiya va kooperatsiyalash; axborot-kutubxona faoliyatini davlat jamoatchilik xarakteridan iborat.

Axborot-kutubxona faoliyatini barcha uchun ochiqligi tamoyili. Axborot-kutubxona faoliyatining muxim tamoyili bilim, axborotni barcha uchun ochiqligi, ya'ni demokratik tamoyili va kutubxona resurslaridan barchani foydalanishini ta'minlash. (IFLA "Barcha uchun ochiq nashr" dasturini qabul qildi) Axborot-kutubxona faoliyatini barcha uchun ochiqligi tamoyili yagona tizim sifatida ko'rirlganda o'ziga quyidagilarni kiritadi:

- yagona kutubxonachilik xizmati ko'rsatish tizimi doirasida tashkiliy va texnologik sharoit yaratilishi asosida, mintqa bo'yicha kutubxonalarini, fondlarni, xujjat va axborotlarni hamma uchun ochiqligi;

- kutubxonalar fondidan kitobxonlarn qiziqtiruvchi xujjatlarni erkin tanlash;

- kutubxonalardan barcha grajdamlarni, ularni jinsidan, millatidan, ma'lumot darajasidan, ijtimoiy xolatidan, dunyoqarashidan va yashash joyidan qat'iy nazar teng foydalanish imkoniyati;

-xizmat ko'rsatishni komfortliligi, ya'ni so'rovlarni tez va rad etmasdan bajarish ,adabiyotlarni uyda o'qish uchun olish, nusxalarini buyurtirish, tarjima ishlari, bibliografik va faktografik talablari bajarilish;

-asosiy kutubxonachilik xizmatlarini bepulligi, kutubxona xizmatlarini huquqiy ta'minlash, axborot ochiqligi huquqi ta'minlash va boshq.

Barcha uchun ochiqlik tamoyili, avvalom bor mamlakat bo'yicha kutubxonalar sonini uzluksiz o'sib borishi va joylashtirilishi asosida amalga oshiriladi. Bunda barcha aholi yashash joyida, ish joyida, o'qish va dam olishida kutubxonalardan ularga qulay shaklda doimiy foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Haqiqiy axborotlashgan jamiyat, har bir fuqaroga qaysi joyda bo'lishidan qa'tiy nazar uning hayot faoliyati uchun zarar bo'lgan barcha axborot bilan ta'minlashni huquqiy va ijtimoiy kafilligini olishi kerak.

Kitobxonlar qiziqishini ustivorligi tamoyili. Kutubxonalar faoliyatini gumanistik yo'naltirilishi, inson shaxsini yuqori qadriyat ekanligini isbotlab beruvchi va unda qat'iy turuvchi g'oyalar tizimidan kelib chiqqan. Inson o'zini talablari va qiziqishlarini erkin ravishda rivojlantirish va amalga oshirish huquqiga egadir. Kitobxonlar qiziqishi va talablari kutubxonalar faoliyatiga baho berishning maqsadi va kriteriyasining boshlang'ich nuqtasidir.

Har bir inson madaniyatga, uning qadriyatlariga, ularni asl qiymatini anglab etishga o'z yo'li bilan keladi. Har bir individni madaniyati uni yashash tarzi, har xil sharoitlar va omillarga bog'liqdir. Har xil insonlarni bir xil iqtisodiy, siyosiy, estetik o'ylashga olib kelish kerak emas. Kitobxonlar qiziqishini turli xil bo'lishiga erishish- bu sifat jixatidan axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etishni va ish yuritishini yangi tamoyili hisoblanadi. Bu bir tomondan kitobxonga g'oyaviy va tashkiliy o'z so'zini o'tkazuvchi monopoliyali, byurokratik tizimdan voz kechish bo'lsa, ikkinchi tarafdan-kutubxona faoliyatining demokratik, gumanistik asosda shakllanishiga olib keladi.

Bu tamoyil kutubxonani kitobxon bilan muloqatida yangi an'naviy atmosferani yaratadi, xizmat ko'rsatish jarayonini demokratlashtiradi, kitobxonni kitob tanlashda va unga baho berishda erkin tanlash huquqini beradi, jamiyatni rivojlantirishni muhim muammolarini erkin, tanqidiy muhokama qila olish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Axborot-kutubxona faoliyatini tizimliligi tamoyili. Axborot-kutubxona faoliyati murakkab, dinamik tizim bo'lib o'zida quyidagilarni

namoyish etadi: a) tarkibiy qismlarni (elementlar, kichik tizimlar) bo'lishi; b) ular o'rtasidagi yaqin aloqalarni bo'lishi; v) yaxlitlik, alohida tuzilma elementlari o'rtasida o'zaro aloqa va o'zaro hamkorlikni bo'lishi; g) har bir nisbatan alohida elementni, axborot-kutubxona faoliyati uchun zarur bo'lgan vazifani bajarishini bir-biri bilan qo'shib ketishi.

Axborot-kutubxona faoliyatini bunday tushunish, uni tashkil etish, faoliyat ko'rsatish va rivojlanishiga tizimli yondoshishning zarur ekanligini bildiradi. Bu shart ikkita bir-biri bilan bog'langan zaruratni keltirib chiqaradi: mutanosiblik (mazmun, uni "qalbi", yadrosi bo'lgan tizimlilik) va rejalahtirish (shakl, tizimlilikni o'rnatish va amalga oshirish, axborot-kutubxona faoliyatining barcha darajalarida proportsiyalikni shakllantirish).

Mutanosiblik kutubxona resurslarni axborotga bo'lgan talablarga optimal mos kelishi, ongli ravishda kutubxonachilik resurslarini unga bo'lgan talabga ko'ra aniqlash va uni zarur mutanosiblikda saqlashdir. Mutanosiblik balanslashtirish bilan yaqin aloqada bog'langan bo'lib, axborot-kutubxona faoliyatini alohida elementlari o'rtasidagi ushbu vaqtdagi o'zaro bog'lanishdir. Kutubxonachilik resurslari va axborot talablari o'rtasidagi mutanosiblikni amaliy faoliyatda doimiy saqlash juda murakkab ishdir.

Tizimlilikni joriy etish avtomatik ravishda emas, balki kutubxona xodimlarini ongli faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Shuning uchun dasturlar, rejalar, kontseptsiyalar ishlab chiqiladi, axborot-kutubxona faoliyatini rejalahtirish jarayonlari amalga oshiriladi. Axborot-kutubxona faoliyati va kutubxonalarni barcha ish sikllari rejalahtirish orqali boshlanadi va u orqali yo'naltiriladi.

Har qanday rejaning asosini tashkil etadi: 1) Axborot-kutubxona faoliyatini

va uni rivojlanish tendentsiyalarini obyektiv ravishda tahlil qilish; 2) Istiqbol tizimi, ya'ni joriy etiladigan ishlar; 3) kutubxonachilik jarayonlariga ta'sir o'tkazuvchi tadbirlar va vositalar tizimi. Axborot-kutubxona faoliyatini rivojlarntirishni istiqbolli rejalahtirish va prognoz qilish - bu kutubxona tizimlari va uning elementlarini kelajakdagi bo'lishi mumkin bo'lgan holatini, alternativ yo'llari va ularni rivojlantirish muddatlarini ilmiy asosda bayon etishdir.

5. Markazlashtirish va nomarkazlashtirishning optimal qo'shib olib borilishi tamoyili. Axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyati jarayonining asosiy mazmuni kutubxonalarni

ixtisoslashtirishdir. Bunda kutubxona resurslarini turlarini shakllantirish va ulardan foydalanish, ularga mos bo'lgan axborot talablarini qondiruvchi faoliyatga bo'lish orqali amalga oshiriladi.

Kutubxonachilikni ixtisoslashtirishni uchta turi mavjud: kutubxonachilik tarmoqlarini ixtisoslashtirish, alohida kutubxonalarini ixtisoslashtirish va kutubxonani ichidagi ixtisoslashtirish. Yuqoridagi ikkita turda mustaqil kutubxona va kutubxona tarmoqlarini shakllantirish va ko'paytirish jarayoni bo'lib, aholini ma'lum bir guruhi va tashkilotlarga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'ladi. Kutubxona ichidagi ixtisoslashtirish maxsus bo'linmalar va kutubxona xodimlarini tayyorlashda o'z ifodasini topadi.

Kutubxonalarini qanchalik chuqur ixtisoslashtirish amalga oshirilsa, ular shunchalik boshqa kutubxonalar bilan o'zaro aloqada, ularga bog'lanib qoladi. Chunki alohida kutubxonalar axborotga bo'lgan talablarni to'liq qondirish uchun kutubxona resurslarini yarata olmaydilar. Shuning uchun boshqa kutubxonalar bilan birqalikda faoliyat olib borishlari uchun birlashishlari kerak.

Jahon tajribasi va respublikamizda ham keng qo'llanilgan, eng ratsional, iqtisodiy va texnologik jihatdan samarali bo'lgan, kutubxonalarini birlashtiruvchi mexanizm markazlashtirishdir. U axborot-kutubxona faoliyatini turli darajalarida va turli tashkiliy shakllarda amalga oshiriladi:

- kutubxona fondlarni komplektlashni markazlashtirish, adabiyotlarni qayta ishlashni mamlakat bo'yicha, hudud bo'yicha, kutubxona tarmoqlari bo'yicha markazlashtirish;

- standartlashtirishni amalga oshirish;

- kutubxonalar va kutubxona jarayonlarini markazlashtirilgan boshqaruvi.

Kutubxona faoliyatini nomarkazlashtirish - bu mustaqil kutubxonalar doirasida kutubxonachilik o'zini - o'zi idora qilishni rivojlantirishdir. U kutubxona va yuqori turuvchi tizim o'rtasidagi markazlashtirilgan aloqalarni buzmaydi, aksincha uni to'ldiradi. O'zini - o'zi idora qilishni rivojlantirish kutubxona mansub bo'lgan tizimning butunligi, uyushqoqligi va barqarorligini oshiradi. Lekin, mustaqillikni mutloqlashtirish yoki juda ham markazlashtirish ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish markazlashtirish va nomarkazlashtirishning ijobiy va salbiy tomonlarini ilmiy asosda o'rganishni talab etadi.

6. Axborot-kutubxona faoliyatini koordinatsiya va kooperatsiyalash tamoyili. Axborot-kutubxona faoliyatida markazlashtirish bilan mustahkam aloqada va bir-biriga bog'liqlik koordinatsiya va kooperatsiya tamoyili sifatida ko'rindi. "Koordinatsiya" atamasi mustaqil faoliyat yurituvchi bir nechta kutubxonalar (kutubxona tizimlari) o'rtasida ishlab chiqilgan va o'rnatilgan kelishuvlarni bildiradi. Koordinatsiyalash muammosi - bu umumi maqsadga ega bo'lgan kutubxonalar faoliyatini integratsiya qilish, birlashtirish muammosidir.

Koordinatsiya jarayonida kutubxonalarni umumi, bir-biriga to'g'ri keluvchi yoki to'qnashuvchi qiziqishlari, ularni o'zaro shartlari va o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi, alternativ tanlovlarni amalga oshirilishi, kelishilgan talablarni qondirilishi hisoblab chiqiladi. Koordinatsiyaning mohiyati bir tomondan, alohida kutubxona va kutubxona tarmoqlarini o'zaro ishlarni kelishib olishi bo'lsa, ikkinchi tomondan ular faoliyatini kutubxonachilik tizimining umumi maqsadlari bilan kelishishidir.

Kutubxonachilik koordinatsiyasidagi muhim masala - bu maqsadni (asosiy yo'naliishlarni) va tashkiliy shakllarni aniqlab olishdir. Kutubxonachilik koordinatsiyasidagi metodlarga, ish rejalarini kelishib olish, turli xildagi kelishuvlar, ish haqidagi axborotlarni almashish, zarur materiallar va hujjatlarni almashish, majlislar, konferentsiyalarda ishtirok etish va boshqalar kiradi.

Kutubxonachilik koordinatsiyasi tarmoq (idoraviy) va mintaqaviy tamoyil bo'yicha tashkil etiladi. Mintaqaviy tamoyilda tashkil etilishi ko'proq samara beradi.

Shunday qilib, kutubxonachilik koordinatsiyasi - bu umumi vazifalarni birgalikda hal etish uchun, uzoq vaqtga mo'ljallangan, oldindan ixtisoslashtirish asosida rejalashtirilgan kutubxonalar (kutubxona tarmoqlari) o'rtasidagi aloqalardir.

Koordinatsiyalash bilan kooperatsiyalash tamoyili uzviy bog'langan. Koordinatsiyalash kutubxonalarini faoliyat yuritishini mazmuniy tomoni bilan shug'ullansa, kooperatsiyalash uni tashkiliy tomoni bilan shug'ullanadi. Kutubxonachilik kooperatsiyalash - bu ma'lum bir hududdagi kutubxonalarning imkoniyalari va vositalari, resurslarini birlashtirgan holda shu hududda kutubxonachilik xizmatini optimal ravishda amalga oshirishni tashkil etishdir.

Turli tipdagi kutubxonalar o'rtasida birgalikda tashkilot va mutaxassislarga kutubxonachilik va axborot-bibliografik xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar tuziladi. Evropa mamlakatlari

kutubxonalar o'rtasida bunday shartnomalar faol qo'llanilmoqda. Kutubxonalarini tadtiq qilish bo'yicha Evropa ligasiga ikki yuzdan ortiq milliy, universitet, oliy o'quv yurtlari va yirik kutubxonalar birlashgan. Natijada kutubxonalar o'rtasida bibliografik va hujjatlar haqidagi ma'lumotlarni almashish, kutubxonalar va ularni fondidan bevosita foydalanish amalga oshmoqda.

Koordinatsiya va kooperatsiyaning rivojlanish darajasi, ayniqsa turli idoralarga qarashli bo'lgan kutubxonalar o'rtasidagi bunday faoliyat, axborot-kutubxona faoliyatini samarali rivojlanishining muhim omilidir.

7. Axborot-kutubxona faoliyatini davlat-jamoatchilik xarakteri tamoyili. Axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etishning asosiy tamoyillaridan biri davlat-jamoatchilik xarakteridir. Davlat o'z zimmasiga axborot-kutubxona faoliyatini strategik vazifalarini ishlab chiqishni, axborot-kutubxona faoliyatini huquqiy va me'yoriy asoslarini shakllantirish, qonun osti aktlarni tizimini yaratishni oladi. Davlat boshqaruvini qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari va boshqaruvi (markazda va joylarda) kutubxonalar tomonidan to'planadigan va taqdim etiladigan, barcha uchun ochiq bo'lgan axborot va madaniy qadriyatlarni bajarishni kafolatlaydi.

Davlat nafaqat davlat organlariga qarashli bo'lgan kutubxonalarini, balki idoralarga qarashli bo'lgan kutubxonalarini ham tugatishning aniq normalarini ishlab chiqadi. Davlat yagona umumdavlat kutubxona fondini shakllantirish va ta'minlash sharoitlarini o'z zimmasiga oladi. Unashriyotlar va kutubxonalar o'rtasidagi aloqalarni kitob savdosi tarmoqlari orqali, ya'ni kitob bozorini ratsional faoliyat ko'rsatishini ta'minlash orqali amalga oshiradi.

Davlat kutubxonalarini moddiy - texnika bazasining rivojlanishini, zarur moliyaviy qo'llashni o'z zimmasiga oladi. Davlatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashi ikkita shaklda maqsadli moliyalashtirish va byudjet uchun to'lovlardagi imtiyozlar orqali amalga oshiriladi. Davlat kutubxonalarini rivojlantirish uchun jamoat va xususiy moliyaviy manbalarni jalb etishni taqdirlaydi.

Umumdavlat miqyosida kutubxonachi kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirishni tashkil etadi, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, fakultet va malaka oshirish kurslarini yaratadi va moliyaviy ta'minlaydi. Davlat boshqaruv organlari kutubxonachilik ishi haqidagi barcha rasmiy statistika olib boradi va ularni ishonchliligi, o'z vaqtidaligi, ochiqligini ta'minlaydi.

Mamlakatimiz ijtimoiy jamiyat hayotidagi demokratiyalashtirish jarayonlari, axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishga yangi talablarni qo'yishi, axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish tizimini qayta ko'rishni talab qilmoqda. Markaziy davlat boshqaruvi sohasi o'zining ba'zi bir vakolatlarini mahalliy boshqaruv organlariga bermoqda, kutubxonalarining huquqlarini va mustaqilliklarini oshirmoqda, mehnat jamoalarini huquqlarini mustahkamamoqda, kasbiy kutubxonachilik birlashmalarini rolini oshirmoqda.

Axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirish shartlaridan biri jamoat tashkilotlari va aholini kutubxonaning kundalik faoliyatida faol ishtirok etishidir. Avvalombor, jamoatchilik tashkilotlari va fuqarolar o'z mablag'lariغا kutubxona ochish huquqlariga egadir. Kutubxonalar qoshida jamoatchilik kengashlari tashkil etish, kutubxonalar har yili kitobxonlarga qilingan ishlar bo'yicha hisobotlar berishni joriy etish kutubxonachilik ishiga jamoatchilikni jalg etishni samarali yo'llaridan biridir.

#### *Axborot-kutubxona faoliyatidagi qarama-qarshiliklar va ularni hal etish yo'llari*

Axborot-kutubxona faoliyati bugungi kunda keskin o'zgarishlar davrini kechirmoqda. Keyingi yillar mobaynida ko'plab aniq qarama-qarshiliklar va hal etilishi zarur bo'lgan muammolar yig'ilib qolgan. Ular asosan o'sib borayotgan kutubxonachilik resurslari va o'zgarmay qolayotgan kutubxonachilik munosabatlarini aniq shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Keyingisi, ma'naviy eskirganligi sababli axborot-kutubxona faoliyatini samarali rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

Axborot-kutubxona faoliyati rivojlanishining pasayishi, kutubxona tarmoqlarini tashkil etishda, fondni shakllantirish va undan foydalanishda, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda, zamonaviy axborot texnologiyalarini o'z vaqtida kutubxonachilik ishiga joriy etishda, boshqaruv metodlarini tubdan o'zgartirish, ayniqsa idoralararo darajadagi va boshqa bir bir qator negativ holatlar natijasidir.

Axborot-kutubxona faoliyatidagi muhim qarama-qarshiliklarni quyidagi holatlarda ko'rish mumkin:

- maqsadlardagi qarama-qarshiliklar (masalan, kitobxонни har tomonlama rivojlanishiga yordam berish va uni maxsus so'rovlarini qondirish; universal va maxsus kutubxonalarini rivojlanishi);

- kutubxonachilik jarayonlar mazmunidagi qarama-qarshiliklar (masalan, axborotga bo'lgan talab va kutubxona resurslari o'rtasidagi

qarama-qarshiliklar, fondni shakllantirish va undan foydalanish o'rtasidagi qarama-qarshiliklar);

-metodlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar (masalan, fondni hajmini ortib borishi va undan foydalanishni nisbatan kamayishi, ko'p aspektli axborot so'rovlari va ma'lumot-bibliografik apparati (MBA) dagi to'liq bo'limgan ma'lumotlar o'rtasidagi;

-axborotga bo'lgan talablarni qondirishni tashkiliy shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar (masalan, foydalanuvchilarni yangi talablari va kutubxonani takomillashmagan tuzilmasi, avtomatlashtirilganlik darajasi bo'yicha);

-o'sib borayotgan integratsiya jarayonlari bilan hozirda ham saqlanib qolgan kutubxonalarini idoraviy mansubligi o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.

Qarama-qarshiliklarni barcha guruhlari o'zaro aloqada va o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Ularni hal etilishi kutubxonachilikni yagona tizimini mustaxkamlashga va alohida kutubxonalarini ichki qarama-qarshiliklarini ham hal etishga yordam beradi. Axborot-kutubxona faoliyatidagi qarama-qarshiliklarni hal etishdagi asosiy mazmun, o'z xizmatini o'tab bo'lgan tuzilmalar, shakl va metodlardan voz kechish va yangi istibolli maqsadlar va shakllarni qidirib topish va ularni joriy etishdir.

Hozirgi kunda axborot-kutubxona faoliyatini kompleks rivojlantirishni ilmiy asosda tadqiq qilish vazifasi kun tartibida turibdi. Kelajakdagagi axborot-kutubxona faoliyati qanday bo'ladi degan savolga umumiy javob shunday:

Birinchidan, kutubxonachilik ishlarini mazmuni insonparvarlik qadriyatlarga asoslangan holda, kutubxonachilik resurslarini ijtimoiy va individual axborotga bo'lgan talablarni qondirishga to'liq bo'ysundirish.

Ikkinchidan, axborot-kutubxona faoliyatini intensiv usulda va ilmiy-texnika yutuqlariga mos holda rivojlantirishni amalga oshirish.

## **7.2. Axborot-kutubxona faoliyati tizimlarini obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda shakllanishi**

*Axborot-kutubxona faoliyatini tizimli rivojlanishining obyektiv xarakteristikasi*

Axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining asosida tizimli, tizimli yondoshish tamoyili yotadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarini barchasida kutubxonalar lokal,

hududiy yoki milliy darajadagi turli xil birlashmalarni tashkil etadi va ular umumlashtirilgan terminda “kutubxonachilik tizimlari” deb nom olgan.

Kutubxonachilik tizimlarini shakllantirishning asosiy metodik muammolaridan biri- ularni obyektiv xarakteridir. Obyektiv xarakter fan, ishlab chiqarishni, ta’limni, ilmiy-texnik axborotni, axborotga bo’lgan talablarni umumiyligini qonuniyatlariga ko’ra paydo bo’ladi. Umumdavlat, milliy yoki hududiy ahamiyatdagi ilmiy muammolar, umuman fanda, tabiiy, texnika va ijtimoiy fanlarda yangi qonuniyatlarni shakllanishiga olib keladi. Buni ilmiy-texnika axborotini jadal rivojlanayotganligida ko’rish mumkin.

Fanlarni integratsiyalashuvi jarayonini chuqurlashishi, o’zaro bog’langan, umumilmiy va tarmoqlararo mavzularga bo’lgan axborot talablarini mazmunini o’zgarishiga olib keladi. Fan va ishlab chiqarishning tarkibini o’zgarishi, yangi tadqiqot va texnologik metodlarni paydo bo’lishiga, mutaxassislarni kasblarida jiddiy o’zgarishlarni yuzaga keltiradi va kasbiy qayta tayyorlov ishlarini amalga oshirishga olib keladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, axborotga bo’lgan talablarni ikkinchi alohida muhim jihatni, ularni dinamikligi, doimiy rivojlanish jarayonida ekanligi, mavjudlarini kengayib borishi, yangilarini qo’shilib boruvchiligidir.

Shunday qilib, fan, ishlab chiqarish, axborot oqimlarini va unga bo’lgan talablarni umumiyligini qonuniyatlarin tahlil qilgan holda shunday umumiyligini xulosaga kelish mumkin. Zamonaviy sharoitda murakkab axborot oqimini komplektlash, tashkil etish, saqlash va ularning qidiruvini hamda kitobxonlarga zarur axborotni taqdim etishga alohida, boshqa kutubxonalar bilan aloqada bo’lmagan kutubxonalar va idoraviy kutubxonalar tarmog’i qodir emas.

Kutubxonachilik tizimlarini shakllantirishga undovchi va ularni tartibga soluvchi, bu bozor iqtisodiyoti sharoitidagi iqtisodiy munosabatlardir. O’zlarini xarajatlarini ko’paytirishlari natijasida, kutubxonalar tobora kamroq adabiyotlar xarid qilmoqda. Bunday holatdan chiqishning eng samarali usuli kutubxona resurslaridan o’zaro foydalanish uchun koordinatsiya va kooperatsiyadan foydalanishdir.

Axborot-kutubxona faoliyatini tizimli rivojlantirish kutubxonachilik munosabatlarda yangicha etiketni shakllantiradi. Muhim etik tamoyil-o’zarolik tamoyili buni ko’rsatadiki, agar kutubxona faqat o’zini qiziqishlariga ko’ra harakat qilsa, oxir oqibat yaxshi oqibatlarga olib

kelmaydi. Shuning uchun umumiylar maqsadga erishish uchun qandaydir harakatlarga bo'y sunishi kerak.

O'zbekistonda bugungi kunda 17 mingga yaqin, turli idora va vazirliklarga qarashli kutubxonalar mavjud. Mamlakatni yagona kutubxonachilik tizimiga turli vazifalarni bajaruvchi, fondini tarkibi, kitobxonlar kontingenti, idoraga qarashligi har xil bo'lган kutubxonalar va axborot-kutubxona markazlari hamda axborot-resurs markazlari kiradi.

Bularni ichida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli kutubxonalar tarmog'i eng ko'p hisoblanadi. Bu tizimga 12 ta ARMi, 199 tuman ARMi, 842 ta maktab ARMi, 8760 ta maktab kutubxonalari, 88 ta maxsus mакtablar kutubxonalari, 27 ta mehribonlik uylari-internatlar kutubxonalari va boshqalar kiradi. Ularning umumiylar fondi 41 mln.dan ortiqroq. Bunga Respublika ilmiy-pedagogika kutubxonasi va Respublika bolalar kutubxonasi fondlari ham kiradi. (Ma'lumotlarda o'zgarishlar bo'lishi mumkin)

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi tizimidagi kutubxonalar tizimi yirik ilmiy kutubxonalar tarmog'ini tashkil etadi. Unda 30 ta ilmiy-tadqiqot institutlarining kutubxonalari va O'zbekiston Fanlar Akademiyasini Fundamental kutubxonasi birlashgan bo'lib, ularning umumiylar fondi 5 mln. nusxadan ziyoddir.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tarmog'iga qarashli kutubxonalar o'quv jarayoniga xizmat ko'rsatishi bilan bir qatorda ilmiy tadqiqotlar va ilmiy kadrlar tayyorlash ishlariga ham yordam ko'rsatadi. Bu tarmoqga 64 ta oliy ta'lim muassasalarining kutubxonalari birlashgan. Ularni umumiylar fondi taxminan 12 mln. nusxani tashkil etadi. Shuningdek, 58 ta akademik litsey kutubxonalari va 1150 ta kasb-hunar kollej kutubxonalari mavjud. (Ma'lumotlarda o'zgarishlar bo'lishi mumkin)

Axborot-kutubxona faoliyati butunicha va har bir alohida kutubxona o'zaro hamkorliksiz yashay olmaydi. Kutubxonachilik tizimini tashkil etish, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi asosida, tizim yaratuvchi bosh belgi-o'zaro hamkorlik, ya'ni kutubxonalarni ma'lum bir aloqalar, munosabatlar, hamkorlikdagi ishlaridir.

O'zaro hamkorlik kutubxonalarni yaxlit tizimga bog'lab turuvchi va shu orqaligina bu kutubxonalar yaxlit tizim sifatida shakllanadi. Kutubxonalar bir-biri bilan o'zaro aloqada bo'lishi, ularni bir - biriga ta'sir o'tkazishi va ularni bu o'zaro harakatlari, axborot-kutubxona faoliyatini rivojlanishidir.

“O’zaro hamkorlik”, “o’zaro ta’sir ko’rsatish”, “o’zaro bog’liqlik”, tushunchalari ko’pincha sinonimlar sifatida qo’llaniladi. Lekin bu terminlarni ajrata olish kerak. Birinchisi umumiy bo’lib, qolganlari xususiy bo’lib, umumiy jihatni alohida tomonlarini aks ettiradi. Kutubxonalarini o’zaro hamkorligini harakatga keltiruvchi kuch, bu ularni umumiy maqsadidir. Ya’ni ularni axborotga bo’lgan talablarni imkon qadar to’liq qondirishdagi faoliyatlaridir.

Kutubxonalarini yo’nalishlar yoki ish mazmuni bo’yicha kutubxonachilik aloqalari quyidagi bo’linmalarga bo’linadi: fondni shakllantirish va undan foydalanish, kitobxonlarga xizmat ko’rsatish, ma’lumot, bibliografik, ilmiy-tadqiqot ishlari va hokazo. Ular qisman, to’liq emas, va to’liq, oddiy va murakkab bo’lishi mumkin. Kutubxonalarini o’zaro hamkorlikdagi yo’nalishlari o’zaro bog’lanmasdan rivojlanishi mumkin emas. Masalan, fondni shakllantirish bo’yicha o’zaro hamkorlikni rivojlantirish uchun, chiqayotgan, buyurtma berilgan va fondga kelgan adabiyotlar haqida yagona axborot tizimini yaratish zarur. Kutubxona fondlarini ixtisoslashtirish yig’ma kataloglarni tashkil etishni talab qiladi, u esa o’z navbatida bibliografik faoliyat bilan bog’langan va hokazo.

Hozirgi sharoitda birinchi o’rinda fondlarni shakllantirish bo’yicha o’zaro hamkorlik ishlari: komplektlashni koordinatsiya qilish, kutubxonalarning fondlari va ma’lumot apparatlari bo’yicha yo’l ko’rsatkichlarni, kutubxonalarda saqlanayotgan va obuna bo’linayotgan vaqtli matbuot asarlarini ko’rsatkichlarini nashr etish, yig’ma elektron kataloglar yaratish va boshqalar.

Kutubxonachilik aloqalari idora ichidagi va idoralararo (sohalar va sohalararo) bo’ladi. Kutubxona tizimlarini samarali faoliyat ko’rsatishi, kutubxonalarini idoralararo o’zaro hamkorligi, turli idoralarga qarashli kutubxonalarini o’zaro majburiyatları va o’zaro bog’liqliklari darajasi bilan belgilanadi. Kutubxonalarini idoralararo hamkorligi, o’z navbatida har bir idora-soha tarmoqlarini qay darajada o’z resurslarini rivojlantirganligiga va ichki o’zaro aloqani yo’lga qo’yilganligiga bog’liqdir.

#### *Axborot-kutubxona faoliyati tizimlarining yaxlitligi*

Kutubxonachilik tizimlarini muhim xususiyati - uni yaxlit tizim sifatida harakatda bo’lishidir. Kutuxonachilik tizimlarini yaxlitligida uning elementlari bir-birlariga o’zaro moslashadi, ularni harakatlari birgalikda bo’ladi, o’zlari uchun zararli bo’lmasa, bir-birlarini qiziqishlari bilan kelishadi. Shundan turli xil kutubxonachilik

jarayonlarining mosligi, kelishishlik, proportsionallik, bir-birini to'ldirib borish orqali amalga oshiriladi.

Yaxlit kutubxonachilik tizimi qarama-qarshiliklar sifatida ta'riflanadi. Chunki u bir biridan farq qiluvchi, turli xil kutubxonalar va kutubxona tarmoqlaridan tashkil topgan. Ularni har biri murakkab tuzilishga, o'ziga xos xususiyatga egadir. Kutubxonachilik tizimining elementlarini shunday har xilligi tufayli, o'zaro hamkorlik ishlari, kutubxonachilik resurslarini almashish jarayoni yuz beradi, natijada bir kutubxona o'zida yo'q bo'lgan, unga zarur bo'lgan narsani boshqasidan topadi.

Shunday qilib, yaxlit kutubxonachilik tizimi - kutubxonalar o'rtasidagi har xilliklarni yo'qotish, bir xillikka olib kelishi emas, balki u ko'p xillikni birgalikdagi holatidir. Yaxlit kutubxonachilik tizimining asosi sifatida komponentlarning o'xshashligi emas, balki ularni bir-biriga mosligi, ularni harakatchangligi, qo'shimcha bo'la olishi, bir-biriga bog'liqligi asos bo'ladi. Faqat birgalikdagi harakat tufayli, alohida kutubxonalarga va idoraviy-sohaviy tarmoqlarga xos bo'lмаган umumtizim sifati paydo bo'ladi.

Yaxlit kutubxonachilik tizimi u tashkil topgan kutubxonalar va kutubxona tarmoqlariga faol ta'sir ko'rsatadi. Natijada ular boshlang'ich komponent sifatida qandaydir ko'zga tashlanadigan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu o'zgarishlar qandaydir tashqi kuchlar ta'siri emas, balki kutubxonalarni tizimli komponenti sifatida ichki tizimidagi o'zaro harakatlarning natijasidir.

Kutubxonachilik tizimlarini yaxlitlikka aylanishi, idoraviy va idoralararo qiziqishlarni organik ravishda har bir idorani va kutubxona tizimini jamoaviy qiziqishi bilan bog'lanishiga olib keladi. Kutubxonalarni idoraviy va idoralararo qiziqishlari - bu kutubxonachilik tizimining rivojlanishi jarayonining ikkita tendensiyasidir.

### **Nazorat savollari:**

1. Kutubxonachilik tizimlarini shakllantirishning asosiy metodik muammolaridan biri - ularni obyektiv xarakteri qanday talablarni umumiyl qonuniyatlariga ko'ra paydo bo'ladi?
2. Fanlarni integratsiyalashuvi jarayonini chuqurlashishi nimaga olib keladi?
3. Qanday munosabatlar kutubxonachilik tizimlarini shakllantirishga undaydi va ularni tartibga soladi?

4. Kutubxonachilik tizimining tashkil etish, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini asosi nima?
5. Kutubxonalarni yo'naliishlar yoki ish mazmuni bo'yicha kutubxonachilik aloqalari qanday bo'limlarga bo'linadi?
6. Kutubxona tizimlarini samarali faoliyat ko'rsatishi nima bilan belgilanadi?
7. Yaxlit kutubxonachilik tizimini ta'riflang.
8. Kutubxonachilik tizimlarini yaxlitlikka aylanishi, nimalarni bog'lanishiga olib keladi?

## **8- BOB. AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI BOSHQARISH TIZIMI**

### **8.1. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish asoslari**

Axborot-kutubxona faoliyati xalq xo'jaligining tarmog'i sifatida, kutubxonachilik resurslarini va jamoatchilikni axborotga bo'lgan talablarini qondirish, kutubxonachilik resurlarini shakllantirish, joylashtirish, ularni tashkil etish va foydalanishni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy mehnatni tashkil etish bilan bog'lanadi. Bu esa boshqarishni talab qiladi.

Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish uzlucksiz ravishda, maqsadga ko'ra yo'naltirilgan, ob'ektiv ravishda shart qilib qo'yilgan jarayondir. U turli darajadagi va tipdag'i (kutubxonachilik ishini barcha jihatlari, kutubxonalar tarmog'i, kutubxonachilik birlashmalari, kutubxonalar, ular o'rtasidagi munosabatlarni) kutubxonachilik obyektlariga, ularni yaxlitliliqi va butunligini ta'minlash, oxirgi natijalarga (axborotga bo'lgan talablarni qondirish) erishishga ta'sir ko'rsatadi.

Xalq xo'jaligida bozor iqtisodiyoti munosabatlarini joriy etilishi natijasida bir qancha mutaxassislar "menejment" (inglizcha-manaqement- boshqaruv) atamasini qo'llamoqdalar. Mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan ushbu terminlar "menejment", "boshqaruv" aslida bir-biriga o'xhash emas. "Boshqaruv" termini kengroq ma'noga ega bo'lib, u inson faoliyatining turli yo'nalishlarida, sohalarida va turlarida qo'llaniladi. Menejment faqat iqtisodiy jarayonlarda boshqarishda va insonlarni iqtisodiy holatlarini tashkilot darajasida, bozor iqtisodiyoti sharoitida daromad olish maqsadida qo'llaniladi.

Axborot-kutubxona faoliyatini ilmiy asosda boshqarish, boshqaruv va kutubxonachilik faoliyatini o'zaro harakatini dialektikasidir. Bir tomonidan, boshqaruv kutubxonachilik obyektlarga maqsadli ta'sir ko'rsatish jarayoni. Ikkinci tarafdan, kutubxonachilik obyekti boshqaruvga nisbatan, asosiy tizim yaratuvchi, boshqaruvni mazmuni, vazifasi, tuzilmasi va boshqaruv metodlarini belgilovchi faktor sifatida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv tizimining barcha elementlari, kutubxonachilik tizimida ro'y beradigan jarayonlarga bog'liq holda va ularga mos bo'lishi kerak. Shuning uchun, kutubxonachilik obyektlarini samarali boshqarish uchun, ularni xarakteristikasini bilish va baholay olish, boshqaruv

obyekti sifatida uning o'ziga xos va maxsus qonuniyatlarini bilish talab etiladi.

Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish - bu murakkab tashkilotlarni o'zaro bog'langan aloqalari va vazifalarini boshqarishdir. Ular umumiy xarakteristikaga egadirlar. Boshqaruvni tashkiliy shakli va boshqaruvni amalga oshirish, avvalo kutubxona resurslarini holatini: insonlar, axborot, texnika va texnologiyani belgilash orqali amalga oshiriladi. Boshqaruv faoliyati muammosi shundan iboratki, kutubxonachilik resurslarini barcha tiplarini, kutubxonachilik jarayoniga birlashtirishdir.

Boshqaruvni vazifasi - yangiliklarni boshqarish, eskilikni yoqlashni (konservativizm) yengib o'tishga harakat qilish, kutubxonachilik tizimlarini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishidagi o'zgarayotgan sharoitlarni o'z vaqtida anglash orqali boshqarishdir.

Insonlarni boshqarish asosida ilmiy asoslangan va real kutubxonachilik siyosati yotadi. Bu siyosat mamlakatning barcha aholisiga kutubxonalardan foydalanish imkonini yaratishga qaratilgandir. Uning markazida insonning axborotga bo'lgan talablari va ma'naviy qiziqishlari turadi. Kutubxonachilik siyosati axborot-kutubxona faoliyatini ilmiy asosda rivojlanish kontseptsiyasini, zaruriy tavsiyalar, rejalar, dasturlarni ishlab chiqadi. Kutubxonachilik siyosatining maqsad va vazifalari ma'lum bir boshqaruv tuzilmasi orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda axborot-kutubxona faoliyatini boshqarishni to'rtta darjasи faoliyat ko'rsatadi: davlat, soha, mintaqaviy va kutubxona boshqaruvi.

## **8.2.Davlat boshqaruv organlari**

Davlat boshqaruvininig oliy boshqaruv organi Prezident, Oliy Majlis, hukumatdir. Ularning tuzilmalarida madaniyat ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiya va maslahatchi bo'lib, u kutubxonachilik ishi bilan ham shug'ullanadi. Davlat oliy boshqaruv organlari: davlat kutubxonachilik siyosati asoslarini belgilash, davlatning kutubxonachilik ishini rivojlantirish bo'yicha qonun hujjalari, dasturini ishlab chiqish va uni bajarilishini nazorat qilish, mulkka egalik huquqini tartibga solish, xo'jalik faoliyati asoslari, davlat byudjetini shakllantirish, soliqlarni belgilash va hokazo.

Vazirlar Mahkamasi Prezident farmonlarini va Oliy Majlisning qonuniy aktlarini aniqlashtiradi va amalga oshiradi. Uning vazifasiga:

- kutubxonachilik ishining strategik vazifalarini belgilash;
- kutubxonachilik ishlarini rivojlantirishni kontseptsiyasi va asosiy davlat dasturini ishlab chiqish;
- kutubxonachilik faoliyatini asosiy uzoq muddatli normativlarini (standartlarini) ishlab chiqish;
- majburiy nusxa tizimini shakllantirish;
- fondlarni depozitar saqlash;
- avtomatlashgan kutubxona tizimlarini yagona tamoyillari va shakllantirish qoidalarini ishlab chiqish va joriy etish;
- aholiga kutubxonachilik xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash uchun hududlararo aloqalarni koordinatsiyalash;
- kutubxona mutaxassislariga qo'yiladigan kvalifikatsiya talablarini belgilash;
- kutubxonachi mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi o'quv yurtlari tizimini belgilash;
- kutubxonachilik statistikasini tashkil etish kiradi.

Zamonaviy sharoitda respublika boshqaruv organlarining muhim yo'naliishlaridan biri kutubxonachilik ishini zamonaviy texnika va axborot texnologiyalari bilan qayta jihozlashdir.

Kutubxonachilik ishini ikkinchi darajadagi boshqaruvi, o'zida kutubxonalar tarmog'i bo'lgan vazirliklar, idoralar, davlat qo'mitalari, departamentlar va hokazo. Ushbu darajadagi boshqaruvning maqsadi, mamlakatni kutubxonachilik ishini tarkibiy qismi bo'lgan, idoralarga qarashli kutubxonalar tarmog'ini samarali rivojlanishini ta'minlashdir. Boshqaruv bo'yicha vazifalarni har bir idora o'zining boshqaruv tuzilmasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.

### *Kasbiy boshqaruv organlari*

Kutubxonachilik ishini boshqaruv amaliyotida uchta tipdag'i koordinatsiyalash organlari vujudga kelgan: idoralararo kutubxonachilik komissiyasi va kengashlar, kutubxona-metodik markazlar va kutubxonachilik jamiyatlar va assotsiatsiyalar (uyushmalar).

Respublikamiz kutubxonachilik amaliyotida idoralararo kutubxonachilik komissiyasi va kengashlar tashkil etish bo'yicha ma'lum bir tajribalar mavjud. Respublika madaniyat ishlari vazirligi qoshida 10 yil davomida (1975-1985 yillarda) Respublika idoralararo kutubxonachilik komissiyasi faoliyat ko'rsatgan. Unga hukumat tomonidan kutubxonachilik siyosatini yurgizish va barcha tipdag'i kutubxonalar faoliyatini koordinatsiyalash bo'yicha katta huquqlar

berilgan. Shu bilan birga 1969 yilda Madaniyat ishlari vazirligi qoshida Idoralararo kutubxonachilik kengashi ham tashkil etilgan edi. Keyinchalik u Respublika idoralararo komissiya tarkibiga, keyinchalik esa A.Navoiy nomidagi davlat kutubxonasiiga o'tkazildi. Idoralararo kutubxonachilik kengashi faoliyati respublikada turli idora va vazirliklarga qarashli bo'lgan kutubxonalarni hamkorlikda faoliyat ko'rsatishiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatdi. Xuddi shunday kengashlar barcha viloyatlarda tashkil etildi.

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda koordinatsiyalovchi vazifani bajaruvchi shunday organlar mavjud. Masalan, AQShda kutubxonalar va axborot ishlari bo'yicha Milliy komissiya va kutubxona resurslari bo'yicha Kengash mamlakatda kutubxonachilik ishlarini rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Frantsiyada Madaniyat vazirligi qoshida Oliy kutubxonachilik Kengashi faoliyat ko'rsatadi. Rossiyada ham Madaniyat ishlari vazirligi qoshida Idoralararo komissiya mavjud va u kutubxonachilik ishini axborotlashtirish Davlat dasturini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan.

Hozirgi vaqtida Respublikada Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi xuzurida "Respublika metodik Kengashi" faoliyat yuritmoqda. Uning asosiy vazifalaridan biri turli idoralarga mansub bo'lgan kutubxonalar faoliyatini koordinatsiyalash, ish tajribalarini umumlashtirish, hukumatga respublikada kutubxonachilik ishini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Boshqaruв organlari o'z faoliyatlarida tegishli sohalarni markaziy kutubxonalari - metodik markazlarga bog'langan holda ish yuritadilar. Ushbu kutubxonalar nafaqat katta, to'liq hujjat fondlariga egalik qiladilar, balki kutubxonachilik resurslarini o'zaro foydalanishlarini ham tashkil etadilar. Masalan, kutubxona fondini komplektlashni, yig'ma kataloglar va avtomatlashgan ma'lumotlar bazalarini yaratish, kutubxonalararo abonnement faoliyati, depozitar saqlash, kutubxonalarga metodik yordam berish va boshqa ishlar bo'yicha kutubxonalar faoliyatini koordinatsiyalaydi.

Hozirgi davrda kutubxona metodik markazlar boshqarish sohasida yangi kiritilgan tartib qoidalarni joriy etishni tashkilotchisi sifatida, kutubxonalarga kutubxonachilik fani va amaliyotida erishilgan eng yaxshi yutuqlarni o'zlashtirishi va joriy etishda amaliy yordam ko'rsatmoqdalar.

Barcha darajadagi markaziy kutubxonalarning faoliyatlarini muhim qismini quyidagilar tashkil etadi:

- kutubxonachilik ishining asosiy yo'nalishlarini istiqbollashtirish;
- dolzarb muammolarni hal etishni tashkil etish;
- me'yoriy va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish;
- mamlakatda va xorijiy mamlakatlardagi kutubxona-axborot fani va amaliyotida erishilgan yutuqlar haqida axborot berish;
- kutubxonachi mutaxassislarni uzlusiz malakasini oshirishni tashkil etish va hokazo.

Hozirgi davr barcha darajadagi markaziy kutubxonalarni o'zaro yaqin aloqada hamkorlik qilish, faoliyatlarini koordinatsiyalashni talab qilmoqda. Bu masalani hal etish uchun kutubxona - metodik markazlarini konsalting, konsortsium va boshqa shakldagi birlashmalar yaratilmoqda. Lekin, markaziy kutubxonalarga qo'yilayotgan katta ma'suliyatlar yuklanayotgan bir davrda, ularni vakolatlari, moddiy-texnika va shtat imkoniyatlari chegaralangan. Bu muammo kutubxonachilik ishini boshqaruv organlari tomonidan zudlikda hal etilishi zarur.

Kutubxonachilik ishini samarali boshqarishni tashkil etishga, kutubxonachilarni ko'ngilli ravishdagi kutubxonachilik birlashmalari va assotsiatsiyalar ko'maklashadilar va yordam ko'rsatadilar. Kutubxonachilik birlashmalari va assotsiatsiyalari, kutubxonachilarni huquqiy, ijtimoiy, kasbiy va iqtisodiy qiziqishlarini himoya qilish maqsadida birlashtirish vazifasini bajaradi. Shuningdek ular, kutubxonachilik faoliyatini koordinatsiyalash, idoralararo to'siqlarni bartaraf etish, turli tipdag'i kutubxonalarni tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish, aholini o'sib borayotgan turli xil ma'naviy talablarini qondirish uchun yangi xizmatlar joriy etish, kutubxonalarni moddiy-texnika bazalarini yangilash, kutubxonachi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha yo'nalishlarni belgilash va boshqalarni amalga oshirish ishlarini ham amalga oshiradilar.

Kasbiy kutubxonachilik birlashmalari va assotsiatsiyalari, kutubxonalarni o'z-o'zini boshqarish organlari sifatida, kutubxonachilik ishini boshqarishda davlat va jamoatchilik (jamiyat) manfaatlarini birga qo'shish, kollegiallik (bamaslahatli) va kasbiy manfaatdorlik, ularni a'zolarini boshqaruv jarayonida ishtirok etishi, kutubxonachilarni qarorlar ishlab chiqarishda va uni joriy etishga jalb qilish ishtirokini ta'minlaydi.

Xalqaro miqyosda bu ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirda "Kutubxonachilik assotsiatsiya va tashkilotlarining xalqaro federatsiyasi

(IFLA) ga 170 ta assotsiatsiya a'zo bo'lib kirgan. Bu assotsiatsiyalarga turli tipdagi kutubxonalar, axborot muassasalari, nashriyotlar va kitob savdosi tashkilotlari birlashganlar. Shuningdek Federatsiya dunyoning 100 dan ortiq mamlakatning 1800 dan ortiq milliy assotsiatsiyalarini qamrab olgan. Xorijiy mamlakatlardagi bu tajriba bizda ham shunday birlashmalarni tashkil etish zaruriyatini ko'rsatdi.

2000 yili 20 sentyabrdan O'zbekiston kutubxonachilik assotsiatsiyasi tashkil etildi. U jamoatchilik tashkiloti bo'lib, O'zbekiston kutubxonachilarini qiziqishlarini davlat, hudud va xalqaro darajalarga olib chiqishga qaratilgan uyushma edi. Assotsiatsiyaning maqsadi O'zbekistonda kutubxonachilik ishini rivojlantirish maqsadida jamoachilik birlashmalari va mehnat jamoalarini harakatlarini birlashtirish, ularni koordinatsiyalash va qo'llab-quvvatlashdan iborat edi. O'zbekiston kutubxonachilik assotsiatsiyasiga qisqa vaqt mobaynida 29 ta kutubxona va assotsiatsiya birlashdi. Assotsiatsiya boshchiligida "Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonun", "2010 yilgacha respublikada kutubxonachilik ishini rivojlantirish Kontseptsiyasi va Dasturi" loyihasi, shuningdek uchta xalqaro konferentsiyalar: Central Asia (1999 y. - Samarkand sh., 2002y. – Buxara sh, 2004y. - Tashkent sh.) "Fan, madaniyat, ta'lim va biznesda Internet va kutubxona-axborot resurslari" tashkil etildi. Lekin, keyinchalik assotsiatsiya ba'zi bir sabablarga ko'ra o'z faoliyatini to'xtatdi.

Hozirgi sharoitda kutubxonachilik ishini boshqarish tizimini takomillashtirish zaruriyatga aylanib bormoqda. Kutubxonaning ichki, idoraviy-tarmoq, hudud va davlat boshqaruvi tizimida o'zaro bog'liq tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yuqorida qayd etilgan boshqaruv turlarini hech qaysisi alohida, boshqalarga bog'lanmagan faoliyat yurita olmaydi. Shuning uchun boshqaruvni bu jihatlarini kompleks hisobga olgan holda va ularga tizimli yondoshish zarur.

Umumnazariy jihatdan kutubxonashunoslik fanini bosib o'tgan yo'llarini va rivojlanishini o'rghanish, quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi.

1.Qadimgi dunyoda kutubxonachilik g'oyalari sifatida paydo bo'lган kutubxonashunoslik oxirgi ikki yuzinchi yillarda, kutubxonachilik amaliyotining talablaridan kelib chiqib mustaqil, ijtimoiy sikldagi asosiy qarashlarga ega bo'lган yetuk ilmiy fanga aylandi. Kutubxonashunoslik fani kutubxonachilik ishi haqidagi nazariy bilimlar tizimini rivojlanishini o'rGANUVchi fandir.

2.Kutubxonashunoslikni mustaqil fan sifatida tan olinishi, uni predmetini aniqlash bilan bog'liq masalalarni hal etish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ko'plab nazariy qiyinchiliklarni yengib o'tish natijasida, o'zini tub mohiyatini oxir-oqibat axborot degan pozitsiyada qoldi.

3. XX asrning ikkinchi yarmida kutubxonashunoslikni o'ziga xosligi uning tuzilmasida, maxsus bo'lim umumiy kutubxonashunoslikni paydo bo'lishi bo'lsa, XX asrning oxirlariga kelib, umumiy kutubxonashunoslikning tuzilmasida yangi bo'linma-kutubxonashunoslikning nazariy asoslari shakllana boshlandi. Ushbu bo'linma o'zining potentsiali bo'yicha keyinchalik kutubxonashunoslikning xususiy metodologiyasi sifatida shakllanishiga olib kelish ehtimoli bor.

4.Kutubxonashunoslik nafaqat tartibga solingan, sistemalangan bilimlar majmuasi, balki dinamik ravishda rivojlanuvchi tizimdir. U barcha fanlar kabi, bir tarafdan doimiy ravishda bilimlar bilan yangilanib boradi, ikkinchi tarafdan esa, eskirganlarini yo'qotib boradi. Shuning uchun ham u printsipial jihatdan ochiq tizim bo'lib, yangi ilmiy jihatdan asoslangan g'oyalarni cheklanmagan miqdorda qabul qiladi. Kutubxonashunoslikda turg'unlik holati nisbiy bo'lib, dinamik holati, rivojlanishi o'zgarmasdir.

5. Zamonaviy kutubxonashunoslikning umumiy tendentsiyasi uning g'oyaviy-nazariy mazmunida, ushbu ijtimoiy va texnik hodisalarini, jumladan amaliyotga axborot industriyasi erishgan yuqori texnologiyalarini joriy etish, milliy va planetar axborot infrastrukturasini, har tomonlama va chuqur axborotlashgan jamiyat yaratish aks ettirishni kuchaytirishdir. Bu esa o'z navbatida kutubxonalarini, kutubxonachilik ishini, kutubxonachining mehnatini chuqur sifat o'zgarishlariga olib keladi. Shunga ko'ra kutubxonashunoslikning tub nazariy masalalar bo'yicha pozitsiyasi ham o'zgaradi.

O'zbekistonda axborot-kutubxona faoliyatini asosiy tamoyillar-kutubxonachilik tizimlarini shakllanishi qonuniylari va boshqaruvin tizimining takomillashtirishi asosida rivojlanmoqda. Kelgusidagi axborot-kutubxona faoliyatining asosiy o'ziga xosligi:

Birinchidan, axborot-kutubxona faoliyati mazmunini insonparvarlik qadriyatlariga yo'naltirgan holda, kutubxonachilik resurslarini ijtimoiy va yakka tartibdagi axborotga bo'lган talablarga to'liq bo'ysundirish, kitobxonga axborot tanlashga to'liq imkoniyat berishi kerak.

Ikkinchidan, axborot-kutubxona faoliyati rivojlanishi jadallik bilan, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga moyillikda bo'lishi kerak. Axborot-kutubxona faoliyati kelgusida, mamlakatni turli chekkalaridagi jamoa va yakka abonentlarga, avtomatlashgan kutubxona-axborot tizimlarining ma'lumotlar bazasidan turli xil zarur axborotlarni, kitobxonga qulay shaklda yetkazib bera oladigan tizim sifatida faoliyat yuritadi.

Axborot-kutubxona faoliyati takomillashtirishning bosh yo'li-koordinatsiya va kooperatsiyani yanada rivojlantirish. Yana bir yo'li, axborot-kutubxona faoliyatida, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos ravishda yangi iqtisodiy baza yaratishdir. Hayot kutubxononalarga o'z faoliyatlarida iqtisodiy metodlardan foydalanishni, boshqarishni doimiy o'zgarib boruvchi sharoitlarga moslashgan holda amalga oshirishni taqozo qilmoqda.

### **Nazorat savollari:**

1. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish nima?
2. Kutubxonachilik obyektlarini samarali boshqarish uchun nimalarni bilish kerak?
3. Boshqaruvning vazifasi nimalardan iborat?
4. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish nima?
5. Kutubxonachilik obyektlarini samarali boshqarish uchun nimalarni bilish kerak?
6. Respublikamiz kutubxonachilik amaliyotida idoralararo kutubxonachilik komissiyasi va kengashlar tashkil etilishi va faoliyati tarixi.
7. Hozirgi davrda kutubxona metodik markazlar nima vazifani bajaradi?
8. Kasbiy kutubxonachilik birlashmalari va assotsiatsiyalarini maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni //Xalq so'zi-2011.14 aprel.
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017yil 21 fevraldag'i nutqi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob

mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar» dasturi to'g'risida Qarori 2017-yil, 13-sentyabr - (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 38-son, 1029-modda)

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси аҳолисига ахборот-кутубхона хизмати қўрсатишни янада такомиллаштириш тўғрисида"ги ПҚ-4354-сонли қарори.- 2019 йил 7 июнь.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017.

6. "Axborotlashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni. 11.12.2003 у 560-11 // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 у 6- son

7. "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" 2006 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi-2006.-20 iyun.

8. Oxunjonov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarix:-1-qism Darslik / E.Oxunjonov; Ma'sul muharrir A.O.Umarov;.-Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.

9. Oxunjonov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / E.Oxunjonov; Ma'sul muharrir A.O.Umarov;.-Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.

10. Esimov.T. В О'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi. -Т.:1994.-74 b.

11. Qosimova O., Esimov T. Umumi kutubxonashunoslik.-Т.: O'qituvchi, 1994.-272 b.

12. Коваленко А.П., Умаров А.А., Расулов М.М. Основы библиотековедения: Учеб.пособ.для студентов библиотечных факультетов.-Т.: Изд-во НБ. Узбекистана им.А. Навоий, 2008.- 130 с..

13. Карташов Н.С., Скворцов В.В. Общие библиотековедение: Учебник 1 част.-М.: Изд-во МГУК, 1996-1997. Ч.1.-88 с., Ч.2.-256 с.

14. Axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari ishini tashkil qilish.-Т.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.-B.3-68.

15. Maminova I.Z. Respublika axborot-kutubxona tizimi: rivojlanishning yangi shakllari // Fan, ta'lim, madaniyat va biznes

sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydlanish: Konfirentsiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.-B.16-22.

16. Narzullayev T. O'zbekistonda kutubxonachilik ishini rivojlantirishni ayrim yo'naliishlari // Central Azia-2006: Fan, ta'lif o'naliishlari/ Central Azia-2006: fan ta'lif, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydlanish: Konferentsiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.- B.200-207.

17. Umarov A. Mamlakat kutubxonachiligi islohatlar yo'lida: muammo va yechimlar// Central Azia-2006: Fan, ta'lif, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydlanish: Konferentsiya materiallari.-Urganch-Xiva, 2006.-B. B.10-16.

18. Ванеев А.Н. Развитие библиотековедческой мысли. М.: 1980.-232с.

19. Крейденко Б.С. Библиотечные исследования. Научные основы: Учеб.пособие.-М.: 1983. - 142с.

20. Столяров Ю.Н. Библиотека: Структурно-функциональный подход.-М.:1981. -255с.

21. Суслова И.М. Стратегическое управление библиотечной деятельностью: Учеб.пособие /МКРФ; РИПРКТ.-М.: 1998.-60с.

22. Управление современной библиотекой: Настольная книга менеджера.-М.: ОГИ, 1999.-128с.

23. Шира Д.Х. Введение в библиотековедение: Основные элементы библиотечного обслуживания.-М., 1983.-256с.

24. Алтухова Г.А. Профессионалная этика библиотекаря / Учебное пособие.-2-э изд.испр.и доп.-М.:Изд-во МГУК: Профиздат, 2000.-103 с.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНинг ҚОНУНИ  
АХБОРОТ-КУТУБХОНА ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДА**

Қонунчилик палатаси томонидан 2011 йил 4 мартда қабул қилинган  
Сенат томонидан 2011 йил 25 мартда маъқулланган

**1-боб. Умумий қоидалар**

**1-модда. Ушбу Қонуннинг мақсади**

Ушбу Қонуннинг мақсади ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

**2-модда. Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун  
хужжатлари**

Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун хужжатлари ушбу Қонун ва бошқа қонун хужжатларидан иборатdir.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида Ўзбекистон Республикасининг ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун хужжатларида назарда тутилганидан бошқача қоидалар белгиланган бўлса, халқаро шартнома қоидалари қўлланилади.

**3-модда. Асосий тушунчалар**

Ушбу Қонунда қуидаги асосий тушунчалар қўлланилади:

**ахборот-кутубхона ресурси** - моддий обьектда матн, овозли ёзув ёки тасвир тарзида қайд этилган ҳамда идентификациялаш, сақлаш ва фойдаланишни таъминлаш учун реквизитларга эга бўлган ахборот;

**ахборот-кутубхона фаолияти** - ахборот-кутубхона муассасаларининг ахборот-коммуникация технологиялари асосида ахборот-кутубхона фондларини шакллантириш ва ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни ташкил этиш бўйича фаолияти;

**ахборот-кутубхона фонди** - тизимлаштирилган ахборот-кутубхона ресурсларининг мажмуи;

**ахборот-кутубхона хизмати** - фойдаланувчиларнинг ахборот-кутубхона ресурсларидан фойдаланишини таъминлаш;

**йиғма электрон каталог** - ахборот-кутубхона муассасаларининг электрон каталоглари мажмуи;

**фойдаланувчи** - ахборот-кутубхона хизмати кўрсатилиши учун ахборот-кутубхона муассасасида рўйхатга олинган шахс;

**электрон каталог** - тизимлаштирилган ахборот-кутубхона ресурслари рўйхатининг электрон шакли;

**электрон кутубхона** - ахборот-кутубхона фондининг электрон шакли.

#### **4-модда. Ахборот-кутубхона фаолиятининг асосий вазифалари**

Ахборот-кутубхона фаолиятининг асосий вазифалари қўйидагилардан иборат:

фойдаланувчиларнинг ахборот-кутубхона ресурсларидан фойдаланишини таъминлаш;

фойдаланувчиларнинг интеллектуал, маънавий-ахлоқий, маданий ва таълим олиш эҳтиёжларини қаноатлантириш учун шарт-шароитлар яратиш;

миллий маданиятни тиклашга ва янада ривожлантиришга кўмаклашиш, маданий мерос объектларини сақлаш;

ахборот-коммуникация технологиялари асосида ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланишини таъминлаш.

#### **2-боб. Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасининг давлат томонидан тартибга солиниши**

#### **5-модда. Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат бошқаруви**

Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат бошқаруви Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ва у ахборот-кутубхона фаолияти соҳасида маҳсус ваколат берган давлат органи (бундан буён матнда маҳсус ваколатли давлат органи деб юритилади) томонидан амалга оширилади.

#### **6-модда. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги ваколатлари**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат сиёсатининг амалга оширилишини таъминлайди;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат дастурларини тасдиқлайди;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги норматив-хукуқий ҳужжатларни қабул қиласди;

ахборот-кутубхона муассасаларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш тартибини белгилайди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

### **7-модда. Махсус ваколатли давлат органи**

Махсус ваколатли давлат органи:

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат сиёсатининг амалга оширилишида иштирок этади;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат дастурларини ишлаб чиқади ва амалга оширади;

ахборот-кутубхона муассасалари фаолиятини мувофиқлаштиради;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги норматив-хукуқий ҳужжатлар ва норматив ҳужжатларни ишлаб чиқади ҳамда қабул қиласиди;

ахборот-кутубхона ресурсларини ноёб ва алоҳида қимматли ахборот-кутубхона ресурслари сирасига киритиш тартибини, шунингдек уларни сақлаш ва улардан фойдаланиш тартибини белгилайди;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасида кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишни ташкил этади;

ахборот-кутубхона муассасаларининг ҳисобини юритади;

йиғма электрон каталогни шакллантириш ва юритиш тартибини тасдиқлади.

Махсус ваколатли давлат органи қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

### **8-модда. Ахборот-кутубхона муассасаларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш**

Ахборот-кутубхона муассасаларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш:

уларнинг молиявий ва моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;

ахборот-кутубхона фаолиятини ривожлантиришга инвестициялар жалб этиш;

ахборот-кутубхона фаолиятини амалга оширишда солик имтиёzlари ва бошқа имтиёzlарни белгилаш орқали амалга оширилади.

### **3-боб. Ахборот-кутубхона тизими**

### **9-модда. Ахборот-кутубхона тизими ҳамда ахборот-кутубхона муассасаларининг турлари**

Ахборот-кутубхона тизими ягона ташкилий ва услубий таъминот асосида фаолият кўрсатувчи ахборот-кутубхона муассасалари мажмуидир.

Ахборот-кутубхона муассасаси мустақил муассаса бўлиши ёхуд корхона, муассаса ёки ташкилотнинг таркибий бўлинмаси бўлиши мумкин.

Ахборот-кутубхона муассасаларига қуидагилар киради:

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси;  
ахборот-кутубхона марказлари;  
ахборот-ресурс марказлари;  
давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг кутубхоналари;  
бошқа кутубхоналар (фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органларининг, нодавлат нотижорат ташкилотларининг, тижорат ташкилотларининг кутубхоналари).

Ахборот-кутубхона муассасалари ахборот-кутубхона фондларининг мазмuni ва белгиланган мақсадига кўра универсал ҳамда маҳсус ахборот-кутубхона муассасаларига бўлинади.

Универсал ахборот-кутубхона муассасалари ахборот-кутубхона фондларини билимнинг турли соҳалари бўйича шакллантиради ва турли тоифадаги фойдаланувчиларнинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини қаноатлантиради.

Маҳсус ахборот-кутубхона муассасалари ахборот-кутубхона фондларини билимнинг бир ёки бир неча турдош соҳалари бўйича шакллантиради ва айрим тоифадаги фойдаланувчиларнинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини қаноатлантиради.

## **10-модда. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси**

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси миллий ва жаҳон маданиятини, фани ва таълимини ривожлантириш манфаатларини кўзлаган ҳолда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона фаолиятини ташкил этувчи ҳамда амалга оширувчи умумдавлат универсал ахборот-кутубхона муассасасидир.

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси:

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этади;

ахборот-кутубхона фондини шакллантиради, унинг бутсақланишини таъминлайди ҳамда фойдаланувчиларга миллий ва хорижий нашрларнинг энг тўлиқ тўпламини тақдим этади;

Ўзбекистон Республикасида чиқариладиган нашрларнинг мажбурий нусхасини, шунингдек диссертацияларнинг кўчирма нусхасини олади;

Ўзбекистон Республикасида чиқариладиган нашрларнинг давлат библиографик ҳисобини юритади;

электрон кутубхона ва электрон каталогни шакллантиради;

кутубхонашунослик, библиографияшунослик ва китобшунослик соҳасида илмий-тадқиқот ҳамда илмий-услубий фаолиятни амалга оширади ва мувофиқлаштиради;

ноёб ва алоҳида қимматли ахборот-кутубхона ресурсларини бут сақлаш, консервациялаш ва реставрация қилиш бўйича ишларни амалга оширади;

йиғма электрон каталогни шакллантиради ва юритади;

ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратади;

бошқа ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширади.

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

Ўзбекистон Миллий кутубхонасининг ахборот-кутубхона фонди давлат мулкидир.

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси тўғрисидаги **НИЗОМ** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

## **11-модда. Ахборот-кутубхона марказлари**

Ахборот-кутубхона марказлари Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида ахборот-кутубхона фаолиятини ташкил этувчи ҳамда амалга оширувчи универсал ахборот-кутубхона муассасалариdir.

Ахборот-кутубхона марказлари:

ахборот-кутубхона фондини шакллантиради ва унинг бут сақланишини таъминлайди;

электрон кутубхона ва электрон каталогни шакллантиради;

тегишли ҳудудда чиқариладиган нашрларнинг мажбурий нусхасини олади;

библиографик, илмий-услубий ва маданий-маърифий ишларни бажаради;

тегишли ҳудудда ахборот-кутубхона муассасалари фаолиятини мувофиқлаштиради ва уларни ташкилий-услубий жихатдан таъминлашни амалга оширади;

йиғма электрон каталогни шакллантиришда иштирок этади;

ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланиш учун шарт-шароитлар яратади;

бошқа ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширади;

тегишли ҳудудда ахборот-кутубхона муассасаларининг депозитар сақланадиган ахборот-кутубхона ресурсларини тўплашни амалга оширади ва уларнинг ҳисобини юритади.

Ахборот-кутубхона марказлари қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

Ахборот-кутубхона марказларининг ахборот-кутубхона фонди давлат мулкидир.

Ахборот-кутубхона маркази тўғрисидаги намунавий низом Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

## **12-модда. Ахборот-ресурс марказлари**

Ахборот-ресурс марказлари давлат таълим муассасалари хузурида ташкил этилган, ўқувчи ёшларнинг, шунингдек аҳолининг ахборотга бўлган эҳтиёжларини қаноатлантиришга қаратилган ахборот-кутубхона фаолиятини амалга оширувчи универсал ахборот-кутубхона муассасаларидир.

Ахборот-ресурс марказлари:

таълим муассасасининг ихтисослашувига мувофиқ асосан илмий-таълимга оид мазмундаги ахборот-кутубхона фондини шакллантиради ва унинг бут сақланишини таъминлайди;

электрон кутубхона ва электрон каталогни шакллантиради;

ўзидалини ва ўзидалини узоқдаги ахборот ресурсларидан фойдаланиш асосида маънавий бой ва баркамол шахсни ижодий ривожлантириш учун имконият яратган ҳолда, фойдаланувчиларни маданий мерос объектларидан баҳраманд этади;

ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланишини таъминлайди;

бошқа ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширади;

йиғма электрон каталогни шакллантиришда иштирок этади;

маданий, таълим, ахборот дастурлари ва лойиҳаларини ҳамда бошқа дастурлар ва лойиҳаларни биргаликда амалга ошириш учун таълим, илмий муассасалар ва архивлар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, миллий маданият марказлари ва бошқа ташкилотлар билан ҳамкорликни ривожлантиради.

Ахборот-ресурс марказлари қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

Ахборот-ресурс марказларининг ахборот-кутубхона фонди давлат мулкидир.

Ахборот-ресурс маркази тўғрисидаги намунавий низом Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланади.

### **13-модда. Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг кутубхоналари**

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг кутубхоналари қонун ҳужжатларида белгиланадиган тартибда ахборот-кутубхона фаолиятини амалга оширувчи маҳсус ахборот-кутубхона муассасаларидир.

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг кутубхоналари:

ахборот-кутубхона фондини шакллантиради ва унинг бутсақланишини таъминлайди;

электрон кутубхона ва электрон каталогни шакллантиради;

ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланишини таъминлайди;

бошқа ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширади;

йиғма электрон каталогни шакллантиришда иштирок этади.

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари кутубхоналарининг ахборот-кутубхона фонди давлат мулкидир.

Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларининг кутубхоналари тўғрисидаги низомлар ушбу органларнинг раҳбарлари томонидан тасдиқланади.

### **14-модда. Бошқа кутубхоналар**

Бошқа кутубхоналар ўз муассислари томонидан белгиланадиган тартибда ахборот-кутубхона фаолиятини амалга оширувчи универсал ёки маҳсус ахборот-кутубхона муассасаларидир.

Бошқа кутубхоналар:

ахборот-кутубхона фондини шакллантиради ва унинг бут сақланишини таъминлайди;

электрон кутубхона ва электрон каталогни шакллантиради;

ахборот-кутубхона ресурсларидан ўзаро фойдаланишини таъминлайди;

бошқа ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликни амалга оширади;

йиғма электрон каталогни шакллантиришда иштирок этади.

Бошқа кутубхоналарнинг ахборот-кутубхона фонди уларнинг муассислари мулкидир.

Бошқа кутубхоналар тўғрисидаги низомлар уларнинг муассислари томонидан тасдиқланади.

### **15-модда. Ахборот-кутубхона муассасаларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш**

Ахборот-кутубхона муассасаларини ташкил этиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш қонун хужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

#### **4-боб. Ахборот-кутубхона фонди**

#### **16-модда. Ахборот-кутубхона фондини шакллантириш**

Ахборот-кутубхона фондини шакллантириш ахборот-кутубхона муассасасининг мақсадлари ва вазифаларига мувофиқ уни жамлаш, ҳисобга олиш, ишловдан ўтказиш, жойлаштириш ва сақлаш орқали амалга оширилади.

#### **17-модда. Ахборот-кутубхона фондини жамлаш**

Ахборот-кутубхона фонди нашрларни ва бошқа ахборот-кутубхона ресурсларини сотиб олиш, уларга обуна бўлиш, уларни айирбошлиш, текинга олиш, шу жумладан ҳадяга олиш ҳисобига жамланади.

#### **18-модда. Ахборот-кутубхона фондини ҳисобга олиш, ишловдан ўтказиш, жойлаштириш, сақлаш ва ундан фойдаланиш**

Ахборот-кутубхона фондини ҳисобга олиш, ишловдан ўтказиш, жойлаштириш, сақлаш ва ундан фойдаланиш қонун хужжатларида белгиланган тартибда амалга оширилади.

Ахборот-кутубхона фондининг нашрлар мажбурий нусхасини олиш ҳисобига жамланадиган, шунингдек ноёб ва алоҳида қимматли ахборот-кутубхона ресурсларини ўз ичига олган қисми миллий маданий бойлик бўлиб, моддий маданий мерос обьекти сифатида сақланади.

Ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техника таъминоти ёмонлашувига, уларни меҳнатни мухофаза қилиш талабларига, ахборот-кутубхона фондларини сақлаш нормалари ва шарт-шароитларига мос келмайдиган биноларга кўчиришга йўл қўйилмайди.

## **5-боб. Фойдаланувчиларнинг хуқуқ ва мажбуриятлари**

### **19-модда. Фойдаланувчиларнинг хуқуқлари**

Фойдаланувчилар қуидаги хуқуқларга эга:

ахборот-кутубхона муассасаларига кириш ва ахборот-кутубхона ресурсларидан фойдаланиш;

ўз эҳтиёжларига мос тарзда ахборотни эркин танлаб олиш;

кўрсатиладиган хизматларнинг, шу жумладан пулли хизматларнинг рўйхати ҳамда уларни кўрсатиш шартлари ҳақида ахборот олиш;

сўралаётган ахборот-кутубхона ресурсларининг мавжудлиги ҳақида ахборот олиш.

Фойдаланувчилар қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа хуқуқларга ҳам эга бўлиши мумкин.

### **20-модда. Фойдаланувчиларнинг мажбуриятлари**

Фойдаланувчилар:

ахборот-кутубхона муассасаларида фойдаланиш қоидларига риоя этиши;

ахборот-кутубхона ресурсларига эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиши, уларнинг йўқолишига ёки бузилишига йўл қўймаслиги, зарар етказилган тақдирда эса белгиланган тартибда унинг ўрнини қоплаши;

ахборот-кутубхона муассасалари ишининг сифатини пасайтиришга қаратилган хатти-ҳаракатлар қилмаслиги шарт.

Фойдаланувчилар зиммасида қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа мажбуриятлар ҳам бўлиши мумкин.

## **21-модда. Жисмоний имкониятлари чекланган**

### **фойдаланувчиларга ахборот-кутубхона хизмати кўрсатиш**

Жисмоний имкониятлари чекланган фойдаланувчиларга ахборот-кутубхона хизмати кўрсатиш ахборот-кутубхона муассасаларида маҳсус техника воситаларидан фойдаланган ҳолда ахборот ёзилган маҳсус жисмларда ахборот-кутубхона ресурсларини тақдим этиш орқали амалга оширилади.

**6-боб. Ахборот-кутубхона муассасаларини молиялаштириш.  
Ахборот-кутубхона муассасаларининг бирлашмалари. Халқаро  
ҳамкорлик**

**22-модда. Ахборот-кутубхона муассасаларини  
молиялаштириш**

Ахборот-кутубхона муассасаларини молиялаштириш куйидагилар ҳисобидан амалга оширилади:

Ўзбекистон Республикасининг Давлат бюджети маблағлари; муассисларнинг маблағлари; пулли хизматлар кўрсатишдан олинадиган маблағлар; қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

**23-модда. Ахборот-кутубхона муассасаларининг  
бирлашмалари**

Ахборот-кутубхона муассасалари ахборот-кутубхона фаолиятини мувофиқлаштириш, шунингдек умумий манфаатларини ифодалаш ва ҳимоя қилиш мақсадида қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда бирлашмалар тузиши мумкин.

Ахборот-кутубхона муассасаларининг бирлашмалари:  
ахборот-кутубхона фаолиятини ривожлантиришга қўмаклашади;

ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги давлат дастурларини ишлаб чиқиш ва амалга оширишда иштирок этади;

ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш юзасидан таклифлар тайёрлайди;

ахборот-кутубхона муассасалари кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни ташкил этишда иштирок этади.

Ахборот-кутубхона муассасаларининг бирлашмалари қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа ваколатларни ҳам амалга ошириши мумкин.

**24-модда. Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги  
халқаро ҳамкорлик**

Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги халқаро ҳамкорлик Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатлари ва халқаро шартномаларига мувофиқ амалга оширилади.

**7-боб. Яқунловчи қоидалар**

**25-модда. Низоларни ҳал этиш**

Ахборот-кутубхона фаолияти соҳасида юзага келадиган низолар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

## **26-модда. Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлик учун жавобгарлик**

Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисидаги қонун ҳужжатларини бузганлиқда айбдор шахслар белгиланган тартибда жавобгар бўлади.

## **27-модда. Қонун ҳужжатларини ушбу Қонунга мувофиқлаштириш**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси:  
хукумат қарорларини ушбу Қонунга мувофиқлаштирсинг;  
давлат бошқаруви органлари ушбу Қонунга зид бўлган ўз норматив-хукуқий ҳужжатларини қайта кўриб чиқишилари ва бекор қилишиларини таъминласин.

## **28-модда. Ушбу Қонуннинг кучга кириши**

Ушбу Қонун расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

**Ўзбекистон Республикасининг Президенти И. КАРИМОВ**

Тошкент ш.,  
2011 йил 13 апрель,  
ЎРҚ-280-сон

Илова 2

## **ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АҲОЛИСИГА АХБОРОТ- КУТУБХОНА ХИЗМАТИ КЎРСАТИШНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ТЎҒРИСИДА**

Республикада ижтимоий-иқтисодий соҳани ислоҳ қилишнинг ҳозирги шароитида ахборот-кутубхона фаолиятини ривожлантиришнинг мақсад ва вазифалари мамлакатда амалга оширилаётган ўзгаришларга ва халқаро амалиётга мос бўлиши зарур. Шу муносабат билан фуқароларнинг ахборотдан эркин фойдаланиш бўйича конституциявий хукуқларини, шу жумладан миллий қадриятлар ва жаҳон маданияти, амалий ва фундаментал билимлардан баҳраманд бўлишини таъминлайдиган аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатишнинг сифат жиҳатдан янги тизимини яратиш, кутубхоналарда сақланаётган миллий маданий меросни асрраб-авайлаш ва бойитиш, ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш ҳисобига ахборот-кутубхона

муассасалари фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш устувор вазифага айланмоқда.

Бу эса, ахборот-кутубхона фаолиятига, китобхонларга хизмат кўрсатиш, фондларни тўлдириш ва сақлаш, кутубхона жараёнларини автоматлаштириш, илмий-тадқиқот ва ташкилий-услубий фаолият, кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва рағбатлантириш, халқаро ҳамкорликни кенгайтиришга жиддий таъсир кўрсатиш имконини беради.

Аҳолига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни янада такомиллаштириш, ахборот-кутубхона муассасалари фаолиятини ривожлантириш мақсадида:

1. Қўйидагилар аҳолига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни сифат жиҳатидан янада ривожлантириш соҳасидаги асосий вазифалар этиб белгилансин:

ахборот-коммуникация технологияларининг ривожланиши ва замонавий умумжаҳон тенденцияларини ҳисобга олган ҳолда ахборот-кутубхона фаолиятини ислоҳ қилиш;

аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатиш бўйича ижтимоий кафолатларни сифатли таъминлаш ҳамда замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда, ахборот-кутубхона муассасаларини ривожлантириш мақсадида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;

ҳудудларда аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатишни барқарор ривожлантиришга қўмаклашиш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, шу жумладан янги бино ва иншоотларни қуриш, мавжуд биноларни реконструкция қилиш, уларни замонавий ускуналар билан таъминлаш;

кутубхона соҳасида давлат-хусусий шерикликни, хусусий ва электрон (виртуал) кутубхоналар тармоғини ривожлантириш;

кутубхоналар фаолиятининг самарадорлигини ва фойдаланувчиларга хизмат кўрсатиш (шу жумладан, пулли хизмат кўрсатиш) тезкорлигини ошириш учун электрон китоблар тарқатишга ихтисослашган интернет-ресурслар билан ҳамкорликни кенгайтириш;

ахборот-кутубхона муассасалари хавфсизлигини ҳамда миллий ва жаҳон маданий меросининг бир қисми сифатида ахборот-кутубхона фондларининг яхши сақланишини таъминлаш;

жамиятнинг ахборот маданиятини, тарихимизга ва миллий маданиятга қизиқишини шакллантириш ва кучайтириш, мутолаа маданиятини ошириш ва тарғиб қилиш;

ахборот-кутубхона муассасаларини малакали мутахассислар билан таъминлаш.

## 2. Қуидагилар:

а) 2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш концепцияси 1-иловага мувофиқ;

б) 2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш бўйича чоратадбирлар дастури 2-иловага мувофиқ;

в) Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот-ресурс марказининг ташкилий тузилмаси 3-иловага мувофиқ;

г) Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот-ресурс марказининг (кейинги ўринларда — Миллий кутубхона) ходимлар умумий чекланган сони 227 нафардан иборат бошқарув аппарати тузилмаси 4-иловага мувофиқ тасдиqlансин.

Миллий кутубхона директорига, зарур ҳолларда, Миллий кутубхона бошқарув аппарати тузилмасига ходимларнинг белгиланган умумий сони ва меҳнатга ҳақ тўлаш фонди доирасида ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилсин.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик), Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Молия вазирлигининг Ахборот-коммуникация технологияларини ривожлантириш жамғармасига тушадиган маблағларнинг икки фоизини Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот-ресурс маркази ҳузуридаги бюджетдан ташқари Ахборот-кутубхона муассасаларини ривожлантириш жамғармасига (кейинги ўринларда — Жамғарма) ажратиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

4. Агентлик, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва Молия вазирлигининг:

Миллий кутубхона қошида 186 та туман (шахар) ахборот-кутубхона марказларини ташкил этиш, шунингдек, умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасалари қошида фаолият кўрсатаётган барча ахборот-ресурс марказларини тугатиш;

умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасаларининг тугатилаётган ахборот-ресурс марказларининг китоб фондлари ва штат бирликларини янгидан ташкил қилинаётган туман (шахар) ахборот-кутубхона марказларига бериш;

ахборот-ресурс марказларини тугатишида умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, қасб-хунар таълими муассасаларининг кутубхоналарини амалдаги нормативларга мувофиқ тегишли китоб фонди ва штат бирликлари билан бирга сақлаб қолиш тўғрисидаги таклифлари маъқуллансин.

5. Қўйидагилар янги ташкил этилаётган туман (шахар) ахборот-кутубхона марказларининг асосий вазифалари этиб белгилансин:

аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатиш учун сифат жихатидан янги ва қулай шарт-шароитлар яратиш, замонавий ахборот технологиялари асосида уларнинг илмий, таълим, ахборот ва маданий эҳтиёжларини қондириш;

аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтоҷ қатламларига ижтимоий мослашув ва реабилитация, мустақил таълим олиш ва мулокот доирасини кенгайтириш воситаси сифатида ахборотдан фойдаланиш имкониятларини яратиш;

фойдаланувчиларга ҳар қандай (босма, мультимедиа ва рақами) ташувчиларда, шу жумладан Интернет тармоғида сифатли ахборот манбаларидан фойдаланиш имкониятини яратиш;

ўз ахборот-ресурсларини яратиш ва уларни сифатли тўлдириб бориш орқали китобхонларга анъанавий хизмат кўрсатиш усулидан уларни замонавий ахборот-кутубхона хизматлари билан таъминлашга ўтиш;

аҳолига ахборот-кутубхона хизматларини кўрсатиш бўйича масофадан хизматлар кўрсатишни ривожлантириш ва модернизация қилиш.

## 6. Агентлик:

бир ой муддатда туман (шахар) ахборот-кутубхона марказларини жойлаштириш ҳамда уларни компьютер техникиси ва

бошқа турдаги оргтехника, мебель, шу жумладан маҳсус мебель, шунингдек, тегишли кутубхона ускуналари билан жиҳозлаш бўйича талабларни ишлаб чиқсин, бунда имконияти чекланган шахсларга хизмат кўрсатиш учун ўқув залларини маҳсус компьютер жиҳозлари ва бошқа қўшимча воситалар билан таъминлашга алоҳида эътибор қаратсин;

Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги билан биргаликда туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларининг Интернет тармоғига уланишини ва улар учун Миллий кутубхона электрон ресурсларидан фойдаланиш имкониятини таъминласин;

икки ой муддатда Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги билан биргаликда ахборот-кутубхона марказлари фаолиятининг регламентини ишлаб чиқсин ва тасдиқласин, бунда аҳолига куни узайтирилган тартибда хизмат кўрсатилишини кўзда тутсин;

аҳолига кўрсатиладиган пулли хизматлар (тил ўргатиш, компьютер курсларини ташкил этиш, матнли, аудио ва видеоматериаллар нусхаларини яратиш, шунингдек, бошқа кутубхона хизматлари) рўйхатини кенгайтириш орқали ахборот-кутубхона марказларининг бюджетдан ташқари даромадларини ошириш чораларини кўрсин.

7. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари:

а) Агентлик томонидан ишлаб чиқилган туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларини жойлаштириш ва жиҳозлаш талабларини ҳисобга олган ҳолда:

икки ой муддатда туманлар (шаҳарлар) марказларида туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларини жойлаштириш ва уларнинг тўлақонли фаолият юритиши учун биноларни белгиланган тартибда ажратсин;

ажратилган биноларни капитал таъмирлашни таъминласин, бунда туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларининг ўқув залларида ва бошқа умумий фойдаланиладиган хоналарида имконияти чекланган шахслар тўсиқсиз фойдаланиши учун барча зарур шароитларни яратсин, шунингдек, уларни зарур ускуна ва техника билан жиҳозласин;

б) туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларига туташ худудларни ободонлаштириш бўйича тегишли ишларни амалга

оширсин ва ушбу марказларни электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш бўйича зарур чоралар кўрсин;

в) умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг ахборот-ресурс марказларини тугатиш натижасида ишдан бўшаган ходимларни белгиланган тартибда ишга жойлаштириш чораларини кўрсин.

#### 8. Белгилансинки:

Миллий кутубхонанинг қўшимча штат бирликларини сақлаш харажатлари 2019 йилда Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети харажатлари параметрида ижтимоий соҳага мўлжалланган бюджет маблағлари ҳисобидан қопланади, 2020 йилдан бошлаб эса Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети параметрларида қўзда тутилади;

туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказларини сақлаш харажатлари туманлар ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларида умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг тугатилаётган ахборот-ресурс марказларини сақлаш учун қўзда тутилган маблағлар, шунингдек, қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади;

янги ташкил этиладиган ахборот-кутубхона марказларини кадрлар билан тўлдириш биринчи навбатда умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг тугатилаётган ахборот-ресурс марказларида фаолият кўрсатаётган малакали кадрлар ҳисобига амалга оширилади;

туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказлари биноларини капитал таъмирлаш ҳамда уларни замонавий ускуна ва техникалар билан жиҳозлашни молиялаштириш умумтаълим мактаблари ва ўрта маҳсус, касб-хунар таълими муассасаларининг тугатилаётган ахборот-ресурс марказларининг мақбуллаштирилаётган бюджет ажратмалари, туман ва шаҳарлар маҳаллий бюджетларининг прогнозни ошириб бажаришдан олинадиган даромадлари, жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари, шунингдек, қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади;

туман (шаҳар) ахборот-кутубхона марказлари кутубхона фондларини тўлдириш, шунингдек, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар ушбу мақсадлар учун ажратиладиган бюджет маблағлари, Жамғарма

маблағлари ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар доирасида амалга оширилади.

9. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги Маданият вазирлиги ҳамда Агентлик билан биргаликда кутубхоначилик иши соҳасида мутахассисларга бўлган эҳтиёжни ўрганиш асосида соҳага ихтисослашган олий ўкув юртларига «Кутубхона-ахборот фаолияти» йўналиши бўйича ўқишига қабул квоталари юзасидан Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг: вазирликлар ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари томонидан давлат органлари ва бошқа ташкилотларда, шу жумладан ҳарбий қисмларда идоравий кутубхоналарни ташкил қилиш (такомиллаштириш);

идоравий кутубхоналарнинг китоб фондини ва моддий-техника базасини яратиш, янгилаш ва тўлдиришни ушбу мақсадлар учун давлат органларига бюджетдан ажратилган маблағлар, шунингдек, бюджетдан ташқари маблағлар ва қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштириш;

Агентлик таклифлари асосида идоравий кутубхоналарнинг китоб фондини янгилаш ва тўлдириш учун зарур нашрлар рўйхатини ҳар йили шакллантириш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин.

11. Агентлик ва Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлигининг 21 майни Кутубхоначилар куни деб белгилаш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин, бунда кутубхоначиларни кўп йиллик ҳалол меҳнати ва ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришга қўшган ҳиссаси учун давлат мукофотлари билан тақдирлаш ва рағбатлантириш кўзда тутилсин.

Агентлик бир ой муддатда «Кутубхоначилар кунини белгилаш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни лойиҳасини ишлаб чиқсин ва белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига киритилишини таъминласин.

12. Агентлик манфаатдор вазирликлар ва идоралар билан бирликда икки ой муддатда қонун ҳужжатларига мазкур қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

13. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бosh вазири А.Н. Арипов, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбари З.Ш. Низомиддинов ва Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги директори вазифасини бажарувчи К.И. Алламжонов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,  
2019 йил 7 июнь,  
ПҚ-4354-сон

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги  
ПҚ-4354-сон қарорига

1-ИЛОВА

**2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш  
КОНЦЕПЦИЯСИ**

**Кириш**

2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикаси ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш Концепцияси (кейинги ўринларда — Концепция) республика ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришнинг мақсадлари, вазифалари, тамойиллари, устувор йўналишлари ва механизмларини белгиловчи қарашларнинг ягона ва бир бутун тизимини ўзида акс эттиради.

Ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришнинг мақсад ва вазифалари ижтимоий-иктисодий соҳаларни ислоҳ қилиш шароитларида мамлакатда кечеётган ўзгаришлар ва халқаро амалиётга мувофиқ бўлмоғи лозим.

2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси асосида ахборот-кутубхона фаолиятини ахборот ва рақамили технологияларни кенг жорий этиш асосида ташкил қилишга йўналтирилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини татбиқ этиш ахборот-кутубхона фаолиятига ҳар томонлама: фойдаланувчиларга хизмат кўрсатиш, фондларни жамлаш ва сақлаш жараёнлари, ахборот-кутубхона иш жараёнларини автоматлаштириш, илмий тадқиқот ва ташкилий-услубий фаолият, ахборот-кутубхона ходимларини тайёрлаш, қайта

тайёрлаш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш, халқаро ҳамкорликка таъсир кўрсатади.

Жамиятда юксак маънавий қадриятларнинг қарор топиши ахборот-кутубхона муассасалари олдига шахсга эътиборни кучайтириш, унинг умуммаданий даражасини ошириш, маънавиятини юксалтириш, одоб-ахлоқ жиҳатдан тарбиялаш каби вазифаларни қўяди.

Хозирги жамиятда ахборот-кутубхона муассасалари ахборот олиш, маданий-маърифий ва таълим муассасаси сифатида намоён бўлади.

Миллий маданиятни чукур англаш, унинг ривожи ва эволюциясини таҳлил қилишда республиканинг универсал фондга эга бўлган ахборот-кутубхона муассасалари алоҳида аҳамият касб этади. Таълим муассасалари мақомини ошириш, тармоқ илмий ахборот-кутубхона муассасаларининг илмий ва ахборот салоҳиятини, шунингдек, ахборот-кутубхона соҳасида давлат-хусусий шерикликни, мамлакатдаги хусусий ва рақамли (виртуал) ахборот-кутубхона муассасалари тармоғини ривожлантириш зарурати юзага келмоқда.

Болалар ва ижтимоий ёрдамга муҳтоҷ фуқаролар гурӯҳи (имконияти чекланган инсонлар, ногиронлиги бўлган шахслар, кўп болали оиласалар ва бошқалар) ахборот-кутубхона муассасаларининг алоҳида эътиборини талаб этади.

Мамлакатда юз берадиган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар, жаҳон ҳамжамиятига кириш, Ўзбекистоннинг халқаро обрў-эътиборининг ортиши ахборот-кутубхона муассасалари зиммасига мамлакатда бўлаётган ислоҳотларга кўмаклашиш, аҳолига тезкор ахборот тақдим этиш бўйича қатор мажбуриятларни юклайди.

Янги технологияларнинг татбиқ этилиши, ахборот-кутубхона муассасалари томонидан ахборот тарқатиш функцияларининг амалга оширилиши ҳамда ахборот олиш имкониятини таъминлаш автоматлаштириш ва компьютерлаштириш кўлами ва суръатларига боғлиқдир.

Ахборот-кутубхона соҳасини ислоҳ қилиш ахборот-кутубхона муассасалари меъёрий-ҳуқуқий базасининг заифлиги, ахборот-кутубхона фондларининг жамланиши ва техник жиҳозланиши етарли даражасида эмаслиги, ахборот-кутубхона ходимларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш ҳамда уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш даражасининг пастлиги туфайли юзага келди.

## **1-боб. Умумий қоидалар**

Ушбу Концепция фуқароларнинг ижтимоий ҳолати ва яаш жойидан қатъи назар, ахборотни эркин олиш ҳуқуқини ўрнатувчи, ахборот-кутубхона фаолиятини ҳамда маданият соҳасидаги сиёсатни тартиба солувчи меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга мувофиқ, республикада ахборот-кутубхона фаолиятини қўллаб-куватлаш ва ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тизимини белгилаш мақсадида ишлаб чиқилган.

Хозирги кунда Ўзбекистоннинг профессионал ахборот-кутубхона ҳамжамияти ахборот-кутубхона муассасаларига демократик ижтимоий-маданий институт, бугунги ахборот жамияти маданиятининг ривожи ҳамда мамлакат ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг ахборот базаси сифатида қарайди, шунингдек, ахборот-кутубхона хизмати қўрсатиш ҳолатини жамият маданияти даражасининг қўрсаткичи деб ҳисоблайди.

## **2-боб. Республикада ахборот-кутубхона фаолиятининг ҳолати**

Республикада ахборот-кутубхона фаолиятининг ҳолатини ўрганиш бўйича ўтказилган таҳлиллар замонавий талабларни ҳисобга олган ҳолда ахборот-кутубхона муассасаларининг ривожланиши, аҳолининг ахборот-кутубхона хизматларидан фойдаланишининг ижтимоий кафолатларини таъминлаш мақсадида меъёрий-ҳуқуқий базани такомиллаштириш зарурлигини қўрсатди.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасининг ахборот-кутубхона фаолиятининг қонунчилик ва меъёрий базаси қўйидагилардан иборат:

Ўзбекистон Республикасининг «Ахборот-кутубхона фаолияти тўғрисида», «Муаллифлик ҳуқуқи ва турдош ҳуқуқлар тўғрисида»ги қонулари;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 11 авгуstdаги «Матбуот ва ахборот соҳасида бошқарувни янада такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5148-сон, 2018 йил 19 февралдаги «Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5349-сон фармонлари;

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2011 йил 23 февралдаги «2011 — 2015 йилларда ахборот-коммуникация технологиялари негизида ахборот-кутубхона ва ахборот-ресурс хизматлари қўрсатишни сифат жиҳатидан янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1487-сон, 2012 йил 20 мартағи

«Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот ресурс маркази фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1729-сон, 2012 йил 21 мартдаги «Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-1730-сон, 2017 йил 13 сентябрдаги «Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида»ги ПҚ-3271-сон, 2019 йил 2 февралдаги «Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги ПҚ-4151-сон қарорлари.

Аҳолининг электрон ахборот ресурслардан фойдаланиш имкониятини кенгайтириш, ахборот-кутубхона муассасаларини бирлаштириш ва уларни ягона умумтаълим электрон кутубхона тизимига улаш, идоралараро электрон ҳамкорлик тизимини такомиллаштириш мақсадида «Миллий умумтаълим электрон кутубхона» лойиҳаси амалга оширилмоқда.

Республика ахборот-кутубхона муассасаларида босқичмабосқич замонавий ахборот ва электрон технологиялар татбиқ этилмоқда:

фойдаланувчилар учун автоматлаштирилган ишчи ўринлари сони кўпайтирилмоқда;

хусусий электрон маълумотлар базалари яратилмоқда;

фойдаланувчиларга ахборот-кутубхона хизматларининг янада сифатли янги турлари тақдим этилмоқда.

Аҳолининг ахборотга бўлган талабини қондириш учун мамлакатнинг йирик ахборот-кутубхона муассасалари виртуал маълумотлар хизматидан фаол фойдаланмоқда, маданий ҳордик ва маърифий фаолиятни ривожлантирмоқда.

Бироқ ахборот-кутубхона муассасаларини жаҳон кутубхона ҳамжамиятига интеграциялаш, фойдаланувчилар ва аҳоли билан ишлаш, шу жумладан китобхонлик маданиятини ривожлантиришнинг инновацион усусларини татбиқ этиш масалаларига етарли даражада эътибор қаратилмаяпти, шунингдек, уяли алоқа, кўплаб гаджетлар ва Wi-Fining фаол ривожланиши, электрон китоблар ва «китоб ўқиш иловалари» (book reader)

оқимининг ортиб бориши шароитларида фойдаланувчилар билан тизимли ишлар олиб борилмаяпти.

Ахборот-кутубхона муассасаларининг катта қисми замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, компьютерлар, нусха кўчириш-кўпайтириш техникаси, ёнғиндан сақлаш сигнализацияси ва ўт ўчириш, иқлиминиз назорат қилиш воситалари, телефон алоқаси билан таъминланмаган, аҳолига, айниқса ногиронлиги бўлган шахсларга ва олис, аҳолиси кам бўлган пунктларда хизмат кўрсатиш учун замонавий ускуналар мавжуд эмас.

Ахборот-кутубхона муассасаларини техник жиҳатдан қайта жиҳозлаш, янги ахборот технологияларини жорий этиш ахборот-кутубхона муассасаларига юқори малакали мутахассисларни жалб этишни тақозо этади, уларнинг меҳнат бозоридаги баҳоси эса ахборот-кутубхона муассасаларининг бугунги имкониятларидан анча баланд.

Ахборот-кутубхона муассасаларида меҳнатга ҳақ тўлаш даражасининг пастлиги, номувофиқ оғир меҳнат шароитлари ва уларга ишониб топширилган фондларни сақлаш масъулияти малакали кадрларнинг ишдан қетиши, мамлакат маданий мулкини ва интеллектуал салоҳиятини сақлаш учун хавфли ҳисобланган кадрлар қўнимсизлигини вужудга келтирмоқда.

Бўш ўринларнинг кўплиги ва ходимлар этишмаслиги ишга олинаётган ходимларга қўйилаётган талаблар даражасини пасайтиряпти, бу эса малакасиз (кўп ҳолларда мутахассис бўлмаган) ходимларга кутубхоначи лавозимига ишга жойлашиш имконини бермоқда. Бу масалаларни мақбул тарзда ҳал этиш учун ахборот-кутубхона муассасалари ходимлари меҳнатига ҳақ тўлаш ва уларни ижтимоий ҳимоя қилиш даражасини қайта кўриб чиқиш зарур.

### **3-боб. Ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришнинг мақсадлари, вазифалари ва устувор йўналишлари**

Ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришнинг устувор мақсадлари — фуқароларнинг ахборотдан эркин фойдаланиш бўйича конституциявий хукуқларини таъминловчи аҳолига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатиш тизимини ривожлантириш, миллий ва жаҳон маданий бойликлари, амалий ва фундаментал билимлар билан таништириш, шунингдек, мамлакатимизнинг

ахборот-кутубхона муассасаларида мавжуд миллий-маданий меросни сақлашдан иборат.

Ахборот-кутубхона соҳасини самарали ривожлантиришнинг стратегик мақсадларига эришиш учун қўйидаги масалаларни ҳал этиш зарур:

ахборот ва рақамли технологиялар ривожланиши ҳамда замонавий умумжаҳон тенденцияларни эътиборга олган ҳолда ахборот-кутубхона соҳасини ислоҳ қилишни жадаллаштириш;

буғунги кун талабларини ҳисобга олган ҳолда ахборот-кутубхона муассасаларининг ривожланиши, аҳолининг ахборот-кутубхона хизматларидан фойдаланишининг ижтимоий кафолатларини таъминлаш мақсадида меъёрий-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техник базасини ривожлантириш, хусусан янги бино ва иншоотлар қуриш, мавжудларини реконструкция қилиш, уларни замонавий ускуналар билан таъминлаш;

энг янги, шу жумладан, ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш, корпоратив тизимларни ривожлантириш;

ахборот-кутубхона соҳасида давлат-хусусий шерикликни, мамлакатдаги хусусий ва рақамли (виртуал) ахборот-кутубхона муассасалари тармоғини ривожлантириш;

миллий ва жаҳон маданий меросининг бир қисми сифатида ахборот-кутубхона муассасалари хавфсизлигини ва ахборот-кутубхона фондининг сақланишини таъминлаш;

жамиятнинг ахборот маданиятини, миллий тарих ва маданиятга қизиқишини шакллантириш, китобхонлик маданиятини юксалтириш ва тарғиб қилиш;

ахборот-кутубхона муассасаларини малакали ходимлар билан таъминлаш.

Белгиланган мақсад ва вазифаларни ҳисобга олган ҳолда ахборот-кутубхона соҳасининг қўйидаги устувор йўналишларини ривожлантириш зарур:

қонунчилик базасини аҳолига ахборот-кутубхона хизмати кўрсатишни ривожлантириш вазифаларига мос равища мувофиқлаштириш;

ахборот-кутубхона муассасаларини жамлаш механизмини яратиш, шу жумладан электрон ва бошқа ташувчиларда нашрлар ҳақидаги маълумотлар тизимини шакллантириш;

ахборот-кутубхона фондлари сақланишини таъминлаш;

янги ахборот технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш, миллий ахборот-кутубхона тармоғини яратиш;

замонавий ахборот-кутубхона технологиялари асосида ахборот-кутубхона кадрларини тайёрлаш, малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимини ривожлантириш;

ахборот-кутубхона хизматларининг янги, шу жумладан, пулли турларини жорий этиш ва ривожлантириш;

ахборот-кутубхона муассасалари ходимлари самарали меҳнат қилиши ва уларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш учун муносиб шароитлар яратиш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;

илмий-тадқиқот ва услубий фаолиятни ривожлантириш;

барча тизимлар ва идоралар ахборот-кутубхона муассасаларини бошқаришни мувофиқлаштириш;

халқаро ҳамкорликни ривожлантириш ва жаҳон ахборот-кутубхона ҳамжамиятига кириш.

#### **4-боб. Ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантиришнинг устувор йўналишларини ҳал қилиш бўйича асосий вазифалар**

1. Ахборот-кутубхона муассасаларини жамлаш механизмларини яратиш, ахборот-кутубхона фондлари сақланишини таъминлаш:

соҳани услубий таъминлаш ва энг янги технологияларни жорий этиш, ахборот-кутубхона фондларини сақловчи кадрлар, реставраторларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, ахборот-кутубхона фондларини сақлаш муаммолари бўйича жамоатчилик фикрини шакллантириш;

фойдаланувчиларнинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда ахборот-кутубхона фондларини шакллантиришга ёндашувларни такомиллаштириш, фондларни тўлдириш, уларни жамлаш ва кейинчалик улардан эркин фойдаланиш имкониятини таъминлаган ҳолда мажбурий нусхага эгалик ҳуқуқини белгилаш;

ахборот-кутубхона муассасаларини жамоат, тижорат ва хусусий нашриётлар нашрлари, чет элда яшаётган

ватандошларимизнинг асарлари, шунингдек, Ўзбекистон ҳақидаги чет эл нашрлари билан таъминлаш учун шароитлар яратиш, республика ҳудудида яшовчи халқлар тилларидаги адабиётлар фондларини шакллантириш;

мажбурий нусха олиш, обуна, совға қилиш, сотиб олиш, кутубхоналараро ва халқаро китоб алмашиш тизимини жорий этиш, миллий ва хорижий онлайн ва офлайн электрон ҳужжатлари билан жамлаш, «эгалик қилиш» ва «эркин фойдаланиш» ўртасида мақбул мувозанатни яратиш ва бошқалар ҳисобига ахборот-кутубхона муассасаларининг ахборот-кутубхона фондларини янгилаш;

вилоят, туман ва шаҳар даражасидаги ҳудудий ахборот-кутубхона муассасаларининг ахборот-кутубхона фондларини жамлаш, кенгайтириш, тўлдириш учун ажратиладиган маблағларни ўртача икки баробарга оширган ҳолда ахборот-кутубхона муассасалари фондига турли хилдаги ташувчилар орқали янги адабиётлар келишини таъминлаш;

нашрларга ишлов бериш ва уларни қидиришни автоматлаштириш тизимини жорий қилиш орқали ахборот-библиография фаолиятини такомиллаштириш;

йиғма электрон каталоглар, тўлиқ матнли маълумотлар базасини шакллантириш ва ахборот-кутубхона муассасаларининг Интернет тармоғига уланишини таъминлаш;

уяли алоқа воситалари орқали фойдаланувчиларга тақдим этиладиган хизматларни кенгайтириш бўйича комплекс тадбирлар ишлаб чиқиш, яратилаётган электрон ресурсларда мультимедиа контентлари улушкини ошириш ва бошқалар;

ахборот-кутубхона муассасаларида ахборот-кутубхона фондларини консервациялаш, фондлар ҳолати ва уларнинг сақланиш шароитлари мониторинги тизимини яратиш, сақлашнинг меъёрий тартибларини таъминлаш;

ҳужжатларни оммавий консервациялаш усулларини ишлаб чиқиш ва ривожлантириш, консервация жараёнларига энг янги технологияларни жорий этиш, фавқулодда вазиятлар юзага келиш ҳолатлари учун ҳаракатларни режалаштириш ва таъминлаш;

ахборот-кутубхона муассасалари ва ахборот-кутубхона фондлари хавфсизлигини таъминлаш, ахборот-кутубхона муассасалари ва ахборот-кутубхона фондлари хавфсизлиги технологиясини тартибга солувчи меъёрий-ҳуқуқий ва услубий базани ишлаб чиқиш;

ахборот-кутубхона фондларини ҳисобга олиш тизимини ривожлантириш, ахборот-кутубхона муассасалари фондларидағи барча турдаги ҳужжатларни ҳисобга олишни такомиллаштириш, ахборот-кутубхона муассасалари ҳужжатларини ҳисобга олишнинг ягона тизимини яратиш, ҳисобга олиш маълумотларига ишлов бериш ва автоматлаштирилган тарзда ишлов беришни ўзаро интеграцияловчи янги технологияларни жорий этиш, ҳисобстатистика кўрсаткичлари тизимини яратиш;

фондлар, каталогларни сақлаш ва фойдаланиш, уларнинг лозим даражада ишлиши, шунингдек, фойдаланувчиларнинг хавфсиз ва қулай тарзда муассасада бўлиши учун ахборот-кутубхона муассасаларини замонавий ускуналар билан таъминлаш.

2. Янги ахборот технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш, миллий ахборот-кутубхона тармоғини яратиш:

янги ахборот технологияларини жадал жорий этиш, шахсий компьютерлар паркини кенгайтириш, лицензияланган дастурий таъминот харид қилиш ҳисобига ахборот-кутубхона муассасалари техника базасини мустаҳкамлаш;

фойдаланувчилар учун автоматлаштирилган ўринлар сонини қўпайтириш;

фондларни, жумладан ўлкашунослик ва ноёб нашрларни рақамлаштириш;

мамлакатимизнинг барча аҳолиси ҳудудий, республика ва жаҳон ахборот-ресурсларидан масофадан туриб фойдаланиши учун имконият яратиш мақсадида ахборот-кутубхона муассасаларини Интернет тармоғига улашни кенгайтириш;

сайтлар яратиш ва ахборот-кутубхона муассасаларининг виртуал маконда фаол иштирокини, аҳолига виртуал маълумот-кутубхона хизматларини кўрсатишни таъминлаш;

мамлакатнинг ахборот-кутубхона муассасалари ахборот ресурсларидан масофадан туриб фойдаланиш имкониятини берувчи ягона ахборот-кутубхона порталини яратиш;

давлат ва қўшимча хизматларини кўрсатиш доирасида ахборот ва билимлардан фойдаланишини таъминловчи мавжуд замонавий рақобатбардош технологияларни такомиллаштириш ва янгиларини жорий қилиш;

илмий тадқиқотлар ва ўқув жараёнини ахборот билан қўллаб-куватлаш тизимини такомиллаштириш, уяли алоқа воситаларидан

фойдаланган ҳолда ҳужжатларни электрон тарзда етказиб бериш ва виртуал маълумот хизмати тизимларини модернизациялаш;

жамоавий обунани кенгайтириш ва республика ахборот-кутубхона муассасаларига мунтазам равишда йиллик обуна учун маблағ ажратиш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг инновацион фаолияти ва уларнинг инновацион инфратузилмасини ривожлантириш, аҳоли билан самарали инновацион муносабатлар ва мулоқотни йўлга қўйиш, янгиликларни ишлаб чиқиш ва инновацияларни амалга ошириш учун инвестициялар, шу жумладан, хусусий инвестицияларни жалб қилиш;

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси томонидан турли таълим, ижтимоий гуруҳлар, ёш тоифаларидағи фойдаланувчиларга ва ногиронлиги бўлган шахсларга онлайн тарзда (24/7/365) тақдим қилинадиган электрон каталоглар, ҳужжатли ресурслар ва кўрсатиладиган хизматлардан фойдаланишни кенгайтириш имконини берадиган хизматлар яратиш;

ахборот-кутубхона муассасалари фойдаланувчиларининг ахборот борасидаги билимларини ошириш, болалар, ўсмирлар ва ёшларга таълим хизматларини кўрсатиш орқали аҳолининг медиа саводхонлигини юксалтириш ва бошқалар;

3. Замонавий ахборот-кутубхона технологиялари асосида ахборот-кутубхона кадрларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини ривожлантириш:

кутубхона ходимларини ахборот-кутубхоначилик ишини модернизация қилишнинг долзарб йўналишлари бўйича мунтазам равишда қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш асосида уларга узлуксиз ахборот-кутубхона таълимини бериш тизимини яратиш, ахборот-кутубхона кадрларини масофадан туриб ўқитиши тизимини жорий қилиш ва бошқалар;

ахборот-кутубхона ходимлари малакасини ошириш бўйича доимий фаолият олиб борувчи курслар ташкил қилиш, ҳам талабалар, ҳам ахборот-кутубхона ходимларини масофадан туриб ўқитиши курсларини ривожлантириш, ўқитувчи ва ассистентларнинг хорижий давлатлардаги етакчи илмий ташкилотларда (кутубхона факультетларида) стажировка ўташини ташкил қилиш, ахборот-кутубхоначилик иши бўйича илмий мактабларни ривожлантириш ва бошқалар;

кутубхоначилик иши соҳасида мутахассисларга бўлган эҳтиёжни ўрганиш асосида соҳага ихтисослашган олий таълим муассасаларида «Кутубхона-ахборот фаолияти» йўналиши бўйича қабул квоталарини ошириш;

ахборот-кутубхона ҳамжамиятини касбий ахборот билан таъминлаш, янги ноширлик технологияларидан ва ахборот-кутубхона муассасалари фондидаги ноёб хужжатларнинг факсимилларидан фойдаланган ҳолда фундаментал библиографик қўлланмалар нашр қилиш, каталогглаштириш соҳасида бир хил ишлар такрорланишининг олдини олишга ва республика ахборот-кутубхона муассасаларида каталогглаштириш сарф-харажатларини камайтиришга хизмат қилувчи кооперацияни амалга ошириш;

ахборот-кутубхона ходимларининг малакасини ошириш, тажриба алмашиш бўйича халқаро лойиҳаларда ахборот-кутубхона муассасаларининг иштирокини кенгайтириш ва бошқалар.

4. Ахборот-кутубхона хизматларининг янги турларини, жумладан пулли хизматларни жорий қилиш ва ривожлантириш:

фуқаролар электрон ахборот-ресурсларни алмашиши ва улардан эркин фойдаланиши учун йигма электрон каталогдан фойдаланиш имкониятини таъминлаш, корпоратив ахборот-кутубхона тармоқларини ривожлантириш;

кутубхоналараро абонементнинг имкониятларини рўёбга чиқариш ва хужжатларни электрон тарзда етказиб бериш учун шарт-шароит яратиш, ягона ахборот мухитини яратиш, таълим ва ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятини кенгайтириш, ахборот-кутубхона ресурслари ўзаро ҳамкорлигининг ягона механизмини ишлаб чиқиш, мамлакатимизнинг йирик ахборот-кутубхона ресурсларини ўзида бирлаштирган ягона қидиув тизимини яратиш.

5. Ахборот-кутубхона муассасалари ходимлари самарали фаолият кўрсатиши ва уларни ижтимоий қўллаб-куватлаш учун муносиб шароитлар яратиш:

ахборот-кутубхона ходимларининг ижтимоий ҳимоясини таъминлаш, уларнинг ҳуқуқ ва имтиёзларини кенгайтириш (уй-жой сотиб олиш учун фоизсиз кредитлар ажратиш), ахборот-кутубхона муассасаларининг барча тоифаларида тариф разрядини ошириш эвазига ягона тариф сеткасини модернизациялаш;

Хизматчиларнинг асосий лавозимлари ва ишчиларнинг касблари классификатори асосида соҳанинг бугунги эҳтиёжларига

мувофик равища ахборот-кутубхона муассасаларининг лавозимлари номенклатурасини кенгайтиришни кўзда тутиб, ахборот-кутубхона муассасалари ходимларининг тариф-малакавий тавсифларини қайта кўриб чиқиш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг нормал ривожланишини кафолатлайдиган меҳнатга ҳақ тўлаш даражасини таъминлаш;

ахборот-кутубхона муассасалари ходимларига кўп йиллик иш стажи учун қўшимча ҳақ тўлашни жорий этиш;

касбий унвонлар ва давлат мукофотларини таъсис этиш;

«Кутубхона аълочиси» кўкрак нишонини таъсис этиш.

6. Кутубхоналарнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш:

республиканинг барча ахборот-кутубхона муассасаларини тўлиқ хатловдан ўтказиш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг авария ҳолатидаги, таъмирталаб бино ва иморатларини таъмирлаш ҳамда реконструкция қилиш;

ахборот-кутубхона муассасалари учун маҳсус бинолар қуриш;

ногиронилиги бўлган шахсларга сифатли хизмат кўрсатиш учун ахборот-кутубхона муассасаларини замонавий асбоб-ускуналар билан жиҳозлаш;

туман (шахар) ахборот-кутубхона муассасаларини ташкил қилиш, уларни замонавий асбоб-ускуналар билан таъминлаш учун ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техник базасини ривожлантириш, шу жумладан янги бинолар қуриш ва мавжудларини реконструкция қилиш.

7. Илмий-тадқиқот ва услубий фаолият:

ахборот-кутубхона фаолиятининг замонавий йўналишлари бўйича корпоратив амалий илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш;

ахборот-кутубхона хизматларининг янги турларини жорий қилиш, ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатиш тармоғини кенгайтириш ва бошқалар;

идоралараро асосда ахборот-кутубхона муассасалари фаолиятининг турли йўналишлари, шунингдек, МДҲ ва хорижий давлатларнинг йирик ахборот-кутубхона муассасалари билан ҳамкорликда замонавий рақобатбардош ахборот-кутубхона

технологияларини жорий этиш бўйича илмий-тадқиқот ва ташкилий-услубий ишларни олиб бориш;

илмий тадқиқот ва таълим жараёнини ахборот билан қўллаб-куватлаш тизимини такомиллаштириш;

ҳужжатларни электрон тарзда етказиб бериш тизимини модернизация қилиш;

услубий қўлланмалар, тавсиялар, маслаҳат ёрдами кўрсатиш тизимини яратиш ва такомиллаштириш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг инновацион фаолияти ва уларнинг инновацион инфратузилмасини ривожлантириш, аҳоли билан самарали инновацион муносабатлар ва мулокотни йўлга қўйиш, янгиликларни ишлаб чиқиши ва инновацияларни амалга ошириш учун инвестициялар, шу жумладан, хусусий инвестицияларни жалб қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиши;

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси қошида Ахборот-кутубхона фаолияти бўйича докторлик ва номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилиш кенгашини ташкил қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиши.

#### 8. Халқаро ҳамкорликни ривожлантириш:

икки томонлама келишувлар тузиш асосида халқаро кутубхона ҳамжамияти билан ҳамкорликни ривожлантириш, халқаро форумлар ва бошқа тадбирларда иштирок этиши;

халқаро китоб алмашиш, ахборот ресурсларини электрон тарзда алмашиш бўйича ҳамкорликнинг турли шаклларини ривожлантириш ва жорий қилиш;

йиғма электрон каталогларни шакллантириш, маълумотлар банкларини ташкил қилиш;

халқаро лойиҳаларни амалга оширишда иштирок этиши, кутубхоналараро абонементни (ҳужжатларни электрон етказиб бериш) йўлга қўйиш;

республика, халқаро конференциялар ва семинарлар ўтказиш ҳамда шу каби халқаро тадбирларда иштирок этиши.

### **5-боб. Концепцияни амалга ошириш**

Ушбу Концепцияни амалга оширишнинг асосий воситаси республикада ахборот-кутубхона фаолиятини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқиши назарда тутувчи Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар дастури (кейинги ўринларда — Дастур) ҳисобланади.

Ушбу Концепцияни тижорат ташкилотлари, ҳамкорлар, шу жумладан хорижий инвесторларни жалб қилган ҳолда соҳага алоқадор вазирликлар ва идоралар, маҳаллий ижро ҳокимияти органлари билан ҳамкорликда республика миқёсида амалга ошириш назарда тутилган.

Концепцияни амалга оширишни мувофиқлаштириш китоб маҳсулотларини нашр қилиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, ахборот-кутубхона фаолияти соҳаси бўйича маҳсус ваколатли давлат орган — Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан олиб борилади.

Концепция икки босқичда амалга оширилади:

Биринчи босқичда (2019-2020 йиллар) қуйидагилар назарда тутилади:

худудий ахборот-кутубхона муассасаларини келгусида халқаро тизимлар билан интеграциялаш учун уларни ягона маълумотлар базасига улаш;

Миллий умумтаълим электрон кутубхона маркази тўғрисидаги низомни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

соҳага ихтисослашган олий таълим муассасаларида «Кутубхона-ахборот фаолияти» йўналиши бўйича қабул квоталарини ошириш;

замонавий ахборот-коммуникация технологиялари асосида тақдим этилаётган хизматлар ҳажмининг ўсиб боришини ҳисобга олган ҳолда, Миллий кутубхонанинг ташкилий тузилмасига кирувчи ходимларнинг намунавий штатлари ҳамда Ахборот-кутубхона маркази ва кутубхона тўғрисида намунавий низомни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасида, хусусий ва рақамли (виртуал) кутубхоналар тармоғида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

таъмирталаб ахборот-кутубхона муассасаларини таъмирлаш ва реконструкция қилиш ҳамда уларнинг бино ва иморатларини қуриш;

«Кутубхона аълочиси» кўкрак нишонини таъсис қилиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига киритиш;

хатлов ўтказиш ва унинг натижаларини аниқлаштириш, тадбирларни амалда ижро этиш бўйича чора-тадбирлар тайёrlаш ва бошқалар.

Иккинчи босқичда (2021 — 2024 йиллар) қўйидагилар назарда тутилади:

тарқатиш тизимини такомиллаштириш учун «Нашрларнинг мажбурий нусхаси тўғрисида»ги Конунни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш;

«Халқаро нашрлар алмашинуви тўғрисида»ги Конвенцияни ратификация қилиш масаласини кўриб чиқиш;

МДҲ ва хориҷий давлатларнинг етакчи тадқиқот марказлари билан ҳамкорликни фаоллаштириш;

Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси қошида Кутубхоначилик иши бўйича докторлик ва номзодлик диссертацияларини ҳимоя қилиш бўйича ихтисослашган илмий кенгаш ташкил қилиш;

ресурслар алмашинуви ва корпоратив ҳамкорлик ишини автоматлаштириш бўйича корпоратив тармоқни шакллантириш;

ахборот-кутубхона фаолияти бўйича тармоқ стандартлар, услубий қўлланмалар ва тавсияларни ишлаб чиқиш;

туман (шаҳар) ахборот-кутубхона муассасаларининг фаолиятини ташкил қилиш борасида давлат органлари ва ҳокимликлар билан ҳамкорликда ишлаш;

манфаатдор вазирликлар, идоралар, ташкилотлар, Коракалпогистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар, туманлар (шаҳарлар) ҳокимликлари билан ҳамкорликда Концепцияни рўёбга чиқариш бўйича тадбирларни белгилаб олиш ва амалга ошириш.

## **6-боб. Ресурс таъминоти**

Ресурс таъминоти, шу жумладан Концепцияда белгилаб берилган тадбирларни молиялаштириш масалалари ахборот-кутубхона муассасаларига ажратиладиган бюджет маблағлари доирасида, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ҳузуридаги Ахборот-кутубхона муассасаларини ривожлантириш жамғармаси, кутубхоналарнинг хўжалик фаолиятидан тушган даромад қисми, ҳомийлар, хориҷий инвесторларнинг маблағлари ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади.

## **7-боб. Кутилаётган натижалар**

Концепцияни амалга ошириш мамлакат ахборот-кутубхона муассасаларининг янада ривожланиши ҳамда ахборот, маданий-маърифий макон доирасида уларнинг фаолиятини мувофиқлаштиришга хизмат қилувчи ягона ахборот-кутубхона тармоғини яратишга имкон беради.

Режалаштирилган тадбирлар натижасига кўра, Концепцияни амалга оширишнинг биринчи босқичида қўйидагилар кутилмоқда:

2020 йилга қадар республиканинг туман ва шаҳарларида аҳолининг 86,0 фоизини қамраб оладиган 186 та замонавий ахборот-кутубхона марказини ташкил қилиш;

2020 йилга қадар кутубхоналарнинг 10 фоизини (21 та) ягона маълумотлар интерактив базасига улаш орқали Ўзбекистон ахборот-кутубхона марказлари ҳамкорлигининг яхлит тизимини шакллантиришни бошлаш;

электрон китоблар фондини 1,2 миллион нусхагача кўпайтириш;

14 та хорижий давлат билан ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги халқаро ҳамкорликни янада ривожлантириш.

Иккинчи босқичда қўйидагилар кутилмоқда:

республиканинг 207 та кутубхонасини ягона маълумотлар интерактив базасига улашни якунлаш орқали Ўзбекистон ахборот-кутубхона марказлари ҳамкорлигининг яхлит тизимини шакллантириш;

электрон китоблар фондини 3,3 миллион нусхагача кўпайтириш;

21 та хорижий давлат билан ахборот-кутубхона фаолияти соҳасида ҳамкорликни янада ривожлантириш.

Бундан ташқари Концепция:

маданий, таълим ва ахборот инфратузилмасининг асосий таркибий қисмларидан бири сифатида муҳим ижтимоий ва коммуникатив вазифаларни бажарувчи ахборот-кутубхона муассасаларига мамлакатнинг иқтисодий ривожига муносаб ҳисса қўшиш имкониятини яратади;

миллий манфаатлар ва халқаро тажрибани ҳисобга олиб ахборот-кутубхона иши соҳасидаги қонунчиликни такомиллаштиришга ёрдам беради (бу эса ахборот-кутубхона соҳаси тараққиётининг бугунги тенденцияларига мослашиш, шунингдек, ахборот-кутубхона муассасаларининг ривожланиши ва

аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари кўрсатишни кенгайтиришга сезиларли даражада таъсир кўрсатишга имкон яратади);

ахборот-кутубхона фондини жамлаш, шу жумладан электрон ва бошқа ташувчи ускуналарга йифиши тизимини яратишга, кутубхона фондларини сақлашни таъминлайди, янги ахборот технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш, миллий ахборот-кутубхона тармоғини такомиллаштириш ва ихтисослашган илмий тадқиқотлар олиб боришга, услубий қўлланмалар ишлаб чиқиши фаоллаштиришга имкон беради;

ахборот-кутубхона соҳасида кадрлар тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини ҳамда ахборот-кутубхона муассасалари ходимларининг самарали фаолияти, уларнинг ижтимоий ҳимояси учун қулай шарт-шароитлар яратишга кўмаклашади;

барча тизимлар ва идораларнинг ахборот-кутубхона муассасаларини самарали мувофиқлаштириш ва бошқариш, халқаро ҳамкорликни ҳар томонлама ривожлантириш, ахборот-кутубхона муассасаларининг моддий-техника базасини мустаҳкамлашга хизмат қиласи.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги  
ПҚ-4354-сон қарорига

## 2-ИЛОВА

### 2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳасини ривожлантириш бўйича ЧОРА-ТАДБИРЛАР ДАСТУРИ

T/р	Тадбирлар номи	Амалга ошириш шакли	Амалга ошириш муддатлари	Масъул ижрочилар
<b>I. Ахборот-кутубхона соҳасининг норматив-хуқуқий базасини такомиллаштириш</b>				
1.	Миллий умумтаълим электрон кутубхона маркази тўғрисида низомни ишлаб чиқиши ва тасдиқлаш.	Низом	2019 йил 1 июлга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги

2.	<p>Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари асосида тақдим этилаётган хизматлар ҳажмининг ўсиб боришини ҳисобга олган ҳолда, Миллий кутубхонанинг ташкилий тузилмасига кирувчи ходимларнинг намунавий штатлари ҳамда Ахборот-кутубхона маркази ва кутубхона тўғрисида намунавий низомни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш.</p>	Идоравий норматив ҳужжат	2019 йил 1 сентябрга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Молия вазирлиги
3.	<p>«Кутубхона альочиси» кўкрак нишонини таъсис этиш тўғрисида таклифлар ишлаб чиқиш ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига киритиш.</p>	Вазирлар Маҳкамаси қарори	2019 йил 1 октябрга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар

4.	«Нашрларнинг мажбурий нусхаси тўғрисида» тегишли норматив-хуқуқий хужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритиш.	Ёзма маълумот	2021 йил 1 апрелга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
5.	Ўзбекистон Республикасининг Халқаро нашрлар алмашинуви конвенциясида (Париж ш., 05.12.1958 й.) иштирок этишининг мақсадга мувофиқлиги хақида Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига хулоса киритиш.	Ёзма маълумот	2022 йил 1 июлга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар

**II. Инновацион фаолият ва ахборот-кутубхона муассасаларини оммалаштириш**

6.	Аҳоли ўртасида китобхонлик маданиятини тарғиб этишга қаратилган чора-тадбирлар режаларини ишлаб чиқиш, танловлар, конференциялар ўтказиш, ахборот-кутубхона муассасалари мутахассисларининг касбий даражасини ошириш.	Чора-тадбирлар режаси	2019 йил 1 августдан доимий равиша	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
7.	Ресурслар алмашиш бўйича корпоратив тармоқни шакллантириш, корпоратив ҳамкорлик ишини автоматлаштириш.	Чора-тадбирлар режаси	2021 йил 1 августга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар

8.	Давлат органлари ва бошқа ташкилотларда, шу жумладан ҳарбий қисмларда идоравий кутубхоналарни ташкил этиш (такомиллаштириш). Идоравий кутубхоналар, шунингдек, ахборот-кутубхона марказлари китоб фондини янгилаш ва тўлдириш мақсадида Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигининг таклифлари асосида зарур нашрлар рўйхатини ҳар йили 10 октябргача шакллантириш.	Чора-тадбирлар режаси	Доимий асосда	Вазирлик ва идоралар, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлеклари, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги
9.	2019 — 2024 йилларда Ўзбекистон Республикасида ахборот-кутубхона соҳаси, хусусий ва рақамли (виртуал) кутубхоналар тармоғи бўйича давлат-хусусий шериклигини ривожлантириш дастурини ишлаб чиқиш ва тасдиqlаш.	Дастур	2020 йил 1 августга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
10.	МДҲ ва хорижий мамлакатларнинг етакчи тадқиқот марказлари билан ҳамкорликни фаоллаштириш.	Битимлар	2021 йилдан бошлаб доимий асосда	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ташқи ишлар вазирлиги, Фанлар академияси, алоқадор вазирлик ва идоралар
<b>III. Илмий-тадқиқот ва методик фаолият</b>				

11.	Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси қошида кутубхона иши бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертациялар ҳимоя қилиш бўйича Кенгаш ташкил этишга оид таклифлар ишлаб чиқиш.	Тармоқ олий таълим муассасаси ҳузурида илмий кенгаш ташкил этиш	2021 йил 1 декабрга қадар	Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Олий аттестация комиссияси, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Маданият вазирлиги
12.	Ахборот-кутубхона фаолияти бўйича тармоқ стандартлари, методик қўлланмалар ва тавсиялар ишлаб чиқиш.	Идоравий-норматив ҳужжат	2024 йил 31 декабрга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, «Ўзстандарт» агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
13.	Ахборот-кутубхона муассасаларини ривожлантириш Концепциясининг амалга оширилишини доимий мониторинг қилиб бориш.	Чора-тадбирлар дастури	Ҳар йили	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар

**IV. Ахборот-кутубхона соҳасида кадрлар тайёрлаш ва соҳа мутахассислари малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш**

14.	Mазкур соҳада мутахассисларга бўлган талабни ўрганиш асосида «Кутубхона-ахборот фаолияти» йўналиши бўйича ихтисослашган олий таълим муассасаларига қабул квоталари бўйича таклифларни кейинчалик қарор қабул қилиш учун Вазирлар Маҳкамасига киритиш.	Ёзма маълумот	2020 йил 1 февралга қадар	Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Иқтисодиёт ва саноат вазирлиги, Маданият вазирлиги, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
15.	Олий таълим муассасаларида хорижий тажриба ва технологияларни ўрганиш асосида ўқув жараёнига кутубхона иши бўйича етакчи мутахассислар ва экспертларни жалб қилган ҳолда, ахборот-кутубхона соҳаси мутахассисларининг малакасини ошириш курсларини ташкил этиш.	Чора-тадбирлар дастури	2019 йил 1 июлга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Маданият вазирлиги

**V. Ахборот-кутубхона марказларининг фаолиятини такомиллаштириш ва моддий-техник базасини мустаҳкамлаш**

16.	Aхборот-кутубхона марказлари фондлари ва моддий-техник базасини тўлиқ хатловдан ўтказиш.	Чора-тадбирлар дастури	2020 йил 1 июнга қадар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларни
17.	Тошкент вилоятининг Нурафшон шаҳрида Тошкент вилояти «Турон» ахборот-кутубхона маркази ўз фаолиятини тўлақонли амалга ошириши учун зарур бўлган бино ажратиш.	Тошкент вилояти ҳокими қарори	2020 йил 31 марта қадар	Тошкент вилояти ҳокимлиги, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги
18.	Худудий кутубхоналарни кейинчалик халқаро тизимлар билан интеграциялашувини амалга ошириш учун ягона маълумотлар базасига улаш.	Чора-тадбирлар режаси	2019-2020 йиллар	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, алоқадор вазирлик ва идоралар
19.	Ахборот-кутубхона муассасаларини таъмирлаш, зарур ҳолларда бино ва иншоотлар қуриш.	Маҳаллий давлат ҳокимияти органлари қарорлари	2019-2020 йиллар	Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимларни
20.	Ахборот-кутубхона марказлари фаолиятини мувофиқлаштириш ва ташкилий-методик таъминлаш.	Чора-тадбирлар режаси	Ҳар йили	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

21.	Қарақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ахборот-кутубхона марказларига жаҳон илмий-таълим ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини тақдим этиш.	Чора-тадбирлар режаси	Ҳар йили	Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги
22.	Кўзи ожизлар кутубхоналарининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, шу жумладан уларни маҳсус компьютер ва бошқа техника билан жиҳозлашни назарда тутувчи чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш.	Чора-тадбирлар режаси	2019 йил 1 августга қадар	Маданият вазирлиги, Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги


Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПҚ-4354-сон карорига  
3-ИЛОВА

**Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот-ресурс марказининг  
ТАШКИЛИЙ ТУЗИЛМАСИ**

 Не удается отобразить связанный рисунок. Возможно, этот файл был перемещен, переименован или удален. Убедитесь, что ссылка указывает на правильный файл и верное размещение.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПҚ-4354-сон карорига  
4-ИЛОВА

**Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси — ахборот-ресурс марказининг  
бошқарув аппарати  
ТУЗИЛМАСИ**



Ходимларнинг умумий чекланган сони 227 нафар, шу жумладан бошқарув ходимлари — 12 нафар.  
Техник ва ёрдамчи ходимлар сони амалдаги нормативларга мувофиқ белгиланади.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ПРЕЗИДЕНТИНИНГ  
ФАРМОЙИШИ  
12.01.2017 й.**

**КИТОБ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ЧОП ЭТИШ ВА  
ТАРҚАТИШ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ, КИТОБ  
МУТОЛААСИ ВА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ  
ОШИРИШ ҲАМДА ТАРГИБОТ ҚИЛИШ БЎЙИЧА  
КОМИССИЯ ТУЗИШ ТЎҒРИСИДА**

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда таълим муассасалари учун ўқув адабиётлари яратиш ва ўқувчиларга етказишининг мустаҳкам тизими яратилди, бунда Ўзбекистонда таълим берилаётган еттига тилда дарслик ва ўқув қўлланмалари нашр этилмоқда. Ахборот-ресурс ва ахборот-кутубхона марказларининг моддий-техника базаси янгиланиб, замонавий электрон кутубхоналар тизимлари фаолият кўрсатмоқда.

Матбуот, ноширлик ва ахборот соҳасида тегишли ҳуқукий асос яратилган бўлиб, 10 дан ортиқ қонун ва 30 дан ортиқ қонуности хужжати қабул қилинган. 1 677 та матбаа корхонаси, 118 та нашриёт давлат рўйхатига олинган. Замонавий технологиялар билан жиҳозланган Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 14 та вилоят ахборот-кутубхона маркази, туман марказлари ва шаҳарлардаги таълим муассасаларида 200 га яқин ахборот-ресурс маркази томонидан аҳолига ахборот-кутубхона хизматлари ҳамда "Китоб олами", "Шарқ зиёкори" ва "Ўздавкитобсавдотаъминоти" мажмуалари томонидан китоб савдоси хизмати кўрсатиш йўлга қўйилган.

Ёзувчилар уюшмаси хузурида ташкил этилган "Ижод" жамоат фонди томонидан ёзувчи ва шоирлар, айниқса, ёш ижодкорларнинг биринчи китоблари кўп минг нусхада нашр этилмоқда.

Шу билан бирга, ушбу муҳим соҳа ривожи билан боғлиқ аҳоли, хусусан, ёшлар ўртасида китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишда бир қатор муаммолар мавжудлигини қайд этиш лозим.

Аввало, бадиий, маърифий, илмий-оммабоп, тарбиявий, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга қаратилган адабиётларни чоп этиш, улар билан таълим муассасаларини таъминлаш, миллий ва жаҳон адабиёти намояндаларининг етук

асарларини саралаш, таржима қилиш ишлари пухта ўйланган тизим асосида ташкил этилмаган.

Чоп этиладиган китобларни нашриётлардан ҳудудларга арzon нархларда етказиш, онлайн буюртма бериш ва манзилга етказиш тизими суст ривожланган, шунингдек, аҳолига хизмат кўрсатишида электрон китоб шаклларидан кенг фойдаланиш яхши йўлга қўйилмаган.

Таълим ва маданият муассасалари учун китоб харид қилишга маблағлар етарли даражада мавжуд бўлган манбалар ҳисобидан жалб этилмаяпти, китоб сотишига ихтисослашган корхоналар томонидан таълим муассасалари, кутубхоналар ва маҳаллаларда янги китоблар тақдимотини ўтказиш, мутолаа маданиятини ошириш, шу жумладан, оммавий ахборот воситалари орқали тарғибот-ташвиқот қилишга қаратилган тадбирлар етарли эмас.

Ушбу соҳадаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш, аҳолининг китобхонлик маданиятини юксалтириш бўйича тегишли таклифларни тайёрлаш мақсадида:

1. Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш бўйича ишчи гуруҳ ва кичик ишчи гурухлар таркиби иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Ишчи гуруҳ (А. Арипов)га бир ой муддатда соҳа мутахассислари ва эксперталарни кенг жалб қилган ҳолда, илғор хорижий тажрибаларни инобатга олиб, қуйидаги масалаларни атрофлича ўрганиш ва чуқур таҳлил қилиш асосида тегишли таклифларни ишлаб чиқиш топширилсин:

аҳоли, айниқса, ёшлар орасида бадиий жиҳатдан юксак, интеллектуал савияни ўстиришга хизмат қиласиган китобларга бўлган талабни ўрганиш, шу жумладан, ижтимоий сўровлар орқали аниқлаш, нашриётлар томонидан чиқариладиган бадиий, маърифий, ёшларнинг дунёқарашини кенгайтиришга доир адабиётларнинг (шу жумладан, электрон шаклда) умумий буюртма рўйхатини шакллантириш тизимининг ҳолати;

китобларни чоп этиш ҳамда аҳолига етказиб беришни ўз ичига олган бошқарув тизимининг, шунингдек, жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ва ўзбек адабиётининг энг яхши асарларини чет тилларига таржима қилиш ишларининг танқидий таҳлили;

ноширлар ва адибларни молиявий рағбатлантириш, болалар адабиётига ихтисослашган нашриётларга молиявий имтиёзлар бериш ва моддий кўллаб-куватлаш тизимини шакллантириш, матбаа корхоналари ва нашриётларга китоб ишлаб чиқариш учун сифатли қоғоз ва матбаа хом ашёларини четдан харид қилиш тартибини такомиллаштириш;

китоб тарқатиш тизимини янада ривожлантириш ва аҳолининг кенг қатламини қамраб олиш, китоб маҳсулотларининг нархини шакллантириш ва сотиш бўйича аниқ механизмларни ишлаб чиқиш;

ихтисослашган китоб дўконлари учун вилоят, туман марказлари ва шаҳарларда ҳамда қишлоқларда аҳоли гавжум ва қулай ҳудудлардан жой ажратиш ёки ижарага бериш масалаларини қайта кўриб чиқиш, сотув айланмасида китоб улушининг ҳажми 70 фоиздан кўп бўлган тадбиркорлик субъектларини алоҳида статистик ҳисобга олиш ва уларга тегишли солиқ имтиёзлари кўллаш;

мавжуд ахборот-кутубхона муассасалари аҳолининг кенг қатламларига хизмат кўрсатиши зарурлигидан келиб чиқиб, уларнинг вилоятлар, шаҳарлар ва туманлар бўйича жойлашиш ва бўйсуниш тартибини қайта кўриб чиқиш, фаолияти ҳамда ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш;

ахборот-кутубхона муассасаларининг, айниқса, таълим соҳасидаги ахборот-ресурс марказлари фондларини шакллантиришда ўқув адабиётлари билан бир қаторда, бадиий, маърифий, илмий-оммабоп адабиётлар рўйхатини ҳамда уларни харид қилиш бўйича харажатлар сметасини қайта кўриб чиқиш;

чоп этилаётган китобларни аҳоли ўртасида оммавий ахборот воситалари, жумладан, "Маданият ва маърифат" телеканали орқали тарғиб қилиш, таълим муассасалари, кутубхоналар, маҳаллаларда китоб муаллифлари билан ижодий учрашувларни тизимли равиша ташкил этиш ҳамда таълим муассасалари, айниқса, мактабгача ва бошланғич таълимда ўқиши маданияти ва мутолаа кўникмаларини шакллантириш;

таълим муассасаларида синфдан ташқари ўқиши учун тавсия этилган ўзбек ва чет эл адибларининг мумтоз ва замонавий асарларини танлаб, хрестоматия адабиётлари рўйхатларини қайта кўриб чиқиш ва ўқув жараёнига мутолаа этилган асарлар асосида

иншо ёзиш тизимини жорий этиш, адабиёт тўгараклари фаолиятини моддий қўллаб-қувватлаш тизимини қайта кўриб -чиқиш;

худудларда ёзувчи-шоирлар иштирокида китоб байрами ва ярмаркаларини ташкил этиш, аҳоли ўртасида бадиий жиҳатдан юксак миллий ва жаҳон мумтоз адабиётлари намуналарини тарғиб қилиш, китобхонлар, босма ва электрон китоб ишлаб чиқарувчилар, китоб сотувчилар ҳамда кутубхоначи ва тарғиботчилар орасида танловлар ("Йилнинг энг яхши китоби", "Энг яхши китобхон оила", "Йилнинг энг яхши болалар китоби", "Йилнинг энг яхши аудио китоби", "Йилнинг энг яхши электрон китоби" каби) ўтказиш тизимини такомиллаштириш.

3. Ишчи гурӯҳ (А. Арипов) икки ой муддатда мутасадди вазирликлар, идоралар ва бошқа ташкилотлар билан биргаликда китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, матбуот ва ахборот ҳамда ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги ягона давлат сиёсатини юритувчи ваколатли давлат органини белгилаш, молиявий қўллаб-қувватлаш механизмини ривожлантиришни инобатга олган ҳолда, тегишли комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқсин ва тасдиқлаш учун киритсин.

4. Мазкур фармойишнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев**  
**"Халқ сўзи", 2017 йил 13 январь**

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ  
ҶАРОРИ

**КИТОБ МАҲСУЛОТЛАРИНИ НАШР ЭТИШ ВА ТАРҚАТИШ  
ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ, КИТОБ МУТОЛААСИ ВА  
КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ОШИРИШ ҲАМДА  
ТАРГИБ ҚИЛИШ БҮЙИЧА КОМПЛЕКС ЧОРА-ТАДБИРЛАР  
ДАСТУРИ ТҮҒРИСИДА**

Бугунги кунда мамлакатимизда 2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегияси асосида барча соҳа ва тармоқларда улкан ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Бу борада жамият ҳётида эзгу қадрият ва анъаналарни чукур қарор топтиришга, хусусан, халқимиз, айниқса, ёш авлоднинг маънавий-интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтиришда, она Ватани ва халқига муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол шахсни тарбиялашда бекиёс аҳамиятга эга бўлган китобхонлик маданиятини оширишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ушбу йўналишда тегишли ҳуқуқий-меъёрий базани мустаҳкамлаш, ташкилий-амалий ишларни замон талаблари асосида олиб бориш, бу масалага кенг жамоатчиликни жалб этиш бўйича кейинги пайтда бирмунча ишлар амалга оширилаётганини таъкидлаш лозим.

Айни вақтда ўтказилган кузатиш ва таҳлиллар бу соҳада ўзечимини кутаётган бир қатор долзарб муаммолар борлиги ва уларни кенг кўламда ҳал этиш зарурлигини кўрсатмоқда. Хусусан, халқимиз, аввало, ёшларнинг маънавий-маърифий, бадиий-эстетик талабларига жавоб берадиган китобларни юксак сифат билан чоп этиш, жойларга, таълим муассасаларига вақтида ва мақбул нархларда етказиш, миллий ва жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини таржима қилиш, фарзандларимизда болаликдан бошлаб китоб, жумладан, электрон китоб ўқиши кўнимасини шакллантириш, жамиятимизда мутолаа маданиятини юксалтириш билан боғлик мухим масалаларни ҳал этиш долзарб вазифа бўлиб қолмоқда.

Айниқса, ноширик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва янада ривожлантириш, юртимизда соғлом рақобатга асосланган босма ва электрон китоблар бозорини шакллантиришни бугун ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда.

Маънавий ҳаётимизни юксалтиришда улкан аҳамиятга эга бўлган ана шундай муҳим вазифаларни комплекс ҳал қилиш, китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, ўзбек ва дунё адабиётининг энг яхши намуналарини интернет тармоқларига жойлаштириш ва уларни тарғиб қилиш ҳамда кенг китобхонлар оммасига етказиш ишларини самарали ташкил этиш мақсадида:

1. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури [иловага](#) мувофиқ тасдиқлансин.

Дастурда кўзда тутилган қуйидаги асосий вазифаларни амалга оширишга алоҳида эътибор қаратилсин:

китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш, ноширик ва матбаа соҳаларини янада ривожлантиришга оид норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган китобларни, айниқса, болаларга мўлжалланган адабиётларни чоп этишни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш;

китоб маҳсулотлари бўйича давлат буюртмасининг асосий йўналишларини шакллантириш, адабий-бадиий, ўқув-услубий, илмий-назарий, илмий-оммабоп ва кўргазмали адабиётларни чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, ихтисослаштирилган китоб дўконлари фаолиятини ривожлантириш;

жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига таржима қилиш бўйича давлат буюртмалари бериш, уларни зарур нусхаларда юксак сифат билан нашр этиш ва молиялаштириш тизимини йўлга қўйиш, китоб тарқатиш тизимини янада ривожлантириш ва китоб маҳсулотларининг нархини шакллантириш ва сотиш бўйича аниқ механизмларни ишлаб чиқиши чораларини белгилаш;

ахборот-кутубхона фаолиятини кучайтириш, таълим муассасалари ахборот-ресурс марказларининг кутубхона фондлари, кутубхоналар, ташкилот ва муассасаларнинг «Маънавият хоналари»ни ўқув-услубий, техник адабиётлар, адабий-бадиий, маърифий ва илмий-оммабоп китоблар билан бойитиш, уларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш;

нашриётлар ва матбаа соҳаси мутахассисларини, бадиий ва техник муҳаррирлар, графикачи рассомлар, ахборот-кутубхона ходимларини тайёрлаш, малакасини ошириш ва рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш;

лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосидаги илмий-техник, адабий-бадиий ва энциклопедик адабиётларни янада кўпайтириш бўйича аниқ чора-тадбирлар ишлаб чиқиш;

Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ва ахборот-кутубхона марказларида барча турдаги ахборот-кутубхона ресурсларининг ягона базасини шакллантириш ва ундан бошқа ахборот-кутубхона муассасаларида туриб фойдаланишни таъминлаш;

қишлоқ аҳолисига кутубхона хизмати кўрсатиш тизимини ташкил этиш чоралари тўғрисида тадбирлар режаси лойиҳасини тайёрлаш ва амалга ошириш;

мамлакатимизда интернет орқали зарур адабиётларни топиш ва харид қилиш имконини берадиган eReader электрон ўқув қурилмаларини ишлаб чиқаришни ташкил этиш, уларнинг ахборот базасига умумтаълим мактаблари, академик лицей ва касб-хунар коллежлари, олий ўқув юртлари учун дарсликлар, ўқув қўлланмалари, ўқув-услубий, илмий-назарий манбаларни жойлаштириш, бундай маҳсулотларни арzon нархларда сотиб олиш механизмларини йўлга қўйиш бўйича таклифлар тайёрлаш;

мазмунан саёз, миллий маънавият ва қадриятларимизга, ахлоқ меъёрларига мос келмайдиган, ёшлар тарбиясига салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган адабиётларни тайёрлаш, босиб чиқариш ва тарқатишнинг олдини олиш чораларини кўриш;

китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини оширишга доир тарғибот ишларини тизимли ва самарали ташкил этиш, бу борада китобхонлар, кутубхоначи ва тарғиботчилар ўртасида «Энг китобхон мактаб», «Энг китобхон маҳалла», «Энг китобхон оила»,

«Энг фаол кутубхоначи» каби кўрик-танловларнинг саралаш ва республика босқичларини юқори савияда ўтказишни йўлга қўйиш.

### *Олдинги таҳрирга қаранг.*

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллашириш ҳамда ахборот-кутубхона фаолияти соҳасидаги маҳсус ваколатли давлат органи этиб белгилансин.

*(2-банд Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 10 декабрдаги ПФ-5892-сонли Фармони таҳририда — Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-сон)*

3. Белгилаб қўйилсинки:

дастурда кўрсатилган чора-тадбирларни ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш тегишли вазирлик ва идоралар, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ҳамда уларнинг мансабдор шахсларининг устувор вазифаларидан бири ҳисобланади;

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳар бир шаҳар ва туманда китоб савдосига ихтисослаширилган дўконларни ташкил этиш, уларни қўллаб-қувватлаш мақсадида юридик шахс мақомидаги тадбиркорлик субъектларига фойдаланилмаётган давлат мулки обьектларининг текин фойдаланиш учун берилишини таъминлайди;

савдо айланмасида китоб сотиши улушининг ҳажми 70 фоиздан кўп бўлган юридик шахс мақомидаги тадбиркорлик субъектларининг алоҳида статистик ҳисоби юритилади ва улар 2020 йил 1 январга қадар ягона солик тўловини тўлашдан озод этилади;

Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси, Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги ва бошқа оммавий ахборот воситаларига шу йўналишда мунтазам равишда маҳсус кўрсатув ва эшиттиришлар, мақолалар тайёрлаш ва эълон қилиш тавсия этилади.

### *Олдинги таҳрирга қаранг.*

(4-банд Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 декабрдаги ПФ-5893-сонли Фармонига асосан ўз кучини ўйқотган — Конун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 13.12.2019 й., 06/19/5893/4150-сон)

5. Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Адлия вазирлиги ва бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда:

конун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ушбу қарорга мувофиқлаштирун.

6. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А. Арипов ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг Давлат маслаҳатчиси Х. Султонов зиммасига юклансин.

#### LexUZ шарҳи

Ушбу қарор «Халқ сўзи» газетасининг 2017 йил 14 сентябрдаги 184 (6878)-сонида эълон қилинган.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент ш.,

2017 йил 13 сентябрь,

ПҚ-3271-сон

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13  
сентябрдаги ПҚ-3271-сонли қарорига

## ИЛОВА

### Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар

#### ДАСТУРИ

Т/р	Чора-тадбирлар	Ижро муддати	Ижро учун масъуллар	Амалга ошириш механизми, кутилаётган натижа
<b>I. Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш, ноширлик ва матбаа соҳаларини янада ривожлантиришга йўналтирилган норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш ҳамда ижтимоий аҳамиятга молик китобларни, айниқса болалар адабиётларини чоп этишини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш</b>				
1.	Янги таҳрирдаги «Ноширлик фаолияти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси қонуни лойиҳасини ишлаб чиқиш.	2018 йил март	Матбуот ва ахборот агентлиги, Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Адлия вазирлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги	Янги таҳрирдаги «Ноширлик фаолияти тўғрисида» ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни лойиҳаси. Лойиҳада нашриётлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш борасидаги норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш; китоб маҳсулотлари чоп этишини давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг аниқ шакл ва механизmlарини белгилаш; ижтимоий аҳамиятга молик адабиётларга грантлар ажратиш, ноширлар ва адибларни молиявий рағбатлантириш; болалар адабиётига ихтисослаштирилган нашриётларга молиявий имтиёзларни кафолатлаш назарда тутилади.
2.	Болалар	2018 йил	Матбуот ва	Ўзбекистон Республикаси

адабиётига ихтисослашган нашриётларга молиявий имтиёзлар бериш, моддий қўллаб-куватлаш ва ривожлантириш тизимини такомиллаштириш бўйича аниқ таклифлар ишлаб чиқиши.	март	ахборот агентлиги, Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази, Давлат солиқ қўмитаси, Давлат божхона қўмитаси	Президенти қарори лойиҳаси. Болалар адабиётига ихтисослаштирилган нашриётларни қўллаб-куватлаш ва ривожлантириш тўғрисидаги чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилади. Болалар адабиётини нашр қилишга ихтисослаштирилган нашриётларни аниқлаш мезонлари белгиланади ва уларни моддий қўллаб-куватлаш йўлга қўйилади.
--	------	---	---

**II. Китоб маҳсулотлари умумий буюртмасини шакллантириш, чоп этиш ва тарқатиш тизимини такомиллаштириш, ихтисослаштирилган китоб дўконлари фаолиятини ривожлантириш**

3.	Аҳолининг илмий-маърифий, бадиий, энциклопедик ва болалар адабиётларига бўлган талабини қондириш мақсадида мамлакатимиз нашриётларида мавжуд китобларнинг электрон каталогини яратиш ва тизимли равища янгилаб бориш.	2017 йил сентябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, «Шарқ» НМАК, «Ўзбекистон почтаси» АЖ, нашриётлар	Ижрочиларнинг қўшма қарори. Аҳолининг китоб маҳсулотларига бўлган эҳтиёжини қондиришда қулайликяратилади ва чоп этиладиган китобларни нашриётлардан ҳудудларга арzon нархларда етказиш, онлайн буюртма бериш ва уларни почта орқали китобхонларга етказиб бериш тизими жорий этилади.
4.	Аҳоли, айниқса ёшлар дунёқарашини кенгайтириш,	2017 йил октябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус	Ижрочиларнинг қўшма қарори. Экспертлар гуруҳи низоми тасдиқланади. Унда ижтимоий

	интеллектуал савиясини ўстириш, маънавий оламини бойитишга оид илмий-маърифий, бадиий адабиётлар (жумладан, электрон шаклда) бўйича умумий буюртмалар рўйхатини шакллантирувчи эксперталар гурӯҳини тузиш.		таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази, Ёзувчилар уюшмаси, «Ижтимоий фикр» жамоатчилик маркази, Интеллектуал мулк агентлиги, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи	сўровлар ёрдамида ёшларнинг дунёқарашини кенгайтириш, интеллектуал савиясини ўстиришга оид адабиётлар бўйича умумий буюртмалар рўйхатини шакллантириш, нашриётларнинг мавзуу режаларига тегишли таклифлар тайёрлаш, ташкилот ва муассасаларнинг «Маънавият хоналари», кутубхона ва таълим муассасаларини ёшлар маънавиятини юксалтиришга хизмат қиласиган адабиётлар билан бойитиш борасида холосалар тайёрланади.
5.	Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига таржима қилиш бўйича давлат буюртмалари бериш, уларни кўп нусхада юксак сифат билан нашр этиш ва молиялаштириш тизимини йўлга қўйиш, китоб тарқатиш тизимини янада ривожлантириш ва китоб маҳсулотларининг нархини шакллантириш ва сотиш бўйича аниқ механизмларни	2018 йил март	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Молия вазирлиги, Матбуот ва ахборот агентлиги, Фанлар академияси, Ёзувчилар уюшмаси, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Интеллектуал мулк агентлиги	Вазирлар Маҳкамаси қарори лойиҳаси. Лойиҳада жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига таржима қилишга давлат буюртмалари бериш тизимини йўлга қўйиш, мамлакатда китоб тарқатиш тизимини янада ривожлантириш ва ахолининг кенг қатламини камраб олиш, китоб маҳсулотларининг нархини шакллантириш ва сотиш бўйича аниқ механизмлари ишлаб чиқилади.

	ишилаб чиқиш чораларини белгилаш.			
6.	Ноширлик-матбаа, ахборот-кутубхона соҳаларига оид давлат стандартларини янада такомиллаштириш бўйича чоралар кўриш.	Ҳар йили режа асосида	«Ўзстандарт» агентлиги, Матбуот ва ахборот агентлиги	Соҳада тегишли стандартларни такомиллаштириш бўйича йиллик иш режалари. Ноширлик-матбаа ва ахборот-кутубхона соҳаларига оид давлат стандартларини халқаро стандарт нормалари асосида такомиллаштириш орқали сифатли китоб маҳсулотларини тайёрлашга ҳамда уларни хорижий мамлакатларга экспорт қилишга эришилади.
7.	Мазмунан саёз, ахлоқ меъёrlари, миллий маънавият ва қадриятларимизга мос келмайдиган, ёшлар тарбиясиغا салбий таъсир кўrsatiши мумкин бўлган адабиётларни тайёрлаш, босиб чиқариш ва тарқатишнинг олдини олиш чораларини кўриш.	Йил давомида	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Давлат солиқ қўmitаси, Давлат божхона қўmitаси, Ички ишлар вазирлиги, Ёзувчилар уюшмаси, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгashi, вилоятлар ва	Ижроиларнинг қўшма қарори. Нашриётлар фаолияти бўйича мониторинг ишлари олиб борилади ҳамда уларни хатловдан ўтқазиш, ноқонуний матбаа ва ноширлик фаолияти билан шуғулланувчи хўжалик субъектларини аниқлаш орқали уларга нисбатан қонун доирасида тегишли чоралар кўрилади.

			Тошкент шаҳри ҳокимликлари	
8.	Республика китоб дўконлари фаолиятини рағбатлантириш чораларини амалга ошириш.	2017 йил октябрь — декабрда н бошлаб ҳар йили	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ёзувчилар уюшмаси, «Махалла» фонди, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари	Ижрочиларнинг қўшма қарори. «Ҳар бир шаҳар ва қишлоқда — замонавий китоб дўкони» акцияси доирасида «Намунали китоб дўкони» республика танловини ташкил этиш ва ўтказиш. Китоб дўконлари фаолиятини қўллаб-кувватлаш орқали аҳолига намунали хизмат кўрсатиш сифати оширилади ҳамда жамиятда китобнинг ўрни ва аҳамияти кенг тарғиб этилади.

**III. Ахборот-кутубхона фаолиятини ривожлантириш, ахборот-ресурс марказлари ҳамда таълим муассасаларини ўқув адабиётлари, бадиий, маърифий, дунёқарашни кенгайтирадиган илмий-оммабоп китоблар билан бойитиш, уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш**

9.	Таълим муассасалари, ахборот-ресурс марказларининг кутубхона фондидарини кутубхоналар учун бадиий, маърифий, илмий-оммабоп, тарбиявий, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга йўналтирилган адабиётларни харид қилиш бўйича зарур бўлган молиявий манбаларни	2017 йил сентябрь	Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Маданият вазирлиги, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Республика Маънавият ва маърифат маркази	Таълим муассасалари, ахборот-ресурс марказларининг кутубхона фондидарини кутубхоналарни бадиий, маърифий, илмий-оммабоп, тарбиявий, ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишга хизмат қиласидаги адабиётлар билан таъминлаш тартиби ва меъёрлари тўғрисида низом лойиҳасини ҳамда адабиётларни босқичмабосқич етказиб бериш жадвали ишлаб чиқилади. Таълим ва маданият муассасалари учун адабиётларни харид қилиш тизимини такомиллаштиришга эришилади.
----	---	-------------------	--	---

	аниқлаш ва улар хисобидан ушбу муассасаларни китоблар билан таъминлаш чораларини кўриш.			
10.	Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиёти ҳамда жаҳон адабиётининг буюк бадиий намуналарининг аудио вариантларини яратиш, сотувга чиқариш ҳамда Интернет тармоғига жойлаштириш, энг сара асарларнинг Интернет тармоғидаги ягона электрон базасини яратиш ҳамда уларни ижтимоий тармоқларга жойлаштириш масалаларини ўрганиш ва аниқ амалий таклифлар тайёрлаш.	2017 йил ноябрь	Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Молия вазирлиги, Матбуот ва ахборот агентлиги, Интеллектуал мулк агентлиги, Ёзувчилар уюшмаси, нашриётлар	Ижрочиларнинг қўшма қарори. Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиёти ҳамда жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини китоб тарзида чоп этиш ва уларнинг электрон вариантларини кенг китобхонларга тақдим этиш, глобал Интернет тармоғи, жумладан, ижтимоий тармоқларда тарқатиш орқали ёш авлодни адабиётга меҳр-муҳаббат, миллий ғоя ва ватанпарварлик руҳида тарбиялашда китобнинг аҳамиятини оширишга эришилади.
11.	Лотин ёзувига асосланган янги ўзбек алифбосидаги илмий-техник, бадиий ва	2018 йил февраль	Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Матбуот ва ахборот	Вазирлар Маҳкамаси йиғилиши баёни. Лотин алифбосида олий ва ўрта маҳсус таълим муассасалари учун илмий-техник адабиётлар, шунингдек,

	энциклопедик адабиётларни янада кўпайтириш чораларини кўриш бўйича аниқ таклифлар тайёрлаш.		агентлиги, Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Фанлар академияси	12 жилдан иборат «Ўзбекистон миллий энциклопедияси»нинг тўлдирилган нашрини, ҳар йили кўшимча равишда «Энциклопедия йилнома»сини чоп этиш йўлга қўйилади.
12.	Ўзбекистонд а электрон ўқув қурилмалари (eReader)ни ишлаб чиқаришни ташкил этиш, уларга умумтаълим мактаблари дарслклари ва касб-хунар коллажлари, академик лицейлар учун ўқув адабиётларини жойлаштириш, уларни имтиёзли нархларда сотиб олиш механизмини ташкил қилиш бўйича таклифлар тайёрлаш.	2018 йил май	Ахборот технологиялари ва коммуникацияла ривожлантириш вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази, Иқтисодиёт вазирлиги, Матбуот ва ахборот агентлиги, «Ўзстандарт» агентлиги	Вазирлар Маҳкамаси йиғилиши баёни. Электрон ўқув қурилмалари (eReader)ни ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва амалиётга жорий этиш масалалари акс этади. Электрон ўқув қурилмаларини амалиётга жорий этиш орқали умумтаълим мактабларида дарслкларнинг этишмаслиги муаммоси ҳал этилади ҳамда қоғозни тежаш ва уни импорт қилиш ҳажмини камайтиришга эришилади.
13.	Қўлёзма ва китобларни тақриз қилиш, нашриётларнинг мавзу режаларини ишлаб чиқиша Ёзувчилар уюшмаси қошидаги бадиий кенгашлар билан	2017 йил сентябрь	Ёзувчилар уюшмаси, Матбуот ва ахборот агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази	Ижроиларнинг қўшма қарори. Сермазмун ва бадиий жиҳатдан юқори савиядаги адабиётлар нашр этилишига кўмаклашиш, барча жанрлардаги адабий-бадиий ҳамда публицистик асарларнинг бадиий етуклигини таъминлаш, умуминсоний қадриятларга,

	нашриётларнинг яқин ҳамкорлигини ташкил этиш.			ижтимоий мезонларга тўғри келмайдиган китоблар нашр этилишининг олдини олишга эришилади.
14.	Мамлакатим издаги ахборот-кутубхона муассасаларига ёшларни фаол жалб этиш борасидаги тадбирлар режасини ишлаб чиқиши.  Ахборот-кутубхона муассасаларида «Китобхонлар клуби»ни ташкил этиш.	2017 йил сентябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази, Ёзувчилар уюшмаси, Республика Маънавият ва маърифат маркази	Ижрочиларнинг қўшма қарори.  Мунтазам равишда фаолият кўрсатадиган китоб кўргазмалари, ёшлар билан сухбатлар, янги нашрлар тақдимотларини ташкил этиш орқали аҳолини жаҳон адабиётининг таржима қилинган энг яхши намуналари билан таништириш, ахборот маданияти ва замонавий мутолаа маданиятини ва фикрлаш савиясини янада ошириш мақсадида ижтимоий фаол ёшларни кўнгиллилар харакатига жалб этиш, кутубхоначи ва тарғиботчилар орасида турли танловлар ўtkазиш масалалари қамраб олинади.
15.	Ахборот-кутубхона муассасаларини Республика, маҳаллий вақтли нашрлари, бадиий адабиётлар билан доимий тўлдириб бориши борасида республика нашриётлари ҳамкорлигини такомиллаштириш.	2017 йил сентябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази	Ижрочиларнинг қўшма қарори.  Ахборот-кутубхона муассасалари фондларини таъминлашнинг марказлаштирилган тизимини ташкил этиш борасида кутубхона коллектори билан ишлаш бўйича марказлаштирилган ахборот тизими такомиллашади ва нашриётлар билан ҳамкорлик йўлга қўйилади.
16.	Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ва ахборот-	2018 йил ноябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ахборот-	Ижрочиларнинг қўшма қарори.  Лойиҳани амалга ошириш орқали аҳоли ва китобхонлар

	кутубхона марказларидаги барча турдаги ахборот-кутубхона ресурсларининг ягона базасини шакллантириш ва ундан бошқа ахборот-кутубхона муассасаларида туриб фойдаланишни таъминлаш.		кутубхона марказлари, Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги, Маданият вазирлиги	учун барча турдаги ахборот-кутубхона ресурслари, уларнинг жойлашган ўрни тўғрисидаги маълумотларни тақдим этиш, шу билан бирга, электрон ахборот-кутубхона ресурсларидан исталган жойда туриб фойдаланиш учун шароитлар яратилади.
17.	Қишлоқ аҳолисига кутубхона хизмати кўрсатиш тизимини ташкил этиш чоралари тўғрисида тадбирлар режаси лойиҳасини тайёрлаш.	2017 йил ноябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ахборот-кутубхона марказлари, Молия вазирлиги, Маданият вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари	Вазирлар Маҳкамаси ийғилиши баёни. Туман марказларидан узоқда жойлашган аҳолининг китобга бўлган талабини қондириш мақсадида бадиий, илмий, маърифий китоблар билан таъминланган ва замонавий электрон ускуналар билан жиҳозланган «Библиобус»лар ташкил этган холда хизмат кўрсатиш йўлга кўйилади.
18.	Тошкент шаҳридаги «Билим», Тошкент вилоятидаги «Гурон» ахборот-кутубхона марказлари учун янги бино ажратиш ҳамда Самарқанд, Андижон, Хоразм ахборот-	2018 йил февраль	Иқтисодиёт вазирлиги, Молия вазирлиги, Маданият вазирлиги, Тошкент шаҳри, Тошкент, Самарқанд, Андижон, Хоразм вилоятлари ҳокимликлари	Вазирлар Маҳкамасининг қарори лойиҳаси. Аҳолига кутубхона хизматини кўрсатиш сифатини оширишга эришилади ҳамда фондлардаги ресурсларни тегишли тарзда сақлаш учун шароитлар яратилади.

	кутубхона муассасалари биноларини капитал таъмирлаш ва жиҳозлаш бўйича таклифлар тайёрлаш.			
19.	Жамоат жойларида QR- кодлар ёрдамида Ўзбекистон Миллий кутубхонаси электрон китоблари тўғрисидаги маълумотларни маҳсус таблоларда жойлаштириш ва уларни мобил курилмаларга юклаб олиш ва ўқиши имкониятини яратиш.	2018 йил ноябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ, «Ўзбекистон ҳаво йўллари» АҚ, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Қорақалпоғисто н Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари	Ижрочиларнинг қўшма қарори. Жамоат жойларида, вокзаллар ва аэропортларнинг кутиш залларида, автобус бекатларида QR-кодлар (штрих кодлар) ёпиширилган кутубхона таблоларини жойлаштириш орқали ёшларнинг китобларни замонавий мобил курилмаларида ўқиши ва электрон нусхаларини юклаб олиши учун имкон яратилади.
20.	Электрон турдаги ахборот- кутубхона ресурсларини кўпайтириш ва улардан Интернет тармоғи орқали фойдаланиш дастурини ишлаб чиқиши.	2018 йил июль	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ахбор от технологиялари ва коммуникацияла рини ривожлантириш вазирлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги	Ижрочиларнинг қўшма қарори. «Миллий умумтаълим электрон қутубхона» лойиҳаси бўйича яратиладиган электрон нусхалар ҳамда мультимедиа маҳсулотларидан масофадан туриб фойдаланиш учун шароитлар яратилади.

21.	«Infolib Uzbekistan» миллий ахборот-кутубхона хафталигини ташкил этиш ва ўтказиш.	2017 йил ноябрь-декабрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги	Ижрочиларнинг қўшма қарори. Хафталик доирасида турли мавзуларда онлайн конференциялар ташкил этиш орқали аҳоли, айниқса, ёш авлоднинг кутубхона хизматларидан фойдаланиш қўнималари шакллантирилади.
22.	Таълим муассасаларида синфдан ташқари ўқиши учун тавсия этилган ўзбек ва чет эл адибларининг мумтоз ва замонавий асарларини танлаб, хрестоматия адабиётлари рўйхатларини қайта кўриб чиқиши.	2017 йил август-сентябрь	Халқ таълими вазирлиги, Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази, «Оила» илмий-амалий маркази, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ўзбекистон ёшлилар иттифоқи	Ижрочилар вакилларидан иборат комиссиянинг иш режаси. Таълим муассасалари ўқувчиларига тавсия этилган адабиётлар қайта хатловдан ўтказилади. Ўқувчиларнинг ёш хусусиятидан келиб чиқиб, синфдан ташқари ўқиши учун адабиётларнинг янгиланган рўйхати бўйича тавсиялар ишлаб чиқилади.

#### **IV. Ноширлар, матбаачилар, ахборот-кутубхона ходимларини тайёрлаш, малакасини ошириш ва рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш**

23.	Ахборот-кутубхона кадрлари фаолиятини кўллаб-қувватлаш тадбирларини ишлаб чиқиши.	2017 йил сентябрь	Маданият вазирлиги, Матбуот ва ахборот агентлиги, Мехнат вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази	Ижрочиларнинг тадбирлар режаси. «Ахборот-кутубхона муассасасининг энг яхши мутахассиси» номинацияси учун миллий касбий танловни ташкил этиш, ахборот-кутубхона муассасалари мутахассисларига методик ёрдам кўрсатиш мақсадида сайёр ўкув семинарларини ташкил қилиш, етакчи миллий, жумладан, чет эл кутубхоналарида малака оширишни ташкил этиш
-----	---	-------------------	---	---

				тадбирлари назарда тутилади.
24.	Ноширлар ва матбаа ходимлари малакасини ошириш ва рағбатлантириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш.	2017 йил сентябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Ёзувчилар уюшмаси, Республика Маънавият ва маърифат маркази	Ижрочиларнинг қўшма қарори ва дастури. Касбий малака ва кўнималарни оширишнинг қисқа ўкув курсларини ташкил этиш, миллий ва хорижий тажрибадан келиб чиқсан холда давра сұхбатлари, семинар ва конференциялар ўтказиш, ўкув қўлланмалари яратиш орқали ношир ва матбаа ходимларининг малакаси оширилади. Чоп этилаётган китоб маҳсулотлари сифати яхшиланади.
25.	Ноширлар ва матбаачиларни рағбатлантириш чораларини белгилаш.	Ҳар йили	Матбуот ва ахборот агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи	«Ёшларнинг энг севимли китоби», «Йилнинг энг яхши китоби» каби республика кўрик-танловларини ташкил этиш ва ўтказиш юзасидан ижрочиларнинг қўшма қарори.

## **V. Китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш борасида тарғибот-ташвиқот ишларини самарали ва тизимли ташкил этиш**

26.	Аҳоли, айниқса, ўсиб келаётган ёш авлод ўртасида китобхонлик маданиятини ривожлантириш ва адабий меросни кенг тарғиб қилиш, муаллиф ва ноширларни маънавий рағбатлантиришга қаратилган	Ҳар йили май, сентябрь	Матбуот ва ахборот агентлиги, Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги, Хотин-қизлар қўмитаси, Республика Маънавият ва маърифат	Вазирлар Махкамаси йиғилиши баёни. «Ёшларнинг маънавий оламини шакллантиришда кутубхоналар ўрни», «Ўзбек миллий-маданий меросини тарғиб этишда кутубхоналарнинг ўрни» мавзуларида илмий-амалий анжуманлар, «Китоб байрами», «Болалар китоби» республика фестивали, «Ёшларнинг энг севимли китоби», «Йилнинг энг яхши китоби» республика кўрик-
-----	--	------------------------	---	---

	чораларни белгилаш.		маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри хокимликлари	танловларини ўтказиш ҳамда Зулфия номидаги давлат мукофотининг адабиёт йўналиши бўйича совриндорларининг ижод намуналарини тарғиб қилиш.
27.	Мамлакатим издаги етакчи адабий-бадиий, ижтимоий-маърифий даврий босма нашрларда миллий мумтоз ва замонавий адабиётимиз намуналарини кенг тарғиб қилишни тизимли амалга ошириш.	Доимий	Матбуот ва ахборот агентлиги, Ёзувчилар уюшмаси, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», «Китоб дунёси», «Шарқ зиёси», «Оила даврасида» газеталари, «Шарқ юлдузи», «Тафаккур», «Маънавий ҳаёт», «Ёшлиқ» журналлари	Марказий нашриётларда чоп этилган янги нашрлар билан таништириш, улар хақида ёзувчилар, адабий танқидчилар ва китобхонларнинг фикр-мулоҳазаларини ёритиб бориш орқали аҳолида китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ривожлантиришга ҳисса қўшилади.  «Маънавият ва миллий қадриятлар тарғиботида адаб ва ношир масъулияти ҳамда китобнинг ўрни» мавзусида туркум мақолалар эълон қилиб борилади.
28.	«Маданият ва маърифат» телеканалида китобхонлик, китоб ўқиш ва китоб мутолааси маданиятини ошириш ҳамда янги нашрдан чиқсан бадиий адабиётлар муҳокамасига йўналтирилган ток-шоу ташкил	Мунтазам	Миллий телерадиокомпания, Ёзувчилар уюшмаси, Матбуот ва ахборот агентлиги, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Республика Маънавият ва маърифат маркази, «Шарқ» НМАК	Ижрочиларнинг қўшма медиа-режаси.  Ток-шоуларда аҳолининг китобхонлик, китоб ўқиш маданиятини ошириш, шунингдек бадиий, маърифий, илмий-оммабоп, тарбиявий ҳамда тарихий китоблар ва маънавий-бадиий жиҳатдан юксак савиядаги адабиётларнинг аҳоли ўртасида кенг тарғиботи йўлга қўйилади.

	этиш.			
29.	Электрон оммавий ахборот воситаларида китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ривожлантириш ҳамда бу китобларнинг тарғибот-ташвиқотини олиб боришни изчил йўлга кўйиши.	Доимий	Электрон оммавий воситалари миллий ассоциацияси, Миллий телерадиокомпания, Ёзувчилар уюшмаси, Матбуот ва ахборот агентлиги, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, «Шарқ» НМАК	Ижрочиларнинг қўшма медиа-режаси. Турли мавзуларга оид совринли интеллектуал телевикториналар орқали ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини юксалтиришга қаратилган адабиётлар тарғиботи тизимли йўлга қўйилади ва қадриятларимизни асрabbавайлаш ва улуғлашга берилаётган эътибор жамоатчиликка етказилади.
30.	Таълим, ахборот кутубхона муассасалари, маҳаллаларда китоб муаллифлари билан ижодий учрашувларни тизимли равишда ташкил этиши.	Доимий	Олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Ўрта маҳсус, касб-хунар таълими маркази, Ёзувчилар уюшмаси, Матбуот ва ахборот агентлиги, «Маҳалла» фонди, Республика Маънавият тарғибот маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи	Ижрочиларнинг қўшма қарори билан тасдиқланадиган амалий режа. Республика таълим муассасалари ва ахборот-ресурс марказларида «Ёшлар дунёсида китобнинг ўрни» тадбирлар режасига мувофиқ халқимизнинг маънавий мулкига айланган китоблар тарғиботи, ёшларнинг бирбирига китоб совға қилишларини кенг оммалаштириш, маънавиятга қарши қаратилган хуружларнинг реал хавфи хақида атрофлича муҳокама олиб борилади.
31.	Мактабгача ва умумий ўрта таълим, ўрта маҳсус касб-хунар таълим муассасалари ўкувчилари, олий	Доимий	Халқ таълими вазирлиги, «Оила» илмий-амалий маркази, Матбуот ва ахборот агентлиги,	Ижрочиларнинг қўшма қарори ва амалий режаси. «Китобим — офтобим» тадбирлар режасига мувофиқ болаларнинг китоб мутолааси кўникмаларини шакллантириш, ота-оналарга

	ўқув юртлари талабаларининг мутолаа маданияти ва китобхонлик кўникмаларини шакллантиришга қаратилган чоратадбирларни белгилаш.		Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи	фарзандларининг китоб ўқишига меҳр қўйишга доир тавсиялар бериб борилади.
32.	Мактабгача ва умумий ўрга таълим, ўрга махсус касбхунар таълим муассасалари ўқувчилари, олий ўқув юртлари талабаларининг мутолаа маданияти ва китобхонлик кўникмаларини шакллантириш бўйича методик тавсиялар ишлаб чиқиши.	2017 йил сентябрь	Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрга махсус таълим вазирлиги, Республика таълим маркази, Республика болалар кутубхонаси	Ижрочиларнинг чоратадбирлар режаси. Тарбиячи ва ўқитувчилар учун методик тавсиялар ишлаб чиқилади ва семинартренинглар ўtkазиб борилади.
33.	Маҳалла фуқаролар йиғинларида кутубхоналар (китоблар бурчаги) ташкил этиш чоратадбирларини амалга ошириш юзасидан таклифлар киритиши.	2017 йил октябрь	«Маҳалла» фонди, Матбуот ва ахборот агентлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази	Вазирлар Маҳкамаси йиғилиши баёни. Маҳалла фуқаролар йиғинларида кутубхоналар (китоблар бурчаги)ни ташкил этиш ва улар фаолиятини юритиш тартиби бўйича тавсиялар ишлаб чиқилади.
34.	Таълим муассасаларида ўқув жараёнига мутолаа қилинганд асарлар асосида	2017 йил сентябрь — 2018 йил май	Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрга махсус таълим вазирлиги, Ўрга	Вазирлар Маҳкамаси йиғилиши баёни. Таълим муассасаларида ҳар ўқув йилида «Мен севган асар», «Мен севган адабий

	иншо ёзиш тизимини жорий этиш, адабиёт тўгаракларини ташкил этиш ва фаолиятини моддий кўллаб-куватлаш тизимини қайта кўриб чиқиш.		махсус, касб-хунар таълими маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, Республика Маънавият ва маърифат маркази	қаҳрамон», «Мен нечун севаман Ўзбекистонни» каби мавзуларда иншолар танлови ташкил этилади ва ғолиблар моддий ва маънавий рағбатлантирилади.
35.	Худудларда ёзувчилар, шоирлар ва олимлар иштирокида китоб байрами ва ярмаркаларини ташкил этиш, аҳоли ўртасида миллий ва жаҳон мумтоз адабиётиning юксак намуналарини тарғиб қилиш.	Доимий	Ёзувчилар уюшмаси, Xалқ таълими вазирлиги, Маданият вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Мудофаа вазирлиги, Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ўзбекистон ёшлар иттифоқи, «Оила» илмий-амалий маркази, «Маҳалла» фонди, Матбуот ва ахборот агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари	<p>Вазирлар Маҳкамаси йиғилиши баёни.</p> <p>Худудларда китоб байрами ва ярмаркаларини ташкил этиш, аҳоли ўртасида миллий ва жаҳон мумтоз адабиётиning юксак намуналарини тарғиб қилиш, жумладан нашриётлар, китобхонлар ҳамда кутубхоначи ва тарғиботчилар орасида «Йилнинг энг яхши китоби», «Энг китобхон мактаб», «Энг китобхон маҳалла» «Энг китобхон оила», «Йилнинг энг яхши болалар китоби», «Йилнинг энг яхши аудио китоби», «Йилнинг энг яхши электрон китоби» каби танловлар ўтказиш ҳақидаги низом тасдиқланади.</p> <p>Ноширлар ва муаллиф адилларни эришган ютуқларидан келиб чиқиб, доимий молиявий рағбатлантириш тизими шаклланади.</p>

(Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 38-сон, 1029-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий

*базаси, 11.12.2019 й., 06/19/5892/4134-соң, 13.12.2019 й.,  
06/19/5893/4150-соң)*

## Mundarija

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>1- BOB. KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING MOHIYATI, ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI .....</b>	<b>5</b>
1.1. Kutubxonashunoslik fanining ilmiy va o'quv predmeti sifatida paydo bo'lishi va rivojlanish davri (XIX asr.) .....	5
1.2. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi va istiqboli .....	7
1.3. Zamonaviy kutubxonashunoslik fanining vazifalari va tuzilmasi.....	16
<b>2- BOB. O'ZBEKISTONDA KUTUBXONASHUNOSLIK FANI NAZARIYASINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI..</b>	<b>20</b>
2.1. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi (1919-1945 yillar) .....	20
2.2. O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanini tabaqaalanishi va ixtisoslashuvi (1946-1974 yillar).....	23
2.3. Respublikada kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi (1975-1990 yillar) .....	26
2.4. Mustaqillik yillarda kutubxonashunoslik fanining rivojlantirish (1991 yildan keyingi davr) .....	34
<b>3- BOB. KUTUBXONASHUNOSLIK FANINING METODOLOGIYASI VA METODLARI, UNI BOSHQA FANLAR BILAN BOG'LQLIGI .....</b>	<b>37</b>
3.1. Kutubxonashunoslik fanining metodologiyasi .....	37
3.2. Kutubxonashunoslik fanining metodlari (ilmiy usullari).....	42
3.3. Ilmiy bilimlar tizimida kutubxonashunoslik fanining o'rni (statusi).....	50
<b>4- BOB. O'ZBEKISTONDA AXBOROT - KUTUBXONA MUASSASALARI TARMOG'I VA ULARNI RIVOJLANTIRISH .....</b>	<b>59</b>
4.1. "Kutubxonalar tipologiyasi" tushunchasi va nazariyasining rivojlanishi .....	59
4.2. O'zbekistondagi maxsus axborot-kutubxona muassasalari .....	67
4.3. O'zbekistonda axborot - kutubxona muassasalarining ijtimoiy vazifalar haqidagi konsepsiya.....	72

<b>5- BOB. AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARINING TARKIBIY TUZILMASI VA FAOLIYATLARI TAHЛИLI .....</b>	<b>77</b>
5.1. Axborot-kutubxona muassasalar haqidagi nazariy bilimlarga kirish. Kutubxonalarning ijtimoiy vazifalari .....	77
5.2. Axborot - kutubxona muassasalarining tarkibiy tuzilmasi va asosiy elementlari xarakteristikasi .....	81
5.3. Axborot-kutubxona muassasalarining faoliyatlarini xarakateristikasi .....	85
5.4. Axborot-kutubxona muassasalarining tashkiliy tuzilmasi .....	88
<b>6- BOB. KUTUBXONACHILIK KASBINING ASOSIY TALABLARI .....</b>	<b>92</b>
6.1. Kutubxonachi shaxsiga bo'lgan umumkasbiy talablar .....	92
6.2. Kutubxonachi kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish .....	95
6.3. Axborot-kutubxona faoliyati va kutubxonachilik mutaxassisligi turlari .....	99
<b>7- BOB AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATI IJTIMOIY TIZIM SIFATIDA.....</b>	<b>107</b>
7.1. Axborot-kutubxona faoliyatining tuzilmasi. Axborot-kutubxona faoliyatini tashkil etish va faoliyat ko'rsatishining asosiy tamoyillari .....	107
7.2. Axborot-kutubxona faoliyati tizimlarini ob'ektiv qonuniyatlarga asoslangan holda shakllanishi .....	117
<b>8- BOB. AXBOROT-KUTUBXONA FAOLIYATINI BOSHQARISH TIZIMI .....</b>	<b>123</b>
8.1. Axborot-kutubxona faoliyatini boshqarish asoslari .....	123
8.2. Davlat boshqaruvi organlari. Kasbiy boshqaruvi organlari .....	124
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>131</b>

B.I.Ganiyeva, M.X.Maxmudov,  
S.R.Arakelov, G.E.Ziyodullayeva

## KUTUBXONASHUNOSLIK

(Darslik).

Toshkent – «Aloqachi» – 2020

Muharrir:	Q.Matqurbanov
Tex. muharrir:	A.Tog‘ayev
Musavvir:	B.Esanov
Musahhiha:	G.Tog‘ayeva
Kompyuterda sahifalovchi:	B.Berdimurodov

Nashr.lits. AI №176. 11.06.11.  
Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2020. Bichimi 60x841 /16.  
Shartli bosma tabog‘i 13,0. Nashr bosma tabog‘i 12,75.  
Adadi 100. Buyurtma № 153.

«Nihol print» Ok da chop etildi.  
Toshkent sh., M. Ashrafiy ko‘chasi, 99/101.